Lingvistik intellekt – bu og’zaki va yozma tildan foydalanish, tushunish, gapirish va yozish qobiliyati bo’lib inson-sun’iy intellekt va sun’iy intellekt-sun’iy intellekt muloqotida muhim ahamiyatga ega.

Axloq **–** bu sun’iy intellektning insonlar, boshqa sun’iy intellekt vositalari bilan o’zaro munosabatida xulq-atvorni hisobga olish, odob qoidalar va qonunlarga rioya etishni nazarda tutadi. Russell va Norvigning “barcha SI tadqiqotchilari o‘z ishlarining axloqiy oqibatlari bilan shug’ullanishlari kerak” [3] kabi chaqiriqlari ayni texnologiyada axloqning muhimligini ko’rsatadi.

Sun’iy intellektning yuqoridagi xususiyatlari umumiy sun’iy intellektni yaratish va u bilan faoliyat yuritishda ma’lum imkoniyat va chaklovlarni taqdim etadi. Bu imkoniyat va cheklovlar texnologiyaning keyingi rivojlanish bosqichida insoniy qadriyatlarni ardoqlovchi, axloqiy normalarga javob beruvchi aqlliy tizimlarning yaratilishi va ular bilan ishlash jarayonida samarali natijalarni taqdim etishi mumkin.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida sun’iy intellekt ta’limini amalga oshirishda axloqiy tamoyillarni sun’iy intellektning asosiy xususiyatlari bilan bog’lash o’quvchilarda texnologiyadan foydalanish va uni yaratishda ma’suliyatli bo’lishga, shaxs huquq va erkinliklarini hurmat qilishga, shaxsiy ma’lumotlarning daxlsizligini taminlashga o’rgatishi mumkin.

Sun’iy intellekt elementlari. Sun’iy intellektni o‘qitishda o’quvchilarning informatik va dasturlashga doir bilim va ko‘nikmalarining yetarli bo’lishi muhim bo’lib bu o’quvchilarga raqamlashgan dunyoda yashash va ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirishni osonlashtiradi [4]. Informatika va AT fani doirasida sun’iy intellektning ma’lum elementi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

asosida ishlovchi dastur yoki qurilmani yaratishda o‘quvchilarning dasturlash bo‘yicha boshlang’ich bilimga ega bo‘lishi talab etadi. Shuningdek, ma’lumotlar bilan to‘g’ri va samarali ishlash uchun ma’lumotlar bazasi va kompyuter grafikasi kabi yo‘nalishlarda ham muayyan ko‘nikmaga ega bo‘lishi lozim. Bu o’quvchilarda sun’iy intellekt va uning ishlash faoliyatini yanada yaxshiroq tushunish, undan to’g’ri foydalanish va yaratishda muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga o‘quvchilar zaruriy bilimlarni amaliy faoliyat bilan shug’illangan holda o‘rganishlari mumkin bo‘ladi. Sun’iy intellekt elementlariga doir qarashlar Keresztesining tadqiqotida sun’iy intellektni rivojlantirishda muhim omil sifatida qaraladi [5].

Sun’iy intellekt elementlarini aniqlashda joriy texnologiyani umumiy yaxlit tizim deb qarash kerakligini hisobga olish talab etiladi. Ushbu tizimni tashkil etuvchi asosiy elementlar esa bugungi kungacha yaratilgan sun’iy intellekt dasturlari va vositalarining texnologik tashkil etuvchilarini o’rganish orqali aniqlanadi. Tadqiqot ishida ChatGPT, Google Bard, Microsoft Copilot, GEMINI, IBM Watson, Sofia, yuzni aniqlash, aqlliy kuzatuv, mashinani avtonom boshqarish kabi dasturiy vositalar tahlil qilindi. Ushbu dasturiy vositalar ishlashida Mashinani o’qitish, Chuqur o’rganish, Tabiiy tilni qayta ishlash, Kompyuter ko’rishi, Noaniq mantiq kabi asosiy elementlardan tashkil topganligini ilmiy manbalarga asoslanib aniqlandi [6], [7], [8], [9], [10], [11].

Shuningdek, sun’iy intellekt tushunchasiga berilgan ta’riflarida insonga xos xususiyatlar ushbu texnologiyada borligi haqida qarashlarni uchratish mumkin. Masalan, “sun’iy intellekt inson xatti-harakati sifatida mustaqil ravishda fikr yuritish, o'rganish va harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan modeli” sifatida tavsiflanadi [12]. Yoki “sun’iy intellekt madaniy va demografik vaziyatlarni hisobga olgan holda o'ziga yuklangan vazifaning talablariga javob berish yoki undan oshib ketish qobiliyatiga ega bo'lgan g'ayritabiiy ob'ekt hisoblanadi”[13] kabi ta’riflarni ko’rish mumkin.

Ushbu ta’riflardan kelib chiqqan holda sun’iy intellekt bu insonning fikrlashi, uning his-tuyg’ulari va harakatlariga taqlid qiluvchi uning kasbiy imkoniyatlarini o’zida mujassam etgan vosita sifatida ko’rish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda sun’iy intellektning fizik harakatini ta’minlovchi robototexnika va uning biror sohadaga yo’naltirilgan kasbiy faoliyatini izohlovchi ekspert tizimlari kabi elementlarini ham asosiy elementlar qatoriga qo’shish mumkin. Keyingi tadqiqot ishlarimizda uning ilmiy, nazariy ahamiyatini adabiyotlar tahlili orqali aniqlashga alohida to’xtalib o’tamiz.

Sun’iy intellekt elementlarining muhimlilik darajasiga ko’ra tartiblashda Google Scholar va Scopus kabi ilmiy axborotlar bazalarida mavjud ilmiy manbalarning nomida “sun’iy intellekt” va “element nomi” birgalikda kelgan manbalar sonini o’zaro taqqoslashdan foydalanildi. Mavjud manbalarning ko’pligi va ularning ma’lum shaklini tanlash bog’liqlik ahamiyatiga salbiy ta’sir ko’rsatishini hisobga olgan holda faqat 2023-yilda chop etilgan ilmiy manbalarni tanlash belgilab olindi.

Sciencedirect va Google Scholar tizimlaridan maxsus qidiruv kalit so’zlari orqali qidiruv iarayonini bir-biriga o’xshash natijalarni taqdim etdi. Unga ko’ra sun’iy intellektning mashinani o’qitish elementiga doir ilmiy manbalar soni eng ko’p ekanligi keyingi o’rinda

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8


chuqur o'rganish elementi turishi aniqlandi. Ohirgi o'rinlarda mos ravishda noaniq mantiq va ekspert tizimlari elementlari egalladi. Qidiruv natijalariga ko'ra scincedirect ilmiy bazasidan topilgan ilmiy manbalar teskari tartibda (yuqoridan pastga) saralangan holda jadvalga joylashtirildi. Qidiruv natijalarini quyidagi 1-jadvalda ko'rish mumkin.

1-jadval. Maxsus qidiruv kalit so'zlari orqali olingan natijalar.

Qidiruv kalit so'zlari	**Element nomi**	**Ilmiy axborot bazasi**	
		Sciencedirect	**Google Schoolar**
"Artificial Intelligence" and "Machine Learning"	Mashinani o'qitish	22176	181000
"Artificial Intelligence" and "Deep Learning"	Chuqur o'rganish	15749	142000
"Artificial Intelligence" and "Robotics"	Robototexnika	7073	71700
"Artificial Intelligence" and "Computer Vision"	Kompyuter ko'rishi	5207	133000
"Artificial Intelligence" and "Natural Language Processing"	Tabiiy tilni qayta ishlash	4186	81500
"Artificial Intelligence" and "Fuzzy Logic"	Noaniq mantiq	2160	21300
"Artificial intelligence" and "Expert system"	Ekspert tizimlari	1769	21300

Sciencedirect ilmiy axborotlar bazasidan maxsus qidiruv kalit so'zlari orqali olingan ilmiy manbalar soni 58320 tani (8.2%) tashkil etgan bo'lsa, Google Schoolarda bu ko'rsatkicha 651800 (91.8%) tani tashkil etdi. Topilmalardagi farqning kattaligiga asosiy sabab Scopus ilmiy bazasida ilmiy manbalar yoki nashriyotlarni indekslash murakkabligidir. Ushbu murakkab indekslash tizimi ilmiy manbaning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga ilmiy natijalarning ishonchliligini oshirishga hizmat qiladi.


ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8



2-rasm. Google Scholar va Sciencedirect ilmiy axborot bazalarida maxsus kalit so'zlar orqali amalga oshirilgan qidiruv ishlari natijalari.

Ushbu natijalar sun'iy intellektning asosiy elmentlarini muhimlik darajasiga ko'ra saralash imkoniyatini taqdim etdi. Biroq, uni keng mashtabda har bir ilmiy adabiyotning o'rganilayotgan elementga mazmunan yo'naltirilganligi hamda elementning qo'llanilish sonini tahlil qilish orqali yanada aniqroq tahlil qilish imkoniyati saqlanib qolmoqda.

Maktabda, sun'iy intellekt texnologiyalarini o'qitish quyidagi sun'iy intellekt elementlari (3-rasm) orqali samarali amalga oshirilishi mumkin:



3-rasm. Sun'iy intellekt elementlari

Mashinani o'qitish–bu raqamli qurulmalarning muammolarni hal qilishda ma'lumotlarni saralash, qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatini taqdim etuvchi sun'iy intellekt elementi hisoblanadi. Mashina o'qitish texnologiyasining asosiy maqsadi mavjud ma'lumotlar asosida o'rganish va prognozlashga yordam beruvchi algoritimik modellarni yaratishdir [14]. Bu kabi modellar sun'iy intellekt texnologiyasiga muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va jarayonni oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi. Shuningdek, mashinani o'qitish sun'iy neyron tarmoqlari va chuqur o'rganish texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Neyron tarmoqlari bog'langan tugunlar yordamida biologik miyani modellashtirishda

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

qo‘llaniladi. Bu modellar mashinani o‘qitish elementining muammolarni aniqlash va yechish ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir qiladi.

Mashinani o‘qitish texnologiyasi quyidagi 3 ta yo‘nalish asosida rivojlanmoqda:

1. Nazorat ostida o‘rganish
2. Nazoratsiz o‘rganish
3. Kuchaytirilgan o‘rganish

Mashinani o‘qitish elementi katta ma’lumotlar va statistik algoritmlarga tayanadi. Ushbu elementni ma’lumotlardan bilim olish san’ati sifatida ham e’tirof etish mumkin. Ayniqsa, ikki asr avval yaratilgan chiziqli regressiya va Bayes statistikasi kabi usullar bugungi kunda ham mashinani o‘qitishning asosiy usullari qatoriga kiradi. Bugungi kunda CHatGPT va boshqa ko’plab katta til modellari sun’iy intellektning mashinani o’qitish elementi asosida yanada rivojlanib bormoqda.

Chuqur o‘rganish – bu jarayonlarni sun’iy neyron tarmoqlari asosida o‘rganish va tahlil qilishga qaratilgan mashinani o‘qitishning rivojlangan sohasidir. Mashinani o‘qitishning bir qismi sifatida rivojlanayotgan chuqur o‘rganish texnologiyasi Big Data, tabiiy tilni qayta ishlash, nutqni aniqlash, biometrik xaritalash, tarmoq xavfsizlik, o‘zini o‘zi boshqaradigan mashinalar va virtual yordamchilarni yaratishda qo‘llanilmoqda. Chuqur o‘rganish murakkab tarmoqlanuvchi algoritmlardan foydalangan holda jarayonni aniqlash yoki muammoga yechim taqdim etish imkoniyatiga ega. Sun’iy neyron tarmoqlari asosida ishlovchi chuqur o‘rganish elementi yashirin Markov modeli va Boltzman mashinalari modeli kabi ma’lumotlarni sifatli tahlil qilish imkoniyatini beruvchi usullardan foydalanadi. Sun’iy neyron tarmoqlari inson miyasiga o‘xshash qatlamli tuzilishga ega bo‘lgan o‘zaro bog'langan tugunlar yoki neyronlardan foydalanadi [15]. Sun’iy intellektning ushbu elementi aqlliy tizimlarga ma'lumotlarni inson miya faoliyatiga taqlid qiluvchi model yordamida qayta ishlashga o‘rgatadi. Chuqur o’rganish elementi Google qidiruv tizimi, Google tarjimon dasturi, virtual asistentlar va boshqa ko’plab amaliy dasturlarni rivojlantirishda qo’llanilmoqda.

Tabiiy tilni qayta ishlash **–** yaratilayotgan mashinalarga inson tilini tushunish va javob berish qobiliyatini taqdim etuvchi sun’iy intellekt elementlaridan biridir. Tabiiy tilni qayta ishlash yozuv matni, audio yoki inson ovozini to‘gridan-to‘g’ri qabul qilgan holda uni anglashi va unga mos ma’lum munosabatni bildirishi mumkin. Tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalaridan ijtimoiy tarmoqlarda ovozli ma’lumtolarni filtrlash (Twitter va Facebook), aqlliy tarjimon dasturlari (Google translate, Yandex translate va boshqalar), virtual yordamchilar (Siri, Alexa, Google Assistant va boshqalar) va boshqa ko‘plab dastur va hizmatlar ko‘rinishida kundalik hayotda qo‘llanilmoqda.

Robototexnika – bu sun’iy intellektning insonlar kabi ko‘rinishga ega bo‘lgan robotlarni yaratish tarmog’i hisoblanadi. Robotlarning konstruksiyasi yani uning qisimlarini harakatga keltirish va ularga ma’lum bir vazifalarni yuklash sun’iy intellekt orqali amalga oshiriladi. Biroq robot qismlarini harakat va faoliyat uchun mos holda ishlab chiqish zarur. Bu maxsus fizik jismlarni talab etadi. Sun’iy intellektning robototexnika elementi kelajakda nafaqat inson kabi fikrlaydigan balki u kabi haraklanuvchi mukammal sun’iy insonlarni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

yaratishga hizmat qilishi mumkin. Bugun robotlar ofitsant, oshpaz, uchuvchi yoki yaqin do‘st vazifalarini bajarishmoqda.

Noaniq mantiq – bu aniq bilim yoki ko‘rsatma bo‘lmagan vaqtda inson kabi mulohaza yuritib ma’lum bir masalalarni hal etishga qaratilgan sun’iy intellekt elementi hisoblanadi. Noaniq mantiqning ishlash prinsipi cheklangan bilimga asoslangan holda ma’lum bir vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan. Noaniq mantiq turli sohalarda qarorlarni qabul qilishni o‘z ichiga olgan murakkab muammolarni hal qilishda qo’llaniladi.

Shuningdek, avtomat uzatmalar qutisi, avtotransport muhitini boshqarish va boshqalarda qo‘llaniladi. Bu element bevosita mashinani o‘qitish texnologiyasida cheklangan ma’lumotlarga asoslanib qaror qabul qilishda yordam beradi. Noaniq mantiq ba’zi adabiyotlarda “loyqa mantiq” yoki “bulaniq mantiq” deb yurutilganini ko‘rish mumkin. Noaniq mantiq umumiy o‘rta ta’lim maktabi 9-sinf informatika darsligida berilgan mantiq asoslariga oid kontentdan faqrli ravishda “rost” yoki “yolg’on” natija bilan cheklanmaydi. Bu yaratilayotgan sun’iy intellekt texnologiyalarining muammolarni hal etishda aniqroq yechimlarni taqdim etishiga olib keladi. Noaniq mantiq elementi chuqur o‘rganish va tabiiy tilni qayta ishlash kabi elementlar bilan birga gibrid ko‘rinishda Twitter platformasida insonlarning hissiyot tahlilini aniqlashda qo‘llaniladi [16]. Bu sun’iy intellektning bir yoki bir nechta elementining o‘zaro kombinatsiyasi natijasida ishlovchi ko‘plab misollardan biridir.

Ekspert tizimi – sun’iy intellektga asoslangan holda ma’lum bir soha mutaxassisining qobiliyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan kompyuter tizimi hisoblanadi. Ekspert tizimlar murakkab masalalarni hal qilishda if-then (agar-u holda) mantiqiy belgilaridan foydalanadi va katta ma’lumotlar bazasida o‘z bilimlarini boyitib boradi. Ekspert tizimlari asosan katta hajmdagi axborotlarni boshqarish, tibbiyot muassasalarida davolash jarayonlarini tahlillash, pul-kredit munosabatlarini tartibga solish, virusni aniqlash va boshqalarda qo‘llanilib kelinmoqda. Samarador ekspert tizimlariga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- CaDet saratonni dastlabki bosqichlarida aniqlashda qo‘llaniluvchi ekspert tizim.
- DENDRAL texnologiyasi kimyoviy moddaning spektrografik ma'lumotlaridan foydalangan holda tuzilishini aniqlash uchun mo‘ljallangan ekspert tizimi.
- MYCIN texnologiyasi o‘tkir infektsiyalarni keltirib chiqaruvchi turli bakteriyalarni aniqlovchi tizim.

Kompyuter ko‘rishi – raqamli tasvirlar va videolardagi ma’lum bir turdagi ob’ektlarni (odamlar, buyumlar yoki qushlar) semantik aniqlash va tahlil qilish jarayonidir. Kompyuter ko‘rishi bo‘yicha ikki xil yondashuv ko‘proq qo‘llaniladi. Birinchisi

1) biologik nuqtai nazaridan, kompyuter ko‘rishi inson ko‘rish tizimining modelini yaratishga qaratilgan yondashuv bo’lsa keyingisi

2) muhandislik nuqtai nazaridan, kompyuter ko‘rishi atrofni kuzatishdagi (ko‘rish, turli ob’ekt, voqea yoki hodisalarni tushunish) vizual tizim yoki texnologiya bajarishi mumkin bo‘lgan vazifalarni bajaruvchi avtonom tizimlarni yaratishga doir yondashuvdir. Bu yondashuvlar bir-biri bilan o‘zaro aloqador.

CC BY NC ND


ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Inson ko‘rish tizimining xususiyatlari ko‘pincha kompyuter ko‘rish tizimlarini loyihalashtirishda muhandislarga real na’muna bo‘lib hizmat qiladi. Shuningdek, kompyuter ko‘rishi algoritmlari maktab o‘quvchilariga insonning ko‘rish tizimining qanday ishlashi va uning kompyuterdagi na’munasi haqida yaxshiroq tushuncha berishi mumkin.

Sun’iy intellektning kompyuter ko‘rishi elementi ob’ektni aniqlash, yuzni tanib olish, harakat va holatni baholash kabi vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan.

Sun’iy intellektning yuqoridagi elementlari aniq vazifanlarni avtomatlashgan holatda bajaradi va inson aqliy faoliyatining ma’lum unsurlarini o‘zida namoyon etadi.

Yuqoridagi 2-rasmda sun’iy intellekt elementlarining o’zaro bog’liqligi berilgan bo’lib ushbu munosabatlar optimal holatda bo’lishi umumiy sun’iy intellekt texnologiyasini taqdim etishi mumkin. Ushbu bog’liqlik orqali o’quvchilar sun’iy intellekt elementlarining o’zaro aloqasini vizual tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo’ladi.



4-rasm. Sun’iy intellekt elementlarining o’zaro bog’liqligi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. D. Touretzky, C. Gardner-Mccune, F. Martin, D. Seehorn. Envisioning AI for K-12: What should every child Know about AI? The thirty-third AAAI conference on artificial intelligence (AAAI-19). (2019). Honolulu, HI, USA, p-9795.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

2. Stuart J. Russell, Rationality and intelligence. Artificial Intelligence, Volume 94, Issues 1–2, 1997, Pages 57-77, ISSN 0004-3702.
3. RUSSELL & NORVIG Artificial Intelligence: A Modern Approach, 3rd ed. pages 1020. Pearson Education, Inc., Upper Saddle River, New Jersey 07458. 2010.
4. European Parliament. Artificial intelligence: How does it work, why does it matter, and what can we do about it?. Brussels © European Union, 2020. p-50.
5. Keresztesi, A. A. (2022). Elements of Artificial Intelligence in Integrated Information Systems. Studia Universitatis Petru Maior. Series Oeconomica, 81-90
6. Brown, T. B. (2020). Language models are few-shot learners. arXiv preprint arXiv:2005.14165.
7. Reid, M., Savinov, N., Teplyashin, D., Lepikhin, D., Lillicrap, T., Alayrac, J. B., ... & Mustafa, B. (2024). Gemini 1.5: Unlocking multimodal understanding across millions of tokens of context. arXiv preprint arXiv:2403.05530.
8. Strickland, E. (2019). IBM Watson, heal thyself: How IBM overpromised and underdelivered on AI health care. IEEE Spectrum, 56(4), 24-31.
9. Mahdi, Q. S., Saleh, I. H., Hashim, G., & Loganathan, G. B. (2021). Evaluation of robot professor technology in teaching and business. Information Technology in Industry, 9(1), 1182-1194.
10. Parkhi, O., Vedaldi, A., & Zisserman, A. (2015). Deep face recognition. In BMVC 2015-Proceedings of the British Machine Vision Conference 2015. British Machine Vision Association.
11. Ofosu-Ampong, K., Acheampong, B., & Kevor, M. O. (2023). Acceptance of artificial intelligence (ChatGPT) in education: Trust, innovativeness and psychological need of students. Ofosu-Ampong, K., Acheampong, B., Kevor, MO, & Amankwah-Sarfo, F.(2023). Acceptance of Artificial Intelligence (ChatGPT) in Education: Trust, Innovativeness and Psychological Need of Students. Information and Knowledge Management, 13(4), 37-47.
12. Kelly, S., Kaye, S. A., & Oviedo-Trespalacios, O. (2023). What factors contribute to the acceptance of artificial intelligence? A systematic review. Telematics and Informatics, 77, 101925.
13. Ron Kohavi; Foster Provost (1998). "Glossary of terms". Machine Learning. 30: 271–274. doi:10.1023/A:1007411609915.
14. Rani, A., Kumar, N., Kumar, J., & Sinha, N. K. (2022). Machine learning for soil moisture assessment. In Deep learning for sustainable agriculture (pp. 143-168). Academic Press.
15. Phan HT, Tran VC, Nguyen NT, Hwang D. Improving the performance of sentiment analysis of tweets containing fuzzy sentiment using the feature ensemble model. IEEE Access. 2020;8:14630–14641. doi: 10.1109/ACCESS.2019.2963702.
16. https://www.analytixlabs.co.in/blog/components-of-artificial-intelligence/

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Normatov Sulton Abdug'ani o'g'li**, A.Avloniy pedagogik mahorat milliy instituti, [**Норматов Султон Абдуганиевич,** Национальный институт педагогического мастерства имени А. Авлония], [**Sulton A. Normatov**, A. Avloni National Institute of Pedagogical Skills]; manzil: O'zbekiston, Toshkent sh., Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 6-uy [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Зиё, 6], [address: Uzbekistan, Tashkent city, Almazar district, Ziyo street,6] Email:ilmiy2025@gmail.com, Orcid: 0000-0002-6777-029

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING LUG‘AT BOYLIGINI O‘STIRISHNING AN’ANAVIY VA NOAN’ANAVIY USULLARI

© B.R. Mengliyev[1]✉ © S.F. Safarova[2]✉
[1]Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
[2]Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqola yuqori sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘rganishda lug‘at boyligini oshirish bo‘yicha turli yondashuvlarni o‘rganadi. Unda lug‘at boyligini oshirish o‘qish tushunishi, muloqot qilish qobiliyatlari va akademik muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi.

MAQSAD: yuqori sinf o‘quvchilari lug‘at boyligini oshirishda an’anaviy va noan’anaviy usullarni qo‘llashni yutuq va kamchiliklarini o‘rganib chiqib, kerakli tavsiyalar berish.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqolada K.M. Blackmonning “An’anaviy lug‘atni o‘rgatish va talabalar o‘zlari tanlagan lug‘atni o‘rgatish usullarini qiyoshlash: aralash uslubdagi lug‘at yondashuvi nega eng yaxshi usul.”, N. Mediha, M. Enisaning “EFL sinfida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish uchun an’anaviy va kontekstualizatsiya qilingan usullarni ta’sirini taqqoslashni o‘rganish”, J.R. Nelson, M.W. Watkinsning “Lug‘at o‘rgatish: O‘qituvchilar uchun qo‘llanma” va boshqa ko‘plab ilmiy ishlar tahlil va hujjatlarni o‘rganish tatqiqot metodlari yordamida o‘rganildi va kerakli xulosalar chiqarildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqotda an’anaviy usullar, masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish va mexanik yodlash, noan’anaviy, o‘quvchi markazli yondashuvlar, jumladan kontekstual o‘qitish, texnologiyadan foydalanish va faol ishtirok bilan taqqoslanadi. Maqola har ikki usulning kuchli va zaif tomonlarini o‘rganib, ularni muvozanatli ravishda integratsiya qilishni tavsiya qiladi, bu esa lug‘at o‘rganish jarayonini dinamik va samarali qilishga yordam beradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirib, ularning so‘z boyligini uzoq muddatli eslab qolishlari va motivatsiyasini oshiradi.

XULOSA: yuqori sinf o‘quvchilariga lug‘at o‘rgatish o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun an’anaviy va noan’anaviy usullarni strategik ravishda birlashtirishni talab qiladi.

Kalit so'zlar: lug‘at boyligini oshirish, an’anaviy usullar, noan’anaviy usullar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish, mexanik yodlash, kontekstual o‘qitish, texnologiyani integratsiya qilish, faol ishtirok.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Iqtibos uchun: Mengliyev B.R. Safarova S.F. Yuqori sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini o‘stirishning an’anaviy va noan’anaviy usullari. // Inter education & global study. 2024. №8. B.49–57.

ТРАДИЦИОННЫЕ И НЕТРАДИЦИОННЫЕ МЕТОДЫ РАСШИРЕНИЯ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА СТАРШЕКЛАССНИКОВ

© Б.Р. Менглиев[1]✉ © С.Р. Фафарова[2]✉
[1]Университет прикладных наук Ташкента, Ташкент, Узбекистан
[2]Навоийский государственный педагогический институт, Навоий, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: статья исследует различные подходы к увеличению словарного запаса у старшеклассников, изучающих иностранный язык. Подчеркивается важность обогащения словарного запаса для улучшения понимания прочитанного, коммуникативных навыков и достижения академического успеха.

ЦЕЛЬ: цель состоит в том, чтобы изучить преимущества и недостатки применения традиционных и нетрадиционных методов для увеличения словарного запаса старшеклассников и предоставить необходимые рекомендации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данной статье анализируются работы К.М. Блэкмона «Сравнение традиционного обучения словарю и обучения словарю, выбранному студентами: почему смешанный подход может быть лучшим», исследование Н. Мединha и М. Эниса о «Сравнении влияния традиционных и контекстуализированных методов на увеличение словарного запаса учащихся в классе EFL», а также «Руководство для учителей по обучению словарю» Дж.Р. Нельсона и М.В. Уоткинса и множество других научных работ с использованием методов анализа и изучения документов для вывода необходимых заключений.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в данной статье анализируются работы К.М. Блэкмона «Сравнение традиционного обучения словарю и обучения словарю, выбранному студентами: почему смешанный подход может быть лучшим», исследование Н. Мединha и М. Эниса о «Сравнении влияния традиционных и контекстуализированных методов на увеличение словарного запаса учащихся в классе EFL», а также «Руководство для учителей по обучению словарю» Дж.Р. Нельсона и М.В. Уоткинса и множество других научных работ с использованием методов анализа и изучения документов для вывода необходимых заключений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: обучение словарю старшеклассников требует стратегического объединения традиционных и нетрадиционных методов для удовлетворения различных потребностей учащихся.

Ключевые слова: обогащение словарного запаса, традиционные методы, нетрадиционные методы, прямое обучение, механическое запоминание, контекстное обучение, интеграция технологий, активное участие.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Для цитирования: Менглиев Б.Р. Сафарова С.Р. Традиционные и нетрадиционные методы расширения словарного запаса старшеклассников. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 49–57.

TRADITIONAL AND NON-TRADITIONAL METHODS OF EXPANDING SENIOR STUDENTS' VOCABULARY

© Mengliyev R. Baxtiyor[1]✉ © Safarova F. Sarvinoz[2]✉
[1]Tashkent University of Applied Sciences, Tashkent, Uzbekistan
[2]Navoiy State Pedagogical Institute, Navoiy, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores various approaches to enhancing vocabulary knowledge among high school students learning a foreign language. It emphasizes the importance of vocabulary enrichment in improving reading comprehension, communication skills, and achieving academic success.

AIM: the aim is to examine the advantages and disadvantages of applying traditional and non-traditional methods to enhance vocabulary among high school students and provide necessary recommendations.

MATERIALS AND METHODS: this article analyzes the works of K.M. Blackmon on "Comparing Traditional Vocabulary Teaching and Student Self-Selected Vocabulary Instruction: Why a Mixed Methods Approach Might Work Best," N. Mediha and M. Enisan's study on "Comparative Study of the Effectiveness of Traditional and Contextualized Methods for Enhancing Learners' Vocabulary Knowledge in an EFL Classroom," J.R. Nelson and M.W. Watkins' "Vocabulary Teaching: A Guide for Teachers," along with many other scholarly works, using analysis and document review as research methods to draw necessary conclusions.

DISCUSSION AND RESULTS: the study compares traditional methods, such as direct instruction and mechanical memorization, with non-traditional, student-centered approaches, including contextual teaching, technology use, and active participation. The article recommends a balanced integration of both methods, which helps make the vocabulary learning process dynamic and effective. This approach addresses the diverse needs of students, promoting long-term retention of vocabulary and increasing motivation.

CONCLUSION: teaching vocabulary to high school students requires a strategic combination of traditional and non-traditional methods to meet various student needs.

Key words: vocabulary enhancement, traditional methods, non-traditional methods, direct instruction, mechanical memorization, contextual teaching, technology integration, active participation.

For citation: Mengliyev R. Baxtiyor, Safarova F. Sarvinoz. (2024) 'Traditional and Non-traditional Methods of Expanding Senior Students' Vocabulary', Inter education & global study, (8), pp. 49–57. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Lug‘at boyligini oshirish til o‘rganishning asosi hisoblanadi. Bu o‘qishni tushunish, muloqot qilish va akademik muvaffaqiyatga erishishda juda muhimdir. Lug‘at o‘rgatish usullari o‘quvchilarning qiziqishi va yodda saqlashiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘rta maktablarda o‘qituvchilar lug‘atni samarali o‘rgatish uchun an’anaviy va noan’anaviy usullarni muvozanatlashtirishda ko‘pincha qiyinchiliklarga duch keladilar. Quyida ikkala yondashuvni ko‘rib chiqamiz, ularning kuchli va zaif tomonlari o‘rganib hamda lug‘at o‘rganishni yaxshilash uchun ularni qanday qilib birlashtirish mumkinligi haqida fikr yuritamiz.

Lug‘at o‘rgatishning an’anaviy usullari.

Har qanday chet tilini o‘qitish metodologiyasining maqsadlaridan biri o‘quvchining chet tilidagi ko‘nikmalarini oshirishdir. Biroq, an’anaviy metodologiya chet tilidan foydalanishning integratsiyalashgan jarayonini ko‘p jihatdan alohida ko‘nikmalar va bilim sohalariga ajratishga asoslanadi. Bu asosan funksional usul bo‘lib, ko‘nikmalar va bilim sohalariga izolyatsiyada e’tibor qaratadi.

Lug‘at o‘rgatishning an’anaviy usullari odatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitishni o‘z ichiga oladi, bunda o‘qituvchilar so‘zlar ro‘yxatini, ularning ta’riflarini va gaplarda qo‘llanilishini taqdim etadilar. Odatda, mexanik yodlash, imlo testlari va lug‘atlardan foydalanish kabi usullar qo‘llaniladi. Ushbu usullar lug‘atni boshlang‘ich darajada tushunishni ta’minlasa-da, ular chuqur o‘rganish va uzoq muddatli yodda saqlashni rag‘batlantirishda ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish: An’anaviy usullardan biri bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitishdir, bunda o‘qituvchilar ma’ruzalar yoki taqdimotlar orqali so‘zlarning ma’nolarini ochib beradilar. Beck va boshqalar qayd etishicha, “o‘qituvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitishga ortiqcha tayanib, ko‘pincha talabalarning faol ishtirokini rag‘batlantirmaydigan zerikarli faoliyatlardan foydalanadilar.” Bu usul yangi so‘zlarni kiritishda samarali bo‘lsa-da, unda interaktiv va kontekstual elementlardan yetishmaydi[1].

Mexanik yodlash: Yana bir an’anaviy usul mexanik yodlashdir, bunda o‘quvchilardan so‘zlar ro‘yxatini va ta’riflarini yodlash talab etiladi. Bu yondashuv zerikarli va haqiqiy hayotdagi til qo‘llanilishidan ajralganligi uchun tanqid qilinadi. Sagmiller ta’kidlaganidek, “talabalarga odatda so‘zlarning ta’riflari va qo‘llanishiga bir marta duch kelish beriladi va faqat imloga e’tibor qaratiladi, ma’noga emas”[10]. Yodlash qisqa vaqt ichida ko‘p sonli so‘zlarni o‘rganishda yordam bersa-da, ularni kontekstdan foydalanish bo‘yicha chuqur tushunishni rag‘batlantirmaydi.

An’anaviy o‘qitish usullari ba’zi cheklovlarga ega: An’anaviy lug‘at o‘qitish ko‘pincha o‘qituvchilar tomonidan tanlangan so‘zlarga qaratiladi, bu esa har doim ham o‘quvchilarning qiziqishlari yoki ehtiyojlariga mos kelmasligi mumkin. Nelson va Watkins ta’kidlashicha: “Ko‘plab lug‘atga oid topshiriqlar talabalarni mustaqil ravishda lug‘at o‘rganishga tayyorlamaydi”[9]. Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil ravishda tilni o‘rganish va o‘z bilimlarini yangi kontekstlarda qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi. Bundan tashqari, an’anaviy usullar faol bo‘lmagan o‘quvchilarni jalb qilmasligi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Lug‘at o‘rgatishning noan’anaviy usullari.

An’anaviy metodologiyadan farqli o‘laroq, zamonaviy metodologiya ko‘proq o‘quvchi markazli hisoblanadi. Jim Scrivenerning fikriga ko‘ra, o‘qituvchining asosiy vazifasi “o‘rganishni ro‘yobga chiqarishga yordam berish”, ya’ni “talabalarni o‘z tezliklarida ishlashga imkon yaratish, uzoq tushuntirishlardan qochish, ularni qatnashishga, gapirishga, muloqot qilishga, nimadir qilishga undash”dan iboratdir[11]. Broughtonning fikrini bunga qo‘shimcha qilsak: “Til o‘rganuvchisi til haqiqatan ham kommunikativ ekanligini, kontekstga mosligini, o‘qituvchining mahorati uni chet tilida to‘liqroq bilimga yetaklayotganini his qilganida eng yaxshi rag‘batlanadi”[2]. Qisqacha aytganda, o‘quvchilarlar bu jarayonning eng faol elementi hisoblanadi. O‘qituvchi esa tushuntirish uchun emas, balki o‘quvchilarni izlanishga, sinab ko‘rishga, o‘rganishni qiziqarli qilishga undash va ularga yordam berish uchun bu yerda bo‘lishi kerak.

Lug‘at o‘rgatishning noan’anaviy usullari o‘quvchi markazli o‘qitish, faol ishtirok etish va texnologiya va real hayotiy kontekstlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlar lug‘at o‘rganishni yanada dolzarb, qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqishlari va kundalik tajribalariga bog‘liq faoliyatlarni o‘z ichiga oladi.

Kontekstual o‘qitish: Noan’anaviy yondashuvlardan biri bu kontekstual o‘qitish bo‘lib, bunda lug‘at o‘qish, muhokama yoki mavzuli birliklar doirasida o‘rgatiladi. Ushbu usul o‘quvchilarga so‘zlarning turli holatlarda qanday ishlatilishini ko‘rish imkonini beradi, bu esa ma’no va qo‘llanilishni chuqurroq tushunishni rag‘batlantiradi.

AQShdagi milliy savodxonlik institute qayd etganidek, “yangi so‘zlarga turli kontekstlarda qayta-qayta duch kelish lug‘atni o‘zlashtirish uchun juda muhimdir.”[8] So‘zlarni turli kontekstlarda uchratish orqali o‘quvchilar ularni to‘g‘ri eslab qolishi va to‘g‘ri ishlatishi ehtimoli ko‘proq bo‘ladi.

Texnologiyani integratsiya qilish: Lug‘at o‘qitishda texnologiyaning qo‘llanilishi o‘quvchilarning yangi so‘zlarni qanday o‘rganishlari va o‘zaro munosabat qilishlarini tubdan o‘zgartiradi. Lug‘at dasturlari, onlayn o‘yinlar va interaktiv fleshkartlar kabi raqamli vositalar dinamik va shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribalarini taklif qiladi. Chen va Hsu tadqiqotiga ko‘ra, “lug‘atni o‘rganish uchun mobil ilovalardan foydalangan talabalar faqat an’anaviy usullarga tayanganlarga nisbatan yodda saqlash va motivatsiyada sezilarli yaxshilanishni ko‘rsatgan.”[3] Texnologiya moslashuvchan ta’lim imkonini beradi, bunda o‘quvchilar o‘z sur’atlarida mashq qilishlari va darhol fikr-mulohaza olishlari mumkin.

Faol o‘qitish strategiyalari: Noan’anaviy usullar ko‘pincha guruh ishini, muhokamalar va loyihaga asoslangan ta’limni o‘z ichiga olgan faol o‘qitish strategiyalarini qo‘llaydi. Ushbu faoliyatlar o‘quvchilarni yangi lug‘atni mazmunli tarzda qo‘llashga undaydi, bu esa yodda saqlash va tushunishni yaxshilaydi. Masalan, lug‘at jurnallari, so‘z xaritalari va tengdoshlarga o‘qitish kabi samarali strategiyalar faol ishtirokni rag‘batlantiradi. Stahl va Fairbanks ta’kidlaydilar: “So‘zlarni muhokamalarda yoki yozishda ishlatish kabi faol ishlov berishni o‘z ichiga olgan lug‘at o‘qitish katta yodda saqlash va tushunishga olib keladi.”[12]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

O‘quvchilarning mustaqilligi: Lug‘atni o‘rganishda o‘quvchilarning mustaqilligini rag‘batlantirish noan’anaviy yondashuvlarning yana bir xususiyatidir. O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘zlari qiziq yoki dolzarb deb hisoblagan so‘zlarni tanlash imkoniyatini berish orqali egalik va motivatsiya hissini shakllantirishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarga o‘z ta’limlarida tanlov berilganda, ular ko‘proq qiziqish bildiradilar va o‘z yutuqlari uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga olishadi [4]. Shaxsiy lug‘at ro‘yxatlari va mustaqil o‘qish dasturlari kabi texnikalar ushbu mustaqillikni qo‘llab quvvatlaydi.

Lug‘at o‘rgatishning an’anaviy va noan’anaviy usullari ko‘plab ilmiy ishlarda taqqoslanib tahlil qilib o‘tilgan va izlanuvchi tomonidan ilmiy izlanish natija va xulosalari bayon qilingan. Shu kabi izlanishlar biri bo‘lmish "An’anaviy va kontekstual usullarning chet tili sifatida ingliz tilida so‘z boyligini rivojlantirishga ta’sirini tadqiq etish" nomli maqolani ko‘rib o‘tsak. Ushbu tadqiqot Turkiyaning Yeditepe universiteti tatqiqotchilari Narin Mediha va Enisa Mede tomonidan o‘tkazilgan bo‘lib, chet tili sifatida o‘qitiladigan ingliz tili darslarida so‘z boyligini oshirishda an’anaviy va zamonaviy usullardan biri bo‘lmish kontekstual usullarning samaradorligini tadqiq qiladi. Tadqiqot qaysi usul o‘quvchilarning so‘z boyligini yaxshiroq rivojlantirishni aniqlash va o‘qituvchilarga eng samarali o‘qitish strategiyalarini topishda yordam berishni maqsad qiladi.

Tadqiqot an’anaviy so‘z boyligini o‘rgatish usullarini, ya’ni yodlash va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishni, kontekstual usullar bilan solishtiradi. Kontekstual usullar adabiy matnlar va kontekstual taxmin qilish strategiyalaridan foydalanib, so‘z boyligini yanada integratsiyalashgan va qiziqarli tarzda o‘rgatishni maqsad qiladi.

Tadqiqot ikkita asosiy o‘qitish usulini o‘rganadi:

1. An’anaviy Usullar: Bu usullar dekontekstualizatsiyalangan yondashuvlar bo‘lib, ularga so‘z ro‘yxatlarini yodlash va lug‘atlardan foydalanish kiradi. Ushbu usullar sodda bo‘lishiga qaramay, ko‘pincha so‘z boyligini chuqurroq tushunish va yodlash uchun zarur bo‘lgan kontekstni ta’minlay olmaydi.

2. Kontekstual Usullar: Ushbu yondashuv so‘z boyligini kontekst orqali, masalan, adabiy matnlar yordamida yoki so‘zlarni tabiiy til muhitida o‘rgatishni nazarda tutadi. Bu usul o‘quvchilarni kontekstdan ma’nolarni taxmin qilishga undaydi va so‘z boyligini yanada mazmunli va barqaror qilishga yordam beradi [7].

Tadqiqot so‘z boyligi, o‘qish va bilimning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi nazariyalarga asoslanadi. Masalan, Krashen so‘z boyligi bilimining o‘qish tushunishiga yordam berishini va bu esa so‘z boyligini o‘zlashtirishni kuchaytirishini ta’kidlaydi [5].

Tadqiqotga xususiy maktabning to‘qqizinchi sinfida o‘qiyotgan 40 nafar o‘quvchi jalb etiladi. Ular ikki guruhga bo‘linadi: kontekstual usullarni qo‘llagan eksperimental guruh va an’anaviy usullardan foydalangan nazorat guruhi. Ikkala guruh ham to‘rt hafta davomida ishtirok etadi. Eksperimental guruh so‘z boyligini adabiy matnlar orqali o‘rganishadi, nazorat guruhi esa an’anaviy so‘z ro‘yxatlari va yodlash orqali o‘rganishadi[7].

Dastlabki natijalarda har ikkala guruh ham oldindan testlarda o‘xshash ball to‘plagan, bu ularning so‘z boyligi bilimida o‘xshashlik mavjudligini ko‘rsatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Keyingi test natijalariga koʻraa eksperimental guruh nazorat guruhidan ancha yuqori natijalar koʻrsatdi. Masalan, "The Butler" hikoyasi boʻyicha eksperimental guruhning keyingi testdagi oʻrtacha balli 10.35 boʻlgan, nazorat guruhining esa 7.75.

Yodlash Testlari: Eksperimental guruh yodlash testlarida ham yuqori ball toʻplagan, bu kontekstual usul oʻquvchilarga soʻz boyligini samarali oʻrganishda va uzoq muddatli yodlashda yordam berganligini koʻrsatadi. "The Butler" hikoyasi uchun yodlash ballari eksperimental guruhda 8.00, nazorat guruhida esa 2.65 edi [8].

Natijalar shuni koʻrsatadiki, kontekstual oʻqitish usullari, ayniqsa adabiy matnlardan foydalanish an'anaviy usullardan koʻra samaraliroqdir. Eksperimental guruhdagi oʻquvchilar soʻz boyligini yodlash va eslab qolish qobiliyatini koʻproq namoyon etishdi, bu soʻzlarni kontekstda oʻrganish ularni eslab qolishni osonlashtirishini koʻrsatadi.

Lugʻat boyligini oshirishda an'anaviy usul va noan'anaviy usullardan biri oʻquvchi markazli usulning oʻzaro taqqoslanishi yoritib oʻtilgan, K. M. Blackmon tomonidan yozilgan "An'anaviy lugʻat oʻrgatish va talabalarning mustaqil tanlovi: Nega "aralash usullar" lugʻat yondashuvi yaxshi natija koʻrsatishi mumkin" mavzusidagi tatqiqot tezisida ushbu usullarning yaxshi va yomon taraflari yoritilib oʻtilgan va muallif tomonidan oʻz firklari bayon qilingan. Ushbu dissertatsiya oʻquvchilarga mustaqil ravishda oʻrganish uchun soʻz boyligini tanlashga ruxsat berishning foydalarini oʻrganadi. Tadqiqotda oʻqituvchi talabalarga oʻrganish uchun soʻzlarni tanlab beradigan an'anaviy soʻz boyligi oʻrgatish usuli bilan, oʻquvchilar lugʻat daftaridan foydalangan holda mustaqil ravishda soʻzlarni tanlashga undalgan usulning samaradorligi solishtirilgan. Tadqiqotda ikkala yondashuvning ham foydali va kamchilikli tomonlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalariga koʻra, an'anaviy soʻz boyligi oʻrgatish usulini olgan nazorat guruhi talabalari soʻz boyligi boʻyicha testlarda biroz yaxshi natijalarni koʻrsatgan, biroq ular oʻqituvchi tomonidan tanlangan soʻzlarni oʻrganishga motivatsiya va qiziqish yoʻqligini bildirganlar. Ular bu jarayonni ahamiyatsiz deb his qilgan va testlarda yaxshi natija koʻrsatish uchun "intellektual qiziqish" zarurligini ta'kidlashgan.

Bunga qarama-qarshi ravishda, tajriba guruhidagi talabalar, ya'ni mustaqil ravishda soʻzlarni tanlash imkoniga ega boʻlganlar, yangi soʻzlarni oʻrganishga qiziqish va ishtiyoq bilan yondashgan va bu jarayondan zavqlanishgan. Ammo ular soʻz boyligi boʻyicha testlarda unchalik yaxshi natija koʻrsatmaganlar [6].

Tadqiqot shuni koʻrsatadiki, oʻqituvchilar har bir boʻlim uchun oldindan belgilangan miqdordagi majburiy soʻzlarni tanlab berib, qoʻshimcha soʻzlarni talabalar oʻzlari tanlashi mumkin boʻlgan aralash yondashuv eng foydali boʻlishi mumkin. Tadqiqot, shuningdek, soʻz boyligini oʻrganishni baholash uchun turli usullardan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi, shu jumladan an'anaviy baholash va talabalar soʻz ma'nosining chuqurroq bilimini oʻlchaydigan baholash usullari.

Tadqiqot xulosasiga koʻra, toʻgʻridan-toʻgʻri oʻrgatish va mustaqil oʻrganish soʻz boyligini oʻrgatishda foydali usullardir, biroq eng samarali yondashuv ikkisini aralashtirishdan iborat boʻlishi mumkin. Oʻqituvchilar toʻgʻridan-toʻgʻri va bilvosita oʻrgatishni aralashtirib, talabalarning soʻz boyligini oʻrganishga boʻlgan motivatsiyasi va

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ishtirokini qo‘llab-quvvatlashlari, so‘z ma’nosini chuqurroq tushunishlariga yordam berishlari va o‘z yozuvlari va muloqotlarida so‘z boyligidan foydalanishga undashlari mumkin [6].

An’anaviy lug‘at o‘rganishning muammosi shundaki, ko‘plab o‘qituvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitishga ortiqcha ishonib, zerikarli, qiziqarsiz yoki jozibador bo‘lmagan faoliyatlardan foydalanadilar, bu esa faol o‘quvchi ishtirokini rag‘batlantirmaydi [1]. Lug‘at o‘qitishning an’anaviy yondashuvi o‘qituvchilar talabalarga qanday so‘zlarni o‘rganishini tanlashiga qaratilgan. Shunday qilib, lug‘at bilan bog‘liq ko‘plab topshiriqlar talabalarni mustaqil ravishda lug‘at o‘rganishga tayyorlamaydi [9]. Chunki yangi so‘zlarni mustaqil ravishda o‘rganish qobiliyati o‘qish jarayonida muhim rol o‘ynaydi, o‘qituvchilar yangi so‘zlarni qayta-qayta duch keltirish uchun turli o‘quv texnikalaridan foydalanishlari kerak [4].

Ushbu tezis asosan ikkala usulni integrallashtirish orqali dars o‘tishni taklif qiladi va bu usul faqat bir tomonlama metodlarga tayangan darslardan ko‘ra samaraliroq bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi.

An’anaviy va noan’anaviy usullarni integratsiya qilish.

Har ikkala an’anaviy va noan’anaviy usullar o‘z afzalliklariga ega bo‘lsa-da, lug‘atni samarali o‘rgatish ko‘pincha ularning ikkalasini birlashtirish orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchilar yangi so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitishni interaktiv va kontekstual faoliyatlar bilan birlashtirib, keng qamrovli o‘qitish tajribasini ta’minlashlari mumkin. Masalan, yangi so‘zlarni dastlab to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rgatishdan so‘ng, so‘zlarni mustahkamlovchi matnlarni o‘qish yoki interaktiv o‘yinlar kabi kontekstual qo‘llashlar bilan davom ettirish mumkin.

Bundan tashqari, texnologiyadan foydalanish an’anaviy usullarni sinfdan tashqarida qo‘shimcha amaliyot imkoniyatlarini taqdim etish orqali to‘ldirishi mumkin. Masalan, lug‘at ilovalari sinfda kiritilgan so‘zlarni mustahkamlash uchun multisensorli o‘qitish tajribasini taklif qilib, turli o‘quv uslublariga moslashadi.

Yuqori sinf o‘quvchilariga lug‘at o‘rgatish o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun an’anaviy va noan’anaviy usullarni strategik ravishda birlashtirishni talab qiladi. An’anaviy usullar so‘zlarni tuzilmasi va aniq kirishini ta’minlasa, noan’anaviy yondashuvlar chuqur o‘rganish uchun zarur bo‘lgan qiziqish va kontekstual tushunchani taklif qiladi. Ushbu usullarni birlashtirish orqali o‘qituvchilar nafaqat so‘zlarni o‘rgatadigan, balki umrbod til o‘rganishga muhabbat uyg‘otadigan dinamik va samarali lug‘at dasturini yaratishlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Beck, I. L., McKeown, M. G., & Kucan, L. (2013). Bringing Words to Life: Robust Vocabulary Instruction. Guilford Press.
2. Broughton, Geoffrey (1994) Teaching English as a Foreign Language 2nd ed London: Routledge

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

3. Chen, N. S., & Hsu, S. Y. (2019). Mobile learning: A review of vocabulary learning with mobile technologies. Educational Technology & Society, 22(1), 56-67.
4. Guthrie, J. T., Wigfield, A., & You, W. (2004). Motivating adolescent reading. In T. L. Jetton & J. A. Dole (Eds.), Adolescent Literacy Research and Practice. Guilford Press.
5. Krashen, S. (1989). We Acquire Vocabulary and Spelling by Reading. The Modern Language Journal, 73(4), 440-64
6. Kathryn Marie Blackmon. (2022) A comparison of traditional vocabulary instruction and student self selection: why a mixed methods vocabulary approach might work best. https://hdl.handle.net/20.500.12741/rep:274
7. N. Mediha, M. Enisa. (2014). A comparative study on the effectiveness of using traditional and contextualized methods for enhancing learners' vocabulary knowledge in an EFL classroom, 3443-3448. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.01.780
8. National Institute for Literacy. (2007). What content-area teachers should know about adolescent literacy. U.S. Department of Education.
9. Nelson, J. R., & Watkins, M. W. (2019). Teaching vocabulary: A guide for teachers. Learning Disabilities Research & Practice, 34(2), 102-113.
10. Sagmiller, E. J. (2002). Teaching Vocabulary for Reading Success. Scholastic.
11. Scrivener, Jim (2005). Learning Teaching Oxford: Macmillan

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, Toshkent amaliy fanlar universiteti, filologiya fanlari doktori, professor, [**Менглиев Бахтиёр Ражабович** Университет прикладных наук Ташкента, доктор филологических наук, профессор], [**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, Tashkent University of Applied Sciences, Doctor of Philological Sciences, Professor]; manzil: O'zbekiston, Toshkent sh., Gavhar ko'chasi, 1-uy [адрес: Узбекистан, ул. Гавхар, дом 1, г. Ташкент], [address: Uzbekistan, 1, Gavhar st., Tashkent city] E-mail: dr.mengliev.bakhtiyor@gmail.com

✉**Safarova Sarvinoz Faxriddin qizi**, Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti, [**Сафарова Сарвиноз Фахриддин кизи** Навоийский государственный педагогический институт, аспирант], [**Safarova Sarvinoz Faxriddin qizi**, Navoiy State Pedagogical Institute PhD candidate]; manzil: O'zbekiston, Navoiy sh., Ibn Sino ko'chasi, 45-uy [адрес: Узбекистан, ул. Ибн Сино, дом 45, г. Навои], [address: Uzbekistan, 45, Ibn Sina st., Navoi city] E-mail: sarvinoz.ssf.ab@gmail.com

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

KADRLAR POTENSIALI IJTIMOIY-MADANIY SOHADA TASHKILOT FAOLIYATI SAMARADORLILIGINI OSHIRISHSHNING YETAKCHI OMILI SIFATIDA

© M. B. Yuldasheva[1]✉, © A.N. Qolqanatov[2]✉
[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston
[2]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: har qanday madaniyat muassasasining samarali faoliyatini ta’minlashda to‘g‘ri tanlangan kadrlar muhim o‘rin tutadi. Mehnat bozori doimo bozor iqtisodiyotining muhim tarmog‘i bo‘lib, xodimlarni ijtimoiy-madaniy boshqarish masalalarini hal qilishda alohida yondashuvni talab qiladi. Mazkur maqolaning maqsadini ham ijtimoiy-madaniy soha muassasalari faoliyati asosida korxonaning kadrlar salohiyatini rivojlantirishning asosiy imkoniyatlarini ochib berishdir. Maqolada inson resurslarini nazariy ko‘rib chiqish va amaliy foydalanishning asosiy jihatlari bayon qilingan.

MAQSAD: mavzuning maqsadi — kadrlar potentsialini ijtimoiy-madaniy sohada rivojlantirish orqali tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash va ularni amaliyotga tadbiq etishdan iborat

MATERIALLAR VA METODLAR: bo‘limi tadqiqotning ilmiy asosi va qanday yo‘llar bilan amalga oshirilganini aniqlashga qaratilgan. Tashkilot faoliyati samaradorligini oshirishda kadrlar potentsialining ahamiyatini o‘rganish jarayonida foydalaniladigan materiallar va metodlar kelterilgan. Mazkur metodlar yordamida tashkilotlarda kadrlar potentsialining ijtimoiy-madaniy sohaga ta’siri chuqur o‘rganilib, samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari belgilab olinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy-madaniy sohada kadrlar potentsiali tashkilot samaradorligining muhim omili hisoblanadi. Malakali kadrlar tashkilotga nafaqat texnik jihatdan, balki ijodiy yondashuvlar bilan ham katta hissa qo‘shadi. Tajribali va yaxshi motivatsiyaga ega bo‘lgan kadrlar tashkilotning muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

XULOSA: kadrlar potentsialini rivojlantirish va ularni samarali boshqarish ijtimoiy-madaniy sohada tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Kadrlar potentsiali — tashkilot muvaffaqiyati garovi: Ijtimoiy-madaniy sohadagi tashkilotlarning muvaffaqiyatli ishlashi, asosan, u yerda faoliyat yuritayotgan xodimlarning malakasi, bilim darajasi va ularning ijodiy salohiyatidan foydalana olishiga bog‘liq. Shu sababli, kadrlar potentsialini doimiy ravishda rivojlantirish va ularni samarali boshqarish tashkilotning umumiy faoliyatini ijobiy ta'sirga olib keladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

2. Motivatsiya va rag‘batlantirish tizimining ahamiyati: Xodimlar samaradorligini oshirishda motivatsiya tizimlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Rag‘batlantirish mexanizmlarining to‘g‘ri tashkil etilishi va xodimlarning ehtiyojlarini inobatga olish ularning ishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va mehnat unumdorligini ko‘paytiradi.

Kalit so'zlar: kadrlar salohiyati; xodimlarni boshqarish; kadrlar bo‘limi, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, kutubxona.

Iqtibos uchun: Yuldasheva M.B., Qolqanatov A.N. Kadrlar potensiali ijtimoiy-madaniy sohada tashkilot faoliyati samaradorliligini oshirishshning yetakchi omili sifatida. // Inter education & global study. 2024. №8. B.58–68.

ОСОБЕННОСТИ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА КАК ВЕДУЩЕГО ФАКТОРА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ В СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ СФЕРЕ

© М.Б. Юлдашева[1]✉, ©А.Н. Колканатов[2]✉
[1]Государственный институт искусства и культуры Узбекистана, Ташкент, Узбекистан
[2]Государственный институт искусства и культуры Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

iborat: a) dasturlashtiriladigan, tushunarli va natijasi oldindan ayon bo‘lgan o‘quv rejani yaratish; b) yashirin o‘quv dasturini tahlil qilish va tanqid ostiga olish.

Ayrim mamlakatlarda raqamli yoki mediasavodxonlik bilan bog‘lik maxsus fanlar mavjud. Demak, u yerda dastur va o‘quv rejalar ishlab chiqilgan. Masalan, Finlyandiyada maktabda media ko‘nikmalari fanlararo yondashuv doirasida shakllantiriladi. Ular boshlang‘ich va o‘rta maktabdagi har bir fanga kiritilishi kerak, deb hisoblashadi. O‘rta maktabda “Media diplom” degan maxsus fan mavjud bo‘lib, u media mavzuda bir necha kursni o‘z ichiga oladi va majburiy fanlar qatoriga kiradi.

Boshqa mamlakatlarning strategiyasida, bu soha o‘quv dasturining barcha komponentlariga singdirilishiga asoslangan. U mamlakatlarda mediadan olingan axborotni tanqidiy baholash qobiliyati va bu qobiliyatni takomillashtirish har qanday fan doirasida AKT yordamida axborot ishlab chiqarish, yaratish va almashinishga yordam beradi, deb hisoblanadi va o‘quvchi hamda o‘qituvchilarni ushbu qobiliyatni rivojlantirishga undaydi. Ayrim xorij mamlakatlarida media ta’limni qo‘shimcha ravishda amaliy, me’yoriy kiritish ba’zi fanlarni o‘rniga yoki ular o‘rtasidagi oraliq fan sifatida o‘qitishga harakat qilingan. Ya’ni, darsdan tashqari vaqtda maktab gazetalari va jurnallari, radio eshittirishlar va audiovizual mahsulotlari yaratiladi. Yaratish jarayonida ishtirokchilar mediadan foydalanishning turli usullari bilan bevosita tanishish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar[7].

Mediasavodxonlik – mass-mediani qabul qilish va uning faoliyatini baholash bo‘yicha ko‘nikmalar va malakalar majmuini bildiradi: demokratik jamiyatda medianing roli va funksiyalarini tushunish; media o‘z funksiyalarini amalga oshirishi mumkin bo‘lgan shart-sharoitlarni tushunish; media kontentini uning funksiyalari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tanqidiy baholash; media vosiasida o‘z fikrini bayon etish va demokratik jarayonlarda ishtirok etish uchun o‘zaro hamkorlik qilish; foydalanuvchi kontentini yaratish uchun kerak bo‘ladigan ko‘nikmalar(shu jumladan, AKT bilan ishlash ko‘nikmalari)ni faollashtirish.

Mediasavodxonlik media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o‘z-o‘zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg‘u beradi. Mediasavodxonlik ham, axborot savodxonligi ham yoshlarda media va axborot makonida foydalanilayotgan texnologiyalardan qat’iy nazar o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalarini ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liq. San’at va madaniyat yo‘nalishida mediasavodxonlik deb, mediasavodxonlikning quyidagi tushunchalari bilan uyg‘unlashtirsak maqsadga muvofiq bo‘ladi: o‘z fikrini erkin bayon etish; kutubxona savodxonligi; yangiliklar (axborot) savodxonligi; internet-savodxonlik; raqamli texnologiyalar sohasidagi (shu bilan birgalikda kompyuter) savodxonlik (jumladan, elektron o‘yinlardan foydalanish savodxonligi); televizion (kino, reklama sohasidagi) savodxonlik. Global miqyosda barcha tashkilotlar mediata’lim (MT) atamasidan foydalanadi.

YUNESKO ekspertlari tomonidan har qanday auditoriyani mediasavodxonlikning ko‘nikmalariga o‘rgatish uchun moslashtirilgan dasturlari mavjud ekan. Shu bilan birga tarbiyasi og‘ir va ijtimoiy zaif yoshlar bilan ishlashga yo‘naltirilgan dasturida keltirilgan fikrlar ham e’tiborimizni tortdi. MAS kabi ta’lim yo‘nalishi haqida xabardor emasliklari yoki qisman

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

xabardor bo‘lishlari natijasida, tarbiyasi og‘ir yoki ijtimoiy zaif yoshlarning vakillari yangi va zamonaviy bilimlarning ushbu sohasiga yaqin bo‘lish imkoniyatini nihoyatda ijobiy tarzda qabul qiladilar. Ushbu guruh bilan ishlash davomida mentorlar va o‘qituvchilar to‘plagan o‘sha oz miqdordagi tajriba shuni ko‘rsatdiki, ular raqamli shaxsiy xavfsizlikning, mediagigiyenaning, targ‘ibot va nayranglarga qarshi ta’sir ko‘rsatishning, soxta ma’lumotlarni va “nafrat tili”ni aniqlashning asoslarini va boshqa mavzularni o‘rganishga qiziqish bildirar ekan.

Tadqiqotimiz davomida mediasavodxonlikni rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar faoliyati bilan manbalar orqali qisman tanishdik. “Gurdofarid” jamoat tashkiloti (Tojikiston) o‘z faoliyatini 2008-yilda ta’lim olish markazi sifatida Sug‘d viloyatida boshladi. Hozirda tashkilot turli guruhdagi shaxslar, shu jumladan o‘qituvchilar, o‘spirinlar, jurnalistlar va boshqalar uchun mediasavodxonlik bo‘yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. “Gurdofarid” JTning asosiy maqsadlari – ayollar, qizlar va yoshlarning ta’lim olish darajasini, ayollarning huquqiy bilimlarini va maqomini oshirish, ularning haqiqiy mustaqilikka erishishlarida, tillarga va mediasavodxonlikka o‘rgatish, huquqlarni himoya qilish, erkaklar va ayollarning teng huquqli munosabatlarini ta’minlash, ayollar va yoshlarni ish joylari bilan ta’minlashda yordam ko‘rsatish va xayriya faoliyati.

Shuningdek, Faktcheking va mediasavodxonlikning Yevroosiyolik tarmog‘i (Eurasian Fact-checking and Media literacy Network – EFMN) – Yevropa va Markaziy Osiyoda dezinformasiyaga qarshi kurash va mediasavodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha faktchekerlar, jurnalistlar, ekspertlar va trenerlarni birlashtiruvchi tarmoq[8]. Xalqaro tashkilotlardan YUNESKO media va axborot savodxonligini shakllantirish asoslarini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Mediata’lim bo‘yicha Gryunvald (Polsha) Deklaratsiyasida (1982), axborot savodxonligi va insonning butun hayoti davomida oladigan ta’limi bo‘yicha “Axborot jamiyatining mayoqlari” Aleksandriya deklaratsiyasi (2005) va Parij YUNESKO kun tartibida (2007) belgilangan maqsadlarga erishishda YUNESKO a’zo davlatlarini qo‘llab-quvvatlaydi Grunvald deklaratsiyasining muhimligini yana bir bor tasdiqladi.

Xalqaro tashkilotlar, xalqaro OTMda san’at va madaniyat yo‘nalishida mediasavodxonlik texnologiyalari dunyo yoshlarining ko‘plab auditoriyasini media, axborot va bilimlar bilan almashish jarayonida faol ishtirokchisiga aylantirmoqda. San’at va madaniyat sohasi ta’lim tiziming barcha uchun ochiqligini yanada kengaytirishga ko‘maklashmoqda. Bu jarayonlar yoshlarning mediasavodxonlik darajasi yuqorilab, medianing ijtimoiy va madaniy ahamiyatini tushunib yetishga sabab bo‘ldi. Raqamlashtirish va axborot jamiyatining ijtimoiy-ommaviyligi oshdi. Buning natijasida media qurilmalar va texnologiyalar rivojlanish tendensiyasini tushunish bo‘yicha yangidan-yangi nuqtaiy nazarlar, muhokamalar shakllandi. Bu o‘z navbatida turli medialar konvergensiyasi davrida talabalarning kasbiy ko‘nikmalarining yanada mukammallashuviga xizmat qiladi. Shunday ekan, san’at va madaniyat yo‘nalishida mediasavodxonlik tushunchasining mohiyati davr va texnologiyalarning rivojlanishi bilan sayqallanib boraveradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Nazarbekov O. Milliy madaniyatni xalq yaratadi // jur. Guliston №4. – Toshkent.: Silver star print. 2021. 48 b.
2. Xodjayev B., Maxmudova M. O‘quvchi-yoshlarda axborot iste’moli madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi. – Toshkent.: Tafakkur qanoti, 2016. – 80 b
3. Namazov B., Fayziyeva M., Sharofaddinov Sh. Media va axborot savodxonligi. – Toshkent.: YUNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, 2017. 144 b.
4. Sayfullayev N. San’at va madaniyat ravnaqi taraqqiyot va xalq ehtiyoji mahsulidir// gaz. “Yangi O‘zbekiston” № 163. – Toshkent.: Kolorpak, 2024. 6 b.
5. Котляр П. Социальные предикаты новомедийного субъекта в дискурсе медиаграмотиости. Автореферат. – Казань, Издательства Казанского университета. 2018. 28 ст.
6. Xolliyev A. Media savodxonlik tushunchasi va uning ilmiy nazariy tahlili. Fan va innovatsiyalar xalqaro ilmiy jurnali A seriyasi №7. – Toshkent.: “Science and innovation” MChJ, 2022. (292-296 bb). – 895 b.
7. Tuominen S., Kotilaynen S., Lundvall A., Laakkonen. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. – Toshkent.: Extremum-press, 2017. 142 b
8. Goroxovskiy A. Media va axboriy savodxonlik bo‘yicha myammoli-tarbiyasi og‘ir yoshlar toifasi bilan ishlash uchun. – Bishkek.: @BRYCACentralAsia, 2021. 148 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Berdiyeva Iroda Xudayshukurovna,** O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti doktoranti, [**Бердиева Ирода Худайшукуровна**, докторант государственного института искусства и культуры Узбекистана], [**Iroda Kh. Berdiyeva**, PhD student State Institute of Art and Culture of Uzbekistan]; manzil: 190111, O‘zbekiston, Toshkent, [адрес: 190111, Узбекистан, Ташкент,], [address: 190111, Uzbekistan, Tashkent,] irodaberdiyeva701@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

MUAMMOLI VAZIYATLAR KASBIY TA’LIMDA PEDAGOGIK VOSITA SIFATIDA

© Z.K. Mamazova[1]✉

[1]O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada bo‘lajak pedagogika bakalavrining huquqiy bilimdonligi, yuqorida ko‘rsatib berilganidek, bo‘lajak professionalning murakkab fikrlash faoliyati aktidir. Oliy ta’lim muassasasida o‘qitishda mutaxassisning kasbiy tafakkurini rivojlantirishga nisbatan tadqiqotlar va ishlanmalarning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri, bizning fikrimizcha, muammoli vaziyat bo‘lib, vazifalar va topshiriqlar uning unsurlari vazifasini o‘taydi. Muammoli vaziyatlar, o‘quv muammolari va masalalari tizimi yordamida kasbiy faoliyat yetakchi jihatlarini o‘zlashtirishning mavzuiy negizi tuzilishi haqida fikrlar keltirilgan.

MAQSAD: ushbu tadqiqotni asosiy maqsadi bo‘lajak pedagoglarni huquqiy bilimdonligi, kasbiy tafakkurini va prognostik malakalarini shakllantirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: pedagogik faoliyatdagi muammoli vaziyatlarni chuqur tadqiq qilishni pedagogik ta’lim ilmiy maktablari taqdim etadi. S.L. Rubinshteyn, A.B. Brushlinskiy, T.V. Kudryavsev, A.M. Matyushkin, A.B. Karpov va M.M. Kashapovlarning g‘oyalariga tayangan holda, pedagog kasbiy tafakkurining birligi sifatida bu tadqiqotlarda pedagogik muammolilik ajratib ko‘rsatilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: muammoli ta'lim faoliyatini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda pedagog ushbu ta'limning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funktsiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. Pedagog hech qachon ta'lim oluvchiga tayyor yechimni berishi kerak emas, balki ularni fikrlashiga, aqliy rivojlanishiga, bilim olishlariga turtki bo'lishi, ularning barcha faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim. Ushbu ta'lim texnologiyasidan, muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida foydalanish mumkin. Masalan yangi mavzu bayonida, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda.

XULOSA: xulosa qilib aytganda muammoli o'qitish texnologiyasining maqsadi ta'lim oluvchilar bilan ishlash jarayonida ham ta'limiy ham tarbiyaviy masalalar, muammolar, turlicha savollariga javob qidirish, muammoli vaziyatlar ularni hal etish yo'llari bilan yangi bilimlarni o'zlashtirishni, faoliyatda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etishga o'rgatish ko'nikmasini shakllantirishdan, qiziqish uyg'ota olishdan iborat.

Kalit so'zlar: ta’lim, kasbiy faoliyat, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy kompetensiya, kasbiy xulq-atvor, kognitiv (kognitiv), xulq-atvor, kommunikativ.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Iqtibos uchun: Mamazova Z.K. Muammoli vaziyatlar kasbiy ta'limda pedagogik vosita sifatida. // Inter education & global study. 2024. №8. B.80–88.

ПРОБЛЕМНЫЕ СИТУАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

© З.К. Мамазова[1]✉
[1]Международная исламская академия Узбекистана,Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье правовое познание будущего бакалавра педагогики, как показано выше, представляет собой акт сложной мыслительной деятельности будущего профессионала. На наш взгляд, одним из наиболее перспективных направлений исследований и разработок в отношении развития профессионального мышления специалиста-педагога вуза является проблемная ситуация, в которой ее элементами выступают задачи и задания. Представлены мысли о структуре тематической основы освоения ведущих сторон профессиональной деятельности с помощью системы проблемных ситуаций, учебных задач и вопросов.

ЦЕЛЬ: основной целью данного исследования является формирование правовых знаний, профессионального мышления и прогностических навыков будущих педагогов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: углубленное изучение проблемных ситуаций в педагогической деятельности осуществляется научными школами педагогического образования. С.Л. Рубинштейн, А.Б. Брушлинский, Т.В. Кудрявцев, А.М. Матюшкин, А.Б. Карпов и М.М. Опираясь на идеи Кашапова, в этих исследованиях выделяется педагогическая проблематика как единица профессионального мышления педагога.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: важным аспектом организации и проведения проблемно-образовательной деятельности является то, что педагог должен хорошо понимать как образовательную, так и воспитательную функции этого образования. Учитель никогда не должен давать учащемуся готовое решение, а должен мотивировать его думать, интеллектуально развиваться, приобретать знания, помогать ему обрабатывать в уме информацию, явления и события, необходимые для всей его деятельности. Данная образовательная технология, проблемные ситуации могут использоваться на всех этапах образовательного процесса. Например, в изложении новой темы, в закреплении и контроле знаний.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: коротко говоря, цель проблемно-ориентированной технологии обучения – найти ответы на учебно-воспитательные вопросы, проблемы, различные вопросы в процессе работы с учащимися, приобрести новые знания путем решения проблемных ситуаций. умение создавать и учить решать ситуации, уметь вызывать интерес.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Ключевые слова: образовательная, профессиональная деятельность, правовая культура, правосознание, правовая компетентность, профессиональное поведение, познавательная (познавательная), поведенческая, коммуникативная.

Для цитирования: Мамазова З.К. Проблемные ситуации как педагогический инструмент профессионального образования. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 80–88.

PROBLEM SITUATIONS AS A PEDAGOGICAL TOOL IN VOCATIONAL EDUCATION

© Zarifa K. Mamazova[1]✉
[1]The International Islamic Academy of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in this article, the legal knowledge of the future bachelor of pedagogy, as shown above, is an act of complex thinking activity of the future professional. In our opinion, one of the most promising directions of research and development in relation to the development of the professional thinking of a specialist in teaching at a higher educational institution is a problematic situation, in which tasks and assignments serve as its elements. Thoughts on the structure of the thematic basis of mastering the leading aspects of professional activity with the help of the system of problem situations, educational problems and issues are presented.

AIM: the main purpose of this research is to form legal knowledge, professional thinking and prognostic skills of future pedagogues.

MATERIALS AND METHODS: in-depth study of problematic situations in pedagogical activity is provided by scientific schools of pedagogical education. S.L. Rubinstein, A.B. Brushlinsky, T.V. Kudryavsev, A.M. Matyushkin, A.B. Karpov and M.M. Relying on Kashapov's ideas, pedagogical problematics are distinguished in these studies as a unit of professional thinking of a pedagogue.

DISCUSSION AND RESULTS: an important aspect of organizing and conducting problem-based educational activities is that the pedagogue must have a good understanding of both the educational and educational functions of this education. A teacher should never give a ready-made solution to a learner, but should motivate them to think, intellectually develop, acquire knowledge, and help them to process in their minds the information, events and events necessary for all their activities. This educational technology, problem situations can be used at all stages of the educational process. For example, in the statement of a new topic, in strengthening and controlling knowledge.

CONCLUSION: in short, the goal of problem-based teaching technology is to find answers to educational and educational issues, problems, various questions in the process of working with students, to acquire new knowledge by ways of solving problematic

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

situations, It consists of forming the ability to create and teach to solve situations, to be able to arouse interest.

Key words: educational, professional activity, legal culture, legal awareness, legal competence, professional behavior, cognitive (cognitive), behavioral, communicative.

For citation: Zarifa K. Mamazova. ‘Problem situations as a pedagogical tool in vocational education, Inter education & global study, (№8), 2024. pp. 80–88. (In Uzbek).

Bo‘lajak pedagogika bakalavrining huquqiy bilimdonligi, yuqorida ko‘rsatib berilganidek, bo‘lajak professionalning murakkab fikrlash faoliyati aktidir. Oliy ta’lim muassasasida o‘qitishda mutaxassisning kasbiy tafakkurini rivojlantirishga nisbatan tadqiqotlar va ishlanmalarning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri, bizning fikrimizcha, muammoli vaziyat bo‘lib, vazifalar va topshiriqlar uning unsurlari vazifasini o‘taydi. Muammoli vaziyatlar, o‘quv muammolari va masalalari tizimi yordamida kasbiy faoliyat yetakchi jihatlarini o‘zlashtirishning mavzuiy negizi tuziladi. Bu holatda ziddiyatlarning hal qilinishi ham prognostik malakalarni shakllantirish mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

Muammoli vaziyat muammoli o‘qitishning ham negiz tushunchasidir [165, 116, 98, 34]. Muammolilik tamoyili muammoli o‘qitishda o‘quv materiali mazmunida ham, uni o‘quv faoliyatida kengaytirish jarayonida ham amalga oshiriladi. Birinchisi fan, amaliyot va o‘quv faoliyatining o‘zidagi mavjud ziddiyatlarni aks ettiruvchi o‘quv muammolari tizimini ishlab chiqish bilan erishiladi; ikkinchisi – dialogik turdagi muammoli o‘qitishni tuzish bilan, bunda pedagog ham, ta’lim oluvchilar ham shaxsiy, aqliy va ijtimoiy faollik va tashabbus namoyish etadilar, bir-birining mulohazalariga qiziqadilar, taklif qilinayotgan yechim variantlari borasida bahslashadilar (N.V.Jukova).

Pedagogik faoliyatdagi muammoli vaziyatlarni chuqur tadqiq qilishni pedagogik ta’lim ilmiy maktablari taqdim etadi. S.L. Rubinshteyn, A.B. Brushlinskiy, T.V. Kudryavsev, A.M. Matyushkin, A.B. Karpov va M.M. Kashapovlarning g‘oyalariga tayangan holda, pedagog kasbiy tafakkurining birligi sifatida bu tadqiqotlarda pedagogik muammolilik ajratib ko‘rsatilgan. Yuzaga kelayotgan muammoli vaziyatlarni pedagog bosh g‘oyalar darajasida, konstruktiv-metodik sxemalar darajasida yoki texnik usullar darajasida hal qila oladi (Yu.N. Kulyutkin, G.S. Suxobskaya). Tadqiqotimiz uchun muhim asos shundan iboratki, muammoli vaziyatlar nafaqat fan va ijtimoiy amaliyot tarixida sodir bo‘lgan o‘tmishdagi muammolar materialidan, balki talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati kontekstida ham yaratilishi mumkin, bunda muammoli o‘qitish bilim olish motivatsiyasini kasbiy motivatsiyaga aylantirishda yordam beradi.

Muammoli vaziyat talabaning topshiriqni bajarish jarayonida yuzaga keladigan, uning uchun tayyor vositalar mavjud bo‘lmaydigan va predmet haqida, uni bajarish usullari yoki shartlari haqida yangi bilimlarni o‘zlashtirishni talab qiladigan muayyan psixologik holatini tavsiflaydi. Muammoli vaziyatning yuzaga kelish sharti yangi munosabatni, xususiyatni yoki harakat usulini ochib berishga zaruratdir. Muammoli vaziyat – bu

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8


o‘quvchining ruhiy holati, bunda u: ziddiyatlarni, qandaydir nomuvofiqliklarni ko`radi, ularni yengib o‘tish yangi axborotni talab qiladigan qiyinchiliklar sifatida anglab yetadi, ushbu ziddiyatlar hal qilishni istaydi.

A.M. Matyushkin va T.V. Kudryavsevlarning tadqiqotlarida ta’kidlanadiki, vaziyatning muammoliligini biror-bir masalani hal qilish qiyinligi emas, balki bilish vositalarini jalb qilgan holda hal etilishi lozim bo‘lgan muayyan ziddiyatning mavjudligi keltirib chiqaradi.

M.M. Kashapov aniqladiki, xususan, modellashtiriladigan muammoli vaziyatning shaxsiy ahamiyatini ta’minlash muhim, bunda muammoli vaziyatlarni yaratish qoidalariga rioya qilinishi lozim. Muammoli vaziyatlarni modellashtirish vositalarini tanlashda muhim jihat muammoli vaziyatlarni tasniflash bo‘lib, adabiyotlarda bu borada turli fikrlar keltirilmagan [76].

L.M. Fridman o‘z tadqiqotlarida muammoli vaziyat va masala tarkibiy tuzilish jihatidan bir xilligini ko‘rsatadi. U muammoli vaziyatning elementlari harakatlarning real ob’ekti va real sub’ekti bo‘ladi, masalaning qismlari esa muammoli vaziyat elementlari aks etadigan va modellashtiriladigan belgi shakllari bo‘ladi deb hisoblaydi. Bunda masalada butun murakkab muammoli vaziyatning faqat ayrim jihatlarigina aks etadi. Masalani qo‘yishni muammoli vaziyatni modellashtirish sifatida, masalaning o‘zini esa uning ramziy modeli sifatida qabul qilish mumkin.

Muammoli vaziyat yuzaga kelishi natijasida o‘quvchilar ongida muammo shakllanadi. Odatda, u savol shaklida amalga oshadi, bunda muammo qanchalik chuqur ifodalangan bo‘lsa, unga qiziqish shunchalik kuchli bo‘ladi, demak, uni hal qilish shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Biz muammoli vaziyat tuzilishini chizma ko‘rinishida 2-rasmda keltirdik (A.M. Matyushkinga ko‘ra).



1.2.1-rasm. Muammoli vaziyat tuzilishi

A.M. Matyushkinning fikriga ko‘ra, muammoli vaziyat muammoli masala bilan to‘liq mos emas. Muammoli vaziyat, masaladan farqli ravishda, uchta asosiy tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi: yangi noma’lum munosabatga, harakat usuliga yoki shartiga kognitiv ehtiyoj yuzaga keladigan harakatni bajarish zarurati; yuzaga kelgan muammoli vaziyatda ochib

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

berilishi lozim bo‘lgan noma’lumlik; talabalarning qo‘yilgan topshiriqni bajarishdagi, shartlarni tahlil qilishdagi va noma’lumni kashf etishdagi imkoniyatlari.

Muammoli vaziyatning tashkil topishi ziddiyatlarning verbal tavsifini; matnli, jadvalli, grafik va b. noverbal tavsifini; muammoli tajribani namoyish etishni, muammoli tajribaga o‘yinli yoki aniq taqlid qilishni; kompyuterda taqlidni, laboratoriya eksperimentini talab qiladi. Shuningdek, muammoli topshiriqning faqat ifodasi bilan cheklanish ham mumkin. Loyihalashtiriladigan muammoli topshiriq yangi yo‘nalishdir.

Pedagogika ta’limida har xil pedagogik vaziyatlar an’anaviy va samarali tarzda amalga oshiriladi, ulardan huquqiy bilimdonlikni rivojlantirish maqsadida ham foydalanish mumkin. Muammoli o‘qitishning psixologik jihatlari 20-30-inchi yillarda A.N. Leontev va S.L. Rubinshteynlarning asarlarida ochib berilgandi. Olimlar uning asosini tashkil qilgan tafakkur ppsixologik qonuniyatlarini aniqlashgandi. Bu qonuniyatlar keyinchalik D.N. Bogoyavlenskiy, A.B. Brushlinskiy, V.V. Davidov, A.M. Matyushkin, H.A. Menchinskaya va boshqalar tomonidan yanada chuqurroq asoslab berildi [34, 55, 115]. Fikrlash va bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni muammoli topshiriqlarni bajarish davomida eng samarali tarzda kechishi aniqlandi. Muammoli o‘qitishning pedagogik asoslari D.V. Vilkeev, I.Ya. Lerner, T.V. Kudryavsev, M.I. Maxmutov, V. Okon, M.N. Skatkin va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan [108, 98, 136, 176].

Ushbu turdagi o‘qitishning an’anaviysidan asosiy farqi talabalarning amaliy va nazariy muammolarni hal qilish jarayonida yangi bilimlarni egallashga qaratilgan tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘nalganlikdir. Bugungi kunda muammoli o‘qitish deganda o‘quv mashg‘ulotlarini shunday tashkil etish tushuniladiki, u o‘qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatlarni yaratishni va o‘quvchilarning ularni hal qilish bo‘yicha faol mustaqil faoliyatini taqozo qiladi, buning natijasida kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni ijodiy o‘zlashtirish hamda fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishi yuz beradi. Muammoli o‘qitishning o‘ziga xosligi uning ko‘p funksiyaliligidan, quyidagi vazifalarni samarali hal etishidan iborat: o‘qishga ichki intilishlarni kuchaytirish; bilim olishga qiziqishni oshirish; mustaqillikni shakllantirish; ijodiy qobiliyatlarni, tasavvur qilishni rivojlantirish; kasbiy ta’lim muhitida o‘z o‘rnini belgilab olish uchun sharoit yaratish; kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish; o‘rganilganlarni puxta o‘zlashtirish; maslaklarni shakllantirish; tadqiqotchilik faoliyatini egallash.

Muammoli vaziyatlarni talabaga taqdim etish usullari, vaziyat mazmunini tanlab olish hamda muammoli o‘qitish natijalarini baholash usullari kasbiy ta’limda muammoli vaziyatlarni amalga oshirishning eng muhim masalalariga aylandi. Shu sababli pedagogik vaziyatlar tasniflariga murojaat qilamiz.

Pedagogik vaziyat modellashtirish ob’ekti sifatida har doim pedagogik jarayon doirasida, u orqali esa pedagogik tizim doirasida ham mavjud bo‘ladi. Pedagogik vaziyat – pedagogik jarayonning tarkibiy qismi bo‘lib, uning aniq vaqtdagi va muayyan makondagi holatini tavsiflaydi, u hamisha muayyandir. Pedagogik vaziyatlarning xilma-xilligi G.D. Buxarovaning ilmiy ishlarida berilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Pedagogik vaziyat yoki vujudga keladi, yoki mashg‘ulotda yaratiladi va shu zahotiyoq hal qilinishi lozim bo‘ladi.

Pedagogik vaziyat tuzilishi har doim oddiy: unga ikki yoki bir necha faoliyat sub’ekti va ularning birgalikdagi harakat usullari kiradi. Lekin pedagogik vaziyatning tashqi soddaligi zohiriydir. Pedagogik vaziyat ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari ularning murakkab ichki dunyosini, ularning tarbiyalanganligi va o‘qimishliligini amalga oshirish sifatida o‘rnatiladi. Tarbiyaviy vaziyat motivlar kurashi, tanlash amali, harakatga undash, muhim xususiyat bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi.

Pedagogik vaziyat tuzilishida maqsad, motiv, harakat va munosabatni ajratish mumkin. Tarbiyalash mexanizmi tarbiyalanuvchilarning hatti-harakatlari va xulqi emas, balki ularning shaxsiy hatti-harakatlari va sifatlarida amalga oshadigan munosabatlari tarbiyalanishini ko‘rsatadi. Aniq tarbiyaviy munosabatlar sifatida ifodalanib, pedagogik vaziyatlar ularning imkoniyatlarini amalga oshiradi. Tarbiya vaziyatida yuzaga keladigan munosabatlar uch qismdan iborat bo‘lgan psixologik tuzilishga ega:

Munosabatning kognitiv komponentini bolaning u yoki bu turmush tomonlari haqidagi tushunchalari va tasavvurlari tashkil qiladi. O‘z munosabatini bildirish – bu sohadagi bilimini namoyish etish demakdir. Agar bola nima qilishni bilmasa, harakat kutish mumkin emas.

Munosabatning emotsional-baholash komponenti bolaning tarbiyalash vaziyatidagi kechinmalari bilan tavsiflanadi (“yoqadi – yoqmaydi”, “quvontiradi – cho‘chitadi”, “ajablantiradi – g‘azablantiradi”).

Munosabatning hatti-harakat komponenti – bolaning ma’lum harakatlarga amaliy tayyorligining namoyon bo‘lishi; uning ijtimoiy tajribasi va xulqiy odatlarining ifodalanishi.


Pedagogik vaziyatning o‘ziga xosligi shundan iboratki, u mohiyatan integrativ bo‘lib, uning o‘zi yoki hatto vaziyatlar to‘plami pedagogikada shaklni ham, tizimni ham o‘rnini bosishi mumkin emas. Shakllardan pedagogik tizimni yaratish mumkin bo‘lmagani singari, vaziyatlardan shaklni yaratish mumkin emas. An’anaviy pedagogik vaziyatlar 3-rasmda keltirilgan.

Oldindan ishonch bildirish vaziyatiga (A.S. Makarenko) hali qotmagan, lekin ishonchni oqlashga tayyor shaxsga oldindan ishonch bildirilishi xosdir. Bolaning o‘rtoqlari tomonidan yoki uning uchun ahamiyatli katta kishi tomonidan ishonch bildirilishi uchun sharoit yaratiladi.

Erkin majburiylik vaziyati (T.Ye. Konnikova) – muayyan vaziyatning pedagog tomonidan qat’iy talab ko‘rinishida emas, balki oldindan mavjud motivlarni yangi sharoitda ahamiyatli qilish ko‘rinishida ta’sir ko‘rsatish mexanizmi. Tarbiyalanuvchining tarbiya sub’ekti sifatida pozitsiyasi shakllanadi.

Erkin tanlash vaziyati (O.S. Bogdanova, V.A. Karakovskiy) shundan iboratki, kishi oldiga hatti-harakatni mustaqil tanlash zarurati qo‘yiladi va u bu tanlovni amalga oshirish imkoniga ega bo‘ladi. Ba’zan tanlash vaziyati nizoli xususiyat kasb etadi, unda zid manfaatlar va munosabatlar to‘qnashuvi va kurashi yuz beradi (M.M. Yashchenko, V.M. Basov).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8



Muammoli ta'lim bu mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, izlanish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlar, echim topish, bilishga qiziqish, ehtiyoj, usullar qo'llaniladigan bir yangicha tizimidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdug‘aniev O.T. Talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari. Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologikpedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2023-yil 2-iyun. 708-713-b.
2. Abdullayeva F.Sh. Huquqiy ong va huquqiy komponentni yuksaltirish davr talabi. // Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020. 407 бет)
3. Allaberganov K. Huquqiy ong tushunchasini o‘rganishning nazariy jihatlari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804. 753-757-bet.
4. Cardador M.T., Dane E., Pratt M.G. (2011). Linking calling orientations to organizational attachment via organizational instrumentality // Journal of Vocational Behavior, 79. – P. 378.
5. Fazliddin J. Aholi muammolarini hal qilishning tashkiliy -huquqiy asoslari. Central asian academic journal of scientific research. ISSN: 2181-2489. VOLUME 1 | ISSUE 1 | 2021. 34-37-bet.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

6. Husa J. Legal culture vs. Legal tradition – Different Epistemologiyes? // Maastrich European Private Law Institute Working Paper. 2012. – No 18. – P.32.
7. Hutmacher W. Key competencies for.: Europe // Report of the Symposium Berne, switzerland 27-30 march, 1996. Council for cultural cooperation a secondary education for europe. Strasburg., 1997. C.11
8. Kroeber A., Kluchonu C. Culture: A Critical Review of Concepts and Definitions (Classic Reprint) Paperback – February 9, 2017– P. 244.
9. Mamajonov M. Milliy an'analar – o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish omili // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2007. – 5 son.
10. Shermuxammadov B. Yoshlar orasida milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirish: Monografiya. – T., 2013. – 196 b.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Zarifa Mamazova Kurbanovna**, O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi, "Ijtimoiy fanlar va huquq" kafedrasi katta o'qituvchisi, [**Зарифа Мамазова Курбановна**, направление Международной исламской академии Узбекистана, старший преподаватель кафедры "Социальные науки и право".], [**Zarifa K. Mamazova**, department of the International Islamic Academy of Uzbekistan, senior lecturer at the "Social Sciences and Law" department]; manzil: O'zbekiston, Toshkent sh. Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy [адрес: Узбекистан, Город Ташкент, Шайхонтохурский район, ул. Абдуллы Кадыри, 11], [address: Uzbekistan, Tashkent city, Shaykhontokhur district, 11, Abdulla Qodiriy st.]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KOMPETENTLIGINI LANDSHAFT DIZAYN VOSITASIDA SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

© L.J. Yadgarova[1]✉
[1]Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada bo’lajak tarbiyachilarning komponentligini landshaft dizayni vositasida shakllantirishning ahamiyati, landshaft arxitekturasi, peyzaj dizayni to‘g‘risida so‘z yuritildi.

MAQSAD: tashqi tillarni o‘qitishda loyihabozlik usullarining samaradorligini o‘rganish, ularning afzalliklarini va muammolarni aniqlash, shuningdek, ushbu usullarni o‘quv jarayoniga muvofiq integratsiyalashning omadli strategiyalarini ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida adabiyotlar bilan ishlash, suhbat, kuzatish hamda qiyosiy tahlil metdlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: maqolada muhokama qilingan usullar aniqlik va izchillikni ta'minlashga qaratilgan akademik yozishning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu usullardan foydalangan holda yozuvchi jumlalar va paragraflar o'rtasida aloqa o'rnatishi va yozish davomida izchil va izchil oqimni saqlab turishi mumkin. Ushbu usullarni o'quvchilarni jalb qiladigan yaxshi tuzilgan va ishonchli akademik yozuvni yaratishning asosiy qadamlari deb hisoblash mumkin.

XULOSA: komponentli landshaft dizayni estetik va amaliy jihatlarni hisobga olgan holda landshaft kompozitsiyalarida uyg'unlik va funksionallikka erishishga imkon beradi. Bunday yondashuv odamlar va tabiat ehtiyojlarini qondiradigan noyob va jozibali landshaftlarni yaratishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: bo‘lajak tarbiyachilar, landshaft dizayni, peyzaj, komponentlikning landshaft dizayni asosida shakllantirish.

Iqtibos uchun: Yadgarova L.J. Bo'lajak tarbiyachilarning kompetentligini landshaft dizayn vositasida shakllantirishning ahamiyati. // Inter education & global study. 2024. №8. B.89–93.

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ ЛАНДШАФТНОГО ДИЗАЙНА

© Л.Ж. Ядгарова[1]✉
[1]Бухарский государственный университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается значение формирования компетентности будущих воспитателей с помощью ландшафтного дизайна, а также рассматриваются вопросы ландшафтной архитектуры и пейзажного дизайна.

ЦЕЛЬ: изучить эффективность проектных методов в преподавании иностранных языков, выявить их преимущества и проблемы, а также разработать успешные стратегии интеграции этих методов в образовательный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались методы работы с литературой, беседа, наблюдение и сравнительный анализ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: методы, обсуждаемые в статье, направлены на обеспечение точности и последовательности, которые являются важными составляющими академического письма. Используя эти методы, автор может установить связь между предложениями и абзацами и поддерживать логичный поток в процессе письма. Эти методы можно считать основными шагами к созданию хорошо структурированного и убедительного академического текста, который будет привлекать внимание учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: компетентный ландшафтный дизайн позволяет достичь гармонии и функциональности в ландшафтных композициях с учетом эстетических и практических аспектов. Такой подход позволяет создавать уникальные и привлекательные ландшафты, удовлетворяющие потребности людей и природы.

Ключевые слова: будущие воспитатели, ландшафтный дизайн, пейзаж, формирование компетентности на основе ландшафтного дизайна.

Для цитирования: Ядгарова Л.Ж. Значение формирования компетентности будущих воспитателей с помощью ландшафтного дизайна. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 89–93.

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING THE COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS THROUGH LANDSCAPE DESIGN

© Lola J. Yadgarova[1]✉
[1]Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the importance of developing the competence of future educators through landscape design, and addresses topics related to landscape architecture and design.

AIM: to study the effectiveness of project-based methods in teaching foreign languages, identify their advantages and challenges, and develop successful strategies for integrating these methods into the educational process.

MATERIALS AND METHODS: the research used methods such as working with literature, interviews, observation, and comparative analysis.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

DISCUSSION AND RESULTS: the methods discussed in the article are aimed at ensuring accuracy and consistency, which are important components of academic writing. By using these methods, the author can establish connections between sentences and paragraphs, and maintain a logical flow throughout the writing process. These methods can be considered key steps to creating well-structured and reliable academic writing that engages learners

CONCLUSION: competent landscape design allows for harmony and functionality in landscape compositions, taking into account both aesthetic and practical aspects. This approach enables the creation of unique and appealing landscapes that meet the needs of both people and nature

Key words: future educators, landscape design, landscape, competence development based on landscape design.

For citation: Lola J. Yadgarova. (2024) 'The Importance of Developing the Competence of Future Educators Through Landscape Design', Inter education & global study, (8), pp. 89–93. (In Uzbek).

Peyzaj dizayni orqali bo'lajak o'qituvchilarning malakasini shakllantirish ularning talabalarni samarali jalb qilish va tarbiyalash qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Peyzaj dizaynini o'z mashg'ulotlariga kiritish orqali o'qituvchilar o'quv muhitida tashqi makonlarning ahamiyatini chuqurroq tushunishlari mumkin. Peyzaj dizayni o'qituvchilarga turli xil o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan qiziqarli va rag'batlantiruvchi tashqi makonlarni yaratish uchun bilim va ko'nikmalarni berishi mumkin. Ushbu bo'shliqlar amaliy o'rganish, izlanish va ijodkorlik uchun imkoniyatlarni taklif qiladigan sinfning kengaytmasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, landshaft dizayni o'qituvchilarga barcha talabalarning turli ehtiyojlarini qondiradigan inklyuziv va qulay muhit yaratishga yordam beradi. O'qituvchilar mehmondo'st va qulay bo'lgan tashqi makonlarni qanday loyihalashtirishni tushunib, har bir talabaning o'rganish va rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlashi mumkin.Ta'kidlash joizki, landshaft dizayni kelajakdagi o'qituvchilar orasida atrof-muhitni boshqarish va barqarorlikni ta'minlashi mumkin. Barqaror dizayn va koʻkalamzorlashtirish amaliyoti tamoyillari bilan tanishish orqali oʻqituvchilar oʻz oʻquvchilarida ekologik masʼuliyat hissini uygʻotishi va ularni tabiiy dunyoga gʻamxoʻrlik qilishga undashi mumkin. Umuman olganda, peyzaj dizayni orqali bo'lajak o'qituvchilarning malakasini shakllantirish ularning o'qitish ko'nikmalarini oshirishi, talabalarning faolligini oshirishi va atrof-muhitga bo'lgan hurmatini oshirishi mumkin. Pedagoglarni o'qitish dasturlariga landshaft dizaynini kiritish orqali biz o'qituvchilarga ham, talabalarga ham foyda keltiradigan yanada dinamik va samarali o'quv muhitini yaratishimiz mumkin.

Bilamizki, tabiiy landshaft arxitektura — bu inson yashashi va tabiiy dunyo oʻrtasidagi uygʻunlikni targʻib qiluvchi arxitektura falsafasi hisoblanadi. Bunda obʼekt bilan xushyoqish va yaxshi integratsiyani maqsad qilgan dizayn yondashuvlari orqali erishiladi, shuning

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

uchun binolar, mebellar va atrof-muhit birlashgan va uyg‘un holda bo‘ladi hamda o‘zaro bog‘liq kompozitsiyaning bir qismiga aylanadi. Bu uslub tabiat bilan uyg‘unlashish demakdir.

Landshaft arxitekturasi obyektlarining к<У 1 ami esa nisbatan kichik hududlarga ega, u aholi punktlari, shaharlar va ular atrofidagi ochiq muhitiami shakllantirish bilan bogMangan. Biroq keyingi davrlarda landshaft arxitektorlarining faoliyat doirasi kun savin kcngayib bormoqda. Shahar ochiq muhitiari, obyektlarini shakilantirishdan tortib, to keng masshtabli milliy boglar. xalqaro miqyosdagi ko'rgazm a parkiar, buzilgan landshaft muhitlarini zamonaviy landshaft obvektlari funksiyalariga moslashtirish, tarixiy bog'-saroylarni qayta tiklashgacliabo'lgan turli xif vazifalar landshaft arxitektorlari zimmasiga yuklanmoqda. To‘liq ishonch bilan aytish murnkinki, kelajakda landshaft arxitektorlarining nufuzi vanada oshib boradi. Ushbu vazifalarni yechishda landshaft arxitektorlari birinchi navbatda estetik, ckologo - gumanistik talablar va ijodiy qonuniyatlar asosida ish yuritmogM kerak boladi. Ochiq muhitlar obyektlarini yaratishning funksional va texnik tomonlarini e'tiborga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Peyzaj dizayni orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish ularning o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish va o‘qitish qobiliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Peyzaj dizaynini o'qituvchilar ta'limiga integratsiyalash o'qituvchilarga o'quv muhitida ochiq joylarning ahamiyatini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Peyzaj dizayni o'qituvchilarga turli xil o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan jozibali va rag'batlantiruvchi tashqi makonlarni yaratish uchun bilim va ko'nikmalarni berishi mumkin. Ushbu bo'shliqlar amaliy o'rganish, izlanish va ijodkorlik uchun imkoniyatlar yaratib, sinfning kengaytmasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, landshaft dizayni o'qituvchilarga barcha talabalarning turli ehtiyojlarini qondiradigan inklyuziv va qulay muhit yaratishga yordam beradi. Har bir o‘quvchini mehmondo‘st va qamrab oluvchi inklyuziv bo‘shliqlarni qanday yaratishni tushunish o‘qituvchilarga har bir talaba o‘rganish va rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlash imkonini beradi va ko‘kalamzorlashtirish ham bo‘lajak o‘qituvchilar orasida ekologik mas’uliyat va barqarorlikni oshirishga yordam beradi. Barqaror dizayn va landshaft amaliyotlarini o'rganish orqali o'qituvchilar o'quvchilarda ekologik mas'uliyat hissini uyg'otishi va ularni tabiiy dunyoga g'amxo'rlik qilishga ilhomlantirishi mumkin. Umuman olganda, landshaft dizayni orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning malakalarini shakllantirish ularning o‘qitish mahoratini oshirishi, o‘quvchilarning faolligini oshirishi va atrof-muhitni chuqurroq tushunishini rag‘batlantirishi mumkin. Peyzaj dizaynini o'qituvchilar uchun ta'lim dasturlariga integratsiya qilish o'qituvchilar va talabalar uchun yanada dinamik va samarali o'quv muhitini yaratadi.

Komponentli landshaft dizayni - landshaftni alohida komponentlar yoki elementlarga bo'lish va keyin ularni tahlil qilish, rejalashtirish va yagona bir butunlikda tartibga solishga asoslangan landshaft kompozitsiyalarini yaratishga yondashuv. Ushbu yondashuv landshaftning har bir elementini batafsil o'rganish va ularning munosabatlarini va bir-biriga ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Komponentli landshaft dizaynining asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

1. Landshaft tahlili: mavjud landshaft elementlari, ularning xususiyatlari, vazifalari va munosabatlarini o'rganish.

2. Komponentlarga ajratish: keyinchalik tahlil qilish va rejalashtirish uchun o'simliklar, yo'llar, suv ob'ektlari, haykallar va boshqalar kabi individual landshaft elementlarini izolyatsiya qilish.

3. Rejalashtirish va tashkil etish: landshaft kompozitsiyasidagi har bir komponentning joylashishini aniqlash, ularning o'zaro ta'sirini hisobga olish va uyg'un umumiy ko'rinishni yaratish.

4. Yaxlit kompozitsiyani yaratish: barcha komponentlarni dizaynning belgilangan maqsad va funktsiyalarini aks ettiruvchi yagona yaxlitlikka birlashtirish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. "O'zME", Tanlangan asarlar, Toshkent. 2000.
2. G'ofurov Sanjar, Berdiyev Dilmurod, Toshkent. 1993.
3. Gaynazarova, G. A., Matnazarova, K. O., & Parpiyev, O. O. (2023). FACTORS AND METHODS OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES IN THE CONDITIONS OF INDIVIDUAL TRAINING. *Academia Repository*, *4*(12), 131-135.
4. Гайназарова, Г. А. (2023). ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ-ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ МУҲИМ ВОСИТАСИ СИФАТИДА. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *8*(1), 36-40.
5. Гайназарова, Г. А., & Нормўминова, Н. (2024). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРГА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ БЕРИШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН МЕТОДЛАР. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *42*(2), 78-81.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Yadgarova Lola Jalolovna**, Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi katta o`qituvchisi. [**Ядгарова Лола Жалоловна**, старший преподаватель кафедры прикладной математики и технологий программирования Бухарского государственного университета.], [**Lola J. Yadgarova**, lecturer at the Department of Applied Mathematics and Technological Programming at the Bukhara State University]. Manzil: O‘zbekiston, 100200, Buxoro shahri, M. Iqbol ko‘chasi, 11 [адрес: Узбекистан, 100200, г. Бухара, ул. М. Икбол, 11], [address: Uzbekistan, 11 M. Iqbol str., Bukxara, 100200].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

INGLIZ TILINI CHUQUR O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH METODIKASI

© K.Y. Zaripov[1]✉

[1]Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqola ingliz tilini chuqur o'rganishda sun'iy intellektdan foydalanish metodikasiga bag'ishlangan bo'lib, unda hozirgi vaqtda sun'iy intellekt texnologiyalarini hayotning turli sohalariga joriy etish ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishni qayta ko'rib chiqish imkonini berishi va unda ishlatiladigan uslublar, texnologiyalar va metodlar haqida bo'lib hisoblanadi.

MAQSAD: o'quv jarayoniga mashina intellektini joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilish, texnologiyaning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, tizimni o'rganish va muntazam muammolarni hal qilish doirasida uning hayotiyligini baholash.

MATERIALLAR VA METODLAR: o'qituvchilar tomonidan aqlli ilovalardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar talabalarni qo'llab-quvvatlash texnologiyalarini o'rganishga qaratilgan ishlar kabi keng tarqalgan emas. Biroq, ko'pchilik o'qituvchilar o'quv amaliyotini to'ldirish uchun dasturiy ta'minot, yoki ilovalardan foydalanadilar. O'quv jarayonida mashina intellektining ahamiyati hamma joyda o'qitish, shaxsiylashtirish va kurs materiallariga oson kirish, audio-vizual vositalardan foydalangan holda samarali va kengaytirilgan javoblar va yozma ishlarni avtomatik baholashni o'z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o'qituvchilar uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish rejalashtirish va baholash kabi kundalik vazifalar uchun mantiqiydir. Sun'iy intellektga asoslangan chatbotlar ish sur'atini va kundalik ishlar samaradorligini oshirishi mumkin bo'lgan istiqbolli yutuqdir. Mashina intellektini o'qitishda qo'llashning muhim afzalliklaridan biri yozma ishlarni, shu jumladan insholarni avtomatik ravishda baholash qobiliyatidir.

XULOSA: umuman olganda, sun'iy intellekt to'g'ri belgilangan buyruq, to'g'ri foydalanish va texnik dasturlarni bilish sharoitida yozma ishni tekshirish uchun foydali yordamchi vosita bo'lishi mumkin. GPT suhbati grammatik, tinish belgilari va stilistik xatolarni tuzatish kontekstida foydali yordamchi hisoblanadi. Bu, ayniqsa, tajribasiz o'qituvchi uchun, yoki o'qituvchi ibora, yoki iboraning to'g'ri ifodalanishiga shubha qiladigan holatlarda to'g'ri keladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'limda sun'iy intellekt, chat bot, ingliz tilini o'qitishda chat bot, zamonaviy texnologiyalar, GPT chat, yozma ishni avtomatik baholash, yozma ishlarni tekshirish, ingliz tilini o'rgatish, o'quv jarayonida GPT ilovasi, ilmiy-amaliy tadqiqot.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Iqtibos uchun: Zaripov K.Y. Ingliz tilini chuqur o'rganishda sun'iy intellektdan foydalanish metodikasi. // Inter education & global study. 2024. №8. B.94–107.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УГЛУБЛЕННОМ ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

© К.Я. Зарипов[1]✉
[1]Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: данная статья посвящена методике использования искусственного интеллекта в углубленном изучении английского языка. В статье рассматривается внедрение технологий искусственного интеллекта в различные сферы жизни и их роль в обучении английскому языку как иностранному. Описываются методы, технологии и методики, применяемые в этом процессе.

ЦЕЛЬ: необходимо проанализировать возможности внедрения искусственного интеллекта в учебный процесс, выявить преимущества и недостатки технологий, а также оценить их жизнеспособность в рамках обучения и решения текущих проблем.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследования по использованию интеллектуальных приложений преподавателями, направленные на изучение технологий поддержки учащихся, не так широко распространены. Однако многие преподаватели используют программное обеспечение или приложения для дополнения учебной практики. В учебном процессе значимость искусственного интеллекта проявляется в возможностях повсеместного обучения, персонализации, легкого доступа к учебным материалам, использовании аудиовизуальных средств для создания расширенных ответов, а также в автоматической оценке письменных работ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: использование современных технологий преподавателями для планирования и оценки учебного процесса является логичным шагом. Чат-боты на основе искусственного интеллекта представляют собой перспективное достижение, которое может повысить эффективность выполнения ежедневных задач. Одним из важных преимуществ применения машинного интеллекта в обучении является способность автоматически оценивать письменные работы, включая эссе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в целом, искусственный интеллект может стать полезным вспомогательным средством для проверки письменных работ при правильной постановке задач, корректном использовании и знании технических программ. GPT-чат полезен для исправления грамматических, пунктуационных и стилистических ошибок. Это особенно актуально для начинающих преподавателей или в тех случаях, когда преподаватель сомневается в правильности выражения той или иной фразы.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Ключевые слова: искусственный интеллект, искусственный интеллект в образовании, чат-бот, чат-бот в обучении английскому языку, современные технологии, GPT-чат, автоматическая оценка письменных работ, проверка письменных работ, преподавание английского языка, приложение GPT в учебном процессе, научно-практическое исследование.

Для цитирования: Зарипов К.Я. Методика использования искусственного интеллекта в углубленном изучении английского языка. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 94–107.

METHODOLOGY OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN ADVANCED ENGLISH LEARNING

© Kamol Y. Zaripov[1]✉
[1]Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article is dedicated to the methodology of using artificial intelligence in advanced English language learning. It explores how the integration of AI technologies in various sectors of life provides an opportunity to reassess the use of AI in teaching English as a foreign language, focusing on the methods, technologies, and techniques applied in the process.

AIM: the objective is to analyze the potential of integrating machine intelligence into the learning process, assess the advantages and disadvantages of the technology, and evaluate its viability in the context of learning and solving regular problems.

MATERIALS AND METHODS: research on the use of intelligent applications by teachers to study student support technologies is not widespread. However, many teachers use software or applications to complement their teaching practices. The role of machine intelligence in the learning process includes universal teaching capabilities, personalization, easy access to course materials, enhanced responses using audiovisual tools, and automatic grading of written work

DISCUSSION AND RESULTS: for teachers, using modern technology for tasks like planning and evaluation is logical. AI-powered chatbots represent a promising innovation that can enhance the efficiency of daily tasks. One of the significant advantages of applying machine intelligence in teaching is the ability to automatically assess written work, including essays.

CONCLUSION: overall, AI can be a valuable assistant for checking written work if commands are set correctly, and there is proper knowledge of technical applications. GPT chat is a useful assistant for correcting grammar, punctuation, and stylistic errors. This is particularly helpful for novice teachers or when a teacher is unsure about the correct phrasing of a sentence or expression.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Key words: artificial intelligence, AI in education, chatbot, chatbot in English teaching, modern technologies, GPT chat, automatic assessment of written work, checking written work, teaching English, GPT application in the learning process, scientific-practical research.

For citation: Kamol Y. Zaripov. (2024) 'Methodology of Using Artificial Intelligence in Advanced English Learning', Inter education & global study, (8), pp. 94–107. (In Uzbek).

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonlarida sun'iy intellektdan foydalanishga qiziqish ortib bormoqda. Biroq, aqlli texnologiyalardan foydalangan holda ingliz tilini o'qitishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ilmiy nashrlarning umumiy mavzusi emas. Shunga qaramay, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ishlarning aksariyati tahlil qilindi, uning asosiy yo'nalishlari chet tilini o'qitish doirasida mashina intellektiga asoslangan turli xil ilovalarni ko'rib chiqishga qaratildi. Bu yo'nalishda ilmiy-amaliy tadqiqot olib brogan olimlar quyidagilardir: P.V.Sysoev, E.M.Filatov, Yu.E.Valkova, A.A. Xorijiy tadqiqotlar yozma ishlarni yozish va tahrirlash kontekstida GPT chatidan foydalanishni baholaydi, asosiy e'tibor o'qituvchilar va talabalar tomonidan sarflangan vaqt va kuchlarni tejash, chatbotning g'oyalarni yaratish va matnlar sifatini yaxshilash qobiliyatini aniqlashga qaratilgan [1-3]. Mahalliy mualliflar GPT chatining talabalarning kognitiv faolligiga ta'sirini va aqlli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlarini o'rganadilar, shuningdek ularning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlaydilar [4-6]. Shunga qaramay, tizimning cheklovlari va ilmiy ishlarning hammuallifi sifatida GPT chatining nomuvofiqligi haqida fikrlar mavjud [7]. Bundan tashqari, ba'zi ekspertlar o'quvchi-talabalar bilimining ta'siri va natijalarini tahlil qilishga e'tibor berishadi [8; 9]. Biroq, GPT chatining potentsialini yanada o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda, chunki tizim rivojlanishda davom etmoqda va o'zaro aloqalar davomida muqobil natijalar beradi.

Shunday qilib, texnologiyani ta'limga joriy etish zaruriy chora bo'lib, muayyan tarmoq bo'yicha izlanuvchan mutaxassis tayyorlash nuqtai nazaridan pedagogik jarayonning tarkibiy qismiga aylanishi kerak. Shunga ko'ra, aqlli texnologiyalarning ta'lim sohasiga to'g'ri integratsiyalashuvini aniqlash, jumladan, oliy ta'limda talabalarning chet tillarini, jumladan ingliz tilini o'qitish, ularning imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, zamonaviy tizimlarni sinovdan o'tkazish va tahlil qilish zarur. Ilmiy yangilik raqamli tizimlarning jadal rivojlanishi va ta'lim jarayonini takomillashtirish maqsadida texnik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tillarini o'qitishning bir qismi sifatida chat agentlarini potentsial joriy etish imkoniyati bilan belgilanadi. Tadqiqot talabalarning yozma ishlarini tekshirish kontekstida GPT chatining amaliy qo'llanilishini o'rganadi, tizim avtonomiyasining nosozliklarini aniqlaydi va aniqlaydi.

GPT chati yordamchi vosita sifatida. Tadqiqotning maqsadi texnik universitetda ingliz tilini o'qitish kontekstida GPT chatidan foydalangan holda talabalarning yozma ishlarini avtomatik baholashning hayotiyligini tahlil qilishdir.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Tadqiqot maqsadlari: talabalarning yozma topshiriqlarini tekshirish uchun GPT chatidan foydalanishning maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun chat boti bilan amaliy hamkorlik qilish; tizim potentsialini tahlil qilish; yozma ishni avtomatik tekshirish doirasida raqamli yordamchining samaradorligi va cheklovlarini aniqlash.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonida o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash kontekstida raqamli texnologiyalardan, jumladan sun'iy intellektdan foydalanish ufqlarini kengaytirishdan iborat.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati o'qituvchi uchun odatiy vazifalarni hal qilish va yozma ishlarni tekshirishga sarflangan vaqtni qisqartirish uchun o'quv amaliyotida GPT chatbotidan foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Eng yangi texnologiyalar va raqamlashtirish jadal rivojlanib, hamma joyda qo'llanilmoqda. Ilgari texnologiyalardan faqat professional darajada foydalanish mumkin edi, ular oddiy odamga begona bo'lib tuyulardi, ammo texnologik taraqqiyot to'xtamaydi va hozirda eng yangi tizimlar turli sohalarda qo'llanilmoqda. Zamonaviy texnologiyalarning eng takomillashib borayotgan vositalaridan biri bu sun'iy intellektdir. Hozirgi vaqtda "Sun'iy intellekt" atamasini aniqlashning ko'plab variantlarini topish mumkin. Shunga qaramay, ularning barchasi inson miyasining ishlashiga taqlid qiluvchi mashina dasturlaridan foydalanish bilan bog'liq. Sun'iy intellektning o'ziga xos xususiyati uning vazifalarni bajarish jarayonida o'z-o'zini o'rganish va takomillashtirish qobiliyatidir, bu esa an'anaviy tizimlardan farqli o'laroq, o'zgaruvchan ehtiyojlarga moslashishga imkon beradi. [11, 8].

Biz yashayotgan XXI asr shubhasiz zamonaviy innovatsiyalar asridir. Hozirgi kundagi jadal rivojlanishning asosi bo'lgan telekommunikatsion texnologiyalar yaqin kunlarda sun'iy intellekt va uning ommaviy shaklda barcha sohalarga kirib kelishi ulkan voqealardan biri bo'ldi. Sun'iy intellekt, hozirga qadar faqat ishlab chiqarish, robot texnologiylari va murakkab hisoblash amaliyotlarini bajaruvchi elektron texnologiya degan tor ko'lamdan, hayotning turli jabhalariga va ayniqsa ilm-fan taraqqiyotiga, shu jumladan ingliz tilini o'rganish hamda o'rgatishda ham sezilarli hissa qo'shishni boshladi.

Raqamli texnologiyalarning evolyutsiyasi, shubhasiz, ta'lim jarayoniga ta'sir qiladi, chunki an'anaviy ta'lim tizimi 21-asrda har doim ham shaxsning talablari va ehtiyojlarini qondira olmaydi. [10]. Binobarin, ta'lim muhiti zamonaviy dunyo talablariga moslashtirilishi kerak, bunda intellektual texnologiyalar eskirgan usullarni o'zgartiradi, o'quv jarayonini yanada faolroq va samaraliroq qiladi [11, 7].

Ta'limda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishni uch jihatga bo'lish mumkin: o'quvchilarga yordam berishga, o'qituvchilarga yordam berishga va umuman o'quv jarayoniga sun'iy intellekt tizimini joriy etishga qaratilgan [12, 11].

Hozirgi vaqtda ingliz tilini o'rgatishda eng ommabop sun'iy intellekt vositalari matnni taniy oladigan va tahlil qila oladigan tizimlar, masalan, ovozli yordamchilar, chat botlari, onlayn tarjimonlar, shuningdek, imlo va tinish belgilarini, grammatika va stilistikani tekshirish uchun mo'ljallangan xizmatlardan iboratdir. [13, 244].

Ushbu tadqiqotda biz aqlli texnologiyalardan o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida foydalanishni tahlil qilishga e'tibor qaratamiz, ya'ni sun'iy intellekt asosida

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ishlaydigan GPT 3.5 chatbotidan o'quvchi-talabalarning malakasini baholash jarayonida foydalanish imkoniyatlarini o'rganamiz.

Yaqinda Open AI o'zining so'nggi yutuqlarini taqdim etdi: GPT 3.5 va GPT 4 chatbotlari, bu sun'iy intellekt texnologiyalari integratsiyasini sezilarli darajada soddalashtirdi va o'quv jarayoni samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan ijobiy natijalarni ko'rsatdi. Yangilangan versiyalar matnli materiallarni yaratish vositalari va ilovalari sohasida sezilarli yutuqlar bilan ajralib turadi. Mavjud chatbotlar bilan solishtirganda, tizimlar matn yaratishda, ayniqsa, uzun insholar va ijodiy ishlarni yaratishda yuqori samaradorlikni taklif qiladi va turli akademik va professional vazifalarni bajarishda insonga o'xshash harakatlarni amalga oshirishning ajoyib qobiliyatiga ega. Bu haqiqatan ham matn yaratish sohasidagi inqilobni ifodalaydi [14; 15]. Akademik munozaralar universal xarakterdagi turli xil yozish vazifalarini hal qilishda GPT chatining potentsial muhim rolini ko'rsatadi [16].

Chet ellik tadqiqotchilar GPT chatidan foydalanishni to'liq tsiklli asarlarni yozish uchun samarali vosita: g'oyadan yakuniy tahrirgacha ko'rib chiqishadi. Asosiy afzallik – vaqt va kuchni tejash, bu talabalar va o'qituvchilarning diqqatini boshqa vazifalarga qaratish imkonini beradi [2]; yozma topshiriqlar uchun yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati [3]; tarjimaning yuqori sifati, til tuzilmalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni bartaraf etish [17]. Mashina razvedkasi grammatik, sintaksis va imlo xatolarini tuzatishni taklif qilib, talabalarning yozma ishlarini tekshirishi va tahrir qilishi mumkin [1].

Mahalliy mualliflar GPT chatidan foydalanishning funktsional imkoniyatlarini talabalarning bilim faolligi nuqtai nazaridan tahlil qiladilar, chatning o'quvchi-talabalarning tanqidiyligi, ijodkorligi va motivatsiyasini rag'batlantirish qobiliyatiga ishora qiladilar [4]; chet tillarini, jumladan ingliz tilini o'qitish doirasida aqlli texnologiyalarning integratsiya strategiyalari va ijobiy tomonlari mavjud [5]; ilmiy faoliyatni optimallashtirish vositasi sifatida sun'iy intellektdan foydalanish mumkin [6]. D.V. Agaltsova va Yu. Valkova oliy ta'lim sharoitida sun'iy intellektga asoslangan turli platformalarning umumiy ko'rinishini taqdim etdilar, shuningdek, ta'lim taraqqiyoti va talabalarning mustaqil ishlarini vizuallashtirish nuqtai nazaridan tizimning ijobiy tomonlarini aniqladilar [22]. P.V. Sysoev va E.M. Filatov o'z ishlarida GPT chatining ilmiy matnlarni yaratish qobiliyatini sinab ko'rishga qaratilgan empirik tadqiqot olib boradilar. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, mualliflar tadqiqot faoliyati doirasida aqlli texnologiyaning nomuvofiqligini ta'kidlaydilar [7].

Yozma ishni baholash juda ko'p vaqt talab qiladigan ish bo'lishi mumkin, ayniqsa talabalarning katta guruhi bilan ishlashda. Jarayonni avtomatlashtirish test sinovlariga sarflanadigan vaqtni sezilarli darajada qisqartirishi va o'qituvchilarga o'qitishning muhimroq jihatlariga, masalan, dastur ishlab chiqish, yoki tabaqalashtirilgan o'qitishga e'tibor qaratish imkonini beradi. Avtomatik baholash katta hajmdagi matnli ma'lumotlarga o'rgatilgan algoritmlar va neyron tarmoqlardan foydalanishga asoslangan. Bunday tizimlar yozma ishning turli tuzilmaviy va mazmuniy jihatlarini, masalan, matnni tashkil etish va izchilligi, lug'at, stilistik elementlardan foydalanish va fikrning mantiqiy ketma-ketligini tahlil qilish qobiliyatiga ega.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Shuningdek, inshoni avtomatik baholash uchun sun'iy intellekt baholashning obyektivligi va izchilligini oshiradi, chunki sun'iy intellekt algoritmlari oldindan belgilangan mezonlar asosida boshqariladi, bu esa subyektiv inson omilining ta'sirini kamaytirishga yordam beradi [24, 25].

Ushbu tadqiqot ishi oliygohda ingliz tilini o'qitish kontekstida yozma ishlarni tekshirish vositasi sifatida GPT 3.5, GPT 4 chatbotidan foydalanish samaradorligi va maqsadga muvofiqligini tahlil qilishga qaratilgan. Hozirgi kunda sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan dasturlar sirasiga Chat GPT, Yandex AI, Google AI kabilarni misol qilib aytishimiz mumkin. Sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan texnologiyalardan o'quvchilar, talabalar va ilmiy ish qilmoqchi bo'lgan bo'lajak doktorant mutaxassislari hamda mustaqil tadqiqotchilar o'zlarining kundalik vazifalarini bajarishda foydalanib kelmoqdalar. Shu bilan birga sun'iy texnologiya asosida ishlaydigan dasturlar bilan ko'pchilik talabalar maktab davrida tanishishlarini inobatga olgan holda, ulardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish, ustozlarning ushbu jarayonni ta'qiqlash o'rniga ushbu jarayonni nazorat qilishlari, sun'iy texnolgiyalardan darsda va undan tashqarida unumli foydalanish madaniyatini shakllantirishlari dolzarb masalaga aylanmoqda.

Sun'iy intellekt rivojlanish yo'nalishlari, bu bilimlarga asoslangan tizimlar yaratish va bilimlarni taqdim etishdir. Bu sun'iy intellektning asosiy yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Ular ekspert tizimlari yadrosini tashkil etuvchi bilimlarni tavsiflash modellari, bilimlar bazalari yaratish bilan bog'liqdir. Masalan, test asosida talaba yoshlarning, ingliz tili o'rganuvchilarining bilim saviyasini tekshirib, tashxis qoyib, siflarga-guruhlarga ajratib, tabaqalashtirib o'rgatish, ya'ni ingliz tilini bilish darajasiga qarab tabaqalashtirib o'rgatish, bular: a) past o'zlashtirgan, yoki boshlang'ich guruhlar; b) o'rta o'zlashtirgan guruhlar; c) yaxshi o'zlashtirgan guruhlar.

Ingliz tilini talaba yoshlarga o'rgatishda sun'iy intellekt rivojlanish yo'nalishlari quyidagicha amalga oshirgan maqsadga muvofiq bo'ladi (qarang: 1-rasm):

1. Tabiiy tilga yaqin interfeysni yaratish va mashina yordamida tarjima qilish. Bu yo'nalishdagi birinchi dastur ingliz tilidan rus tiliga tarjima qiluvchi dasturdir. Tahlil qilish quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

– sintaksis tahlil;
– so'zlar orasidagi bog'lanishlarni, grammatika gaplarni tahlil qilish;
– morfologik tahlil – matnda so'zlarni tahlil qilish;
– progmatik tahlil – shaxsiy bilimlar bazasiga asoslanib gapning ma'nosini biror atrofda tahlil qilish;
– semantik tahlil – biror predmet sohaga yo'naltirilganlgan bilimlar bazasiga asoslanib har bir gapning ma'nosini tahlil qilish.

2. Qiyofani bilish (распознование образов). Sun'iy intellektning traditsion yo'nalishlaridan bo'lib, uning alohida yo'nalish bo'lib, rivojlanishda katta o'rni bor. Bunda har bir obyektga belgilar matritsasi mos qo'yilib, uning qiyofasi bilinadi (o'rganiladi).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

3. Intellektual robotlar. Robotlar – inson mehnatini avtomatlashtiruvchi elektromexanik qurilmalardir. Robotlarni yaratish fikri qadimiy bo'lib hisoblanadi. Robot so'zi esa 20 – yillarda chex yozuvchisi Karel Chapek tomonidan taklif etilgan.

4. O'qitish va o'z-o'zini o'qitish. Bu sun'iy intellektning tez rivojlanayotgan bulimlaridan hisoblanadi. U o'zida tahlil va ma'lumotlarni yig'ish asosida avtomatik ravishda bilimlarni to'plashga yo'naltirilgan usullar, algoritmlar va modellarni mujassamlashtiradi. Shuningdek misollar yordamida o'qitish, belgilarni bilishning an'anaviy yo'nalishlaridan ham foydalanadi.

Sun'iy intellektda ekspert sistemelar mavjud bo'lib, ular ingliz tilini o'rgatish va o'rganishda qulay vosita hisoblanadi. Ekspert sistemalar – bu sun'iy intellektning yorqin va tez rivojlanadigan sohalaridan biridir.

Ekspert sistemalar maslahat berishadi, analiz o'tkazishadi, sinflarga ajratishadi va diagnoz qo'yishadi. Ular odatda mutaxassis tomonidan ekspertiza o'tkazilib, yechiladigan masalalarga yo'naltirilgandir. An'anaga ko'ra bilimlar ikki xil ko'rinishda bo'ladi – jamoa va shaxsiy tajriba bilimlari, bo'lib ekspert tizimlarida ham shu bilimlar mavjud. O'rta maxsus ta'lim maskanlarida tillarni va xususan ingliz tilini o'qitishda sun'iy texnologylardan keng miqyosda foydalanish mumkin. Xususan ingliz tilidagi o'qish (reading), eshitish (listening), so'zlashuv (speaking), va yozish (writing) ko'niklamalarini shakllantirishda sun'iy intellektdan foydalanish, chet tili o'rganuvchilari uchun qo'shimcha manba sifaitda foydlanaishda muhim rol o'ynaydi.



1-rasm. Ingliz tilini talaba yoshlarga o'rgatishda sun'iy intellekt rivojlanish yo'nalishlari.

Sun'iy intellekt dasturlarining eng yorqin vakili Chat GPT ommaga dastlab 2022-yil noyabr oyida ommaga namoyish etilganidan buyon uning ikkita versiyasi ya'ni Chat GPT 3.5 va Chat GPT 4.0 dasturlari taqdim etildi. Hozirga qadar ushbu dasturlarga ovozli, yoki yozma buyruq berish orqali foydalanuvchi o'ziga kerakli ma'lumotlarni olishi mumkin edi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Endilikda ushbu dasturlarning rasmlar yuborish, undagi matnga oid ma'lumotlarni aniqlash imkoniyati tug'ildi.

Quyida Chat GPT misolida maktab o'quvchilarini va oliygoh talabalarini ingliz til o'rganishida mazkur dasturdan qanday foydalanishi mumkinligi haqida ma'lumot keltirdik (qarang: 3-rasm). Ushbu dasturni misol sifatida keltirilishi uchun asosiy sabab qilib dasturning keng ko'llamda qo'llanilayotganligi va uning bepul dastur bo'lganligi uchun hamda barcha uchun foydalanish imkoniyatini yaratishi asos qilib olindi.

1. Readingdan foydalanish. Reading, ya'ni ingliz tilida o'qish qobiliyatini rivojlantirish uchun Chat GPT dasturidan quyidagi yo'llarda foydalanish mumkin (qarang: 2-rasm):

A) Comprehension, ya'ni matn mazmunini anglashga oid tekst va savollar tuzishni so'rash, matnni o'qib chiqib, javoblarni bergach sun'iy intellektdan javoblarni tekshirish, xatolarni tahlil qilishni so'rash mumkin.


B) Chat GPT dasturidan lug'at sifatida foydalanish, tushunmagan so'zlarga synonymlar berish, tekst mazmunini tushunishga yordam beradigan kalit so'zlarga izoh berishni so'rash mumkin. Bu til or'ganuvchi talabaning tekstdan uzilmagan holdan uning mazmunini anglashga yordam berishi ushbu dasturning ustunlik Tomoni bo'lsa, dastur hozirgi kunda hali o'zbek tilida to'liq ishlamasligi, va til o'rganuvchisining bilim darajasi B2 darajasi atrofida bo'lishi dasturni hali keng ko'llamda foydalinishdan to'suvchi omil hisoblanadi.

C) Ingliz tilidan hozirgi kunda keng miqyosda chet tili sertifikatlari bo'lmish IELTS, TOEFL va Multi Level sertifikatlarini qo'lga kiritish uchun tayyorlanayotgan maktab o'quvchilari, talabalar va til o'rganuvchilar uchun Chat GPT dasturidan foydalanish, bunda o'qish qismidagi qiyin savol turlarini tushuntirish uchun turli xil matnnini savollari bilan tuzish, ularning javoblariga izoh berishni so'rash orqali bahsli savollarning to'g'ri, yoki noto'g'ri javoblar orasidagi farqini aniqlash va anglash uchun foydalanish mumkin. Masalan, True (to'g'ri), False (notog'ri), va Not Given (matnda berilmagan) degan savollardagi ko'pchilikni qiynaydigan masla bu savol turlaridagi javoblarning tekst mazmuniga yaqin va yaqin emasligni tushunishi bo'lib, uni anlash uchun odatda darsda ustoz bilan takororiy darslar qilishdan tashqari endilikda sun'iy intellekt vositaisda ushbu farqni darsdan tashqarida virtual ustoz bilan ham o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Xuddi shunga o'xshash ravishda paragraflarga sarlavha qo'yishni anlgash uchun Chat GPT dasturidan ma'lum mavzuda matn yaratib kerakli savol turi bo'yicha savollar tuzishni sor'ash, keyinchalik testni yechgan talaba uning javoblarini sun'iy intellekt dasturidan tekshirishi, javoblarga izoh berishni so'rashi mumkin. Masalaning muhim jihati dasturga berilayotgan prompt ya'ni buyruqlarni aniqlik bilan berish til o'rganuvchisiga foyda keltirishi, agar xato buyruq berilsa natija kutilgandek chimasligini aytib o'tish mumkin.

Xuddi shuningdek, dasturdan bo'sh nuqtalar o'rnini to'ldirishni so'raydigan savol turi uchun matn yarataish, savollarning javoblarini yechgach, izoh so'rash mumkin. Qiziq Tomoni shundaki, til o'rganuvchi talaba o'zi xohlagan mavzuda Chat GPT dasturidan matn yaratishni so'rashi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

D) Sun'iy intellekt dasturlaridan til o'rganish uchun foydalanish, unda ishonchli materiallar ro'yxatini so'rash, imtihondagi o'qish ko'nikmasi bilan bog'liq maslahatlarni ham olish imkoniyati mavjud.



2-rasm. Reading, ya'ni ingliz tilida o'qish qobiliyatini rivojlantirish uchun Chat GPT dasturidan foydalanish yo'llari.

2. Listeningdan foydalanish. Listening, ya'ni eshitish ko'nikmasini shakllantirish uchun ingliz tilidagi suhbatning mazmunini tushunish, va ayniqsa lug'at boyligi talab etiladi. Til o'rganuvchi talaba C1 darajasiga ko'tarilishi uchun odatiy suhbat mavzularida uchraydigan lug'at so'zlarini bilishi talab etiladi. Chat GPT internetda mavjud barcha ma'lumotlardan foydalangan holda til o'rganuvchiga odatiy mavzular bo'yicha listening testida takror keluvchi so'zlar ro'yxatini ularning mazmuni bilan beradi. Faqat shunisini yodda tutish kerakki ushbu so'zlar izohi bilan bir tilda ya'ni ingliz tilida beriladi. Demakki ushbu platformadan foydalanish til o'rganuvchidan ma'lum bilim darajasini talab qiladi. Eshitish ko'nikmasini yaratish til o'rganishning nisbatan eng osson qismi hisoblanadi. Bunga sabab til o'rganuvchisining o'rganadigan tiliga ko'p vaqt miqdorida turli xil vaziyatda, masalan film ko'rish, Internetda ma'lumot almashish jarayonida va hatto kundalik hayotida ko'cha, o'qish va ish joyida shu tilga oid so'zlarni ko'p eshitshi bilan bog'liq.

Danning-Kruger tas'ir nazariyasiga binoan o'rganuvchining ishonch darajasi uning salohiyatiga nisbatan domiy ravishda o'zgarib turadi. Agar til o'rganuvchi dastlabki ishonch darajasi so'nishidan keyin, ma'lumotni tushunish bilan qiynalganida izchillik bilan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

o’rganishdan to’xtamsa dastlab anglash va keyinchalik tildagi suhbat mazmunini bemalol tushunish darjasiga yetadi. Ingliz tilida buni amalga oshirish uchun subtitrli suhbatlarni eshitish, odatda bir shevada gapirilgan filmlar, ko’rsatuvlarni tomosh qilish tavsiya etiladi. Chat GPT til o’rganishni tizimli ravishda o’rganish uchun yaxshi tavsiya manbasi ekanligini inobatga olsak, undan Amerika Ingliz tilisi shavasidagi filmlar darajasiga binoan filmlar ro’yxatini berishni so’rash mumkin.

3. Speakingdan foydalanish. Speaking, ya’ni Ingliz tilida so’zlashish qobiliyatini shakllantirish uchun ushbu dastur bir necha xil vazifalarni bajarish orqali til o’rganuvchi talabaga mustaqil ravishda nutqni shakllantirishga ko’maklashadi. Chat GPT internetda mavjud ma’lumotlardan kelib chiqib eng ko’p tarqalgan savollarni so’rashi, fikr yetishmovchiligdan qiynaladigan talabalar uchun turli variantdagi javoblarni taqdim etishi mumkin. Eng qizig’i ushbu dasturda ovozli suhbat imkoniyati mavjud bo’lib til o’rganuvchi virtual ravishda imtihon savollariga javob berishi, dastur erishilgan yutuq va kamchiliklarni baholashi, yaxshiroq javob berish bo’yicha lug’at, grammatika, talaffuz, ravonlik bo’yicha aniq tavsiyalar ham berish kabi imkoniyatlar mavjud. Yana bir foydali jihat sifatida dasturning har bir nutq qismlari bo’yicha maslhatlar berishini keltirish mumkin. Dasturdagi kamchilik sifatida savollarning IELTS imtihondagidek uzluksiz berilmasligi, talabaning nutq ko’nikmasini baholashda xatoliklarni keltirish mumkin.

4. Writing – insho yozishga ko’nikma hosil qilishdan foydalanish. Insho yozish ko’nikmasi Ingliz tilidagi eng murakkab jarayonlardan bo’lib, bunda til o’rganuvchi bir nechta kamchiliklarga yo’l qo’yishi tabiiy holdir. Xususan, insho yozish jarayonida grammatik xatolar, masalan, punktuatsion belgilar, zamonlar tanlovi, ega va kesimning moslashuvi kabi muammolar ko’plab uchraydi.



3-rasm. Maktab o’quvchilarini va oliygoh talabalarini ingliz tilini o’rganishda Chat GPT dasturidan foydalanishi.

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Matndagi xatolarni muvaffaqiyatli tuzatish va topish uchun chatbotni aniq tuzilgan buyruq bilan ta’minlash kerak va bu bir necha urinishlarni talab qilishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

2. Chatbot grammatik va stilistik xatolarni tuzatishga qodir, shuningdek, tinish belgilariga e'tibor beradi, bu muhim afzallikdir, chunki o'qituvchi ba'zida inson omili tufayli bunday kamchiliklarni o'tkazib yuborishi mumkin. Biroq, chatbot tomonidan tuzatilgan xatolar har doim ham mutlaqo to'g'ri emas.

3. Sun'iy intellekt tekshiruvlari o'qituvchiga qaraganda ancha tezroq ishlaydi: javobni bir daqiqada olish mumkin, qo'lda baholash esa 5 daqiqa, yoki undan ko'proq vaqtni olishi mumkin, ayniqsa batafsil tahlil o'tkazilsa.

4. GPT chatboti matndagi xatolarni tuzatishga qodir, lekin grafiklarni noto'g'ri tushunish bilan bog'liq xatolarni tahlil qilish va tuzatishga qodir emas, chunki u vizual idrok etish qobiliyatiga ega emas.

5. Yozma ishni chatga yuklash uchun elektron format talab qilinadi. Shu bilan birga, yozma ishni nazorat qilish jadval tavsifini yozma ravishda to'ldirishni o'z ichiga oladi, bu jarayonni murakkablashtiradi va qo'lda yozilgan matnni elektron formatga aylantirish uchun qayta terish, yoki konvertorlardan foydalanish kabi qo'shimcha harakatlarni talab qiladi. Bu, ayniqsa, texnik ko'nikmalarga ega bo'lmagan o'qituvchilar uchun juda ko'p mehnat talab qiladigan mashg'ulot.

Shuni ta'kidlash kerakki, avtomatik baholash o'qituvchi rolini to'liq almashtirmaydi [24, 34], chunki suhbat grafik materialga ko'ra semantik xatolarni tuzatishga qodir emas va tizim tadqiqot tomonidan tasdiqlangan so'rovga noto'g'ri javob berishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Geher G. ChatGPT, artificial intelligence, and the future of writing // Psychology Today. January 6, 2023. URL: https:// cdn.psychologytoday.com/gb/blog/darwins-subterranean-world/202301/chatgpt-artificial-intelligence-and-the-future-of-writing (accessed: 15.07.2023).
2. ChatGPT and a New Academic Reality: AI-Written Research Papers and the Ethics of the Large Language Models in Scholarly Publishing / B. Lund, T. Wang, N. R. Manuru et al. // Journal of the Association for Information Science and Technology. 2023. Vol. 74. Iss. 5. Pp. 570—581.
3. Taecharungroj V. What can ChatGPT do? Analyzing early reactions to the innovative AI chatbot on Twitter // Big Data and Cognitive Computing. 2023. Vol. 7. Iss. 1. Art. 35. DOI: 10.3390/bdcc7010035.
4. Гаркуша Н. С., Городова Ю. С. Педагогические возможности CHATGPT для развития когнитивной активности студентов // Профессиональное образование и рынок труда. 2023. Т. 11. № 1. С. 6—23.
5. Кравцова А. Г. CHATGPT-3: перспективы использования в обучении иностранному языку // Мир науки, культуры, образования. 2023. № 3(100). С. 33—35.
6. Лукинский И. В., Горшенева И. А., Сумина А. В. Использование искусственного

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

интеллекта в качестве инстру- мента оптимизации научной деятельности: pro et contra // Психология и педагогика служебной деятельности. 2023.№ 1. С. 99—102.
7. Сысоев П. В., Филатов Е. М. CHATGPT в исследовательской работе студентов: запрещать или обучать? // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2023. Т. 28. № 2. С. 276—301.
8. Huang Y.-M., Chiu P.-S., Liu T.-C., Chen T.-S. The design and implementation of a meaningful learning-based evaluation method for ubiquitous learning //Computer Education. 2011. Vol. 57. Iss. 4. Pp. 2291—2302. DOI: 10.1016/j.compedu.2011.05.023.
9. Godwin-Jones R. Partnering with AI: Intelligent writing assistance and instructed language learning // Language Learning & Technology. 2022. Vol. 26. Iss. 2. Pp. 5—24.
10. Холмс У., Бялик М., Фейдл Ч. Искусственный интеллект в образовании: перспективы и проблемы преподавания и обучения. М. : Альпина ПРО, 2022. 304 с.
11. Фомин М. А., Садовиков Н. Е. Возможности применения технологий искусственного интеллекта при изучении ино- странного языка в вузе // Молодежная наука: тенденции развития. 2022. № 3. С. 6—11.
12. Baker T., Smith L., Anissa N. Educ-AI-tion rebooted? Exploring the future of artificial intelligence in schools and colleges. Nesta, February 2019. 54 p.
13. Рольгайзер А. А. Перспективы использования искусственного интеллекта в практике преподавания иностранного языка // Актуальные вопросы лингводидактики и методики преподавания иностранных языков : сб. науч. ст. Чебоксары : Чуваш. гос. пед. ун-т, 2022. С. 243—248.
14. The role of ChatGPT in higher education: Benefits, challenges, and future research directions / T. Rasul, S. Noir, D. Kalandra et al. // Journal of Applied Learning and Teaching. 2023. Vol. 6. No. 1. DOI: 10.37074/jalt.2023.6.1.29.
15. Suaverdez J., Suaverdez U. Chatbots impact on academic writing // Global Journal of Business and Integral Security. 2023. No. 2. URL: https://gbis.ch/index.php/gbis/article/view/150 (accessed: 09.07.2023).
16. Sallam M. ChatGPT Utility in Health Care Education, Research, and Practice: Systematic Review on the Promising Perspectives and Valid Concerns // Healthcare. 2023. Vol. 11. Iss. 6. Art. 887. DOI: 10.3390/healthcare11060887.
17. Lund B. D., Wang T. Chatting about ChatGPT: How may AI and GPT impact academia and libraries? January 22, 2023. 9 p. DOI: 10.2139/ssrn.4333415.
18. ChatGPT Generative Pre-trained Transformer, Zhavoronkov A. Rapamycin in the context of Pascal's Wager: Generative pre-trained transformer perspective // Oncoscience. 2022. Vol. 9. Pp. 82—84. DOI: 10.18632/oncoscience.571.
19. Stokel-Walker C. AI bot ChatGPT writes smart essays — should professors worry? // Nature. December 9, 2022. DOI: 10.1038/d41586-022-04397-7.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

20. Thorp H. H. ChatGPT is fun, but not an author // Science. 2023. Vol. 379. Iss. 6630. Pp. 313—313. DOI: 10.1126/ science.adg7879.
21. Barrot J. S. Using ChatGPT for second language writing: Pitfalls and potentials // Assessing Writing. 2023. Vol. 57. Art. 100745. DOI: 10.1016/j.asw.2023.100745.
22. Агальцова Д. В., Валькова Ю. Е. Технологии искусственного интеллекта для преподавателя вуза // Мир науки, куль- туры и образования. 2023. № 2(99). С. 5—7.
23. Cotton D. R. E., Cotton P. A., Shipway I. R. Chatting and cheating: Ensuring academic integrity in the era of ChatGPT // Innovations in Education and Teaching International. Published online: 13 Mar 2023. DOI: 10.1080/14703297.2023.2190148.
24. Grimes D., Warschauer M. Utility in a Fallible Tool: A Multi-Site Case Study of Automated Writing Evaluation // Journal of Technology, Learning, and Assessment. 2010. Vol. 8. No. 6. Pp. 1—43.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Zaripov Kamol Yashinovich**, Buxoro davlat universiteti II – bosqich tayanch doktoranti, [**Зарипов Камол Яшинович,** аспирант II курса Бухарского государственного университета], [**Zaripov Kamol Yashinovich**, 2nd-year doctoral student at Bukhara State University]; manzil: O'zbekiston, Buxoro sh., Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy [адрес: Узбекистан, ул. Мухаммада Икбала, 11, г. Бухара], [address: Uzbekistan, 11, Muhammad Iqbal st., Bukhara city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

OLIY O'QUV YURTLARIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH TARTIBI – YOSHLARIMIZNING AXLOQIY TARBIYALANGANLIGI, KASBIY YETUKLIGI JAMIYATIMIZ RIVOJINING POYDEVORIDIR

© A.I. Hikmatov[1]✉

[1]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada oliy o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tartibi – yoshlarimizning axloqiy tarbiyalanganligi, kasbiy yetukligi jamiyatimiz rivojining poydevori haqida nazariy-amaliy ma’lumotlarga asoslanib ilmiy izlanishlari natijasida zamonaviy ta’lim jarayonlari bilan yoritilgan.

MAQSAD: oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil etish asosida ushbu ta’lim muassasalarida tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish – o‘quvchilarning dunyoqarashini o‘zgartirishga, ularda g‘urur, or-nomus, mehr va muhabbat kabi qator tuyg‘ularni, ya’ni milliy mentalitetimizga mos va xos tuyg‘u va xususiyatlarni shakllantirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: hozirda oliy ta’lim tizimida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llash davr talabi ekanligi va erkin fikrlaydigan talaba shaxsi bilan ham yaqindan hamkorlik qilish natijasida ularni yetuk mutaxassis kadr sifatida shakllantirish haqida ilmiy-amaliy ishlar bilan tajriba almashilgan.

XULOSA: oliy o’quv yurtida va talabalar guruhlarida tarbiyaviy ishlar ta’sirchan bo’lishi uchun ularni rejalashtirishdan oldin kimlarga yo’naltirilgan bo’lsa (tarbiya ob’ekti), ularni xohishi istagi, qiziqishini og’zaki suhbat yoki so’rovlar orqali aniqlash, shularni hisobga olib, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish ijobiy natija beradi.

Kalit so'zlar: “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi”, hamkorlik, ta’lim texnologiyasi, demokratik davlat, ta’lim-tarbiya, ilmiy-texnik taraqqiyot, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, bilimlardagi va ta’lim-tarbiyadagi kamchiliklarni bartaraf etish.

Iqtibos uchun: Hikmatov A.I. Oliy o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tartibi - yoshlarimizning axloqiy tarbiyalanganligi, kasbiy yetukligi jamiyatimiz rivojining poydevoridir.// Inter education & global study. 2024. №8. B.108–116.

ОРГАНИЗАЦИЯ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ – ЭТО ОСНОВА РАЗВИТИЯ НАШЕГО ОБЩЕСТВА, ЗАЛОЖЕННАЯ В

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ НАШЕЙ МОЛОДЕЖИ.

© А.И. Хикматов[1]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье представлены результаты научных исследований, основанных на теоретических и практических данных об организации воспитательной работы в высших учебных заведениях, что является основой нравственного воспитания молодежи и их профессиональной зрелости, как фундамента развития нашего общества. Эти исследования освещены в контексте современных образовательных процессов.

ЦЕЛЬ: анализ особенностей воспитательных процессов, организуемых в высших учебных заведениях, и на основе этого правильная организация и управление этими процессами. В результате изменяется мировоззрение учащихся, формируются такие чувства, как гордость, честь, достоинство, любовь и уважение, которые соответствуют нашей национальной ментальности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы такие методы, как беседа, социально-психологический опрос, наблюдение, а также статистическая достоверность полученных результатов была подтверждена факторным анализом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: на данный момент, использование новых педагогических технологий в образовательном процессе стало требованием времени для подготовки высококвалифицированных специалистов в системе высшего образования. В результате сотрудничества с личностями студентов, которые свободно мыслят, происходит их формирование как зрелых специалистов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: для того чтобы воспитательная работа в высшем учебном заведении и в студенческих группах была эффективной, перед планированием важно выяснить желания, интересы и предпочтения воспитуемых (объекта воспитания) посредством устных бесед или опросов. Учитывая эти факторы, планирование воспитательной работы принесет положительные результаты.

Ключевые слова: Закон «Об образовании», «Национальная программа подготовки кадров», сотрудничество, образовательные технологии, демократическое государство, образование и воспитание, научно-технический прогресс, воспитание молодого поколения, устранение недостатков в знаниях и воспитательном процессе.

Для цитирования: Хикматов А.И. Организация воспитательной работы в высших учебных заведениях – это основа развития нашего общества, заложенная в нравственном воспитании и профессиональной зрелости нашей молодежи. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 108–116.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

THE ORGANIZATION OF EDUCATIONAL WORK IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS IS THE FOUNDATION OF OUR SOCIETY'S DEVELOPMENT, BUILT UPON THE MORAL UPBRINGING AND PROFESSIONAL MATURITY OF OUR YOUTH

© Anvar I. Khikmatov[1]✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article is based on theoretical and practical data on the organization of educational work in higher educational institutions, focusing on the moral upbringing and professional maturity of young people, which are the foundation of our society's development. The results of scientific research are illuminated in the context of modern educational processes.

AIM: to analyze the peculiarities of the educational processes organized in higher educational institutions and, based on this, to properly organize and manage these processes. As a result, the worldview of students is transformed, and they develop feelings of pride, honor, dignity, love, and respect, which correspond to our national mentality.

MATERIALS AND METHODS: in the course of the study, methods such as interviews, socio-psychological surveys, and observation were used, and the statistical reliability of the results obtained was confirmed through factor analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: currently, the use of new pedagogical technologies in the educational process has become a requirement for training highly qualified personnel in the higher education system. As a result of collaboration with independently thinking students, they are shaped into mature specialists.

CONCLUSION: in order for educational work in higher educational institutions and student groups to be effective, it is important to identify the desires, interests, and preferences of the students (the object of education) through oral conversations or surveys before planning. Considering these factors, planning educational work will yield positive results.

Key words: law "On Education," "National Program for Personnel Training," cooperation, educational technology, democratic state, education and upbringing, scientific and technological progress, education of the younger generation, elimination of shortcomings in knowledge and education.

For citation: Anvar I. Khikmatov. (2024) 'The organization of educational work in higher educational institutions is the foundation of our society's development, built upon the moral upbringing and professional maturity of our youth.', Inter education & global study, (8), pp. 108–116. (In Uzbek).

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohoti ham yoshlarni kelajak hayotga, turmushga tayyorlash bilan bog'liqdir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan va muvaffaqiyat bilan hayotga tatbiq qilinayotgan «Kadrlar tayyorlash milliy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

dasturi» yoshlarni hayotda o'z o'rinlarini topishga qaratilgan bo'lib, bunda ta'lim islohoti jamiyatning iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-texnik, intelektual rivojlanishini misilsiz tezlashi nazarda tutilgan edi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimiz fuqarolari o'rtasida yangicha munosabatlarni tarkib toptirishi, ijtimoiy muhitni o'zgartirishi mumkin. I.Karimov "Kadrlash tayyorlash milliy dasturi" markazida ta'lim modelini qo'yib, uni to'la hayotga tatbiq qilinganda jamiyatimizda quyidagi tub o'zgarishlar bo'lishini bashorat qilgan edi.

"Birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizda mavjud muhit butunlay o'zgaradi...

Ikkinchidan, ta'limning yangi modeli ishga tushgach insonning hayotda o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi...

Uchinchidan, ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

To'rtinchidan, ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potentsial kuchlarini ruyobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, biz fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Bu sohada dastlabki muhim qadamlar qo'yildi. Ishonchim komilki, vaqti soati kelib bugungi o'tish davri uchun zarur bo'lgan kuchli davlat funktsiyalari va alomatlari asta-sekinlik bilan tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tadi".

Bu masalalarni qadamba-qadam hal qilishda yoshlar, ayniqsa ularning tarbiyalanganlik darajasi hal qiluvchi roly o'ynaydi. Ayniqsa, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarni yuksak ahloqli qilib tarbiyalashda ta'limning tarbiyalovchi imkoniyatlaridan keng foydalanish, darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ilmiy asosda tashkil qilish katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohoti "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'zining ilmiy-nazariy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-yuridik ifodasini topdi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloyiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir".

Bu vazifani bajarish ta'lim-tarbiya jarayoniga, uning mazmun, shakl va metodlarini, o'quv yurtlarida tarbiyaviy jarayonni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. O'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonini tashkil qilishda tarbiyaviy ishlarga aloqida e'tibor berib, ularda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda o'z kasbini mukammal o'rganishi bilan birga yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan shaxs sifatida ularni shakllantirish nihoyatda muhimdir. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro miqyosda e'tirof etilib, o'zining dastlabki samaralarini bera boshladi. Buning oqibatida respublikamizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi ancha tezlashdi. Ammo uni kelgusi taraqqiyotining omillarini inobatga olib mutaxassislar tayyorlashni jahon andozalariga moslashtirish, ularni o'z mutaxassisliklari

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

va ijtimoiy-siyosiy bilimlarini shaxsiy e'tiqodiga aylantirishni taqozo qiladi. Yangi tarixiy sharoitda insonni o'zini takomillashtirmasdan turib, jamiyat oldida turgan murakkab iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-axloyiy muammolarini hal qilish mumkin emas. Chunki ularni yechishda inson ongi, aql-zakovati, ijtimoiy faolligi xalq, millat oldidagi mas'uliyatini his qilishi muhimdir. Inson va uning ongini tafakkurini o'zgartirish bilan mustaqil davlatni qurish bir-biriga dialektik bog'liq jarayondir.

Insonlarning fan, ta'limot, g'oyalarni egallab olish jarayonlarini tahlil qilar ekanmiz, haqiqatdan ham har qanday g'oya, qaror, qonun insonlar ongi, harakati, xulq atvoriga singishi, bilimi, ma'naviy dunyosi orqali amaliy faoliyatga tatbiq qilinishining guvohi bo'lamiz. G'oya, qaror, qonunlarni o'zlashtirib olib, o'z ma'naviy mulkiga aylantirgach, jamiyatni, kishilarni o'zgartirish quroliga aylanadi. Shuning uchun, ham mustaqil davlatimiz oldida yangi, erkin, ozod, mustaqil fikrlovchi insonni tarbiyalash hayot-mamot masalasi sifatida ko'ndalang bo'lib qoldi. Bu ijtimoiy zaruriyat butun ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini yangi, g'oyaviy asosda isloh qilishni talab qiladi. Shu bilan birga bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy taraqqiyot, yuqori kasbiy tayyorgarlik bilan birga kadrlardan tashabbuskorlik va tadbirkorlik, so'z va amaliy ish birligi, mustaqil fikrlash, istiqbolli maqsadga intilish, Vatan, xalq, millat ravnaqi yo'lida fidoyi bo'lishni ham talab qiladi. Bo'lajak mutaxassislarda bu sifatlarni shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimining ishtirokisiz amalga oshmaydi. Bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya tizimini ma'naviy yetuk, kasbini chuqur biluvchi kishilarni tayyorlashga xizmat qilishini taqozo qiladi.

Jahonning ko'p rivojlangan mamlakatlari tajribasi davlatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy rivojlanishi ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash tizimi bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Chunki ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash tizimining asosiy obyekti inson shaxsi, uning ma'naviy va axloyiy qiyofasi bilimi va kasbiy kamolotidir. Shuning uchun, mamlakatda biron-bir masalani inson ishtirokisiz, kadrlar saviyasi, malakasisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Mustaqillik sharoitida ta'lim-tarbiya, eng avvalo, mustaqil fikrlovchi insonni tarbiyalashga xizmat qilishi ijtimoiy jihatdan muhim bo'lib qoldi. Zero, uning markazida faqat davlat manfaati emas, balki eng avvalo, shaxs ehtiyojiga xizmat qilish ustuvor yo'nalish sifatida qo'yildi. Yangi tarixiy sharoitda mamlakat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash ekanligi har tomonlama asoslanadi. "Tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammo", - ekanligi hayotiy bo'lib qoldi.

Ko'ryapmizki, inson tarbiyasi uning tarbiyalanganlik darajasi faqat jamiyat taraqqiyotining hozirgi kuni uchun emas, balki kelajagi uchun ham muhimdir. Shunday qilib, milliy mustaqillik sharoitida bo'lajak mutaxassislarda yuksak axloyiy sifatlarni shakllantirish o'quv-tarbiya jarayonining muhim ajralmas vazifasiga aylandi. Chunki ma'muriy-buyruqbozlik sharoitida shaxsga, asosan, tashqi ma'muriy ta'sir orqali munosabatda bo'lish, uni o'z xohishi, istagi va mustaqil qaror qabul qilishdan mahrum qilib, ma'muriy tazyiq quliga aylantirib, avtomatik ravishda ko'rsatma va buyruqlarni bajaruvchi robotga aylantirgan edi. Bozor munosabatlari sharoitida mutaxassis ma'muriy tazyiqdan xoli bo'lib, ijodiy, mustaqil fikrlashi, yuksak kasbiy tayyorgarlik bilan birga yuksak

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ma’naviyati, pok axloyi, ijtimoiy faolligi hayot talabi bo’lib qoldi. Ishlab chiqarish jarayonida vaziyatdan kelib chiqib to’g’ri qaror qabul qilishi uning shaxsiy sifatlari insoniy va kasbiy madaniyatining ajralmas xususiyatidir. Aynan shunday sifatlar mutaxassisni yaratuvchilikka undab, o’z navbatida kasbi orqali – jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan hissa qo’sha olishiga olib keladi. Bu sifatlar mutaxassislarni ongli rivojlanishi va o’zligini anglashi orqali o’zini xalq, Vatan, manfaatlariga shaxs va kasb sohibi sifatida hissa ho’shishiga tayyorlashni taqozo qiladi. Bu zaruriyat bo’lajak mutaxassisning o’z faoliyatini xolisona baholash va nazorat qilish, o’zining insoniy sha’ni, shaxsiy g’ururi asosida tartibga solish mexanizmlarini o’zida shakllantirishida oliy o’quv yurtidagi ta’lim-tarbiya jarayoni asosiy rol o’ynashi lozim. Mutaxassis shakllanishiga bunday yondashishning boisi shuki, insonning ichki ma’naviy dunyosi xulq-atvor normalarini ichki motivga aylantirib, motiv esa yo’naltiruvchilik rolini bajaradi. Bunda talabaning ta’lim jarayonidagi faolligi oshib, o’zini shaxs sifatida shakllanishini, kasbini chuqur egallash bilan yaxlitlikda, ichki anglangan motiv ta’siri ostida amalga oshiradi.

Oliy o’quv yurtida o’quv mashg’ulotlari har qancha yaxshi tashkil etilmasin kunning ikkinchi yarmida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar bilan mustahkamlanmasa yoki tarbiyaviy ishla yomon tashkil qilinsa, ta’lim jarayonida erishilgan natijaning qiymati pasayadi. Talabalar egallagan bilimlari ijobiy insoniy munosabatlar tizimi orqali xulq-atvor normalariga aylanadi. Tarbiyaviy jarayon kishilarning o’zaro ta’sirlari, aloqalari, muloqotlari tizimidan iborat.

Tarbiyaviy jarayon eng avvalo shu aloqadorliklarning mohiyatini anglab, boshqarishni taqozo qiladi. Tarbiyaviy jarayonni boshqarish o’z-o’zini tashkil qilishning zarur sharoitidir. Talabaning ma’naviy qiyofasi tashqi muhit bilan muayyan munosabatlarga kirishar ekan, pirovard natijada o’z-o’zini tarbiyalash jarayonining yo’nalishini shart qilib qo’yadi. Oliy o’quv yurtida tarbiyaviy ishlarning samaradorligi talabalarning o’z-o’zini tarbiyalashiga zamin hozirlanishi bilan belgilanadi. Talabalar tarbiyaviy jarayonini tashkil etish, uni rejalashtirish va boshqarishda g’oyaviy va maqsadga qaratilgan, amaliy va tabaqalashtirib yondashish, har bir talaba shaxsining rivoji va kasb egallashiga qulay sharoit yaratish muhim hisoblanadi.

Talabalar bilan tarbiyaviy ishlar olib borishda ko’proq milliylikka, milliy merosimizga e’tiborni qaratish lozim. Istiqlol tufayli buning uchun keng imkoniyatlar ochildi. Vatanimiz kelajagi bo’lgan bo’lajak mutaxassislarni odobli va oliyjanob inson qilib tarbiyalashda milliy merosimizni imkoniyati, uning kishilarimizga yaqinligi, ta’sirchanligi bilan xarakterlanadi. Chunki biz istiqlolgacha o’zimiznikini chetga surib qo’yib rus, Yevropa madaniyati va tarbiyasiga bilib-bilmay ergashib o’zligimizni, o’z tilimizni ham unitayotgan edik. Shuning uchun milliy madaniyatimizni tiklash va uning vositasida yoshlarni tarbiyalash baxtiga muyassar bo’ldik. Shundan foydalanib ularga zamon ruhini berib, yangicha mazmun-ma’no berib, tarbiya ishiga sharqona ruh berishimiz lozim. Tarbiyada milliylik bu eng avvalo talaba psixologiyasi bilan bog’liq ichki kechinmalarni his etish, tashqi o’ziga mos xususiyatlar, ta’limda uning g’ururini paymol qilmay muomala qilish, sharqona usullardan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

keng foydalanishni taqozo qiladi. Shu asosda ta'lim-tarbiyada dunyo xazinasidan munosib o'rin olgan ota-bobolarimizning oliyjanob merosi asosida o'z milliy tizimimizni tiklaymiz. Milliy merosda tashqi ko'rinishga emas, balki ko'prok axloq, ma'naviy dunyosiga asosiy e'tibor berilgan. Mamlakatimiz ravnaqi va kelajagi shu jamiyatda yashovchilarning ham moddiy, ham ma'naviy kamolotiga bog'liq.

Bo'lajak mutaxassislar-talabalar bilan tarbiyaviy ishlar olib borishda va o'tkazishda mavzularni, tadbirlarni fasllar, halq, mamlakat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, ilmiy sanalar, halqimiz va jahon ilmi madaniyatga munosib hissa qo'shgan olimu fuzololar, sarkardalar hayoti faoliyati bilan hamda tinchlik, do'stlik, mehnat, kasb sohiblari, oila, Vatan, tabiatni sevish va qo'riqlash, tozalik ozodalik bilan bog'liq tadbirlarga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Tarbiyaviy tadbirlar ajdodlarimiz merosi, urf-odatlari, an'analari, insoniy ahloq-odob masallari bilan uzviy bog'liq olib borilgandagina samara berishi mumkin. Kundalik ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan bog'lanmagan tarbiya talabalarda ularga nisbatan befarqlik kayfiyatini va umumiy ilm egallash va kasbiga ham shunday hissalarni uyg'otishga olib kelishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, hozirgi sharoitda oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashda faqat kasb sohibini emas, balki uning shaxsiy sifatlarini o'zaro mutanosiblikda shakllantirish ham muhim o'rin egallamoqda. Zero, ta'lim bilan tarbiya yaxlitligida tarbiya insonning o'z mohiyatini tushunish, kasbiy faoliyatini ezgulik, kishilarga yaxshilik qilishga yo'naltiradi. Shuning uchun O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov "Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz. Ma'naviy va axloyiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakkam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi"– deb ta'kidlashi bejiz emas.

Shu bilan birga biz dastlabki urinish sifatida oliy o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlar haqida yaxlit bir tasavvur hosil bo'lishi uchun guruhlarni shakllantirish, ularda shaxslararo munosabatlar, ularning tarkibining bilim darajasi, yosh jins, miqdori, bosqichlari haqida pedagogik-psixologik ma'lumotlarni bayon qildik. Bularni oliy o'quv yurtlari rahbarlari, fakulьtet, kafedralar professor-o'qituvchilar, eng muhimi guruh rahbarlari bilishlari juda muhim. Chunki bularni bilmasdan talabalar tarbiyaviy ishlari haqida fikr yuritish mantiqsiz hisoblanadi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida talabalar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilarni bu boradagi hatti-harakat faoliyatlarining o'zaro muvofiqlashtirish modeli haqida o'z tajribamiz, pedagogika fani asosida yondashdik. Ochiq e'tirof etish kerakki, bu masala ilmiy va amaliy hali hal qilingan emas. Buning boisi uning ko'p komponentli tizim sifatida murakkabligidir. Ammo bu degani ko'p komponentli jarayonlarni yagona boshqarish holatiga keltirib bo'lmaydi degani emas. Bu jarayonni xaotik holatdan boshqariladigan darajaga ko'tarish-ishtirokchilar eng avvalo o'quv yurti rahbarlarining tinimsiz mehnati, izlanishi, uzoq vaqt talabalar tarbiyaviy jarayoni natijalarini tahlil qilish, yutuqlarini mustahkamlash, kamchiliklar sababini aniqlashi, bartaraf qilishi asosida, soat mexanizmiday o'zaro muvofiq ishlovchi tizim yaratishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori nomli to‘plamda. –T.:-1998y. 20-29-betlar.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori nomli to‘plamda. –T.:-1998y. 31-62-betlar.
3. Barkamol avlod orzusi. To`plam. Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, R.Axmeddinov, H.Saidov. - Toshkent: Sharq. - 1999, 39-bet.
4. Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori // Shu nomli to‘plamda. –T.:O‘zbekiston.-1998y. 4-18-betlar.
5. Karimov I. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat.-2008y.-176b.
6. Yo‘ldoshev J.G‘. Uzluksiz ta’lim: Malaka oshirish muammolari va yechimlari. –T.: O‘qituvchi. -1975y. -98b.
7. Zaripova G.K. Dars jarayonida va undan tashqari tadbirlarda o’quvchi shaxsini shakllanishida hamda uning kasb egallashida o’rta umumiy ta’lim maktabidagi tarbiyaning yetakchi ahamiyati: Vol. 42 No. 1 (2024): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 42 | Часть-1. 76-92.
8. Zaripova G.K. Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o‘qituvchilar umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini ma’naviy-ma’rifiy tarbiyalash tizimida o‘z-o‘zini tarbiyalashni shakllantirishining ahamiyati: Vol. 42 No. 1 (2024): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 42 | Часть-1. 50-57.
9. Зарипова Г.К. Духовно-педагогическая роль самообразования в формировании учащихся общих средних школ как совершенных человеков: Vol. 42 No. 1 (2024): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 42 | Часть-1. 58-75.
10. Zaripova G.K. The leading importance of education in a secondary school in the formation of the student’s personality during the lesson process and in events outside him and in his profession: Journal of new century innovations. Vol. 49 No. 1 (2024), Volume-49. Issue-1, 148-163.
11. Зарипова Г.К. Миллий меросимиздаги педагогик технологияга оид ғоялардан
12. Zaripova G.K. Future specialists – spiritual and professional education of secondary school students – a need for the development of our independent country: Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 97–105. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/3872.
13. Зарипова Г.К. Педагогический подход в формировании личности учащегося в общей средней школе и его значение лидера в получении профессии: VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 10 SEPTEMBER 2023. ISSN: 2181-3515. 8-22-стр.
14. Zaripova G.K. Building the professional competence of globally competitive teachers in digital and information and communication technologies:Journal of Survey in Fisheries Sciences. 10(3S) 2254-2264. 2023. 2254-2264- pages.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

15. Zaripova G.K. In the continuous education system, upgrading and retraining of pedagogic personnel is the current demand. “ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal”.ISSN: 2249-7137. Vol. 12, Issue 06, June 2022 SJIF 2022 = 8.252. A peer reviewed journal. – Page. 8.
16. Зарипова Г.К. Методы использования программами архиваторов в архивировании и резервировании информации:МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ «ИНТЕРНАУКА» №2 (24) /2017 1 т. 140-142-стр.
17. Zaripova G.K. Internet tarmog’idan foydalanish ko’nikmalari va uning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati:“Maktab va hayot”. – Toshkent. 2015 y. – №7. – B.24-26.
18. Zaripova G.K., Avezov A.A., Qobilov K.H. Developing the implementation of the digital technologies’ tendency in the training of future teachers. European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 09, Issue 07, 2022. WOS. 5547- 5563-pages.
19. Zaripova G.K. The Problem of Employment in the Digital Economy in the Government of the Russian Federation: Academic Journal of Digital Economics and Stability 2024, Volume 37, Issue 2, feb-2024, ISSN 2697-2212. 1-7.
20. Zaripova G.K. Spiritual and pedagogical role of self-education in the formation of general secondary schools students as perfect persons:Journal of new century innovations. Vol. 49 No. 1 (2024), Volume-49. Issue-1, 133-142.
21. Zaripova G.K. Umumiy o’rta ta’lim o’quvchilarini komil shaxs sifatida shakllantirishda o’zi-o’zini tarbiyalashning ma’naviy-pedagogik o’rni: “PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA” xalqaro ilmiy-metodik jurnal «ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ» международный научно-методический журнал “PEDAGOGICAL ACMEOLOGY” international scientific-methodical journal. №1(3) 2024.
22. Зарипова Г.К. Ведущее значение образования в средней общеобразовательной школе в формировании личности учащегося в процессе урока и в событиях вне него и в его профессии: Journal of new century innovations. Vol. 49 No. 1 (2024), Volume-49. Issue-1, 161-184.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Hikmatov Anvar Izatullayevich**, harbiy ta'lim fakultetining maxsus tayyorgarlik sikli o'qituvchisi, [**Хикматов Анвар Изатуллаевич**, преподаватель цикла специальной подготовки факультета военного образования], [**Anvar I. Hikmatov**, teacher of the special training cycle of the military education faculty]; manzil: O‘zbekiston, Buxoro shahar Piridastgir ko`chasi 2-uy [адрес: Узбекистан, г.Бухара ул. Пиридастгир, д. 2], [address: Uzbekistan, Bukhara Pyridastgir str., 2] ; anvar.hikmatov@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

O‘QUVCHILAR ONGINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFIY-PEDAGOGIK AKSIOLOGIK YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH

© S.R. Shonazarova[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika Instituti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada pedagogik aksiologiyaning predmetini shaxsning aksiologik ongi, aksiologik munosabati, aksiologik xulq-atvorini shakllantirishni tashkil etishi, aksiologik muammolarga doir nazariy manbalardagi qadriyat tushunchasining mohiyatini tahlil etish asosida pedagogik aksiologiya qadriyat tushunchasiga shaxs va jamiyat faoliyatida ideal namuna va yo‘nalishlami aks ettiruvchi individual va ijtimoiy ongni tashkil etuvchi maxsus ta’lim sifatida qarashi, amaliy jihatni amalga oshirish to‘liq ravishda aksiologik yo‘nalganlikning nazariy asoslarini aniqlab beradigan ilmiy jihatni rivojlanganligiga va ta’lim sohasi barcha bo‘g‘inlari faoliyati yo‘nalganligini shakllantirilganligiga bog‘liqligi va o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

MAQSAD: inson hayoti har doim bo‘lib o‘tgan voqealarni baholash, vazifalami qo‘yish, izlash, xulosalar qabul qilish, dunyoqarash vaziyatlarida kechadi. Bunda uning atrof-muhit bilan munosabatlari ikkita farq bilan o‘zaro bog‘liq: amaliy va abstrakt-nazariy (bilish). Bundan kelib chiqadiki, pedagogika metodologiyasi ta'lim falsafasiga haqiqiy insonparvarlikning mohiyati, borliqning yangilanishi va pedagogik bilish haqidagi nazariy qoidalar yig‘indisi sifatida qaraydi. Bunday metodologiyaga muvofiq, fanlaming, shu jumladan, pedagogikaning insonparvarlik mohiyatidan kelib chiqadigan vazifasi o‘zida insonga bilish, muloqot, ijod subyekti sifatida yondashishni aks ettiradi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ta’limning ma’naviyatni tarkib toptirishdagi ahamiyati uni qadriyatli bilimlami uzatish va uning asosida insonda qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvorni shakllantirishda ekanligini o‘z vaqtida Aflotun ham ta’kidlab o‘tgan edi. U davlatning asosini qolgan barchasi unga bog‘liq bo‘lgan yagona birlik aks ettiradi, deb hisoblagan. Bunday asos - oliyjanoblikdir. Olim yuksak oliyjanoblik sifatida hech narsa yaxshilik va yomonlik haqida unday ma'lumot bera olmaydigan bilimni e’tirof etadi. Bilimda qanchalik oliyjanoblik o‘z ifodasini topganligini esa ta’lim jarayonida o‘rganish mumkin. Pedagogik aksiologiya inson va ta’limni qadriyat deb e’tirof etgan holda, ta’limiy qadriyatlarni muhokama etuvchi hamda ta’limga aksiologik yondashuvni amalga oshiruvchi pedagogik bilimlar sohasidir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

XULOSA: pedagogik aksiologiyaning rnazkur vazifa va funktsiyalari ilmiylik, amaliylik, tajriba birligini ifoda etuvchi pedagogik aksiologiya rnazmunini ochib beradi. Ilmiy jihat (aspekt) boshqa barcha ijtimoiy jarayonlami aniqlab beruvchi, asosiy qadriyat sifatida ta'limni ko'rib chiqish asosida ta'limiy qadriyatlami o'rganuvchi pedagogikaning yangi ilmiy yo'nalishi - pedagogik aksiologiyaning muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni talab etadi. Bu yerda asosiy vazifalardan biri sifatida aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, ta'limni qadriyatli bashoratlashni ilmiy asoslash aks etadi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, falsafa, pedagogik aksiologiya,o'qitish shakllari, aksiologik ong, qadriyatlar nazariyasi, tabiiy qadriyatlar, kontseptual asoslari, falsafiy-antropologik, ijtimoiy-siyosiy xususiyatlar.

Iqtibos uchun: Shonazarova S.R. O'quvchilar ongini shakllantirishda falsafiy-pedagogik aksiologik yondashuvni takomillashtirish. // Inter education & global study. 2024. №8. B.117–123.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИЛОСОФСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА К ФОРМИРОВАНИЮ СОЗНАНИЯ УЧАЩИХСЯ

© С.Р. Шоназарова[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье предметом педагогической аксиологии является формирование ценностного сознания, ценностного отношения, ценностного поведения личности, на основе анализа сущности понятия ценности в теоретических источниках аксиологической проблематики, педагогическая аксиология - идеал. модель и направленность в деятельности личности и общества рассматривать ее как специальное образование, формирующее сознание, реализация практического аспекта находится в полной зависимости от развития научного аспекта, определяющего теоретические основы аксиологической направленности. и формирование направленности деятельности всех отраслей сферы образования, обсуждаются особенности.

ЦЕЛЬ: жизнь человека всегда проходит в ситуациях оценки произошедших событий, постановки задачи, поиска, принятия выводов, мировоззрения. При этом его отношения со средой взаимосвязаны с двумя различиями: практическим и абстрактно-теоретическим (познавательным). Отсюда следует, что методология педагогики рассматривает философию образования как совокупность теоретических положений о сущности истинного гуманизма, обновления бытия и педагогического познания. В соответствии с такой методологией задача, вытекающая из гуманистической сущности науки, в том числе педагогики, отражает в себе подход к человеку как к субъекту познания, общения, творчества.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались такие методы, как беседа, социально-психологический опрос, наблюдение, а степень статистической достоверности полученных результатов подтверждалась факторным анализом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: значение образования в формировании духовности заключалось в передаче его ценностного знания и формировании на его основе ценностного отношения, ценностного поведения у человека, как это в свое время отмечал и Платон. Он считал, что основой государства является единое целое, от которого зависит все. Такая основа - благородство. Ученый как высшее благородство признает знание, которое ничто так не может дать о добре и зле. А то, насколько благородство нашло свое выражение в знаниях, можно узнать в процессе обучения. Педагогическая аксиология-это область педагогического знания, которая обсуждает образовательные ценности и реализует аксиологический подход к образованию, признавая человека и образование ценностями.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: рназкур задачи и функции педагогической аксиологии раскрывает смысл педагогической аксиологии, выражающий единство научности, практичности, опыта. Научный аспект (аспект), определяющий все остальные социальные процессы, требует проведения научных исследований по проблемам нового научного направления педагогики - педагогической аксиологии, изучающей образовательную ценность на основе рассмотрения образования как основной ценности. Здесь в качестве одной из основных задач отражается научное обоснование ценностного прогнозирования образования с учетом конкретных условий.

Ключевые слова: образовательная система, философия, педагогическая аксиология, формы обучения, ценностное сознание, теория ценностей, природные ценности, концептуальные основы, философско-антропологические, социально-политические особенности.

Для цитирования: Шоназарова С.Р. Совершенствование философско-педагогического аксиологического подхода к формированию сознания учащихся. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 117–123.

IMPROVING THE PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL AXIOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF STUDENTS' CONSCIOUSNESS

© Sevara R. Shonazarova[1]✉
[1]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in this article, the subject of pedagogical axiology is the formation of axiological mind, axiological attitude, axiological behavior of the individual, based on the analysis of the essence of the concept of value in the theoretical sources of axiological

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

problems, pedagogical axiology is an ideal model and direction in the activities of the individual and society. to consider it as a special education that forms consciousness, the implementation of the practical aspect is completely dependent on the development of the scientific aspect, which defines the theoretical foundations of the axiological orientation, and the formation of the orientation of the activities of all branches of the field of education, and specific features are discussed.

AIM: a person's life always takes place in situations of evaluating events that have occurred, setting a task, searching, making conclusions, and worldview. At the same time, his relationship with the environment is interconnected with two differences: practical and abstract-theoretical (cognitive). It follows that the methodology of pedagogy considers the philosophy of education as a set of theoretical propositions about the essence of true humanism, the renewal of being and pedagogical cognition. In accordance with this methodology, the task arising from the humanistic essence of science, including pedagogy, reflects an approach to a person as a subject of cognition, communication, and creativity.

MATERIALS AND METHODS: during the study, such methods as conversation, socio-psychological survey, observation were used, and the degree of statistical reliability of the results obtained was confirmed by factor analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: the importance of education in the formation of spirituality consisted in the transfer of its valuable knowledge and the formation on its basis of a value attitude, value behavior in humans, as Plato noted at the time. He believed that the foundation of the state is a single whole, on which everything depends. Such a basis is nobility. The scientist, as the highest nobility, recognizes the knowledge that nothing else can give about good and evil. And how much nobility has found its expression in knowledge can be learned in the learning process. Pedagogical axiology is a field of pedagogical knowledge that discusses educational values and implements an axiological approach to education, recognizing human beings and education as values.

CONCLUSION: the course of tasks and functions of pedagogical axiology reveals the meaning of pedagogical axiology, expressing the unity of science, practicality, and experience. The scientific aspect (aspect), which determines all other social processes, requires scientific research on the problems of a new scientific direction of pedagogy - pedagogical axiology, which studies educational value based on the consideration of education as the main value. Here, as one of the main tasks, the scientific substantiation of the value forecasting of education is reflected, taking into account specific conditions.

Key words: educational system, philosophy, pedagogical axiology, forms of teaching, axiological consciousness, theory of values, natural values, conceptual foundations, philosophical-anthropological, socio-political features.

For citation: Sevara R. Shonazarova. (2024) ‘Improving the philosophical and pedagogical axiological approach to the formation of students' consciousness’, Inter education & global study, (8), pp. 117–123. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Bizga ma’lumki, ilmiy bilish, shuning barobarida pedagogik bilish, faqatgina ijodkorliknigina emas, ijtimoiy ehtiyojlami to‘la qondirish maqsadini ham ro‘yobga chiqaradi. Nazariy va amaliy bilish orasidagi «ko‘prik» vazifasini aksiologik yoki qadriyat sifatidagi yondashuv bajaradi. Aksiologiya (yun. «axio» - qadriyat va «logos» - fan, ta’limot) - qadriyatshunoslik; qadriyatlar haqidagi fan. XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E. Gartman va fransuz olimi P. Lapilar tomonidan fanga kiritilgan. Aksiologik yondashuv insonparvarlik pedagogikasining uzviy o‘ziga xosligi bo‘lib, barcha odam unda jamoaviy rivojlanishning maqsadi va jamiyatning oliy qadriyati sifatida qaraladi. Shuning uchun aksiologiyaga (tabiiy qadriyatlar haqidagi (nazariy) falsafiy nazariyalar) yangi ta’lim falsafasi sifatida va zamonaviy pedagogika metodologiyasiga uyg‘un tarzda qaraladi.

Aksiologik fikrlash markazida dunyodagi voqea-hodisalaming o‘zaro ta’siri va o‘zaro bog‘liqligi konseptsiyasi turadi. U tasdiqlaydiki, bizning dunyo - bu butun insoniyat dunyosi, shuning uchun umumiylikni ko‘ra bilish lozim, faqatgina insoniyatni birlashtirib qolmay, balki har bir alohida shaxsni tavsiflaydi. Insondan tashqaridagi ijtimoiy taraqqiyotni qarash– uning insonparvarlik poydevoridan alohida fikrlashi demakdir. Aynan, ana shunday tarzdagi fikrlash zamonaviy jamiyat taraqqiyoti global tendensiyada insonparvarlik kasb etadi, umuminsoniy qadriyatlami ma’qullashi uning mazmunini tashkil etadi. Pedagogik aksiologiya asosida inson hayoti, tarbiya va ta’lim, pedagogik faoliyatning inson hayotidagi ahamiyatini tushunish va qaror toptirish yotadi. Ta’limni inson turmushi uchun asosiy qadriyat, deb asoslash pedagogik bilimlar taraqqiyotini barcha bosqichlarida o‘z o‘rniga ega. U o‘zaro aloqadorlik -jamiyat va inson o‘rtasida muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan, ular ta’limning qadriyat statusini belgilab berishadi. Ta’limni insonparvarlashuvi g‘oyasi, pedagogikada aksiologik yondashuvni qo‘llash esa, o‘zida katta falsafiy-antropologik, ijtimoiy-siyosiy xususiyatni aks ettiradi.

Bizning davrimizda ta’limiy qadriyatlar, ularning tabiati, funksiyalari, o‘zaro aloqadorligi haqidagi pedagogikaning yangi sohasi – pedagogik aksiologiya rivojlanib bormoqda. Chunki zamonaviy jamiyat ta’limni o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalami egallashining maqsadga yo‘naltirilgan jarayoni va natijasi sifatida tushunishdan uzoqlashdi. Ta’lim bu insonda insoniylikni tarkib toptirishdir. Uning asl mohiyati ham ana shunda.

Pedagogik aksiologiyaning predmetini shaxsning aksiologik ongi, aksiologik munosabati, aksiologik xulq-atvorini shakllantirish tashkil etadi. Aksiologik muammolarga doir nazariy manbalardagi qadriyat tushunchasining mohiyatini tahlil etish asosida pedagogik aksiologiya qadriyat tushunchasiga shaxs va jamiyat faoliyatida ideal namuna va yo‘nalishlami aks ettiruvchi individual va ijtimoiy ongni tashkil etuvchi maxsus ta’lim sifatida qaraydi. Alohida shaxs yoki jamiyat yaxlitlikda qadriyatlami uzatuvchisi sifatida qaraladi, nihoyasi esa, insonning xulq-atvori va xatti-harakatini rag‘batlaydi. Xulq-atvor va xatti-harakatlaming tavsifi shaxsning atrof-muhitga, o‘z-o‘ziga munosabati haqida guvohlik beradi. Falsafadan farqli ravishda pedagogik aksiologiya “qadriyat” va ulami aksiologik

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ong, munosabat, xulq-atvor deb nomlash orqali “aksiologik” tushunchalarga alohida-alohida qaraydi. Uni tashkil etish va boshqarishga qadriyatli yondashuvning zaruriyat ekanligidan kelib chiqib, uzluksiz ta'lim maqsadlarining o‘zgarishi pedagogik aksiologiyaning muhim vazifalari sifatida quyidagilami aniqlashga imkon beradi:

- qadriyatlar nazariyasi nuqtai nazaridan pedagogika nazariyasi va ta’lim amaliyotining tarixiy rivojini tahlil etish;

- uning aksiologik yo‘nalganligini aks ettiruvchi ta'limning aksiologik asoslarini aniqlash;

- milliy ta’lim mazmuni va rivojlanish strategiyasini aniqlashga doir aksiologik yondashuvni ishlab chiqish.

N.A. Astonovaning “Pedagogik aksiologiyaning kontseptual asoslari” maqolasida pedagogik aksiologiyaning predmeti sifatida shaxsning madaniy munosabatini rivojlantirish e'tirof etiladi. Maqolada qayd etilishicha, ana shu jihat bilan pedagogik aksiologiyaning funktsiyalari uning o‘ziga xosliklarini belgilashga imkon beradi. Quyida ulami ko‘rib o‘tamiz:

• mazmunli muvofiqlik (ta'limning mazmunli va protsessual jihatlarini birlashtirganligi sababli, intellektual tashabbusni rag‘batlantiradi) - fikriy jarayon, obyektni aktuallashtirish, aniq dalil va isbotlami belgilash, axborotni tanqidiy rnushohada etish, ma'nornazrnunini tushunish, shaxsiy fikrning o‘sishi;

• baholovchi - pedagogik jarayon ishtirokchilarida borliq va ma'naviy hodisalami adekvat baholashni rivojlantirishni aks ettiradi;

• yo‘naltirish funktsiyasi – “qadriyatlar ierarxiyasi”ning rna'lurn parametrlari asosida shaxsiy, kasbiy tavsifning muhirn qoidalarini aniqlash irnkoniyatlari bilan bog‘liq;

• me’yoriy (normativli) - pedagog va tarbiyachining aksiosferasining tarkibiy qismlari, o‘zida qadriyat tarzini aks ettiruvchi ularning o‘zaro rnunosabatlari tizimini “qonuniylashtiradi”;

• boshqaruvchilik - insonparvar rnazrnunga ega milliy va umuminsoniy qadriyatlar oqimidagi tizirn subyektlari. ta’lirn tizirni rivojlanishini yo‘naltiradi, ta'lirn sohasidagi o‘zaro zaruriy harakatni hosil qiladi;

• nazorat qiluvchi rnadaniy-tarixiylik kontekstida qadriyatning rivoji, shaxsda qadriyatga yo‘nalganlikni shakllantirish imkonini beradi.

Aksiologik bilimlarni tizimlashtirish maqsadida pedagogikadagi qadriyatli merosni o‘rganish va pedagogik aksiologiyaning kategorial apparatini aniqlash ham kam bo‘imagan vazifa hisoblanadi. Amaliy jihat o‘quv rejalari va dasturlari (Uzish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratish, didaktik va metodik materiallami ishlab chiqish, ta’lirn va tarbiya kontseptsiyasini yaratishda ta’lim sohasi xodimlarining aksiologik bilimlardan foydalana olishini tahlil etadi. Tajribaviy(praktik) jihat o‘quvchi, talaba, o‘qituvchilarning aksiologik ongi, munosabati, xulq-atvorini shakllantirish, ularni aksiologik yo‘nalganligini rivojlantirishga doir aniq muammolarini hal etishga qaratilgan ta'lim muassasalari faoliyatini o‘z ichiga oladi. Ularning vazifasi hozirgi vaqtda pedagogik aksiologiya nimani taqozo etsa, shularning barchasidan mohirona foydalanishni o‘zida aks ettira olishdir. Amaliy jihatni amalga oshirish to‘liq ravishda aksiologik yo‘nalganlikning nazariy asoslarini aniqlab

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

beradigan ilmiy jihatni rivojlanganligiga va ta'lim sohasi barcha bo'g'inlari faoliyati yo'nalganligini shakllantirilganligiga bog'liq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Sh.Mardonova, B.Xodjayeva, Sh.Taylanova, D.Xojimuhammedova "Pedagogik aksiologiya" o'quv qo'llanma Toshkent-2013
2. Маликова П.С. Мактаб ўқувчиларининг таълим фаолиятини шакллантириш (географияни ўқитиш мисолида). Илмий ва амалий қўлланма. Уфа: Баш.ГПИ , 1998.-120с.
3. Axrorov Y.A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2002.- 110 b.
4. Таълимни ривожлантириш тизимидаги дарс. (Иш тажрибасидан)./ эд. А.К.Дусавитский. Харков: Психология ва ривожланиш таълим методикаси маркази, 1996. - 46 б.
5. Fozilov J., Sultonov R., Sodiqov X. "O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish" "Sharq" nashriyoti. Toshkent.- 2000 -102
6. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. T.: Fan. 384 b.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Shonazarova Sevara Rashidovna**, "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi, [**Шоназарова Севара Рашидовна,** Преподаватель кафедры "Начальное образование"], [**Sevara R. Shonazarova**, Teacher of the Department of Primary Education]; manzil: manzil: Termiz shahar, Islom Karimov ko`chasi, 288b-uy [адрес: улица Ислама Каримова, 288б, город Термез], [address: Islam Karimov street, 288b, Termiz city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

OILA VA MAKTAB HAMKORLIGINING O'SMIRLAR AQLIY FAOLLIGIGA TA'SIRI

© N.U. Ummatqulova[1]✉

[1]"Oila va gender" ilmiy - tadqiqot instituti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada o'smirlarning aqliy faolligini rivojlantirishda oila va maktab hamkorligining pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Oila muhitining o'smirlarning intellektual rivojlanishiga ta'siri, maktabda ta'lim berish usullari va bu jarayonning o'zaro bog'liqligi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchilarning va ota-onalarning o'zaro hamkorligi o'smirlarning mustaqil fikrlash, analitik tahlil qilish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishdagi o'rni ko'rsatilgan. Ushbu maqola pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun o'smirlarning aqliy rivojlanish jarayonida oila va maktabning ahamiyatini yanada chuqurroq tushunish uchun foydali bo'ladi.

MAQSAD: maqola o'smirlarning aqliy faolligi rivojlanishiga oila va maktabning qanday hissa qo'shishi mumkinligini o'rganish, ularning hamkorligi samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish, pedagogik va psixologik jihatlarni tahlil qilishni maqsad qiladi. Bu jarayonda oila va maktab o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash orqali o'smirlarning aqliy faoliyatini rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga e'tibor qaratiladi.

Mazkur mavzuni o'rganish orqali o'quvchilarning intellektual rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishda oila va maktabning hamkorlikdagi roli aniq belgilanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: o'smirlarning aqliy faolligini rivojlantirishda oila va maktab hamkorligi muhim omil hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar va amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, oila a'zolari, ayniqsa ota-onalarning tarbiyaviy yondashuvi, bolalarning aqliy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Maktab esa o'smirlar bilimini kengaytirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda asosiy maydon hisoblanadi. Ushbu hamkorlik samaradorligi ko'proq oila va maktab o'rtasidagi doimiy muloqot va birgalikda ishlash mexanizmlariga bog'liq. Ayniqsa, psixologik qo'llab-quvvatlash va pedagogik yondashuvlarning uyg'unlashuvi o'smirlarning aqliy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, oila va maktab o'rtasidagi samarali hamkorlik o'smirlarning aqliy rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi doimiy hamkorlik o'smirlarning intellektual faoliyatini kuchaytiradi. Shuningdek, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash usullarini takomillashtirish, o'smirlarning bilim olish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

XULOSA: tarixiy asarlarni o'qitish orqali talabalarda vatanga sadoqat ruhini shakllantirish zamonaviy ta'limning eng muhim maqsadlaridan biridir. Tarixiy asarlar talabalarga nafaqat o'tmishdagi voqealar va shaxslar haqida bilim beradi, balki ularning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday asarlarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular o'quvchilarni milliy qadriyatlarni hurmat qilishga, o'z xalqining boy madaniy va tarixiy merosini anglashga, vatanga sadoqatli bo'lishga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, O'smirlarning aqliy faolligini rivojlantirishda oila va maktab hamkorligi muhim o'rin tutadi. Ushbu hamkorlik bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish, ularni ijtimoiylashuv jarayoniga tayyorlash va o'z-o'ziga ishonch hosil qilishida katta ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik va psixologik yondashuvlar orqali o'smirlarning intellektual imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishiga sharoit yaratish mumkin. Shu sababli, ota-onalar va o'qituvchilarning birgalikdagi faoliyati o'smirlarning kelajakdagi yutuqlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'smirlar, aqliy faollik, pedagogik hamkorlik, psixologik yondashuv, oila va maktab, ta'lim jarayoni, intellektual rivojlanish, mustaqil fikrlash, interaktiv metodlar.

Iqtibos uchun: Ummatqulova N.U. Oila va maktab hamkorligining o'smirlar aqliy faolligiga ta'siri. // Inter education & global study. 2024. №8. B.124–131.

ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНО-ШКОЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА НА ПСИХИЧЕСКУЮ АКТИВНОСТЬ ПОДРОСТКОВ

© Н.У. Умматкулова[1]✉
[1]Научно-исследовательский институт "Семья и гендер", Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются педагогические и психологические аспекты сотрудничества семьи и школы в развитии психической деятельности подростков. На научной основе освещены влияние семейной среды на интеллектуальное развитие подростков, методы обучения в школе и взаимообусловленность этого процесса. Также показана роль сотрудничества педагогов и родителей в формировании навыков самостоятельного мышления, аналитического анализа и саморазвития подростков. Данная статья будет полезна педагогам, психологам и родителям для лучшего понимания значения семьи и школы в психическом развитии подростков.

ЦЕЛЬ: цель статьи - изучить, как семья и школа могут способствовать развитию мыслительной деятельности подростков, разработать рекомендации по повышению эффективности их сотрудничества, проанализировать педагогические и психологические аспекты. В этом процессе, укрепляя связи семьи и школы, уделяется внимание выявлению проблем, возникающих в развитии психической деятельности подростков, и показаны пути их решения.

Изучая эту тему, четко определяется совместная роль семьи и школы в создании необходимых условий для интеллектуального развития учащихся.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: сотрудничество семьи и школы является важным фактором развития умственной деятельности подростков. Научная литература и практические наблюдения показывают, что образовательный подход членов семьи, особенно родителей, оказывает существенное влияние на психическое развитие детей. А школа является основным полем расширения знаний подростков и развития навыков самостоятельного мышления. Эффективность этого партнерства в большей степени зависит от механизмов постоянного общения и сотрудничества семьи и школы. В частности, сочетание психологического сопровождения и педагогических подходов служит развитию мыслительной деятельности подростков.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: на основе анализа можно отметить, что эффективное сотрудничество семьи и школы является решающим фактором психического развития подростков. Постоянное сотрудничество родителей и педагогов повышает интеллектуальную активность подростков. Также большое значение в развитии навыков обучения и самостоятельного мышления подростков имеет совершенствование методов педагогического и психологического сопровождения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: таким образом, сотрудничество семьи и школы играет важную роль в развитии умственной деятельности подростков. Такое сотрудничество оказывает большое влияние на повышение способности детей мыслить самостоятельно, подготавливая их к процессу социализации и уверенности в себе. С помощью педагогических и психологических подходов можно расширить интеллектуальные возможности подростков и создать условия для их успеха в жизни. Поэтому совместная работа родителей и педагогов служит фундаментом будущих достижений подростков.

Ключевые слова: подростки, мыслительная деятельность, педагогическое сотрудничество, психологический подход, семья и школа, образовательный процесс, интеллектуальное развитие, самостоятельное мышление, интерактивные методы.

Для цитирования: Умматкулова Н.У. Влияние семейно-школьного сотрудничества на психическую активность подростков. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 124–131.

THE EFFECT OF FAMILY AND SCHOOL COOPERATION ON THE MENTAL ACTIVITY OF TEENAGERS

© Nigora U. Ummatqulova[1]✉
[1]Research institute “Family and gender”, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: pedagogical and psychological aspects of family and school cooperation in the development of mental activity of adolescents are analyzed in this article. The influence of the family environment on the intellectual development of

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

adolescents, methods of teaching at school and the interdependence of this process are covered on a scientific basis. Also, the role of the cooperation of teachers and parents in the formation of independent thinking, analytical analysis and self-development skills of teenagers is shown. This article will be useful for pedagogues, psychologists and parents to better understand the importance of family and school in the mental development of adolescents.

AIM: the article aims to study how family and school can contribute to the development of mental activity of adolescents, to develop recommendations for increasing the effectiveness of their cooperation, to analyze pedagogical and psychological aspects. In this process, by strengthening the ties between the family and the school, attention is paid to identifying the problems that arise in the development of the mental activity of adolescents and showing ways to solve them.

By studying this topic, the cooperative role of family and school in creating the necessary conditions for the intellectual development of students is clearly determined.

MATERIALS AND METHODS: cooperation between family and school is an important factor in the development of mental activity of adolescents. Scientific literature and practical observations show that the educational approach of family members, especially parents, has a significant impact on the mental development of children. And school is the main field for expanding adolescents' knowledge and developing independent thinking skills. The effectiveness of this partnership depends to a large extent on the mechanisms of constant communication and cooperation between family and school. In particular, the combination of psychological support and pedagogical approaches serves to develop the mental activity of adolescents.

DISCUSSION AND RESULTS: based on the analysis, it can be noted that effective cooperation between family and school is a decisive factor in the mental development of adolescents. Constant cooperation between parents and teachers increases the intellectual activity of adolescents. Also, of great importance in the development of learning skills and independent thinking of adolescents is the improvement of methods of pedagogical and psychological support.

CONCLUSION: in conclusion, family and school cooperation play an important role in the development of mental activity of teenagers. This cooperation has a great impact on increasing children's ability to think independently, preparing them for the process of socialization and self-confidence. Through pedagogical and psychological approaches, it is possible to expand the intellectual capabilities of adolescents and create conditions for their success in life. Therefore, the joint work of parents and teachers serves as a foundation for the future achievements of adolescents.

Key words: adolescents, mental activity, pedagogical cooperation, psychological approach, family and school, educational process, intellectual development, independent thinking, interactive methods.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

For citation: Nigora U. Ummatqulova. (2024) 'The effect of family and school cooperation on the mental activity of teenagers', Inter education & global study, (8), pp. 124–131. (In Uzbek).

O'smirlarning aqliy faolligi – bu yosh davridagi bolalarning intellektual rivojlanishi jarayonida mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, analitik tahlil qilish qobiliyatlari va o'z fikrlarini erkin ifodalashni o'z ichiga oluvchi psixologik jarayondir. Aqliy faollik shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, yangi bilimlarni tezda o'zlashtirishi va hayotdagi turli vaziyatlarga moslashishi uchun zarur bo'lgan eng muhim sifat hisoblanadi. Bu jarayon, asosan, o'quvchilarning ta'lim olishdagi faolligi, qiziqishi va tashabbuskorligiga bog'liq bo'ladi.

O'smirlik davrida bolalar o'z fikrlash imkoniyatlarini kengaytirish, mustaqil qarorlar qabul qilish hamda o'z o'rganish strategiyalarini shakllantirishni boshlaydilar. Bu bosqichda ularning aqliy faolligini rivojlantirish jamiyatda ularning kelajakdagi o'rnini belgilaydi va shaxsiy hamda professional hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlariga asos yaratadi. Aqliy faollik yuqori bo'lgan o'smirlar bilimlarni tezda o'zlashtiradi, murakkab vazifalarni samarali hal qiladi va o'rganish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatda bo'ladi. Bu esa ularning ta'lim jarayonida yuksak natijalarga erishishiga olib keladi.

Aqliy faollikning ahamiyati bir necha omillar bilan bog'liq:

1. Mustaqil fikrlash – Aqliy faollik o'smirlarning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ular yangi ma'lumotlarni o'zlari tahlil qilish, o'rganilgan narsalarni boshqa bilimlar bilan bog'lash va shaxsiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantiradilar. Mustaqil fikrlash kelajakda shaxsning ilmiy va kasbiy faoliyatida juda muhim hisoblanadi.

2. Muammolarni hal qilish qobiliyati – O'smirlar aqliy faolligi rivojlanishi ularning kundalik hayotda va ta'lim jarayonida duch keladigan muammolarni tahlil qilish va samarali yechimlarni topishga yordam beradi. Ushbu qobiliyat ularga murakkab vaziyatlarda o'z yo'llarini topish va muvaffaqiyatli chiqish imkoniyatini beradi.

3. Innovatsion fikrlash – Aqliy faolligi yuqori bo'lgan o'smirlar yangi va noan'anaviy yechimlarni izlashga moyil bo'ladilar. Ular innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali yaratgan g'oyalari bilan ajralib turadilar. Bu qobiliyat kelajakda ularning ijodiy rivojlanishi va professional hayotida yangi yutuqlarga erishish imkonini yaratadi.

4. O'rganishga bo'lgan qiziqish – Aqliy faollikning rivojlanishi ta'lim jarayonida faollik va qiziqish uyg'otadi. O'smirlar yangi bilimlarni tezda o'zlashtirishga intiladilar, ularni chuqur o'rganish va ilmiy izlanishlarga qiziqish hosil qiladilar. Bu ularning ta'lim olish jarayonida yuksak natijalarga erishish imkoniyatini oshiradi.

Shunday qilib, o'smirlarning aqliy faolligini rivojlantirish ularning kelajakdagi shaxsiy va professional muvaffaqiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonda oila va maktabning hamkorligi muhim o'rin tutadi, chunki o'qituvchi va ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi, ularning intellektual rivojlanishga bo'lgan ijobiy ta'siri o'smirlarning fikrlash imkoniyatlarini kengaytiradi, ularni mustaqil qarorlar qabul qilishga undaydi va o'z hayot yo'lini to'g'ri belgilashiga ko'maklashadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

O’smirlarning aqliy faolligini rivojlantirish jarayonida oila va maktab o’rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu hamkorlikning samaradorligi bolaning intellektual salohiyatini to’laqonli ro’yobga chiqarish va ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Oila va maktabning birgalikdagi sa’y-harakatlari o’smirlarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga mustaqil qaror qabul qilish, analitik va tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishda asosiy omil bo’lib xizmat qiladi.

Oila – bolalar tarbiyasi va ta’lim olish jarayonining birinchi va asosiy manbasi hisoblanadi. Bolaning aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi va o’qishga bo’lgan munosabati ko’p jihatdan oila muhitiga bog’liq. Ota-onalarning bolaga nisbatan ko’rsatayotgan e’tibori, tarbiyadagi yondashuvlari va intellektual rivojlanish uchun yaratilgan imkoniyatlar o’smirning bilim olishga bo’lgan ishtiyoqi va qobiliyatini shakllantiradi.

Oilaning ta’siri bir necha jihatlarda namoyon bo’ladi:

1. Intellektual qo’llab-quvvatlash: Oila o’smirning bilim olishiga yordam beruvchi muhim intellektual qo’llab-quvvatlovchi omil hisoblanadi. Ota-onalar bolalarga kitob o’qish, o’quv jarayoniga qiziqish uyg’otish va bilim olishga rag’batlantiruvchi vaziyatlar yaratish orqali ularning aqliy faolligini oshiradi. Ota-onalar tomonidan ko’rsatiladigan e’tibor va qiziqish bolalarning o’rganishga nisbatan ijobiy munosabatini kuchaytiradi.

2. Ota-onaning roli va model: Ota-onalar bolalarning ta’lim va intellektual rivojlanishida namuna sifatida katta ta’sir ko’rsatadi. Ular o’qishga bo’lgan yondashuvi, bilim olishga qiziqishi va o’rganishga bo’lgan ishtiyoqi orqali bolalarga o’rnak bo’ladi. Ota-onalar tomonidan ko’rsatiladigan ushbu namuna o’smirlarning bilim olish jarayonidagi motivatsiyasini oshiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

3. Motivatsiya va rag’batlantirish: Ota-onalar tomonidan bolalarning muvaffaqiyatlari uchun rag’batlantirilishi ularning aqliy rivojlanishi va bilim olishga bo’lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi. Ijobiy mulohazalar, maqtov va rag’batlantirish o’smirlarni yangi bilimlarni egallashga, murakkab masalalarni hal qilishga va o’z maqsadlariga erishishga undaydi.

4. Uyda yaratilgan o’quv muhiti: Uy sharoitida yaratilgan intellektual muhit ham bolaning aqliy faolligini rivojlantirishda muhim rol o’ynaydi. Oila a’zolari tomonidan tashkil etilgan o’quv va o’rganish uchun qulay sharoitlar, kitoblar, ilmiy materiallar bilan boyitilgan muhit o’smirlarning bilim olish jarayonidagi faolligini oshiradi.

Maktab – ta’limning markaziy manbasi bo’lib, bolalarning aqliy rivojlanishida asosiy rol o’ynaydi. O’quvchilar maktabda nafaqat bilim olishadi, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va tahlil qilish ko’nikmalarini ham o’zlashtiradilar. O’qituvchilar o’quvchilarning aqliy faolligini oshirishda muhim rol o’ynab, ularning fikrlash jarayonlarini yo’naltiradi va intellektual salohiyatlarini rivojlantiradi.

Maktabning ta’siri quyidagicha namoyon bo’ladi:

1. Ta’lim jarayonidagi innovatsion metodlar: O’qituvchilar tomonidan qo’llaniladigan turli innovatsion pedagogik metodlar o’smirlarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Interaktiv dars usullari, muammoli o’qitish metodlari, guruhli ishlar va amaliy mashg’ulotlar orqali o’smirlar o’z bilimlarini mustaqil shakllantiradilar va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

yangilaydilar. Ushbu yondashuvlar bolalarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini oshiradi.

2. O'qituvchi-o'quvchi munosabati: O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabat o'smirning aqliy faolligini oshirishda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi o'smirning intellektual qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlab, uni rag'batlantiradi va bilim olish jarayoniga qiziqish uyg'otadi.

O'qituvchining o'quvchiga bo'lgan ishonchi va hurmati bolani mustaqil ishlashga undaydi, ularni o'rganishga, tahlil qilishga va yangi g'oyalar yaratishga ruhlantiradi.

3. Faol o'quv muhiti yaratish: Maktabda yaratilgan faol o'quv muhiti o'smirlarni bilim olish jarayoniga faol ishtirok etishga jalb etadi. Guruhli ishlarda va amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etish orqali o'smirlar o'z fikrlarini boshqa tengdoshlari bilan almashadi, muammolarni hal qilishga jamoaviy yondashishni o'rganadi va ularning fikrlash qobiliyatlari kengayadi.

Oila va maktabning samarali hamkorligi o'smirlarning intellektual rivojlanishida eng muhim omil hisoblanadi. Ota-onalar va o'qituvchilar birgalikda harakat qilib, o'smirlarni qiziqishlari, qobiliyatlari va o'qishdagi yutuqlarini kuzatib borishlari, ularga mos tarzda yordam berishlari va ularning rivojlanishiga ko'maklashishlari zarur. Oila va maktab o'rtasidagi o'zaro muloqot va hamkorlik ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o'smirlarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi.

Hamkorlik quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

1. Doimiy aloqada bo'lish: Ota-onalar va o'qituvchilar muntazam ravishda o'zaro aloqada bo'lishlari, o'quvchilarining o'qishdagi yutuqlari, qiyinchiliklari va aqliy rivojlanishidagi o'zgarishlar haqida ma'lumot almashishlari zarur. Bu hamkorlik bolalarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarini yanada oshirish imkonini beradi.

2. Qo'shma tadbirlar va loyihalar: Oila va maktab birgalikda bolalar uchun qiziqarli va foydali tadbirlar tashkil qilishlari mumkin. Masalan, fanlar bo'yicha tanlovlar, loyihalar va amaliy mashg'ulotlar ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan birgalikda tashkil qilinsa, bolalarning bilim olish jarayoniga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishi kuchayadi.

3. Motivatsiyani oshirish: O'qituvchilar va ota-onalar birgalikda bolalarning yutuqlarini rag'batlantirib, ularga qiziqarli va maqsadli motivatsion dasturlar yaratish orqali o'smirlarning aqliy rivojlanishini yanada kuchaytirishlari mumkin.

Shunday qilib, oila va maktabning samarali hamkorligi o'smirlarning aqliy faolligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu hamkorlik bolalarning intellektual qobiliyatlarini to'laqonli shakllantirish, ularni mustaqil qaror qabul qilishga va bilim olish jarayoniga faol ishtirok etishga undashda asosiy vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Nishonova Z.T. Mustaqil fikrlashni o'rgatish bo'yicha trening\\Xalq ta'limi 2000,16 b.

For citation: Dilshod Q. Mamatov. (2024) 'Methodology of using creative educational technologies in teaching people's applied decorative arts', Inter education & global study, (8), pp. 147–157. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta’minlashga qaratilgan islohotlar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Oxirgi yillarda pedagogik ta’lim nazariyasida yangi kompetent yondashuv yo‘nalishi yuzaga kelib, uning mohiyatiga ko‘ra pedagogik ta’lim mazmuni kreativ faoliyat davomida amalga oshirilishi lozim deb hisoblanadi. Shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan doimiy ravishda zururiy kreativ malakalarni takomillashtirib borish “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda ma’lum darajada bilim, kunikma va malakalarni egallashlari bilan uning kreativ kompetentliligini rivojlantirish muammosining mustaqil, yaxlit loyixa mavzusi sifatida o‘rganilishi bo‘lajak mutaxasislarni kreativligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, omillarini aniqlashga imkon beradi.

Demak yukoridagi fikrlardan kelib chiqib qaraydigon bo‘lsak, talabalar kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda qanday muhim jihatlar bor, bu haqida xorij hamda respublikamiz olimlarining bir qator tadqiqotlariga nazar tashlaymiz.

Mutaxasisning kreativligi pedagogik, psixologik, tasviriy-estetik mahoratning murakkab yig‘inidisidan tashkil topib, o‘zi tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kreativ qobiliyat mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi [11; 155-156-b.].

Amaliy-bezak san’atining asosiy maqsadi insonlar yashayotgan muhitni va o‘zini o‘rab olgan buyumlarni chiroyli va jozibador qilishdan iborat. Bugungi kunda amaliy san’at buyumlarini kundalik hayotda qo‘llanib keliniyotganligi hatto, ayrim buyumlar bezaksiz bo‘lganda ham go‘zal va badiiy bo‘lishini yaqqol ko‘rish mumkin.

Bunda bu buyumning shakli va materiali katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Tasavvur qilish kerakki biror bir san’at asari juda ham nozik, rang-barang, chiroyli shakldagi buyum asosida yaratgan. U har jihatdan kishilar e’tiborini o‘ziga tortadi. Lekin, undan amaliyotda foydalanib bo‘lmasa, u narsani go‘zalligi ham bo‘lmaydi. Masalan piyolani chelakdek kattalikda nihoyatda bezakdor qilib ishlansa undan hech kim foydalana olmaydi. Ya’ni, chiroyli bo‘lishi mumkin emas. Amaliy – bezak san’atida shakl ham muhim ahamiyatga ega. Agar buyum hajm jihatdan maqsadga muvofiq ishlansa-yu, uni shakli topilmasa u ham chiroyli yoki badiiy hisoblanmaydi. Masalan, polov uchun mo‘ljallangan sopol laganni tog‘ora yoki chelak shaklida ishlash mumkin emas. Chunki, u laganni vazifasiga mos

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

tushmaydi. Polovni tog‘oradan qo‘l bilan olib istemol qilish ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuninng uchun ham amaliy-bezak buyumlarini yaratishda buyum shaklini, uning vazifasidan kelib chiqqan holda tayyorlanishi lozim.

Amaliy–bezak san’ati buyumlarini tayyorlashda uni materialini to‘g‘ri tanlash katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, lagan va piyolani yog‘ochdan, xontaxta va kursilarni toshdan, Masalan, kiyim–kechaklarni loy yoki ganchda tayyorlash maqsadga muvofiq emas. Chunki, bu materiallar shu buyumlarning vazifasiga mos kelmaydi. Aytaylik idish-tovoqlar tayyorlashda usta, unga oziq-ovqat yoki ichimlik solinishini hisobga olish lozim. Usta lagan tayyorlaydigan bo‘lsa, uni metaldan yoki toshdan tayyorlamaydi. Chunki, lagan, metaldan tayyorlansa birinchidan og‘ir bo‘ladi, ikkinchidan unga, suzilgan ovqat tez sovib qoladi. Amaliy-bezak san’atini rangsiz tasavvur etish qiyin. Ayrim ustalar buyum materialiga (masalan yog‘ochga, misga) ishlov berib, ularning ta’sirchanlik darajasini oshirsalar, boshqa ustalar bo‘yoqlar yordamida buyumlarga rang berib ularni ko‘rkini ochadilar. Amaliy–bezak san’ati buyumlariga rang berishda ustalar yuqorida qayd qilinganidek, ularning vazifasidan ishlatilgan materiallaridan kelib chiqadilar. Shuningdek, buyumlar qaysi maqsadda kimlar uchun, qaysi vaqtda, qayyerda ishlatilishiga qarab rang tanlaydilar.

Masalan, kiyimlar uchun rang tanlaganda, ular qaysi jinsdagilar, qaysi yoshdagilar, qaysi vaqtda kiyilishi (bayram, to‘y kunlari motam kunlari, xizmat vaqtida v.h)ga e’tibor beriladi. Masalan bayram va to‘ylarda kiyiladigan kiyimlarda quvnoq va yorqin ranglar ishlatilsa, kundalik kiyimlarda vazminlik, xotirjamlik hislarini uyg‘otuvchi ranglar qo‘llaniladi. Kasalxona intererini bezashda qo‘llaniladigan ranglardan o‘quv yurtlari yoki ta’lim muassasalarini bezashda foydalanib bo‘lmaydi. Chunki ranglar odamlarga har xil ta’sir qiladi. Shu maqsadda kasalxonalarning bezagida ko‘proq kasallarni tinchlantiruvchi, och, tiniq ranglar ishlatilsa, o‘quv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalarida kishilarni hayajonlantiruvchi, tetiklashtiruvchi, to‘qroq ranglar qo‘llaniladi. Bayram kunlari kiyimlar tayyorlashda ularga iliq ranglar berilishining sababi kiyimlarni ko‘rgan odamlarda ko‘tarinkilik, quvonch hosil qilish nazarda tutiladi. Kundalik kiyimlarga bunday ranglar ishlatilsa, ular odamlarni tez charchatadi va bezovtalantiradi. Xullas, ranglar amaliy bezak san’tida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Amaliy-bezak san’ati buyumlarida yana bir muhim jihat ularning o‘lchovlari hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan amaliy-bezak san’ati buyumini yaratuvchi har bir usta yaratilajak buyumning vazifasini e’tiborga olib, uning o‘lchovini to‘g‘ri olishligini bildiradi.Bunga bir qancha misollar keltirish mumkin. Xususan, choynakni xumdek kattalikda, so‘zanani dastro‘moldek yoki dekorativ qutichani sandiqdek o‘lchovda yasash maqsadga muvofiq emas. Aks holda, ular foydalanish uchun yaroqsiz bo‘lib qoladi. Shunday qilib, amaliy san’at buyumlari ularning vazifasi, shakli, bezagi, materiali, rangi, o‘lchovlarga rioya qilishni talab etadi. Shundagina, bu buyumlar odamlarni ilhomlantiradi, hayajonlantiradi va ularga zavq bag‘ishlaydi.

Hozirgi kunda amaliy-bezak kundan kunga rivoj topib bormoqda:

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

1. Badiiy hunarmandchilik. Bu yo‘nalishda ayrim korxona, zavod va ishlab chiqarish fabrikalari kiradi, Rishtondagi kulolchilik korxonasi, Buxorodagi zardo‘zlik buyumlari, Xivadagi gilamdo‘zlik korxonalari shular jumlasidandir.

2. Xalq amaliy–bezak san’ati. Bu yo‘nalishda asosan mustaqil ravishda ish olib borayotgan ustalar mahsulot ishlab chiqaradilar.

Birinchi yo‘nalish bo‘yicha badiiy buyumlar ishlab chiqarsh korxonalarida ko‘p nusxada tayyorlansa, alohida ustalar faoliyatida buyumlar soni nihoyatda chegaralangan bo‘ladi.

Bu esa ularning badiiyligini yuqori bo‘lishligiga olib keladi. Bunday korxonalar mebelsozlik, kashtachilik, pichoqchilik sohalarida ham bor.

Xalq amaliy san’ati har bir xalqda mavjud bo‘lib, ular bir–biridan yuqorida qayd qilinganidek, amaliy san’atning janrlari, buyumlar tayyorlashda qo‘llaniladigan materiali, shakli, tuzulishi, o‘lchovi, rangi, bezagilari jihatdan bir-biridan farq qiladi.

Amaliy-bezak san’atini talabalarga o‘rgatish nafaqat dars jarayonlarida amalga oshiriladi, balki bu san’atni yana bir muhim xarakterli belgilaridan biri bu ming yillar davomida xalq ustalari ijodida qo‘llanib kelgan badiiy ananalar hisoblanadi. Bu xususiyat ko‘proq har bir xalqning u yashayotgan muhiti, tabiati, iqlim sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Chunki, amaliy san’at ustasi o‘z asarini yaratiyotganda u go‘zallikni tevarak-atrofdan, tabiatdan oladi. Masalan, o‘zbek xalq ustalari o‘z ishlarida anor, bodom, tovus, xumo tasvirlarini, shimoliy o‘lkalarning ustalari bug‘u, kiyik tasvirlarini ishlaydilar. Yuqorida qayd qilganimizdek, asar koloritiga iqlim ham ta’sir ko‘rsatadi. Shimoliy davlatlar iqlimi sovuq bo‘lgani uchun u yerdagi ustalar ko‘proq sovuq, ranglarni issiq, iqlimli O‘zbek ustalari ko‘proq iliq ranglarni qo‘llaydilar. Shunday qilib, har bir xalqning amaliy-bezak san’atida o‘z ananalari shakllanadi. Naqqoshlik ananalari san’atning ana shu turini o‘rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o‘g‘ilga o‘tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqqoshlik san’ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go‘zalligi bilan farqlanadi. Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg‘unligida va o‘ziga xos kompozitsiyalarda go‘zallik yaratish san’atidir. Naqqosh usta o‘z ijodiy ishida ranglarning tabiy jilosidan va uyg‘unligidan, betakror shakldan, material fakturasidan moxirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi. Ta’lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo‘l va uslublar yig‘indisi o‘qitish metodikasi deyiladi. Amaliy–bezak san’ati darslarini to‘g‘ri tashkil etish o‘qituvchini o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ham bog‘liq. Shu bilan birga darslarni nazariy ham amaliy qoidalarga asosan o‘tilsa, talabalarni o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi. Amaliy san’at fani darslarida fanga oid turli adabiyotlar, ko‘rgazmali qurollar, zamonaviy texnika vositalaridan keng foydalanish va yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash katta ahamiyatga ega.

Amaliy san’at darslari yanada samarali o‘tishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- darslarda yangi pedagogik texnologiyalardan o‘rinli foydalanish;

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

- darslarda mashxur ustalar ijod namunalaridan hamda usta-shogird ananalaridan keng foydalanish;
- talabalar ishlaridan ko‘rgazmalar qilish;
- ko‘rgazmali qurollardan unumli foydalanish;
- talabalarni o‘z kasbiga qiziqtirish yo‘llaridan samarali foydalanish;
- talabalarning individul xususiyatlarini, universitetning moddiy bazasini hisobga olish;
- amaliy bezak san’atida ishlatiladigon atamalarning lug‘aviy ma’nosini atroflicha o‘rganish va boshqalar.

Amaliy san’at fani tasviriy san’at, chizmachilik va amaliy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi o‘z sohasida chuqur ma’lumotli mutaxasis bo‘lmog‘i, zamonaviy san’at jarayoni yo‘nalishlarini yaxshi anglab tushunishi, o‘tmish madaniy merosimizga esa to‘g‘ri baho bera olishi, tasviriy va amaliy san’at terminlarini chuqur bilishi va har xil turli badiiy materiallar vositasida amaliy ishlarni puxta bajara olishi zarur. Talabalar mahoratini oshirishda puxta egallangan bilimlar va amaliy mashg‘ulotlarning roli beqiyosdir. Mashg‘ulotlarda naqshlarning mohiyati, xususiyati, nafis tasvirlash, vazifalarni metodik ketma - ketlikda bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda olingan bilimlar talabalarning mustaqil mashg‘ulotlari jarayonida yanada mustahkamlanadi.

Shuningdek amaliy bezak san’ati darslarida talabalar tayyor bilimlarni o‘zlashtirib olishga qaratilgan bo‘lsa, kreativ ta’lim texnologiyalari ularni ijodiy faollikka, egallanishi lozim bo‘lgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil ijodiy kompozitsiyalar yaratishni, turli xil amaliy bezak san’atiga oid noyob eskizlarni chizishni, hatto ba’zi bezaklarga o‘zgartirishlar qilib, yaxlit kompozitsiya yaratishni maqsad qilishlari lozim. Bundan tashqari darslarda kompyuter vositalaridan foydalanib o‘qitish, jarayonlarni qiziqarli olib borish, har bir talabalarga individual yondashish imkonini beradi. Bunda, birinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning keng imkoniyatlari orqali talabalarga juda ko‘p bilim, fakt va ma’lumotlarni yetkazish mumkin bo‘ladi. Ikkinchidan, o‘qituvchining innovatsion reja, g‘oya va o‘y-fikrlarni to‘laqonli amalga oshirish yengil va samarali tarzda kechadi. Amaliy bezak san’ati fanini o‘qitishda kreativ ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yuqorida bildirilgan fikrlarga qo‘shimcha qilgan holda bugungi kunda har bir sohada jumladan amaliy san’at sohasida ham zamonaviy degan termin kirib kelgan masalan, zamonaviy o‘zbek bezak san’ati, zamonaviy naqqoshlik, zamonaviy mis kandakorligi, zamonaviy yog‘och o‘ymakorligi, zamonaviy zardo‘zlik, zamonaviy kashtachilik, zamonaviy ganch uymakorligi, zamonaviy o‘zbek miniatyura san’ati va h.k.

Amaliy san’at turlaridan naqqoshlik eng asosiy san’at turi hisoblanadi. Bu san’at hozirgi kecha-kunduzda shu qadar rivojlanib ketganki, tub-tubigacha yetib borishga har kimning ham sabru bardoshi yetmaydi. Naqqoshlikdagi elementlar, gul elementlari, novda elementlari, barg, novda, shukufta, bofta, madohil elementlari va kompozitsiyalarning umumiyligi juda chigal va murakkablashib yaxlit mukammal amaliy san’at asarlarini

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

kuzatish mumkin. Bunday chizgilarni talabalarga o‘rgatish juda kup vaqtni talab qiladi. Izlanishlari davomida shu narsaga amin bo‘ldimki naqqoshlikda chizilgan har qanday kompozitsiya: bu devorga chizilgan mahobatli kompozitsiya bo‘ladimi yeki kichik o‘lchamli qog‘ozga chizilgan kompozitsiya bo‘ladimi, chizilgan tasvirni bezashda kontur chiziqdan foydalanish ishni jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi va kompozitsiyani mukammal bo‘lishiga olib keladi.

Buxorodagi Baxouddin Naqshband ziyoratgohidagi ayvonlarning shift qismi naqqoshlik san’ati bilan juda chiroyli va insonni hayratga soladigan tarzda bezatilgan. Agar ushbu kompozitsiyalarga diqqat bilan sinchiklab razm solinsa, tasvirlarda kontur chiziqlar bilan bezak berilmaganligini ko‘rish mumkin. Agar bezaklar mukammal darajada bajariladigon bo‘lsa, kompozitsiya juda ham go‘zal va maftunkor san’at asariga aylanadi. Albatta bunda naqshlarning turi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik o‘lchamli naqsh kompozitsiyalarida kontkr chiziqlarini chizish murakkabroq sanaladi, masalan ikkita bir xil o‘lchamda va bir xil kompozitsiyani bajarib A4 qog‘ozga joylashtirilsa, birini kontur chiziqlarini chizilib, ikkinchisini kontur chiziqlarini chizmasdan bajarilsa, o‘rtadagi tafovut yaqqol ajralib qoladi. Dastlabki kompozitsiyada ranglarning o‘zgarishlari, fon qismidagi o‘zarishlar, gul, barg, novda elementlarining o‘zgarishini va kompozitsiyaning umumiy ko‘rinishi o‘zgarganligini sezish qiyin emas. Amaliy bezak san’atining bu siru-sinoatlarini oddiy yo‘llar bilan tushuntirish, amalda fan o‘qituvchisi o‘z bajarib ko‘rsatmog‘i lozim hisoblanadi. Bu jarayonlarda talabalarning ham ijodkorlik ham kreativlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarish imkoniyati paydo bo‘ladi.

A4 o‘lchamli qog‘ozda kompozitsiya bajarishda dastavval qog‘oz planshetga yelim bilan yopishtirib chiziladi va ish yakunlangach planshetdan qog‘oz ajratib olinadi. Ushbu jarayonda kimyoviy yelimlardan foydalanish, ishni sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi chunki birinchidan qogozni planshetdan o‘z o‘lchamida ajratib olish muammo bo‘ladi, ikkinchidan qog‘oz o‘z o‘lchamidan kichik o‘lchamda kesib olinishiga to‘g‘ri keladi. Bu esa kompozitsiyani yaxlitligiga salbiy ta’sir qiladi. Agar biz A4 o‘lchamli qog‘ozni planshetga tabiiy yo‘l bilan tayyorlangan daraxt yelimidan foydalansak, kompozitsiya sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ish samaradorligini oshishiga va bajariladigan kompozitsiyaning sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Amaliy bezak san’atining yana bir turi mis kandakorligi hisoblanadi. Bu san’at bugungi kunda o‘z o‘rniga ega, kundan – kun rivojlanib, sayqal topib borayotgan amaliy san’at hisoblanadi. O‘zbek xalq amaliy bezak san’atining eng ko‘p tarqalgan turlaridan biri mis kandakorligi hisoblanadi. Kandakorlik deganda metaldan yasalgan badiiy buyumlarga o‘yib yoki bo‘rtiq qilib naqsh ishlash tushuniladi. Bu san’at o‘rta osiyoda qadimiyligi bilan kulolchilikdan kiyin ikkinchi o‘rinda turadi. Kandakorlik san’ati ramziy ifodalar, yangi uslublar hamda g‘oyalarni tarqatish manbai bo‘lib xizmat qilgan. Mahalliy ustalar oltin, kumush, jez, mis va boshqa metallardan har xil buyumlar yasaganlar.

Ilm fan rivojlangan sari mis kandakorlik san’atining ham rivojlanishiga ijobiy ta’sir qilmoqda. Ilgari ustalar tomonidan bajarilgan ijodiy ishlar oddiy, sodda, murakkab bo‘lmagan eskizlardan ko‘proq foydalanishgan bo‘lsa, hozirda kompyuter texnologiyalaridan foydalanib har bir kompozitsiyalarda kreativlikni kuzatish mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Zamonaviy mis kandakorligida ranglar bilan ishlash odatiy holga aylangan, buni inkor etib bo‘lmaydi shuningdek amaliy bezak san’atining bu turini ranglarsiz tasvvur etish qiyin. Mis kandakorlik san’atini naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, miniatyura san’ati bilan uyg‘unlashtirib bajarish, san’at asarining ko‘rkiga – ko‘rk, jilosiga – jilo qo‘shilishiga sabab bo‘ladi. Mis kandakorligida asosan tempera, koler, guash, emulsiya bo‘yoqlaridan foydalaniladi. Shuningdek mis kandakorligini ranglar bilan ishlashda ba’zi bir muammolarga duch kelish mumkin, masalan mis laganni fon fon qismini bo‘yashda, misning yuzasi elastik va silliq bo‘lganligi sababli bo‘yash jarayonida ranglar bir joyga yig‘ilib qoladi. Shularni hisobga olib bo‘yashda muammoga duch kelmaslik, yo‘llarini topish, ranglar bir xil bo‘yalishi uchun lagan yuzasi mayin tuproq bilan yoki bolalar pudrasidan foydalanib surib chiqilsa bo‘yashda hech qanday muammo vujudga kelmaydi va ishning unumdorligi oshishiga xizmat qilgan bo‘ladi. Mis kandakorligi rivojiga hissa qo‘shgan ustalar har bir viloyatda topiladi. Bular jumlasiga Usta Mo‘min, Abduqori Yusufjon va uning qizlari Zebiniso, Jamila Saidova kabi ustalar Toshkent kandakorlik vakillari hisoblanadi. Usta Ahmad, usta Oxunjon, Karim G‘ofurov, Karim Axmedov, Usta Haydar va boshqalar Samarqand kandakorlik maktabining vakillari. Xudoyberdi Jo‘rayev, usta Abduqodir Nizomiddin, usta O‘rin va boshqalar Qarshi kandakorlik maktabi nomoyondalari hisoblanadi [29;12-b.].

Buxoro mis kandakorligi haqida fikr mulohaza qilar ekanmiz usta Salim Hamidov nomini eslamasdan ilojimiz yo‘q hozirgi kunda ustaning shogirdlari ushbu san’at bilan muntazzam shug‘ullanib kelishmoqda usta Toxir Qosimov va uning farzandlari usta Jamshid usta Jamol, Shavkat G‘ulomov, Dilmurod Fayzullayev va usta Kurbon va uning farzandi usta Sodiq va boshqa yuzdan ortiq ustalar mis kandakorligini rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Amaliy bezak san’atining yana bir turi yog‘och o‘ymakorlik san’ati isoblanadi. Yog‘och o‘ymakorligi asarlari eshik, deraza, ustunlar, panjaralar, dekorativ kutichalarda o‘z aksini topgan. Bu borada Xiva ustalarining (Ota Polvonov) ishlari maqtovgv loyiq. U yaratgan asarlar o‘simliksimon elementlarning ko‘pligi, bo‘rtirib ishlanganligi bilan boshqalarning asarlaridan ajralib turadi. Toshkent ustalari Akmal Azlarov, Anvarjon Azlarov, Hikmatulla Jo‘raboyev, Abdulla Isroilov va boshqalar geometrik naqshlardan ko‘proq foydalanishadi. Qo‘qonlik usta X.Najmiddinov va uning farzandlari H.Xaydarovning ishlari ham diqqatga sazovordir. Yog‘och o‘ymakorligi san’atida musiqa asboblarini bezash ham alohida o‘rin egallaydi. Dutor va tanburga, chang va torlarga suyak va sadaflardan qadalgan chiroyli naqshlar kishini hayratga qoldiradi. Bu san’atga talabalarning qiziqishini oshirish, eskizlar bajarish usullarini o‘rgatish, dars jarayonida qanaqangi yog‘ochlardan va asbob uskunalardan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Zamonaviy yog‘och o‘ymakorligi ham hozirgi kunda naqqoshlik, miniatyura, va rang tasvir san’atlari bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xos san’at turiga aylangan. Albatta har qanday amaliy bezak san’at turini bevosita naqqoshlik san’ati bilan o‘zaro uzviy bog‘liqligini tasavvur qilish qiyin emas. Yog‘och o‘ymakorligida tayyorlanayotgan dekorativ buyumlar jumladan: qalamdon, lavx, shaxmat doska, qutichalar va h.k. Bu buyumlarni nafaqat

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

yog‘och o‘ymakorligida qo‘llaniladigan kompozitsiyalar bilan bezash balki, islimiy, geometrik, ramziy va murakkab naqshlar bilan bezash odatiy holga aylanib bormoqda. Ayniqsa ramziy naqshlardan anor tasviri chizilgan buyumlar, milliy san’atimizni yanada go‘zal san’at namunalari yaratilishiga xizmat qilmoqda. Amaliy bezak san’ati darslarida yuqorida bayon qilingan san’at turlarini o‘quv jarayonlarida qo‘llash orqali, talabalarni zamon talablariga javob beradigan mutaxassislar qilib tayyorlashga imkon bo‘ladi.

Shunday qilib talabalar kreativ faoliyat asosida badiiy obrazlar yaratish tekis sathdagi (qog‘oz varoq, yog‘och taxtacha, oshxona taxtachasi va x.k.z) hamda real virtual borliqdagi (sinf xonasi, namoyish zallari va x.k.z) amaliy tadbig‘ini amalga oshirish qonuniyatlari mohiyatini tushunish va anglash orqali turli amaliy faoliyat shakllari (eskiz, rasm, kompozitsiya, miniatyura, naqqoshlik, muhandislik grafikasi, kompyuter grafikasi, va x.k.z)ni turli badiiy materiallar va vositalar(qalam, mo‘yqalam, bo‘yoq, tempera, guash, yog‘och, qog‘oz, kalka qog‘oz, virtual dasturiy vositalar va x.k.z) orqali amaliy bezak san’at uslubi, usullari, turlari hamda metodlari talablarini hisobga olgan holda taqdim etishida namoyon bo‘ladi va uning kasbiy etuklikka erishishga poydevor bo‘ladi.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Shularning barchasini inobatga olgan holda talabalarning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi zamonaviy ta’limning taqozo etadigan eng asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатьият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.- Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017.-592 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисга Мурожаатнома (30 декабр 2020 йил).- Тошкент: “Халқ сўзи”, 2020 31 декабр.
3. Mamatov D.K. “Muxandislik grafika bo‘yicha mustaqil ishlarni axborot texnologiya asosida tashkil qilish” “Tasviriy va amaliy san’at, chizmachilikdan pedagog kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish yo‘llari ” respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent, TDPU, 2011 yil 3-4 may. 192- 194 bet.
4. Mamatov D.K. “O‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishlarida fazoviy tasavvuri va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari”. PsixologiY. Buxoro. 2012 yil. 3–son (7). 93-96 bet.
5. Маматов Д “Independent Work of Students as Factor of Motivation of Educational Activity”. Intellectual Archive. Taronto. January. 2016 year. 130-135 page.
6. Маматов Д “Independent work of students and its value in formation of the expert”. Психология. Бухоро. 2018 йил. 1 – сон.63-66 бет.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

7. Маматов Д “Ўрта умумтаълим мактаб чизмачилик фанида ўқувчиларнинг фазовий тасаввурларини ривожлантириш муаммолари”. Science and education scientific journal,. 27 апрель 2020. 387-391 бет.
8. Маматов Д “The role computer graphics in developing students space imagination”. Novateur publication JournalNX. ISSN: 2581-4230. Vol 6, Iss 10, October 2020. 64-65 peg.
9. Mamatov D, Odilova M “Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarni qo‘llashning mazmun-mohiyati”. Pedagogik maxorat. Buxoro. 2019. 3-son. 61-69 bet.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mamatov Dilshod Qodirovich**, Musiqa va tasviriy san’at kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD), professor, [**Маматов Дилшод Кадырович,** заведующий кафедрой музыки и изобразительного искусства, PhD, профессор], [**Dilshod Q. Mamatov,** head of the Department of Music and Visual Arts, PhD, professor]; manzil: O‘zbekiston, Buxoro sh., Piridastgir ko'chasi, 11-uy [Адрес: Узбекистан, г. Бухара, улица Пиридастгир, 11.], [Address: 11, Piridastgir Street, Bukhara, Uzbekistan.]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O`QITISHNING AHAMIYATI

© T.R. Sobirov[1]✉

[1]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada muhandislik grafikasi fanlarining xalq xo`jaligining texnika va texnologiya bilan bog`liq bo`lgan yo`nalishlarda yetuk mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyatiga bag`ishlangan. OTMlarda bu fanlarning o`qitishdagi ba'zi muammolar va ularning yechimlari haqida fkir yuritilgan.

MAQSAD: muhandislik grafikasi fanlarini oliy ta'lim muassasalarida o`qitishdagi ba'zi muammo va ularning yechimlarini tadqiq qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida mavzuga oid o'quv adabiyotrlarni tahlil qilish, suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: muhandislik grafikasi fanlarini o'qituvchi pedagog kadr zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishi zarur. Chunki, bugungi kunda barcha ishlab chiqarish sohalari avtomatlashtirilgan proyeksiyalash dasturlaridan unumli foydalanishmoqda. O'z navbatida barcha chizmalar kompyuterda bajarilmoqda, bu esa tayyorlanayotgan kadrdan avtomatlashtirilgan proyeksiyalash dasturlarini bilishni talab qiladi. Bu muammoni yechish uchun pedagog tutashmalar mavzusiga tayyorlanayotgan chizmalarni mavjudlik sohasini aniqlashi kerak bo'ladi.

XULOSA: hozirgi kunda muhandislik grafikasi fanlarini uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslanib o'qitishni ta'minlash murakkab jarayonligicha qolmoqda. Chunki, o'rta ta'limda muhandislik grafikasi fanlaridan o'tilgan mavzularning o'rta maxsus ta'limda qisman takrorlanishi emas, balki mavzularning qaytarilishi yoki umuman takrorlanmasligi va shu holat oliy ta'limda ham kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda

Kalit so'zlar: ortogonal, proeksiya, grafika, mutaxassis, ta'lim, texnika, texnologiya, chizma geometriya, mashinasozlik,o`quv rejalari.

Iqtibos uchun: Sobirov T.R. Muhandislik grafikasi fanlarini oliy ta'lim muassasalarida o`qitishning ahamiyati. // Inter education & global study. 2024. №8. B.158–163.

ВАЖНОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНЖЕНЕРНО-ГРАФИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

© Т.Р. Собиров[1]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье акцентируется внимание на значении инженерной графики в подготовке полноценных специалистов технических и технологических областей народного хозяйства. Рассмотрены некоторые проблемы преподавания этих предметов и пути их решения в вузах.

ЦЕЛЬ: состоит из исследования некоторых проблем и их решений при преподавании дисциплин инженерной графики в высших учебных заведениях.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались такие методы, как анализ учебной литературы по теме, беседа, социально-психологический опрос, наблюдение, а степень статистической достоверности полученных результатов подтверждалась факторным анализом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: необходимо, чтобы педагогический персонал, преподающий инженерно-графические дисциплины, мог эффективно использовать современные информационные технологии. Потому что сегодня все производственные отрасли эффективно используют программное обеспечение для автоматизированного проектирования. В свою очередь, все чертежи выполняются на компьютере, что требует от готовящегося кадра знания программ автоматизированного проецирования. Чтобы решить эту проблему, педагогу нужно будет определить область существования рисунков, которые готовятся к теме соединений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в настоящее время обеспечение преподавания дисциплин инженерной графики на основе принципов непрерывности и непрерывности остается сложным процессом. Это связано с тем, что в среднем образовании наблюдается не частичное повторение предметов, изучаемых по предметам инженерной графики, в среднем специальном образовании, а возвращение предметов или их полное отсутствие, и то же самое наблюдается и в высшем образовании. Это, в свою очередь, отрицательно сказывается на обеспечении непрерывности и непрерывности образования.

Ключевые слова: ортогональ проекция, графика, специалист, образование, техника, технология, геометрия чертежа, машиностроение, учебные программы.

Для цитирования: Собиров Т.Р. Важность преподавания инженерно-графических дисциплин в высших учебных заведениях. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 158-163.

THE IMPORTANCE OF TEACHING ENGINEERING AND GRAPHIC DISCIPLINES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

© Tolib R. Sobirov[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article focuses on the importance of engineering graphics in the training of full-fledged specialists in technical and technological fields of the national economy. Some problems of teaching these subjects and ways to solve them in universities are considered.

AIM: it consists of researching some of the problems and their solutions in teaching engineering graphics subjects in higher education institutions.

MATERIALS AND METHODS: during the study, methods such as analysis of educational literature on the topic, conversation, socio-psychological survey, observation were used, and the degree of statistical reliability of the results obtained was confirmed by factor analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: it is necessary that the teaching staff teaching engineering and graphic disciplines can effectively use modern information technologies. Because today all manufacturing industries effectively use computer-aided design software. In turn, all drawings are executed on a computer, which requires knowledge of automated projection programs from the preparing frame. To solve this problem, the teacher will need to determine the area of existence of drawings that are being prepared for the topic of connections.

CONCLUSION: currently, ensuring the teaching of engineering graphics disciplines based on the principles of continuity and continuity remains a complex process. This is due to the fact that in secondary education there is not a partial repetition of subjects studied in engineering graphics subjects in secondary special education, but the return of subjects or their complete absence, and the same is observed in higher education. This, in turn, has a negative impact on ensuring continuity and continuity of education

Key words: Orthogonal, projection, graphics, specialist, education, equipment, technology, drawing geometry, mechanical engineering, training programs.

For citation: Tolib R. Sobirov. (2024) **'**The importance of teaching engineering and graphic disciplines in higher education institutions', Inter education & global study, (8), pp. 158–163. (In Uzbek).

Dunyodagi jadal rivojlanish va taraqqyot jarayonlariga integrasiyalangan bir davrni boshdan kechirmoqda.O`z navbatida bu jarayonlar hamma sohalardagi singari oliy ta'lim tizimida ham doimiy islohotlar olib borishni taqozo etmoqda. Mamlakatimiz xalq xo`jaligining ko`pgina sohalarida yangi korxonalarning paydo bo`layatganligiga hammamiz guvoh bo`lmoqdamiz. Ularga zamonaviy malakali mutaxassislarga bo`lgan talabdan kelib chiqib oliy ta'lim zimmasida ham bir qator yangi vazifalarni yuklamoqda. Bozor talablaridan elib chiqqan holda yangi ta'lim yo`nalishi va mutaxassislar ochilishiga ehtiyoj tug`ilmoqda. ehtiyoj bo`lmagan ba'zi ta'lim yo`nalishlarning tugatilishiga sabab


ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

bo`lmoqda. Tayyorlanadigan mutaxassis kadrlar uchun tuzilayotgan o`quv rejalari ham dunyodagi ilg`or oliy ta'lim muassasalarinig tajribalaridan kelib chiqib aptimallashtirilmoqda. yoki aniqroq qilib aytganda bevosita ixtisoslikka oid fanlarga alohida e'tibor qaratilib keraksiz deb hisoblangan fanlar o`quv rejalaridan chiqarilmoqda yoki ularni o`qitish soatlari qisqatirilmoqda.

Bu to`g`ri albatta ammo ba'zida fanning to`la mohiyatini tushunmagan holda uni o`quv rejadan chiqarib tashlash yoki o`qitish soatlarini qisqartirish holatlari ham uchramoqda. Masalan Texnikaga oid yo`nalishlarida fan to`rt jarayon o`qitish belgilangan bo`lib, bir jarayon "CHizma geometriya" keying jarayonlarda Proeksion chizmachilik, Mashinasozlik chizmachiligi va ixtisosligiga mos ravishda Kompyutor grafikasi fanlari o`qitilar edi. Hammamiz bilamizki texnika yo`nalishlaridagi oliy ma'lumotli malakali muhandislarni chizmachilik fanini mukammal o`rganmasdan turib tayyorlashning imkoni yo`q. Bunday noto`g`ri yondoshuv respublikamizdagi oliy ta'limda faoliyat olib borayotgan fidoiy mutaxassis olim va pedagoglarning haqli e'tiroziga sabab bo`lmoqda. Shuni ham ta'kidlab o`tish joizki davlatimiz rahbari ham yaqinda o`tqazilgan selektor yig`ilishida muhandislar tayyolanashga alohida e'tibor berish kerakligi to`g`risida fkir bildirdi. Texnika sohalarida tayyolanadigan mutaxassislar mashina va mexanizmlaring chizmalarini chizish orqali dastlabki bilimlarni egallashadi. Buning uchun dastlab proeksion chizmalar chizish o`rganiladi. Proeksin chizmachilikning nazariy asosini esa Muhandislik grafikaning CHizma geometriya qismida o`rganiladi.Chunki chizma geometriya fani orqali proeksiya tekisliklari va ularda buyumlarni proeksiyalashning nazariyalari o`rganiladi. Buni quyidgicha taqqoslash mumkin.Birinchi sinf bolasiga alifbo orqali harflar o`rgatiladi. So`ngra ularni qo`shib so`zlar tuzishni o`rganadi. So`zlarni bir birga qo`shib ma'lum bir ma'noni beruvchi gaplar hosil qilinadi.Provard natijada o`quvchi adabiyot darslarida chiroyli sherlar o`qib uni mazmun mohiyatidan zavqlanib turli hissiyotlarga beriladi.

Muhandislik grafikasi Chizma geometriya fanini o`rganishdan boshlanadi. Turli xildagi texnik jihozlar bo`ladimi, zamonaviy mashinalarni dezaynini yaratish yoki bino va inshootlarni qurish hammasi dastlabki ko`rinishi chizmalarda o`z aksini topadi.CHizmachilikda ularning ko`rinishlarini tartibi ma'lum qonuniyatlarga asoslangan bo`ladi. CHizma geometriya fani bu ko`rinishlarning nazariy asoslarini tashkil qiladi. Tasvirlarda mavjud bo`lgan nuqta, to`g`ri chiziq, tekislik va sirtlarning ortaganal proesiyalardagi qonuniyatlariga asoslanadi. Masalan ikki tekislikning kesishuvidan hosil bo`lgan AV to`g`ri chiziq frontal proeksiyada nuqta bo`lib ko`rinishi, ASDEF tekislikning gorizontal proeksiya tekisligiga to`g`ri chiziq bo`lib tasvirlanishi kabi misollar orqali ham tasvirlarni hosil qilishda chizma geometriyaning ortaganal proeksiyalash metodiga asoslanishini yaqqol misolidir.(1-shakl)

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8



1-shakl.

Har qanday texnika va texnologiyalarga asoslangan yangi g`oyaning paydo bo`lishi dastlab inson tasavvurida, so`ngra qog`ozdagi chizmalarda paydo bo`ladi. Bu chizmalar esa albatta chizma geometriya va chizmachilikda belgilangan qoidalarga asoslanib chiziladi. To`g`ri hozirda chizmalarni chizish kompyutorda tayyor dasturiy ta'minotlar yordamida tez sifatli va oson bajariladi. Ammo bu chizmalarning nazariy asoslarini bilmaslik insonni bu boradagi faoliyatini tor doirada chegerelab qo`yadi. Qolaversa Chizma geometriya fanani o`rganish insonning fazoviy tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantiririshga xizmat qiladi. Fazoviy tasavvur qilish qobiliyati rivojlangan insonlargini turli kashviyotlar qilishga qodirdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Sobirov T. R. ARISTOTEL VA EVKLID TADQIQOTLARIDAGI ILMIY NAZARIYALARGA FAROBIYNING BILDIRGAN FIKRLARI //Ekonomika i sosium. – 2023. – №. 11 (114)-1. – S. 1010-1013.
2. Badiev, M. M., Sobirov, T. R., Avliyakulov, M. M., & Azimov, S. S. (2021). Analiz obratnyx zadach v nachertatelnoy geometrii. Nauka i obrazovanie segodnya, (5 (64)), 76-77.
3. Avliyakulov, M. M., Sobirov, T. R., Badiev, M. M., & Azimov, S. S. (2021). Obshie zakony kompozisii v rezbe po derevu. european science, (2 (58)), 32-34.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

4. Sobirov T. R. i dr. Ob obshestvennom polojenii zodchix i arxitektorov srednego i blijnego vostoka v IX-XV vekax //European science. – 2021. – №. 2 (58). – S. 59-62.
5. Sobirov T. R. Obuchenie geometricheskomu ornamentu v uzbekskoy shkole. – 1993.
6. YOdgorov J., Sobirov T. R., yodgorov N. J. Geometrik va proeksion chizmachilik //T.:“Fan. – 2008
7. Azimov Sanjar Samadovich, Sobirov Tolib Ruzievich, Badiev Makhmud Marufovich, Avliyakulov Muzaffar Mukhammedovich THE eSSENCE AND CONTENT OF FOLK AND APPLIED ART OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIA // european science. 2021. №2 (58). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/the-essence-and-content-of-folk-and-applied-art-of-uzbekistan-and-central-asia (data obrasheniya: 13.03.2024).
8. Juraev A., Sobirov T. Content based instruction in teaching tourism and economics courses // Proceedings of the International Scientific Conference. Volume I., 2017. T. 208. R. 215
9. Sobirov T.R., Majidova G.A. MUSIQA VA SAN’AT MAKTABLARIDA FORTEPIANO O`QITISH METODIKASINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI // ekonomika i sosium. 2024. №1 (116
10. Sobirov T. R., Omonov Q. K. // Graphical Basis Of Girikh Used In Traditional Applied Decorative Art Of Central Asia In The 9-15th Centuries. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 1, 2021 P-ISSN: 2204-1990; e-ISSN: 1323-6903
11. Sobirov T.R., Abulov T.M. ABU NASR FAROBIYNING MUSIQIY TA’LIMI BORASIDAGI TADQIQOTLARI HAQIDA // ekonomika i sosium. 2024. №1 (116).
12. ABUL VAFO AL-BUZJONIYNING MARKAZIY OSIYODA DIZAYN TARIXINING RIVOJLANISHIGA TA’SIRI Sobirov Tolib Ro`ziyevich, Prof. Turkiston yangi innovasiyalar universiteti,
13. Dr. Taner AŞCI, Doç. Dr. İhsan Toktaş, Ankara Yıldırım Beyazıt Universitesi, Türkiyhttps://t.me/c/2088554026/295

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sobirov Tolob Ruziyevich**, musiqa va tasviriy san’at kafedrasi professori, [**Собиров Толиб Рузиевич,** профессор кафедры музыки и изобразительного искусства], [**Sobirov R. Tolib**, Professor of the Department of Music and Fine Arts]; manzil: O‘zbekiston, Buxoro sh., Piridastgir ko'chasi, 11-uy [Адрес: Узбекистан, г. Бухара, улица Пиридастгир, 11.], [Address: 11, Piridastgir Street, Bukhara, Uzbekistan]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

© K.Sh. Oltiboyeva[1]✉
[1]Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 2-3-sinf boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha turli ilmiy-amaliy ishlarni ko‘rib chiqish uchun yozilgan.

MAQSAD: hozirgi vaqtda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uni bevosita tabiat bilan tanishtirish jarayonini rivojlantirishda amaliy va nazariy ma’lumotlarga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqish. Ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish metodlari, mazmuni, pedagogik shart-sharoitlari va vositalarini o‘rganib chiqilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: ekologik xavfsizlik madaniyati-tarixiy-ijtimoiy, falsafiy-ijtimoiy, psixologik-pedagogik va axloqiy estetik kategoriyadir. Ekologik xavfsizlik madaniyatiga egalik esa, ma’naviy-axloqiy sifat bo‘lib, u maqsadli tashkil etilgan ta’lim - tarbiya jarayonida shakllntiriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiya berish maqsadida Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, hamda, tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi bilan hamkorlikda “Respublikada ekologik ta’limni rivojlantirish va ekolog kadrlarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish istiqbollari” Dasturi va Konseptsiyasi ishlab chiqilgan.

XULOSA: ekologik xavfsizlik madaniyati yangi, innovatsion tavsifga ega bo‘lgan ijtimoiy-gumanitar tushunchalardan biri bo‘lib, XXI asrda globallashuv, iqtisodiy va moliyaviy integratsiya, iqtisodiy keskin o‘sish oqibatida vujudga keldi. Ekolgik xavfsizlik madaniyati an’anaviy ekologiya tushunchasining uzviy davomi sifatida vujudga kelib, uning zamonaviy mazmunini o‘zida aks ettiradi.

Kalit so'zlar: ta’lim, maktab, boshlang‘ich, o‘quvchi, ekologik xavfsizlik, madaniyat.

Iqtibos uchun: Oltiboyeva K.Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. // Inter education & global study. 2024. №8. B.164–170.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ У УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

© К.Ш. Олтибоева[1]✉
[1]Термезский университета экономики и сервиса, Термез, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: данная статья посвящена рассмотрению различных научно-практических работ по развитию культуры экологической безопасности у учащихся 2-3 классов начального образования в общеобразовательных школах.

ЦЕЛЬ: разработка методических рекомендаций по формированию культуры экологической безопасности и развитию процесса непосредственного знакомства с природой на основе теоретических и практических данных. Изучены методы, содержание, педагогические условия и средства формирования культуры экологической безопасности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: культура экологической безопасности — это историко-социальная, философско-социальная, психологическая и педагогическая, а также морально-эстетическая категория. Обладание культурой экологической безопасности является духовно-нравственным качеством, которое формируется в целенаправленном образовательном процессе.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в настоящее время в нашей стране Министерство высшего и среднего специального образования, Министерство народного образования, а также Государственный комитет по охране природы разработали программу и концепцию «Перспективы развития экологического образования и подготовки кадров, повышения квалификации экологов в республике» с целью правового и экологического воспитания молодежи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: культура экологической безопасности является одной из новых инновационных гуманитарных концепций, возникших в XXI веке в результате глобализации, экономической и финансовой интеграции, а также стремительного экономического роста. Она является логическим продолжением традиционного понимания экологии и отражает её современное содержание.

Ключевые слова: образование, школа, начальные классы, ученик, экологическая безопасность, культура.

Для цитирования: Олтибоева К.Ш. Особенности развития культуры экологической безопасности у учеников начальных классов. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 164–170.

SPECIFIC FEATURES OF DEVELOPING ENVIRONMENTAL SAFETY CULTURE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

© Kamola Sh. Oltiboyeva[1]✉
[1]Termez University of Economics and Service, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses various scientific and practical works aimed at developing ecological safety culture in 2nd and 3rd grade primary school students in general education schools.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

AIM: to develop methodological recommendations for forming ecological safety culture and enhancing the process of direct interaction with nature based on practical and theoretical knowledge. The methods, content, pedagogical conditions, and tools for developing ecological safety culture have been studied.

MATERIALS AND METHODS: ecological safety culture is a historical-social, philosophical-social, psychological-pedagogical, and moral-aesthetic category. Possessing ecological safety culture is a moral-spiritual quality formed in a purposefully organized educational process.

DISCUSSION AND RESULTS: currently, the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education, the Ministry of Public Education, and the State Committee for Environmental Protection in our country, have developed the "Program and Concept of Prospects for Developing Ecological Education and Improving the Training and Qualification of Environmental Specialists" for the purpose of providing legal and ecological education to youth.

CONCLUSION: ecological safety culture is one of the new innovative humanitarian concepts that emerged in the 21st century as a result of globalization, economic and financial integration, and rapid economic growth. It is the logical continuation of the traditional concept of ecology and reflects its modern content.

Key words: education, school, primary, student, ecological safety, culture.

For citation: Kamola Sh. Oltiboyeva (2024) ‘Specific features of developing environmental safety culture in primary school students’, Inter education & global study, (8), pp. 164–170. (In Uzbek).

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa iqtisodiyot komissiyasining “Barqaror rivojlanish uchun ta’lim bo‘yicha Strategiya” hamda milliy dastur asosida O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi aholi keng qatlamining ekologik ta’limi, madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik qilmoqda, o‘z tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining malakasini oshirishni tashkillashtirmoqda, hamda, boshqa idora va tashkilotlarga ekologik ta’lim masalasi bo‘yicha metodik va moddiy yordam ko‘rsatmoqda.

Ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonida o‘quvchilar ongini hozirgi ekologik muammolar mohiyatini ochib beruvchi bilimlar bilan boyitish va shu bilimlarni ularning amaliy faoliyati, ijtimoiy mehnati bilan mustahkamlab borish maqsadga muvofiq. Bunday mas’uliyatli vazifani hal qilish uchun biz bo‘lajak pedagoglardan shu soha bo‘yicha yuksak darajadagi bilimga, pedagogik mahoratga, yuqori ekologik ong va madaniyatga ega bo‘lish, shuningdek, tinimsiz izlanish, o‘rganish talab qilinadi.

Binobarin, boshlang‘ich sinflarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishni quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

1. O‘quvchilarni tabiat go‘zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

2. Jonli va jonsiz tabiatni rivojlanish qonuniyatlari, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlar insonning tabiatga ta’sir oqibatlari haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

3. O‘quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash.

4. Tabiatni sevishga, undan to‘g‘ri va ongli ravishda foydalana bilishga undash.

5. O‘quvchilarda tabiat oldida mas’uliyatni his etish va anglash malakasini shakllantirishdan iborat.

Ta’lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy, hayotiy, qiziqarli materiallar va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilishi zarur. Ana shunday materiallardan biri suv haqidagi bilimlar tizimi hisoblanadi [35;21-b].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyaitini shakllantirish va rivojlantirish vositalaridan biri - ular faoliyat ko‘rsatayotgan va yashayotgan muhit bo‘lib, bu o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni sub’ektlarining o‘zaro ta’sirini amalga oshiruvchi tashqi omillardan biri hisoblanadi [58;25-b]. Bunday ta’lim-tarbiyaviy muhitda o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi ishtirokchilarning suhbati va o‘quvchining o‘zini - o‘zi rivojlantirishi asosida tafakurning rivojlanish jarayonlari vujudga keladi, mazkur omil ota-onalar va jamiyatning zamonaviy talablari ta’siri ostida bo‘ladi.

O‘quvchilarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish jarayonida hamkorlikdagi ijodiy faoliyat qulay innovatsion muhitni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda vujudga keluvchi savollarga hamkorlikda javob izlash asosida o‘zaro ta’sir jarayonini rivojlantirish va takomillashtirish mumkin bo‘ladi.

O‘quvchilarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish jarayonida ularda o‘zaro ta’sirni amalga oshiruvchi omillardan biri o‘quvchilarni ta’lim jarayonida ijodiy ta’sir ko‘rsatishga motivlashtirish hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilarning ta’kidlashiga ko‘ra, insonning o‘zi tomonidan mustaqil ravishda egallangan tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi va bu mustaqil ta’lim jarayonida, ya’ni o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan an’anaviy ravishda o‘rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonida vujudga keladi, mazkur jarayonda muhokama qilinayotgan muammoning mazmun va mohiyati tushuniladi va tahlil qilinadi, refleksiv faoliyat amalga oshadi.

Bizning fikrimizcha, o‘quvchilarda ekologik xavfsizlik madaniyaitini shakllantirish jarayonida ijodiy ta’sir ko‘rsatishga motivlashtirish ularning faolligini ta’minlashga xizmat qiladi, o‘z navbatida ijodiy faollik ham o‘zaro ta’sirini amalga oshiruvchi omillardan biri hisoblanad. Yoshlarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish masalasining naqadar muhimligini e’tirof qilgan holda ta’kidlash mumkinki, bunday davra suhbatlari, munozaralar oliygohlar qoshida tashkil qilingan radio yoki televideniya orqali namoyish qilinishi va talabalarning keng muhokamasiga qo‘yilishi yaxshi natijalarni beradi.

Shu bilan birga, o‘quvchilar tomonidan dunyo miqyosidagi ekologik muammolarning o‘rganilishi, ekologik tarbiya borasida olib borilayotgan ishlar qanday yo‘lga qo‘yilganligi bilan tanishish maqsadida, Internet orqali ko‘plab ma’lumotlarni biladilar va tajribalarini qiyosiy tahlil qiladilar. Ekologik fojialarning oldini olishning birdan-bir yo‘li tabiatni muhofaza

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

qilish, barcha tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanishdir. Ammo, har bir inson qalbida ekologik madaniyatni shakllantirmay turib, bu borada kutilgan natijalarga erishish qiyin.

MATEMATIKA FANIDAN PISA VA TIMSS MASALALARIDAN NAMUNALAR

© A.R. Azamatov[1]✉

[1]Alfraganus universitety, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada matematika fanida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro baholash dasturlariga oid topshiriqlar mazmuni va tizimi haqida yozilgan bo‘lib, unda Matematika fanidan PISA va TIMSS masalalaridan namunalar kelrtirilgan.

MAQSAD: globallashuv jarayoni jamiyatning barcha sohalarida avj olmoqda va o‘z navbatida, fan va texnikaning rivojlanishiga, iqtisodiyotning yuqori darajada o‘sishiga hamda ta’lim sohasidagi integratsiya jarayoning yanada chuqurlashuviga olib kelmoqda. Shu bilan birga ta’limning sifati, uning kompetentligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida raqobatga chidamli malakali mutaxassislarni tayyorlash globallashuv davrining muhim xususiyatlariga aylandi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot miqdoriy va sifatli tadqiqotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Materiallarga kurs dasturlari, o'quv rejalari, onlayn o'quv platformalari va baholash vositalari kiradi. Usullar talabalar va o'qituvchilarning so'rovlarini, amaliy mashg'ulotlarni kuzatishni va talabalarning faoliyati ma'lumotlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study-Xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi taraqqiyot) bu 4-sinf o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajalarini baholab beruvchi xalqaro qiyosiy baholash mezonidir.

PIRLS - (inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlarda boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iboratdir.

XULOSA: тadqiqotimizda keltirilgan masalalarni tahlil qilish orqali metodik tayyorgarlikni rivojlantirish “Matematika fanida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari” mavzusini o‘rganishda talabalarni fikrlash faoliyati usullarini o‘rgatishning, tafakkur va tasavvur g‘oyasidan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

foydalanishning va nazariy materiallarni bayon qilishda o‘zida yangi axborotlarni saqlovchi masalalar ketma-ketligidan foydalanishning imkoniyatlari aniqlandi.

Kalit so'zlar: matematika, fan, ta’lim, talaba, baho, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.

Iqtibos uchun: Azamatov A.R. Matematika fanidan PISA va TIMSS masalalaridan namunalar. // Inter education & global study. 2024. №8. B.186–194.

ПРИМЕРЫ ЗАДАЧ PISA И TIMSS ПО МАТЕМАТИКЕ

© А.Р. Азаматов[1]✉
[1]Университет Alfraganus, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье изложены теоретико-методические основы совершенствования методики международных исследований в области оценки качества образования по математике, содержание и система заданий по международным программам оценки PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, в которых приведены примеры задач по математике PISA и TIMSS.

ЦЕЛЬ: процесс глобализации происходит во всех сферах жизни общества и, в свою очередь, ведет к развитию науки и техники, высокому уровню роста экономики и углублению интеграционного процесса в сфере образования. Вместе с тем качество образования, его компетентность как важнейший фактор социально-экономического развития страны, подготовка конкурентоспособных квалифицированных специалистов стали важными характеристиками эпохи глобализации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании используются смешанные методы, сочетающие количественные и качественные исследования. Материалы включают программы курсов, учебные планы, онлайн-платформы обучения и инструменты оценки. Методы включают опросы студентов и преподавателей, мониторинг практических занятий и анализ данных об успеваемости учащихся.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study-прогресс в изучении международной читательской грамотности)-это международный сравнительный критерий оценки, который оценивает уровень чтения и понимания текста учащимися 4-го класса.

PIRLS – (англ. – Progress in International Reading Literacy Study-международное исследование, определяющее уровень чтения и понимания текста) целью данного международного исследования является выявление и оценка в государствах, состоящих из различных систем образования, готовности учащихся начальной школы к чтению и восприятию текста, а также специфики системы образования, способствующей достижению учащимися различных достижений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие методической подготовки путем анализа представленных в нашем исследовании вопросов при изучении темы “теоретико-методические основы совершенствования методики международных исследований

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

в области оценки качества образования в математической науке" выявлены возможности обучения учащихся методам мыслительной деятельности, использования идеи мышления и воображения, использования последовательности задач, содержащих в себе новую информацию, при изложении теоретического материала.

Ключевые слова: математика, естественные науки, образование, студент, оценка, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.

Для цитирования: Азаматов А.Р. Примеры задач pisa и timss по математике. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 186–194.

EXAMPLES OF PISA AND TIMSS PROBLEMS IN MATHEMATICS

© Axat R. Azamatov[1]✉
[1]Alfraganus University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article outlines the theoretical and methodological foundations for improving the methodology of international research in the field of assessing the quality of education in mathematics, the content and system of tasks for international assessment programs PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, which provide examples of problems in mathematics PISA and TIMSS.

AIM: the process of globalization is taking place in all spheres of society and, in turn, leads to the development of science and technology, a high level of economic growth and a deepening of the integration process in the field of education. At the same time, the quality of education, its competence as the most important factor in the socio-economic development of the country, and the training of competitive qualified specialists have become important characteristics of the era of globalization.

MATERIALS AND METHODS: the study uses mixed methods combining

quantitative and qualitative research. Materials include course programs, curricula, online learning platforms, and assessment tools. The methods include surveys of students and teachers, monitoring of practical classes, and analysis of student academic performance data.

DISCUSSION AND RESULTS: PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study-progress in the study of international reading literacy)-This is an international comparative assessment criterion that evaluates the level of reading and comprehension of text by 4th grade students.

PIRLS – (English – Progress in International Reading Literature Study - an international study that determines the level of reading and understanding of the text) the purpose of this international study is to identify and evaluate in states consisting of different education systems, the readiness of primary school students to read and perceive the text, as well as the specifics of the education system that contributes to the achievement of various achievements.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

CONCLUSION: The development of methodological training by analyzing the issues presented in our study when studying the topic “theoretical and methodological foundations for improving the methodology of international research in the field of assessing the quality of education in mathematical science” revealed the possibilities of teaching students methods of mental activity, using the idea of thinking and imagination, using a sequence of tasks containing new information in the presentation of theoretical material.

Key words: mathematics, natural sciences, education, student, assessment, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.

For citation: Axat R. Azamatov. (2024) ‘Examples of pisa and timss problems in mathematics’, Inter education & global study, (8), pp. 186–194. (In Uzbek).

Bugungi davrga kelib globallashuv jarayoni jamiyatning barcha sohalarida avj olmoqda va o‘z navbatida, fan va texnikaning rivojlanishiga, iqtisodiyotning yuqori darajada o‘sishiga hamda ta’lim sohasidagi integratsiya jarayoning yanada chuqurlashuviga olib kelmoqda. Shu bilan birga ta’limning sifati, uning kompetentligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida raqobatga chidamli malakali mutaxassislarni tayyorlash globallashuv davrining muhim xususiyatlariga aylandi.

Shuningdek, globallashuv jarayoni kelajak davr egalari sifatida yosh avlodni tayyorlashda dunyo mamlakatlarining maqsadlarini umumiylashishiga olib keldi. Dunyo davlatlari ta’limning jamiyat taraqqiyoti va inson rivojlanishidagi muhim o‘rnini e’tiborga olib, ta’lim sifatiga e’tibor qaratdi. Ayni davrda ta’lim sohasida sifat tushunchasi global fenomen sifatida ko‘rilmoqda.

Yosh avlodning intelektual faolligini shakllantirish nafaqat muayyan bir mamlakat balki xalqaro hamjamiyat uchun ham muhim masalaga aylandi. Shuning uchun ta’lim sifati, ta’lim sifatini baholash kabi masalalar bilan ko‘pgina xalqaro tashkilotlar shug‘ullanmoqda hamda juda ko‘p davlatlarda ta’lim sohasida baholashning PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS, PIAAC, ICCS, SITES, IALS, ALL kabi xalqaro baholash dars turlari amaliyotga tatbiq etilgan. Zamonaviy globallashuv va o‘sib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida “Har tamonlama rivojlanish konsepsiyasi” yosh avlodning bilim darajasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasida yosh avlodni XXI asr bilim va ko‘nikmalarini egallashlari uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida ta’lim sohasida tizimli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Tahlil va natija. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study-Xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi taraqqiyot) bu 4-sinf o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajalarini baholab beruvchi xalqaro qiyosiy baholash mezonidir.

PIRLS - (inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlarda boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iboratdir.

Albatta, bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun muhim ahamiyatga egadir. PIRLS tadqiqotlari ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, u Xalqaro ta’lim institutlari assosiatsiyasi (IEA) tomonidan muvofiqlashtiriladi. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha ma’suliyat Chestnut Hill (Maccachucetc, AQSH) Boston kollejiga yuklatilgan. Tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma’lumotlar markazida amalga oshiriladi. Ilk bora tadqiqot 2001-yilda o‘tkazilgan.

Tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. PIRLS tadqiqotida ishtirok etuvchi mamlakatlarda boshlang‘ich sinfga maktab o‘quvchilarini qabul qilish yoshi turlicha. Ko‘plab mamlakatlarda maktabga olti yoshdan qabul qilishadi va to‘rtinchi sinfni 10,5 yoshda tugatishadi. Biroq, Angliya, Yangi Zelandiya, Trinidad Tobagoda maktabga 5 yoshdan qabul qilinadi va ahamiyatli jihati shundaki, ushbu mamlakatlarning 5-sinf o‘quvchilari PIRLS xalqaro tadqiqotida ishtirok etishadi. Shvetsiya, Daniya va ko‘plab Sharqiy davlatlarda maktabga 7 yoshdan qabul boshlanadi va ushbu mamlakatlarning o‘quvchilari qolgan tengdoshlariga nisbatan eng katta (10,7-10,9) yoshni tashkil etadi.

Bu dastur asosida olib borilyotgan ushbu jarayonlar bevosita fanlar bilan va fanlararo bog‘liqlik tarzda olib borilishi lozim bo‘ladi. Quyida integratsiya va baholash dasturlari asosida olib boriladigan fikrlarga e’tibor qaratamiz. Integrastiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va o‘zining rivojini integrastiya g‘oyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bo‘lgan predmetlarni o‘rganish bo‘lajak mutaxassislar bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatlari yaxlit va bir butunligini ta’minlovchi omil sifatida qaraladi.

Y.M. Kolyagin fikriga ko‘ra ta’lim tizimida integrastiya ikki xil ma’noda qo‘llanilishi mumkin:

1. O‘quvchilarda atrofimizdagi olam haqida bir butun, yaxlit tasavvurni shakllantirish (bunda integrastiyaga ta’lim maqsadi sifatida qaraladi).

2. Predmetlardan beriladigan bilimlarni yaqinlashtirishning umumiy platformasini topish (bu erda integrastiya - ta’lim vositasi hisoblanadi).

Birinchi ma’no bo‘yicha integrastiyada o‘quvchi bilim dargohiga dastlabki qadamini qo‘yishidanoq, dunyoni yaxlit va bir butun, uning barcha elementlarini o‘zaro bog‘langan tizim sifatida tasavvur qilib olishi ko‘zda tutilgan.

Ikkinchi ma’noda integrastiya o‘quv fanlaridan beriladigan bilimlarning o‘zaro to‘qnashgan yerida (nuqtasida) yangi tasavvurlarni anglay olishi ko‘zda tutiligan. Dastlab, fanlardagi fikrlar (g‘oya) to‘qnashgan nuqtada avvaldan bo‘lgan tabaqalashgan bilimlardagi kamchiliklarni to‘ldirishga, ular o‘rtasida bo‘lgan bog‘lanishlarni tarkib toptirishga yo‘naltiriladi. Huddi mana shu tarzda olib boriladigan integratsiyalash jarayonni PISA, PERLS dasturlari talablari asosida olib borilishi kerak bo‘ladi. Bu jarayon fanlarni o‘qitish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

jarayonini baholash dasturlari asosida olib borish ya'ni fanlarni baholash dasturlari bilan integratsiyalash hisoblanadi.

PIRLS savollaridan namunalar[4]:

Dehqon juda xursand bo'ldi. U burgut bolasini oilasiga ko'rsatdi, keyin uni tovuq va jo'jalarning oldiga ehtiyotkorlik bilan joylashtirdi.

"Burgut qushlar podshohdir",-dedi u, lekin biz uni tovuq bo'lishga o'rgatamiz deya ta'kidladi.Shunday, qilib burgut tovuqlar orasida yashab, ularning yashash tarzini o'rganibdi. U o'sib ulg'ayganida, tashqi ko'rinishidan ular ko'rgan boshqa tovuqlardan tamomila farq qilar edi.

PISA (programme for International Student Assessment) 15 yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tibbiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko'rinishida baholash dasturi hisoblanadi.

PISA-o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha Xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi- 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliaytida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Testda faqat 15 yoshli o'smirlar ishtirok etadi. Maktabdagi ta'lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo'nalishda: o'qish, matematika, va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi. Birgina 2015-yilning o'zida 70 dan ortiq davlatlar PISA Xalqaro dasturi sinovida ishtirok etgan. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta'lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Har bir davlat o'tkazilgan o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeyini ko'radi hamda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda o'z yo'nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi.

PISA-15 yoshli o'quvchilarning savodxonligi va kompetensiyasini baholovchi xalqaro dastur bo'lib Xalqaro Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Unda o'quvchilarning bilim sifati o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha monitoring qilinadi ba 1000 ballik tizimda baholanadi. Dastur ko'magida turli davlatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlar aniqlanadi, solishtiriladi, baholab boriladi.Har bir davlatdan ishtirok etuvchi o'quvchilar soni mamlakatdagi jami15 yoshli bolalarning 2 foizi miqdorida shakllantiriladi. PISA dasturi test sinovlari Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan konsorsiumda yetakchi xalqaro tashkilot va milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi.

PISA-o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan.

PISA Xalqaro dasturi shuningdek, o'quvchilar munosabati va hal qila olish kabi ko'nikmalarni ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatda ega masalalarni hal etishda o'quvchi-yoshlarning fikr-mulohazalari, ular bergan taklif vayechimlarni baholaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

1-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 73%, Singapur 95%, Rossiya 14%).

Tom nonning $\frac{1}{2}$ qismini, Yana esa $\frac{1}{4}$ qismini yedi. Ikkalasi ham nonning qaysi qismini yeyishdi?

2-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 44%, Gongkong 82%, Singapur 81%, Rossiya 35%).

Qaysi kasr qolganlarga teng emas?


A. $\frac{1}{2}$ B. $\frac{4}{8}$ C. $\frac{2}{4}$ D. $\frac{2}{8}$

2-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 60%, Koreya 97%, Rossiya 67%).


Dunkan 4,8 km avtomobilda va 1,5 km avtobusda yurdi. Jami bo‘lib qancha km yo‘l yurildi?

A. 6.3 km B. 5.8 km C. 5.13 km D. 4.95 km

3-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 69%, Portugaliya 93%, Rossiya 84%).




Yuqoridagi 6 ta figuradan quyidagilardan qaysi birini tuzsa bo‘ladi?




4-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 54%, Singapur 91%, Rossiya 58%).

Quyidagi rasmlardan qaysi birida simmetriya o‘qi tasvirlangan?



5-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 63%, Yaponiya 94%, Rossiya 71%).

Burchaklarni o‘sish tartibida yozing




A. Q, P, R, S B. Q, R, P, S C. S, P, R, Q D. S, R, P, Q

6-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 64%, Koreya 93%, Rossiya 70%).

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

 figurani har qadamda aylananing $\frac{1}{4}$ qismiga bursa qanday ketma-ketlik hosil bo‘ladi?




7-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 31%, Koreya 88%, Rossiya 38%).
90 gradusdan katta, ammo 180 gradusdan kichik burchakni chizing.

8-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 32%, Portugaliya 70%, Rossiya 22%).

Here are some statements about Figure A and Figure B. Put an X to show whether each statement is true or false.

Statement	True	False
A and B both have a square face.	X	
A and B both have the same number of faces.		
All the angles in A are right angles.		
B has more edges than A.		
Some of the edges in B are curved.		



9-masala (dunyo bo‘yicha o‘rtacha 76%, Gollandiya 95%, Rossiya 88%).
Magazinning koordinatasini toping



Tadqiqotimizda keltirilgan masalalarni tahlil qilish orqali metodik tayyorgarlikni rivojlantirish “Matematika fanida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari” mavzusini o‘rganishda talabalarni fikrlash faoliyati usullarini o‘rgatishning, tafakkur va tasavvur g‘oyasidan foydalanishning va nazariy materiallarni bayon qilishda o‘zida yangi axborotlarni saqlovchi masalalar ketma-ketligidan foydalanishning imkoniyatlari aniqlandi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ахмедов М., Абдурахмонова Н., Жумаев М. Математика: Умумий таълим мактабларининг 1-синфи учун дарслик./ 3- нашри.– .: “TURON-IQBOL”, 2009.- 160 б.
2. Ахмедов М., Абдурахмонова Н., Жумаев М. Математика: Умумий таълим мактабларининг 1-синфи учун дарслик./ 3- нашри.– Т.:“TURON-IQBOL”, 2009. - 160 б.
3. Ахметгалиев А.А. Развитие математической памяти у младшего школьника. // Ж. Начальная школа, 2005, № 6, –66 – 70 с.
4. Jinho Kim. Mathematics Education in Korea: Curricular and Teaching and Learning Practices. World Scientific-2013.
5. Авлиякулов Н.Х. Педагогическая технология. – Ташкент: Алоқачи, 2009. – 148 с.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Axat Raxmatovich Azamatov**, matematika va fizika kafedrasi fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent v.b., [**Ахат Рахматович Азаматов,** кафедра математика и физика кандидат физико-математических наук, и.о. доцент], [**Axat R. Azamatov**, Department of Mathematics and Physics, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Qoraqamish ko'chasi, 2A-uy [адрес: Узбекистан, Город Ташкент, Юнусабадский район, улица Каракамыш, дом 2а], [address: Uzbekistan, Tashkent City, Yunusabad district, Karakamish Street, house 2A]; E-mail: axat_ar@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

MAKTABGACHA 6-7 YOSHDAGI BOLALARNI SENSOR ETALONLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATDAN TADBIQ ETILISHI

© D.F. Kayumova[1]✉

[1]Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: yosh avlodni barkamol, sog'lom va komil inson ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorshining axamiyati haqida so'z borgan.

MAQSAD: jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqiyotini jadallashtirish, inson omilini vujudga keltirish davr talabiga aylandi. Maktabga tayyorlov guruh bolalarini sog'lom va yetuk boyish masalalari hamisha insoniyatni qiziqtirib kelgan va ijod qilishga yo'naltirgan masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan poklanish, ma'naviy va jismoniy barkamol yosh avlodni tarbiyalash borasida ham jiddiy o'zgarishlar qilishni taqozo etdi.

MATERIALLAR VA METODLAR: maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarni sensor etalonlarini rivojlantirishning nazariy jihatdan tadbiq etilishi tadqiqoti jarayonida suhbat, so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning ishonchlilik darajasi tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: bola o'z diqqatini muayyan ob'ektga yo'naltirish, to'plash, taqsimlash bo'yicha ma'lum darajada ko'nikmaga ega bo'lib, o'z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g'aroyib, kishini taajjubga soladigan ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'l-sa, endi o'z xohish-irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi, bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganini bildiradi. U she'r, hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun go'yo takrorlashi, yod olishning eng qulay yo'l va usullaridan foydalanishi ta'lim jarayonida unga juda qo'l keladi.

XULOSA: yoshlarni jamiyatdagi o'rni, yoshlarni tarbiyalashga bog'liq milliy an'analar, sermazmun milliy qadriyatlarning ildizlari ajdodlarimiz merosini o'rganish va ommalashtirish, milliy tarbiyada umuminsoniy qadriyatlarning o'rnini yuksaltirish va uning maktab faoliyatida uyg'unlashuvini ta'minlash, o'zbek oilasiga xos xususiyatlarni (mentalitetini) yaratish va keng targ'ib etish jamiyatning asosiy negizi hisoblanmish istiqlol

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

mafkurasiga mos shaklan va mazmunan shakllantirish bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashning garovidir.

Kalit so'zlar: maktab faoliyatida uyg'unlashuv, ijod qilish, sog'lom va yetuk, milliy qadriyatlar, milliy an'analar, milliy tarbiya, maktab ta'limi, ta'limga sifatli tayyorlash.

Iqtibos uchun: Kayumova D.F. Maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarni sensor etalonlarini rivojlantirishning nazariy jihatdan tadbiq etilishi. // Inter education & global study. 2024. №8. B.195–205.

ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ СЕНСОРНОГО ОРИЕНТИРОВОЧНОГО РАЗВИТИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ 6-7 ЛЕТ

© Д.Ф. Каюмова[1]✉
[1]Институт переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: важное значение приобретает воспитание подрастающего поколения в гармоничном, здоровом и совершенном человеческом духе. В этой статье рассказывается об особенностях подготовки детей 6-7 лет к школьному обучению.

ЦЕЛЬ: ускорение социально-экономического развития нашего общества, создание человеческого фактора стало требованием времени. Подготовка к школе вопросы здорового и зрелого обогащения детей группы-один из тех вопросов, который всегда интересовал человечество и направлял его к творчеству. Обретение Республикой Узбекистан независимости, очищение, осуществляемое во всех сферах жизни общества, потребовало серьезных изменений в воспитании духовно и физически развитого подрастающего поколения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования теоретической реализации сенсорного ориентировочного развития дошкольников 6-7 лет использовались такие методы, как беседа, анкета, наблюдение, а степень достоверности полученных результатов подтверждалась анализом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: ребенок приобретает определенную степень умения направлять, концентрировать, распределять свое внимание на конкретном объекте, стремится контролировать свое внимание и концентрировать его в нужный момент. Его память будет интересной, чудесно-необычной, способной к внимательному запоминанию, запоминанию, запоминанию информации и явлений, удивляющих человека. Усвоив ту или иную информацию до этого времени под непосредственным руководством взрослого, он теперь по собственному желанию старается собрать необходимую информацию, поставить перед собой конкретную цель и задачу, свидетельствующую о том, что у ребенка в той или иной степени развита память об этой деятельности. Тот факт, что он повторяет стихи, рассказы и

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

сказки как бы для запоминания, использует наиболее удобные способы и способы запоминания, очень пригодится ему в учебном процессе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: роль молодежи в обществе, национальные традиции, связанные с воспитанием молодежи, изучение и популяризация наследия наших предков, воспитание общечеловеческих ценностей в национальном воспитании и обеспечение их гармонизации в школьной деятельности, создание и широкая пропаганда особенностей (менталитета) узбекской семьи в формах и содержании, соответствующих идеологии независимости, считающейся основой общества. формирование детей в школе гарантия качественной подготовки к обучению.

Ключевые слова: гармонизация в школьной деятельности, творчество, здоровое и зрелое, национальные ценности, национальные традиции, национальное воспитание, школьное образование, качественная подготовка к обучению.

Для цитирования: Каюмова Д.Ф. Теоретическая реализация сенсорного ориентировочного развития дошкольников 6-7 лет. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 195–205.

A THEORETICAL REALIZATION OF SENSORY ORIENTATION DEVELOPMENT OF PRESCHOOLERS 6-7 YEARS OLD

© Dilnoza F. Kayumova[1]✉
[1]Institute of Retraining and Advanced Training of directors and specialists of Preschool Educational Organizations, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: it is important to educate the younger generation in the spirit of a harmonious, healthy and perfect person. In this article, we talked about the achamity of 6-7-year-old children who are ready for school education.

AIM: to accelerate the socio-economic development of our society, the creation of the human factor has become a requirement of the time. Preparing for school the issues of healthy and mature enrichment of the children of the group is one of those issues that has always interested humanity and guided it to creativity. The independence of the Republic of Uzbekistan, the purification carried out in all spheres of society, required serious changes in the upbringing of the spiritually and physically developed younger generation.

MATERIALS AND METHODS: in the process of researching the theoretical realization of sensory orientation development of preschoolers 6-7 years old, methods such as conversation, questionnaire, observation were used, and the degree of reliability of the results obtained was confirmed by analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: the child acquires a certain degree of ability to direct, concentrate, distribute his attention on a specific object, strives to control his attention and concentrate it at the right moment. His memory will be interesting,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

wonderfully unusual, capable of careful memorization, memorization, memorization of information and phenomena that surprise a person. Having assimilated this or that information up to this time under the direct supervision of an adult, he now voluntarily tries to collect the necessary information, set himself a specific goal and task, indicating that the child has a more or less developed memory of this activity. The fact that he repeats poems, stories and fairy tales as if for memorization, uses the most convenient ways and methods of memorization, will be very useful to him in the educational process.

CONCLUSION: the role of youth in society, national traditions related to the upbringing of youth, the study and popularization of the heritage of our ancestors, the education of universal values in national education and ensuring their harmonization in school activities, the creation and widespread promotion of the characteristics (mentality) of the Uzbek family in forms and contents corresponding to the ideology of independence, considered the basis of society. the formation of children in school is a guarantee of high-quality preparation for learning.

Keywords: harmonization in school activities, creativity, healthy and mature, national values, national traditions, national upbringing, school education, high-quality training.

For citation: Dilnoza F. Kayumova. (2024) 'A theoretical realization of sensory orientation development of preschoolers 6-7 years old', Inter education & global study, (8), pp. 195–205. (In Uzbek).

Tayyorlov guruh bolalarini maktab ta'limiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotganida tayyorlanadi. Bunda u maktabda o'quvchilarga qo'yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Ta'limga psixologik tayyorlik deganda, bolaning ob'ektiv va sub'ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga etarli darajada rivojlanadi. 6-7 yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg'ulotlarida, loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi.

Birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha yaqqol obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi, aksincha, ta'lim so'z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So'z-mantiq xotirasining mavjudligi ma'nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan ma'lumki, bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra ma'nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab ta'limiga tayyorgarlik

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini uqib olish va to'g'ri idrok qilish darajasida, nutqining tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko'lam jihatdan fikr almashishga yetarli bo'ladi.

Fiziologik rivojlanish. Mazkur davrda organizmning tayanch-harakat va yurak-qon-tomir tizimlarining intensiv rivojlanishi hamda takomillashishi, mayda mushaklarning rivojlanishi, markaziy asab tizimidagi ayrim bo‘linmalarning rivojlanishi va differensirovkalanishi ro‘y beradi. bolaning vazni oyiga taxminan 200 gr atrofida, bo‘yi o‘sishi esa 0,5 sm ga ortib boradi, tana proporsiyalari o‘zgara boshlaydi. 7 yoshli bolalarning bo‘yi o‘rtacha 113-122 sm ga, o‘rtacha vazni esa 21-25 kg ga teng bo‘ladi. Miya sohalari deyarli katta yoshli kishilarnikidek shakllangan. Harakat sohalari yaxshi rivojlangan. Suyaklar mustahkamlanishi davom etadi, lekin umurtqa egilishlari hali barqaror emas. Yirik va ayniqsa, mayda motorikanin rivojlanishi davom etadi. Qo‘l panjalari mushaklarning koordinatsiyasi intensiv rivojlanadi. Umumiy jismoniy rivojlanish bolaning nozik motorikasi rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Qo‘l barmoqlarining mashq qildirilishi boladagi intellektni oshirish, nutqni rivojlantirish va yozishga tayyorgarlik ko‘rish vositasi bo‘lib sanaladi.

Psixik jarayonlarning rivojlanishi. Bu yosh bosqichining o‘ziga xos tomoni bo‘lib bilishga doir va fikriy psixik jarayonlarning faol rivojlanishi hisoblanadi. Bola kuzatishga, qarab izlash kabi ixtiyoriy harakatlarni bajaradi. Mana shu yoshda sensor etalonlar – shakl, rang, o‘lcham to‘la o‘zlashtiriladi. Maydon-makonni anglashning rivojlanishi davom etadi. Bola pastga, tepaga, boshqa tomonga kabi tushunchalar bilan amallarni bajara boshlaydi. SHuningdek, endilikda o‘ng va chap tomonni tasavvur qilish aniq shakllangan bo‘lishi lozim. Biroq, bu yoshdagi bolalarda bir vaqtning o‘zida turli xildagi belgilarning hisobga olinishi lozim bo‘ladigan paytlarda xatolikka yo‘l qo‘yishlari uchrashi mumkin.

Diqqat. Maktabgacha yosh oxiriga kelib ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Bola diqqatini ongli ravishda ma’lum bir predmetlarga va ob’ektlarga yo‘naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko‘ra olishi mumkin. Bolalarda diqqat juda erta rivojlana boshlaydi. Bir-ikki haftalik chaqaloqlarda diqqatning hech qanday alomati ko‘rinmasa ham, oradan sal o‘tmay, ya’ni bolaning bir oylik davridan boshlab, ixtiyoriy diqqat alomatlari yaqqol ko'rina boshlaydi^ Demak, bolaning bir oylik davrida lining diqqatini har turli kuchli qo‘zg‘atuvchilar (qattiq tovush, ortiqcha yorug‘lik kabi) ixtiyorsiz ravishda o‘ziga jalb qila boshlaydi. Ikki-uch oylik bolalar esa, shaqir-shuqurga quloq soladigan (shaqildoqlaming tovushiga ovunadigan) bo‘la boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarning diqqatlarini yorqin (yaltiroq) rangli narsalar ham beixtiyor jalb qila boshlaydi. Bolaning ko‘z o‘ngidagi narsa qanchalik rang-barang bo‘lsa, bola unga shunchalik ko‘p e’tibor beradi.Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqati nihoyatda beqaror bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, bolaga yangi o'yinchoq bersangiz u o‘yinchoqni juda qiziqib ko‘ra boshlaydi. Lekin ayni shu paytda yana bir boshqa o'yinchoqni ko‘rsatsangiz, birinchi o‘yinchoqni tashlab, ikkinchisiga talpinadi. Yasli yoshidagi bolalar diqqatining beqarorligi flziologiya nuqtai nazaridan ularda hali tormozlanish protsesslarining kuchsizligi bilan bog'liqdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Tormozlanish jarayoni qo‘zg‘alish jarayonining keng yoyШЬ ketishini to‘xtata olmaydi. Ana shuning uchun kichik bolalaming diqqati bir narsadan ikkinchi narsaga chalg‘ib ketaveradi. Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining g‘oyat beqaror bo‘lishi turmush tajribalarining juda ozligi bilan ham bog'liqdir. Bolalarga hamma narsa yangilik bo'lib tuyulaverganidan ulaming diqqatlari bir narsadan ikkinchi narsaga tez-tez chalg‘ib ketaveradi. Bola ko‘z o'ngidagi narsaning o‘zi bolaga juda qiziq tuyulgani sababli ham diqqati chalg‘ib ketadi. Masalan, N.M. Menchinskayaning hikoya qilishicha, Sasha (1 yosh 8 oylik) echki va uning bolalari haqidagi ertakni zo‘r qiziqish bilan tinglaydi. Bo‘ri kelib eshikni taqillatgani hikoya qilinganda, Sasha bo‘rining qanday taqillatganini ko‘rmoqchi bo‘lib, devorga tap-tap etib uradi, lekin ba’zan taqillatishga shu qadar mahliyo bo‘lib ketadiki, ertakni tamomila unutib qo‘yadi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda diqqatning bo‘linuvchanligi juda zaif, ko‘lami esa tor bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar diqqatlarini faqat ko'zlariga yaqqol ko'rinib turgan bir narsagagina qarata oladilar. Ilk bolalik davridagi bolalar diqqatining rivojlanishida nutqning roli juda kattadir. Bolaning tili chiqib nutqni egallay boshlashi, katta kishilar bilan muloqotda bo‘lishdan tashqari, ulaming ko‘rsatmalarini bajarish imkoriiyatini ham beradi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kichik yoshli bolalar kattalarga qarashishni, imkoniyatlari boricha ulaming mehnatlariga aralashishni juda yoqtiradilar. Kattalaming iltimos va topshiriqlarini bajonidil ado etadilar, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga oid oddiy yumushlarni qiziqib bajaradilar, ota- onalarining uy-xo‘jalik ishlarida qarashishga harakat qiladilar. Mana shulaming hammasi, diqqatni ma’lum darajada to‘plash va muayyan bir maqsadga qaratishni talab etadi. Bu esa bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga asos yaratadi.

Xotira. Maktabgacha yosh oxiriga kelib bolada psixik faollikning ixtiyoriy shakllari paydo bo‘ladi. U endilikda predmetlarni qarab chiqa oladi, maqsadga qaratilgan kuzatishni amalga oshira olishi mumkin, ixtiyoriy diqqat paydo bo‘ladi va buning natijasida ixtiyoriy xotira elementlari yuzaga kela boshlaydi. Ixtiyoriy xotira bola o‘zi mustaqil ravishda maqsadni belgilaganda – eslab qolish va eslash holatlarda namoyon bo‘ladi. Bolaning eslab qolish istagini har tomonlama rag‘batlantirish zarur, chunki bu nafaqat xotiraning, balki bilishga doir boshqa qobiliyatlar – anglash, diqqat, fikrlash, tasavvur qilishning ham muvaffaqiyatli rivojlanish garovidir. Ixtiyoriy xotiraning paydo bo‘lishi vositalangan xotiraning – eslab qolishning eng mahsuldor shakli rivojlanishiga yordam beradi. Bu yo‘ldagi birinchi qadamlar eslab qolinadigan materialning o‘ziga xosliklari – yorqinligi, ommabopligi, noodatiyligi, ko‘rgazmalilik va boshqa shu kabilar bilan shartlanadi. Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolalarni eslab qolish maqsadlarida tasniflash va guruhlash usullariga maqsadli ravishda o‘rgatish mumkin.

Fikrlash. Ilgarigidek, etakchi bo‘lib ko‘rgazmali-qiyofaviy fikrlash hisoblanadi, lekin maktabgacha yosh oxiriga kelib so‘zli-mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi. U so‘zlarn ishlata bilish, fikr-mulohazalar mantig‘ini tushuna olish mahoratining rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu erda albatta katta yoshlilarning yordami zarur bo‘lib hisoblanadi, chunki bolalarning, masalan, predmetlar kattaligi yoki sonini taqqoslashlaridagi bolalarcha fikr-mulohazalarining nomantiqiyligi mavjud bo‘lishi ma’lumdir. Maktabgacha bo‘lgan yoshda

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

tushunchalarning rivojlanishi boshlanadi. To‘la holda so‘zli-mantiqiy, tushunchali yoki abstrakt fikrlash o‘smirlik yoshiga kelib shakllanadi. Katta maktabgacha yoshdagi bola sabab-oqibatli aloqadorliklarni belgilay olishi, muammoli vaziyatlar echimini topa olishi mumkin bo‘ladi.

Tasavvur. Bola hayotining bu davri tasavvur qilishning o‘ziga xos faolligi bilan tavsiflanadi. Dastlab bu fakat yaratuvchilik tasavvurlari bo‘ladi, ya’ni, biron-bir ertaknamo qiyofalarni tasavvur qilishga imkon beradigan tarzda bo‘ladi, keyinchalik esa butunlay yangi qiyofalarni yaratishga qodir bo‘lgan ijodiy tasavvurga aylanadi. Bu bolada fantaziyani rivojlantirish uchun o‘ta muhimdir. Bolalarda asta-sekin shakl haqidagi umumiy tasavvur shakllanadi, bunday tasavvur maktabda geometriya, chizmachilik kabi fanlarni o‘zlashtirish uchun asos bo‘ladi.

Tug‘ilgan bolalar geometrik figuralarni his eta boshlaydilar. M: bir nechta turli butilkalarni bolaning oldiga terib qo‘ysak, bola ovqat eydigan butылkasini ko‘zi bilan, labi bilan teshib yuboray deydi.Bola biroz ulg‘aygandan so‘ng o‘yinchoqlarini geometrik figuralar bilan solishtira boshlaydi. M: Mana bu tayoq stolbaga o‘xshaydi, mana bu tarvuzga o‘xshaydi ya’ni hamma narsalarni bir-biriga o‘xshatish. Predmetlarning shaklini aniqlashda geometrik figuralar etalon bo‘lib xizmat qiladi. Shakl xuddi razmerga o‘xshab bir predmetni ikkinchi predmetdan farqlashga yordam beradi. Bolalarda shakl haqidagi tasavvurlarini shakllantirish sensor tarbiyaning bir muammosi deb hisoblanadi. Kam tanish bo‘lgan predmetlar shaklini hech narsa bilan o‘xshata olmaydi, shuning uchun shaklning belgisiga ko‘ra ularni umumlashtira olmaydilar. Predmet shaklini aniqlashda geometrik figuralarning rol katta. 2-3 yashar bolalar geometrik figuralarni oddiy o‘yinchoq deb his etadilar. M: silindr — stakan, stolba; konus — stakan, stolba; konus - minora.

Nutq. Grammatika va leksikaning rivojlanishi davom etadi, nutq ravon bo‘la boradi. So‘z boyligi ortadi, bolalar umumlashtiruvchi otlarni ishlata boshlaydilar, sinonimlar, antonimlar va sifatlardan foydalana boshlaydilar. Agarda bola bilan birga ko‘p o‘qilsa va muloqot qilinsa, unda bu yoshga kelib ham monologik nutq (tushuntirishli va talqin qiluvchi, bayoniy nutq) hamda muloqotda ishtirok eta olish mahorati yaxshi darajada shakllangan bo‘ladi. Yozma nutq shakllana boshlaydi. So‘z boyligi taxminan 3 000 ta so‘zgacha boyib boradi. Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishi ularning faoliyati, muloqoti bilan uzviy bog‘liqdir. Bola so‘zlarning mazmuni va shaklidagi o‘zgarish, uning muloqot shakllari o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ilk bolalik davriga xos situativ nutq ishchan muloqot shaklidan nosituativ bilishga yo‘naltirilgan va nosituativ - shaxsiy muloqot shakliga o‘tilishi bolalar nutqiga ma’lum bir talablarni qo‘yadi. Bu talablar bola nutqining yangi-yangi tomonlarini, turli kommunikativ masalalarni xal qilishi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarni tarkib toptiradi. Bog‘cha yoshidagi bolaning nutqi ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish funksiyasini bajara boshlaydi. Buning uchun esa bolada ichki nutq tarkib topishi, monologik xususiyat kasb etib borishi lozim bo‘ladi. Bog‘cha yoshida bola nutqining rivojlanishidagi muhim xususiyat nutq tafakkur quroliga aylanishidan iborat. Bola so‘z lug‘at boyligining o‘sishida ikki muhim tomon - miqdor va sifat tomonlari mavjud. Lug‘at boyligining miqdoriy o‘sishi D.B.Elkoninning ko‘rsatishicha bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

xususiyatlariga bog‘liq so‘nggi yillarda u yoki bu yoshdagi bolalar nutqining lug‘at tarkibini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda avvalgi tadqiqotlarga nisbatan yuqoriroq mikdoriy ko‘rsatkichlar aniqlandi. Jumladan, V.Loginaning ma’lumotlariga ko‘ra 3 yoshga kelib, bola lug‘atida 1200 ta so‘z mavjud bo‘ladi. 6 yoshli bolaning faol lug‘ati esa 3000-3500 so‘zni o‘z ichiga oladi. Vaholanki, 40-60 yil oldin o‘tkazilgan tadkiqotlarda 3 yoshli bolaning lug‘ati 400-600 so‘zdan, 6 yoshli bolaning faol lug‘ati esa 2500-3000 so‘zdan iborat deb ko‘rsatilgan edi. Situatsion – ishchan muloqot shaklidagi bolalar leksikasi (nutqi) konkret predmetli vaziyat bilan bog‘liq. Bu xolat shunda ko‘rinadiki, bolaning nutqida ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ko‘p bo‘ladi. Sifat turkumidagi so‘zlar yoki umuman uchramaydi, yoki buyumlarning faqat tashqi xususiyatlari: rangi, o‘lchami (barcha sifatlarning 96,4%)ni ifodalaydi. 98% fe’llar faqatgina aniq predmetli harakatlarga nisbatan ishlatiladi. Bolalarning nosituativ – bilishga yo‘naltirilgan (vaziyatga situatsiyaga bog‘liq bo‘lmagan) muloqotida ular kattalardan har xil narsa va hodisalar haqida axborot olishga bog‘liqlikdan ozod bo‘ladi. Asta sekin atrof-olamdagi narsalarning turli xususiyatlarini aks ettiruvchi so‘zlar zaxirasi kengayib boradi. Jumladan, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifat turkumiga oid so‘zlar (11,25%) va emotsional xususiyatlarni ko‘rsatuvchi so‘zlar (5%) paydo bo‘ladi, irodaviy va intellektual harakatlarni anglatuvchi fe’l turkumidagi so‘zlar (6,24%) vujudga keladi. Nosituativ - shaxsiy muloqatda, bola odamlar o‘rtasidagi munosabatlar xakida axborot olishga, o‘zining fikrini kattalar fikri bilan taqqoslashga harakat qilar ekan, uning nutqida umumiy grammatik murakkablashish ro‘y beradi. Sifat turkumidagi so‘zlar quyidagi nisbatda bo‘ladi: atributiv (tashqi xususiyatlarini ifodalovchi) - 69,80%, estetik xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar 14,65%, axloqiy xususiyatlarni ifodalovchi sifatlar - 9,3%. Irodaviy va intellektual harakatlarni ifodalovchi fe’llar ancha ko‘payib, nutqida ishlatilayotgan barcha fe’llarning 9,76%ni tashkil etadi. Bolaning lug‘at boyligi nafaqat miqdor jihatdan, balki sifat jihatdan ham o‘sib boradi. Bu asosan bolalarning so‘zlar mazmunini o‘zlashtirishi bilan kechadi. Lug‘atni egallash jarayoni tushunchalarni egallab borish bilan uzviy bog‘liq. Bog‘cha yoshidagi bolalar eng avvalo ko‘rgazmali ifodalangan yoki ularning faoliyatlariga jalb etilgan predmetlar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarning nomlanishini o‘zlashtiradi. Buni bola tafakkurining ko‘rgazmali-harakat va ko‘rgazmali-obrazli xarakterda ekanligi bilan tushuntirish mumkin. Shu tufayli ham, bog‘cha yoshidagi bolalar lug‘atida abstrakt (mavxum) tushunchalar deyarli uchramaydi. Agar, 3-7 yoshdagi boladan berilgan topshirikda nutqiy faoliyatning elementi bo‘lmish so‘z bilan muayyan amallarni bajarish talab etilsa, masalan, gap tarkibidan so‘zlarni ajratib olish vazifasi berilsa, S.N.Karpovaning tadqiqotida ko‘rsatishicha, bolada unga aytilgan gap belgilaydigan vaziyatga oriyentir olishning ancha barqaror moyilligi kuzatiladi. Bu maqsadda bolaga nutqning tushunarli mezonlarini o‘rgatilmasdan, faqat ta’riflarni, ya’ni so‘zlarni ko‘rgazmali namoyish etish orqali ta’riflashni ishlatish mumkin. Katta bog‘cha yoshi davrida so‘zlarning tuzatilishini stixiyali tarzda o‘zlashtirish natijasida bolalarda so‘zni tarkibiy jihatdan taxlil etishning elementar shakllari yuzaga keladi. Nutqning fonetik (tovush) sistemasini o‘zlashtirish jarayoni tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish va fonematik eshitishning rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Nutqning fonetik

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

tarkibini o‘zlashtirish bir yoshning oxirlariga kelib boshlanadi. Bog‘cha yosh davrining boshiga kelib, bolalar asosan ona tilining barcha tovushlarini egallab bo‘ladilar. Biroq shunday bog‘cha yoshidagi bolalar ham uchraydiki, ularda ancha katta yoshda ham nutqiy nuqson talaffuz kamchiliklari uchraydi. Buning asosiy sababi nutq apparati motorikasining sekin rivojlanishidir.

Shaxs rivojlanishi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ongidagi asosiy o‘zgarish bo‘lib “harakatlar ichki rejasi”ning paydo bo‘lishi hisoblanib, u bolaga nafaqat ko‘rgazmali tarzda, balki ongli ravishda ham turli xildagi tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi.

Bolaning o‘z-o‘zini anglashida “Men” obrazini anglashi refleksif qobiliyatini belgilaydi, ya’ni, tahlil qilishi, o‘z harakatlarining maqsadlari va natijalari uchun javob bera olishi, shu jumladan, o‘z kechinmalari, hissiyotlarini anglashi. Aynan shu yangilanish bolaning ma’nan rivojlanishining asosi bo‘lib hisoblanadi. 6-7 yoshli bolaning psixik va shaxsiy sohalarida rivojlanishining eng muhim yangi hosilasi sifatida motivlarning bo‘ysundirilishi hisoblanadi. “Men qilishim kerak”, “men qila olaman” motivlarining anglanishi “men xohlayman” motivi ustidan ustunlik qila boshlaydi.

O‘z “Men”ini anglash va mana shu asosida maktab yoshi oxiriga kelib ichki hissiyotlarning paydo bo‘lishi yangi ehtiyojlarni tug‘diradi. Butun maktabgacha yosh davomidagi faoliyatning etakchi turi bo‘lib hisoblangan o‘yin mana shuning natijasida endi bolaning ehtiyojlarini to‘la qondira olmay qoladi. Bolada endilikda o‘z bolalarcha hayoti doirasidan tashqariga chiqishga intilish, ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatda o‘z o‘rnini egallash istagi yuzaga keladi, ya’ni, bola yangi ijtimoiy hissiyotni – “maktab o‘quvchisi o‘rnini”ni egallashga intiladi, bu esa 6-7 yoshli bolalarning shaxsiy hamda psixik rivojlanishidagi eng muhim natija va o‘ziga xosligi bo‘lib sanaladi.

6-7 yoshda bola o‘zini nafaqat uning o‘zi hosil qilgan amaliy harakatlar chegaralarida anglay boshlaydi, balki u o‘zining atrof-muhitga va boshqa kishilar orasidagi o‘z o‘rniga nisbatan munosabatlarini tushuna olish hamda tahlil qila olishga (bu yosh uchun xos bo‘lgan shaklda) qobil bo‘ladi: o‘zini ijtimoiy munosabatlar tizimidagi sub’ekt sifatida tushunish – o‘zining ijtimoiy “Men”ini anglash paydo bo‘ladi. O‘z-o‘zini baholash bu yoshdagi bolada qoidaga ko‘ra, o‘zini ko‘ra olish tendensiyasiga ega bo‘ladi. Bunda bola tashqi baholashga juda bog‘liq bo‘ladi, chunki u o‘zi haqida ob’ektiv fikrni tuza olish imkoniga ega bo‘lmaydi, u o‘zining qiyofasini tengdoshlari va kattalar o‘z nomiga eshitgan baholardan kelib chiqib tuzadi. Maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalar yaxshi, va birinchi bo‘lishga jon-dili bilan intiladilar, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda juda xafa bo‘ladilar, kattalarning munosabati, kayfiyati o‘zgarib qolishiga yorqin va emotsionalь ravishda reaksiya ko‘rsatadilar. Bu davrda bolalarning guruhda taniqli va yoqimsiz bolalarga ajralib qolishlari aniq namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi ehtiyoji bo‘lib ham o‘z tengdoshlar, ham kattalar bilan muloqoti sanaladi. Oldingi yosh davridagidek etakchi faoliyat bo‘lib syujetli-rolli o‘yinlar qolaveradi. Bu yoshdagi o‘yinlarning o‘ziga xosligi bo‘lib shu narsa hisoblanadiki, bunda bolalar kishilarning murakkab o‘zaro harakatlarini o‘zlashtirishni va uni amalga oshirib ko‘rishni, atrof-muhitdagi asosiy hayotiy vaziyatlarni sinab ko‘rishni

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

boshlaydilar. O‘yinlar murakkablasha boradi, ba’zan kattalar har doim ham tushuna olmaydigan alohida mazmunga ega bo‘ladi. Bunda bolalar butun o‘yin maydonini to‘la kuzatib turishga, o‘yindagi barcha ishtirokchilarni ko‘rib turishga va zaruriy o‘yin harakatlariga bog‘liq bo‘ladigan o‘z xulq-atvori yoki rolini o‘zgartirib turishga qodir bo‘ladilar.

6-7 yoshli bolaning muloqoti. Bu yoshdagi muloqot vaziyatli-shaxsiy, ya’ni, berilgan konkret vaqtdagi vaziyatni emas, balki “nima bo‘ldi” yoki “nima bo‘ladi” tarzidagi vaziyatni aks ettiruvchi sifatida bo‘ladi. Muloqotning asosiy mazmuni kishilar dunyosi, xulq-ator qoidalari, tabiiy hodisalardan iborat bo‘ladi. Kattalar dunyo tabiatini ochuvchi ijtimoiy me’yorlar, ijtimoiy kontaktlar va odamlar orasidagi qoidalarning tashuvchisi bo‘lib sanaladi. muloqot jarayonidagi etakchi ehtiyoj – o‘zaro tushunish, his-tuyg‘ularni his qilish ehtiyojidir. Bola kattalar bilan o‘zining ham ijobiy, ham salbiy yorqin kechinmalari bilan o‘rtoqlashadi. Ota-onalar hamda pedagoglaning asosiy vazifasi bolaning emotsiyalarini ularning bola hayoti uchun ahamiyatliligini kamaytirmagan holda qabul qilishdan iboratdir.

Tengdoshlari bilan muloqotda bola yoshining quyidagicha namoyon bo‘lishi ifodalanadi: muloqot tashabbusini boshlash;birinchi yaqinlik; biri-biriga, tan olinishga va hurmatga ehtiyoj; musobaqalashuv tarzidagi taqlid qilish; sherikka nisbatan yuqori sezuvchanlik (ranjish, qarshilik, janjal); guruhda bolalarning tutgan o‘rni bo‘yicha farqlanishi paydo bo‘ladi.

7 yoshlarga kelib bolada maktabgacha bo‘lgan yosh davri tugaydi. Bu davrdagi asosiy ko‘nikmalar bo‘ilb quyidagilar sanaladi: bola tomonidan odam turmush madaniyati predmetlari va narsalari dunyosining o‘zlashtirilishi; boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qila olish qobiliyati;“maktab o‘quvchisi ichki hissiyoti”ning shakllanishi, ya’ni, ongli ravishda, u nima qilish kerakligi va kattalar undan nimani kutayotganliklarini to‘la tushuna olish bilan bolaning maktabga borish istagining paydo bo‘lishi.

Maktabgacha yoshda davomida bolalar narsalar dunyosini kishilik madaniyatining predmetlari sifatida o‘zlashtiradilar; boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qilishni o‘rganadilar; ularda jinsiy identifikatsiyalanish rivojlanadi, maktab o‘quvchisi pozitsiyasi shakllanadi. Maktabgacha bo‘lgan yosh oxiriga kelib bola endilikda bilishga doir va shaxsiy rivojlanishning yuqori darajasiga ega bo‘lib, bu unga maktabda keyinchalik muvaffaqiyatli o‘qishga imkon beradi.

Yirik psixologlarning tadqiqotlariga qaraganda oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Masalan, ular lingvistika, fizika, matematikaga doir ilmiy tushunchalarni o^las^n-adila^ soddaroq masalalar tuzadilar, engilroq mashqlarni bajara oladilar, ijodiy va mahsuldor fikr yuritishga intiladilar.

I.Olti yoshli bolaning maktab ta'limiga psixologik jixatdan tayyorligining obektiv tomoniga reja asosida, tartibli, maqsadga yo'naltirilgan, bola turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o'ziga xosligi, uning sihat-salomatligi, usuliy jihatdan tayyorgarligi, oddiy ko'nikmalami o^las^n-gani kabi omillar kiradi.

2. Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorlanishining sub'ektiv tomoniga esa uning maktabda o'qish xohishi, intilishi, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog'liqdir Bolada shu davrga kelib, o'qish, bilim olish haqida

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

to'g'ri tasavvur shakllanadi. U maktab jamoasi a'zolarining mas'uliyatli vazifalarini anglaydi va ularga itoat qilishga, ularning ko'satmalarini bajarishga moyil bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bola maktab o'quvchisi bo'ldi. Uning hayotida burilish yuzaga keldi. Uning asosiy faoliyati, birinchi va eng muhim vazifasi o'qish, ya'ni yangi bilimlarni ko'nikma va malakalarni orttirishdan, tabiat hamda jamiyat haqida sistemali ma'lumot^ to'plashdan iborat bo'lib qoladi. O'z-o'zidan ma'lumki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilaráa o'qishga nisbatan yuksak javobgarlik munosabati birdaniga tarkib topib qolmaydi. Garchi bunda anchagina individual farqlar kuzatilsa ham, o'qishga bo'lgan munosabatlar va motivlarning rivojlanish dinamikasi odatda qonuniy xarakterga ega bo'ladi. Yuqorida ko'reatib o'tilganidek, odatda, yetti yoshli bolalar ta'limning boshlang'ich davrida maktab mashg'ulotlarining yaqin kelajakdagi istiqbollarini ijobiy idrok qiladilar. Bolalarda hatto xarakterli xususiyatlari jihatidan farq qiladigan o'ziga xos ehtiyoj ham bor. Bu aslida, hali o'qishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj emas, biron yangi narsani, tevarak-atrofdagi voqelik hodisalarini bilishga bo'lgan ehtiyoj ham emas, balki o'quvchi bo'lish ehtiyojidir desak mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. F.R. Qodirova. R.M Qodirova. «Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi». T., «Istiqlol», 2006.
1. 2.Axmedjanov M.M., Xo'jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014
2. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. PsychologyandEducationJournal, 58(2), 1339-1345.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Ta'lim muassasalari o'qituvchi-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. - T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. - 180 b.
4. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostiasi T.: TDPU 2017 – 264 b.
5. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil T.: Noshir 2010. – 356 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Dilnoza Fatxullaevna Kayumova,** stajor tadqiqotchi, [**Дильноза Фатхуллаевна Каюмова,** стажер-исследователь], [**Dilnoza F. Kayumova**, researcher]; manzil: O‘zbekiston, Qushbegi ko'chasi 30B, 100022, Toshkent [адрес: Узбекистан, ул. Кушбеги, 30B, г. 100022, Ташкент], [address: Uzbekistan, 316, Qushbegi 30B, 100022, Toshkent city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

KOGNITIV-PRAGMATIK KOMPETENSIYA VA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KOGNITIV-PRAGMATIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

© A.M. To‘rabekova [1]✉

[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada kognitiv-pragmatik kompetensiya va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetentligini rivojlantirish borasidagi xorijlik olimlar fikr-mulohazalari tizimli va tahliliy o‘rganilgan. O‘rganilgan nazariy ma’lumotlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari ishlab chiqilgan.

MAQSAD: mazkur maqola bugungi kunda dolzarb muammoladan bo‘lgan kognitiv-pragmatik kompetensiya tushunchasi va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlarini atroflicha yoritib berishni aqsad qilgan. Bu borasida ‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlarining ishlab chiqilganligi maqolaning yutug‘i bo‘ldi.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu ilmiy izlanishlarimizda “Muammoli pedagogik vaziyat”, “Intervyu”, “Aqliy hujum” interfaol metodlaridan samarali foydalandik. Shunga muvofiq ravishda mavzu bo‘yicha muammoli vaziyat o‘rganildi, savol- javob orqali intervyu amalga oshirildi hamda turli muhokamali savollar o‘rtaga tashlandi, aniq misollar yordamida fikr-g’oyalar keltirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: kognitiv va pragmatik kompetentlikni kompleks tizimli tarzda tahlilni oshirish, shunga taalluqli nazariyalarni tanqidiy o‘rganib, mantiqiy munosabat bildirish, og‘zaki va yozma nutq malakalarida uning xususiyatlarini yorqin aks ettirish, kommunikatsion jarayonda shaxs va fikr erkinligiga e’tibor qaratish, muloqot sharoitini aniqlash, uning imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat. Kognitiv-pragmatik kompetentlikni rivojlantirish modeli tavsifi va undagi komponentlar nutqni qabul qiluvchi va suhbatdosh mushohadasi munosabatlarida strukturaviy bog‘liqlik zarur.

XULOSA: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirishda uning tarkibiy komponentlarini tilning leksik, grammatik, morfologik va sintaktik birliklar yig‘indisini va jamlanmasini muvofiq tarzda keltirish asoslidir.

Kalit so'zlar: kognitiv, pragmatika, modellashtirish, lingvistik shakl, ekstralingvistika, fragment, korrelyatsiya, yondashuv, komponent, funksional-semanik tahlil, kommunikativ shaxs.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Iqtibos uchun: To‘rabekova A.M. Kognitiv-pragmatik kompetensiya va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari. // Inter education & global study. 2024. №8. B.206–212.

ПОЗНАВАТЕЛЬНО-ПРАГМАТИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНО-ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

© А.М. Турабекова[1]✉
[1]Ташкентский Государственный педагогический университет имени Низами, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье систематически и аналитически изучены мнения зарубежных ученых о развитии когнитивно-прагматической компетентности и когнитивно-прагматической компетентности будущих учителей начальных классов. На основе изученных теоретических данных разработаны этапы развития когнитивно-прагматических компетенций будущих учителей начальных классов.

ЦЕЛЬ: данная статья призвана подробно осветить концепцию когнитивно-прагматической компетенции, которая сегодня является актуальной проблемой, и этапы развития когнитивно-прагматической компетенции будущих учителей начальных классов. В связи с этим разработка этапов развития познавательно-прагматических компетенций учителей начальных классов стала прорывом в статье.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в нашем научном исследовании мы эффективно использовали интерактивные методы «Проблемная педагогическая ситуация», «Интервью», «Мозговой штурм». идеи были представлены на конкретных примерах.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: повышение познавательной и прагматической компетентности путем комплексного системного анализа, критического изучения соответствующих теорий, логического реагирования, яркого отражения его особенностей в навыках устной и письменной речи, акцентирования внимания на свободе личности и мысли в коммуникативном процессе, выявления условий общения, изучения его возможностей. Описание модели развития познавательно-прагматической компетентности и составляющих в ней структурных связей необходимо в отношениях речевого реципиента и наблюдателя собеседника.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: вместо вывода можно сказать, что при развитии познавательно-прагматических компетенций у будущих учителей начальных классов обоснованно соотносить ее составные компоненты с совокупностью и совокупностью лексических, грамматических, морфологических и синтаксических единиц языка.

Ключевые слова: когнитивный, прагматический, моделирование, лингвистическая форма, экстралингвистика, фрагмент, корреляция, подход, компонент, функционально-семантический анализ, коммуникативная личность.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Для цитирования: Турабекова А.М. Познавательно-прагматическая компетентность и этапы развития познавательно-прагматической компетентности будущих учителей начальных классов. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 206–212.

COGNITIVE-PRAGMATIC COMPETENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF COGNITIVE-PRAGMATIC COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

© Aziza M. To‘rabekova[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article systematically and analytically examines the opinions of foreign scholars on the development of cognitive-pragmatic competence and cognitive-pragmatic competence of future elementary school teachers. Based on the theoretical data studied, stages of development of cognitive-pragmatic competencies of future elementary school teachers have been developed.

MATERIALLAR VA METODLAR: in our scientific research, we effectively used the interactive methods "Problem Pedagogical Situation", "Interview", "Brainstorming". ideas were presented with the help of specific examples.

AIM: this article is intended to highlight in detail the concept of cognitive-pragmatic competence, which is an urgent problem today, and the stages of development of cognitive-pragmatic competence of future primary school teachers. In this regard, the development of stages in the development of cognitive and pragmatic competencies of primary school teachers has become a breakthrough in the article.

DISCUSSION AND RESULTS: improving cognitive and pragmatic competence through comprehensive system analysis, critical study of relevant theories, logical response, vivid reflection of its features in oral and written speech skills, focusing on the freedom of personality and thought in the communicative process, identifying communication conditions, exploring its capabilities. A description of the model of cognitive-pragmatic competence development and the structural connections that make up it is necessary in the relationship between the speech recipient and the observer of the interlocutor.

CONCLUSION: instead of a conclusion, we can say that with the development of cognitive and pragmatic competencies in future primary school teachers, it is reasonable to correlate its constituent components with the totality and totality of lexical, grammatical, morphological and syntactic units of the language**.**

Key words: cognitive, pragmatics, modeling, linguistic form, extralinguistics, fragment, correlation, approach, component, functional-semantic analysis, communicative personality.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

For citation: Aziza M. To‘rabekova. (2024) ‘Cognitive-pragmatic competence and stages of development of cognitive-pragmatic competence of future primary school teachers’, Inter education & global study, (8), pp. 206–212. (In Uzbek).

Zamonamizning muhim shartlaridan biri bo‘lgan ilm-fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o‘zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar ta’lim sohasi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda xalqimiz hayotida buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Barcha jabhada, jumladan, iqtisodiy, madaniy, ilmiy, sog‘liqni saqlash, ayniqsa, ta’lim sohasidagi hech kimning hayoliga ham kelmagan mislsiz o‘zgarishlar, rivojlanishlar yuz berdi. Oliy ta’limi sohasida olib borilayotgan tub islohitlar o‘z samarasini bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 187-sonli qarori, “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-673-sonli qonunining qabul qilinishi va boshqa tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish soha vakillarining oldiga bir qator vazifalarni qo‘yadi.

Kognitiv-pragmatik kompetentlikni modellashtirish jihatlari, nutq aktlari nazariyasi nuqtai nazaridan muloqot qilish jarayoni situatsiyasi Borkin, Reynxart[1], Braun va Levinson[2], Freyzer[3], Goffman[4], Formanovskaya[5]lar tomonidan taqdid qilingan. Lingvistik shaklni o‘rganish kommunikativlikning ekstralingvistik parametrlari xilm-xilligi nutqning to‘liq ma’nosini ochib berishda fragment va korrelyatsiyaning farqli jihati I.M.Kobozova[6] va Kolshanskiylar[7] tomonidan o‘rganilgan. Kommunikativlik va muloqot yuritish, tinglovchi va so‘zlovchi o‘rtasidagi uyg‘un munosabat, shular barobarida nutq harakatga keladi.

“Kognitivlik va pragmatika lingvistik jarayonlarda o‘sib borishi va unga muayyan ehtiyojning borligi hamda ularga motivlar berilishi, maqsadlarga yo‘naltirilishi asoslanib borishi kerak”[8], - deysi Yu.V.Tufanova.

Kognitiv-pragmatik yondashuvlarda ko‘plab omillar mavjudligi yuzasidan G.M. Kostyushkina[9] fikr-mulohazalar bildirib o‘tgan.

Kognitiv-pragmatik kompetentlik komponentlari va uning fuksional semantik tahlili, uni modellashtirish usullari ilmiy qarash, nutqning konseptual asoslarini talqin qilish

[1]Borkin A., Reinhart S.M. “Excuse me and I’m sorry”// TESOLQuartely. 1978. № 12 (1).
[2] Brown. P., & Levinson. S., Universals in Language usage: Politeness phenomena. In E. N. Goody (Ed.), Questions and politeness: Strategies in social interaction, 8(1978), 56-289. (Cambridge: Cambridge University Press).
[3] Fraser, B., & Nolen, W. (1981). The Association of Deference with Linguistic Form. International Journal of the Sociology of Language, 1981
[4] Goffman, E. (1971) The Presentation of Self in Everyday Life. Pelican Books, London.
[5] Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистический и методический аспекты. М.: 1982.
[6]Кобозева И.М. Теория речевых актов как один из вариантов теории речевой деятельности, Новое в зарубежной лингвистике, 1986.
[7] Контекстная семантика / Г. В. Колшанский . – 2-е изд., стер. – М. :Эдиториал УРСС, 2005 . – 152 с. – (Лингвистическое наследие XX века). - ISBN 5-484-00096-3.
[8] Туфанова Ю.В. КОММУНИКАТИВНАЯ СИТУАЦИЯ ИЗВИНЕНИЯ: когнитивно-прагматический подход. авто.реф. Иркутск-2010, с 4.
[9] Костюшкина Г.М. Концептуальная систематика языка, речи и речевой деятельности как объект лингвистики. Язык. Культура. Коммуникация. 2009.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

dolzarbligicha qolmoqda. Bunda tushunchalar, atamalar, terminlar izohi, glossariylar yaratish samarali bilishni amalga oshirishning istiqbollari, muloqot qilishning psixo-emotsional va mativatsion holati, idrok va tushunish, informatsiyani tanlash va uni qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. Biz modelimizni T.A.van Deykning[10] “Kommunikativ-kognitiv pragmatika” nomli modeliga tayandik.

S.S. Taxtarovaning fikiga ko‘ra kommunikativ shaxs - bu modellashtirilgan ma’lum bir mavhum konstruktsiya insonning kommunikativ xulq-atvorini tahlil qilish natijasi[11].

P.Yu. Zolotovning fikriga ko‘ra kommunikativ bosqichda o‘quvchilar funksional aniqlash uchun pragmatika asosiy, izohli, parallel va nutq belgilari kabi bir qancha qidiruv mashqlarini bajarishlari mumkin.

Aloqa bosqichi o‘z ichiga quyidagi turdagi vazifalarni oladi: yozma ravishda rollarni taqsimlash bilan juftlikda spontan suhbat (ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardan foydalangan holda) juftliklarda spontan suhbatni amalga oshirish orqali pragmatik bilimlari rivojlanadi[12].

M.Canale[13] tomonidan takomillashtirilgan model to‘rtta komponentni o‘z ichiga oladi: grammatik, sotsiolingvistik, nutq va kompensatsiya.

Shu o‘rinda biz ham ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va nazariy ma’lumotlarning amaliyotdagi holatidan kelib chiqib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kognitiv-pragmarik kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlarini ishlab chiqdik.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich. Tushunish bosqichi – bu bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitivligini oshirish va tildagi lisoniy birliklar va pragmatik hodisalarning mohiyatini tushunishlari uchun nazariy ma’lumotlar taqdim etish.

Ikkinchi bosqich. Loyihalash bosqichi – talabalardagi kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun loyiha ishini tashkil etish va hamkorlikda mavzuning muhokamasini va natijasini belgilash.

Uchinchi bosqich. Baholash mezonlari bilan tanishtirish bosqichi – bunda ta’lim jarayoni subyektlarining o‘quv darsliklari va turli metodik ta’minotdagi kognitiv-pragmatik kompetensiyalar rivojiga oid o‘quv-ta’limiy vositalar qay darajada berilganligini diagramma asosida ko‘rsatib berishni uyga vazifa sifatida berish.

To‘rtinchi bosqich. Lingvistik bosqich – loyiha yaratish jarayonida talabalardagi lingvistik bilimlarni sinovdan o‘tkazish va ularni baholash.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan bosqichlar talabalarning kognitiv-pragmatik kompetensiyalarining rivojlanganligini aniqlash maqsadida grammatik-kommunikativ mashq va topshiriqlar ishlab chiqilishi va ularni baholashda baholash mezonlarida berilgan

[10]Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. с-69.
[11] Тахтарова С.С. Категория коммуникативного смягчения: (когнитивно-дискурсивный и этнокультуркый аспекты) / Волгогр. гос. ун-т. – Волгоград, 2010,
[12]Золотов П.Ю. Формирование прагматической компетенции студентов на основе корпусных технологий. авто.реф. Тамбов-2020.
[13]Canale M. From communicative competence to communicative language pedagogy // Language and Communication. London :Longman, 1983. P. 2–27.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

nazariy va amaliy bilimlarini nutqida qo‘llashni yuqori saviyaga olib chiqish strategiyalari o‘z ifodasini topgan.

O‘qish malakasini egallash ancha murakkab jarayon bo‘lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. Ruhshunos olim T.G.Yegorov o‘zining “Очерки психологии обучении детей читению” nomli asarida o‘qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: analitik bosqich, sintetik bosqich va avtomatlashgan bosqich. Analitik bosqich savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi, bunda so‘zni bo‘g‘in-harf tomonidan tahlil qilish va bo‘g‘inlab o‘qish malakasi shakllantiriladi. Sintetik bosqich uchun so‘zni sidirg‘a o‘qish xarakterlidir; bunda so‘zni ko‘rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so‘z ma’nosini anglash bilan asosan mos keladi. O‘qish so‘z ma’nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O‘quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o‘tadilar. Bundan keyingi yillarda o‘qish avtomatlasha boradi[14], deb ta’kidlanadi K.Qosimova boshchiligida yozilgan “Ona tili o‘qitish metodikasi” darsligida.

Professor Asqar Zunnunov o‘qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o‘quvchilarning oldin bilimlarni o‘zlashtirishiga, so‘ng yod olishlariga e’tibor berilishi ta’lim jarayonida izohli o‘qish deb nomlanganini ta’kidlaydi.

Demak, izohli o‘qish deb o‘ylashga, his qilishga, asarni to‘liq idrok qilishga, o‘qilganning mazmunini o‘zlashtirishga olib keladigan o‘qishga aytiladi. Izohli o‘qish asar mazmunini tushunishni asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g‘oyani anglashni ta’minlaydi.

Izohli o‘qish quyidagi tamoyillarga to‘liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo‘ladi:

1. O‘qishni hayot bilan bog‘liq holda tashkil etish.

2. O‘qishning ongli va ta’sirchan bo‘lishi uchun o‘quvchitarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.

3. O‘qishni ko‘rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o‘simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o‘quvchining ifodali o‘qishi tarzida olib borish.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida asosan she’rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o‘qib o‘rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o‘ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o‘ziga xos usulda o‘qib o‘rganish taqozo qilinadi. Bunda albatta, innovatsion metodlar, didaktik materiallar va multimedia vositalaridan o‘rinli foydalanish darsning mazmunli va qiziqarli o‘tishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetentligini rivojlantirishni takomillashtirishda ulardagi kognitiv nazariyani tushunish, uni nutqida o‘rinli qo‘llash va ularda shu bo‘yicha tafakkur paydo bo‘lishiga erishish, lisoniy sathlarning pragmatik jihatini anglash, zamonaviy, innovatsion metodlar asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, dars davomida talabalarning o‘quv materiali asosidagi subyektiv fikr-mulohazalarini va mantiqiy, tanqidiy xulosalarini tinglash va tahlil qilish, ularni

[14] K. Qosimova, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o‘qitish metodikasi— T.: “NOSHIR”, - 2009, 74-b.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

umumlashtirish, jamlashga bo‘lgan qobiliyatlarini o‘stirish, tildagi pragmatik hodisalar va belgilar mazmunidan kelib chiqib, kognitivlikni ta’minlash hamda nutqning kommunikativ sifatlaridan tashkil topgan vazifalar bo‘yicha topshiriqlar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Borkin A., Reinhart S.M. “Excuse me and I’m sorry”// TESOLQuartely. 1978. № 12 (1).
2. Brown. P., & Levinson. S., Universals in Language usage: Politeness phenomena. In E. N. Goody (Ed.), Questions and politeness: Strategies in social interaction, 8(1978), 56-289. (Cambridge: Cambridge University Press).
3. Canale M. From communicative competence to communicative language pedagogy // Language and Communication. London:Longman, 1983. P. 2–27.
4. Fraser, B., & Nolen, W. (1981). The Association of Deference with Linguistic Form. International Journal of the Sociology of Language, 1981.
5. Goffman, E. (1971) The Presentation of Self in Everyday Life. Pelican Books, London.
6. K. Qosimova, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o‘qitish metodikasi— T.: “NOSHIR”, - 2009, 74-b.
7. Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. с-69.
8. Золотов П.Ю. Формирование прагматической компетенции студентов на основе корпусных технологий. авто.реф. Тамбов-2020.
9. Кобозева И.М. Теория речевых актов как один из вариантов теории речевой деятельности, Новое в зарубежной лингвистике, 1986.
10. Контекстная семантика / Г. В. Колшанский . – 2-е изд., стер. – М.: Эдиториал УРСС, 2005. – 152 с. (Лингвистическое наследие XX века).- ISBN 5-484-00096-3 .
11. Костюшкина Г.М. Концептуальная систематика языка, речи и речевой деятельности как объект лингвистики. Язык. Культура. Коммуникация. 2009.
12. Тахтарова С.С. Категория коммуникативного смягчения: (когнитивно-дискурсивный и этнокультуркый аспекты) / Волгогр. гос. ун-т. – Волгоград, 2010.
13. Туфанова Ю.В. КОММУНИКАТИВНАЯ СИТУАЦИЯ ИЗВИНЕНИЯ: когнитивно-прагматический подход. автореф. Иркутск-2010, с 4.
14. Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистический и методический аспекты. М.: 1982.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**To‘rabekova Aziza Mirzabek qizi**, tayanch doktarant, [**Турабекова Азиза Мирзабековна,** докторант], [**Aziza M. To‘rabekova**, doctoral student]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko’chasi 27 uy; [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27], [address: Uzbekistan, 27 Bunyodkor street, Chilanzor district, Tashkent city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATIDA MARKETING XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB JIHATLARI

© M.B. Xudaybergenova[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali, Nukus, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada axborot-kutubxona faoliyatida marketing xizmatlarini takomillashtirishning dolzarb jihatlari tahlil qilinadi. Bugungi kunda axborot-kutubxona muassasalari o‘z xizmatlarini kengroq auditoriyaga yetkazish va foydalanuvchilar ehtiyojlarini sifatli qondirish uchun marketing strategiyalariga e’tibor qaratmoqda. Foydalanuvchi ehtiyojlarini tahlil qilish, ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish kabi muhim yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, kutubxonalarning moliyaviy va texnologik imkoniyatlarini oshirish, xalqaro tajribalarni qo‘llash hamda kutubxona xizmatlarining ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirishga qaratilgan takliflar bayon etiladi. Maqola axborot-kutubxona marketingining ilmiy va amaliy jihatlarini yoritib beradi, bu sohadagi muammolar va imkoniyatlar muhokama qilinadi.

MAQSAD:axborot-kutubxona faoliyatida marketing xizmatlarini takomillashtirishning maqsadi quyidagilardan iborat:

- foydalanuvchilarni jalb qilish**:** kutubxona xizmatlarini keng auditoriyaga yetkazib, foydalanuvchilar sonini oshirish.
- axborot resurslariga kirishni kengaytirish: foydalanuvchilar uchun axborot manbalaridan foydalanishni osonlashtirish va ularga tezkor, qulay xizmatlar ko‘rsatish.
- kutubxona xizmatlarining sifatini oshirish: innovatsion marketing vositalari va texnologiyalardan foydalanib, kutubxona xizmatlarini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish.

Ushbu maqsadlar kutubxona xizmatlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va foydalanuvchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: axborot-kutubxona faoliyatida marketing xizmatlarini takomillashtirish mavzusida tadqiqot olib borishda materiallar va metodlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar samarali bo‘lishi uchun quyidagi materiallar va metodlardan foydalaniladi:Materiallar

- kutubxona resurslari**:** tahlil uchun kutubxona fondlari, elektron bazalar, kutubxona kataloglari va raqamli axborot manbalari asosiy materiallar hisoblanadi.
- statistik ma’lumotlar**:** kutubxonaning xizmat ko‘rsatish samaradorligi, foydalanuvchilar soni, axborot resurslaridan foydalanish bo‘yicha statistik hisobotlar o‘rganiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Materiallar va metodlar tadqiqotning asosiy elementlaridir va ular marketing xizmatlarini takomillashtirishning qaysi strategiyalar samarali ekanligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv kutubxona xizmatlarini foydalanuvchilar talablariga muvofiq rivojlantirish imkonini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: axborot-kutubxona faoliyatida marketing xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va o‘rganilgan materiallar asosida muhokama va natijalar quyidagi jihatlari shuni ko‘rsatadiki, foydalanuvchilar kutubxona xizmatlaridan foydalanishda, asosan, qulaylik, tezkorlik va raqamli resurslarning keng doirasiga ega bo‘lishni afzal ko‘radilar. So‘rov natijalari foydalanuvchilarning ko‘pchiligi axborot manbalariga onlayn kirishni istashlarini tasdiqladi, bu esa kutubxonalarning raqamli xizmatlarini rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi. Foydalanuvchilar elektron kitoblar, ilmiy maqolalar va boshqa raqamli resurslarga kengroq kirish imkoniyatini so‘rashdi, bu esa kutubxona xizmatlarining elektron formatini kengaytirish lozimligini anglatadi.

XULOSA: kutubxona xizmatlarini raqamli formatga o‘tkazish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishga sezilarli darajada yordam beradi hamda marketing strategiyalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va elektron pochta orqali olib borilgan marketing foydalanuvchilarni jalb qilishda samarador ekanligini ko‘rsatdi.

Innovatsiyalar va interaktiv xizmatlar QR-kodlar va chat-botlar kabi innovatsion texnologiyalar kutubxona xizmatlarini interaktiv qilishda va foydalanuvchilarga yanada qulay xizmat ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so'zlar: marketing, axborot-kutubxona, kutubxona xizmatlari, marketing strategiyalari, platformalar, ijtimoiy tarmoqlar.

Iqtibos uchun: Xudaybergenova M.B. Axborot-kutubxona faoliyatida marketing xizmatlarini takomillashtirishning dolzarb jihatlari. // Inter education & global study. 2024. №8. B.213–223.

АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ УСЛУГ В ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

© М.Б. Худайбергенова[1]✉
[1] Нукусский филиал Узбекского государственного института искусств и культуры, Нукус, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются актуальные аспекты совершенствования маркетинговых услуг в информационно-библиотечной деятельности. На сегодняшний день информационно-библиотечные учреждения уделяют внимание маркетинговым стратегиям для того, чтобы донести свои услуги до широкой аудитории и качественно удовлетворить потребности пользователей. Рассматриваются такие важные направления, как анализ потребностей

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

пользователей и эффективное использование социальных сетей. Также представлены предложения по улучшению финансовых и технологических возможностей библиотек, применению международного опыта и усилению социального значения библиотечных услуг. Статья освещает научные и практические аспекты информационно-библиотечного маркетинга, анализируя проблемы и возможности в этой сфере.

ЦЕЛЬ: целью совершенствования маркетинговых услуг в информационно-библиотечной деятельности является:

вовлечение пользователей: увеличение числа пользователей за счет предоставления библиотечных услуг более широкой аудитории.

расширение доступа к информационным ресурсам: упрощение доступа пользователей к информационным ресурсам и предоставление им быстрых и удобных услуг.

повышение качества библиотечных услуг: повышение уровня библиотечных услуг до уровня современных требований с использованием инновационных маркетинговых инструментов и технологий.

Эти цели направлены на улучшение библиотечных услуг в соответствии с современными требованиями и максимальное удовлетворение потребностей пользователей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: материалы и методы имеют важное значение при проведении исследований по теме совершенствования маркетинговых услуг в информационно-библиотечной деятельности. Чтобы эти исследования были эффективными, используются следующие материалы и методы: материалы

библиотечные ресурсы: основными материалами для анализа являются библиотечные фонды, электронные базы данных, библиотечные каталоги и цифровые информационные ресурсы.

статистические данные: изучаются статистические отчеты об эффективности обслуживания библиотеки, количестве пользователей, использовании информационных ресурсов.

Материалы и методы являются ключевыми элементами исследования, и они важны для определения того, какие стратегии улучшения маркетинговых услуг эффективны. Такой подход позволяет развивать библиотечные услуги в соответствии с требованиями пользователей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: проведенные исследования по совершенствованию маркетинговых услуг в информационно-библиотечной деятельности и основанные на изученном материале дискуссии и результаты свидетельствуют о том, что следующие аспекты свидетельствуют о том, что пользователи предпочитают пользоваться библиотечными услугами, главным образом, благодаря удобству, быстроте и широкому спектру цифровых ресурсов. Результаты опроса подтвердили, что большинство пользователей хотят получить доступ к информационным ресурсам в интернете, что свидетельствует о

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

необходимости развития цифровых сервисов библиотек. Пользователи запросили более широкий доступ к электронным книгам, научным статьям и другим цифровым ресурсам, что означает, что необходимо расширить электронный формат библиотечных услуг.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: перевод библиотечных услуг в цифровой формат и внедрение современных технологий в значительной степени способствует удовлетворению потребностей пользователей, а маркетинговые стратегии, в частности маркетинг через социальные сети и электронную почту, показали свою эффективность в привлечении пользователей.

Инновации и интерактивные услуги инновационные технологии, такие как QR-коды и чат-боты, играют важную роль в интерактивности библиотечных услуг и обеспечении более удобного обслуживания пользователей.

Ключевые слова: маркетинг, информационная библиотека, библиотечные услуги, маркетинговые стратегии, платформы, социальные сети.

Для цитирования: Худайбергенова М.Б. Актуальные аспекты совершенствования маркетинговых услуг в информационно-библиотечной деятельности. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 213–223.

RELEVANT ASPECTS OF IMPROVING MARKETING SERVICES IN INFORMATION AND LIBRARY ACTIVITIES

© Marjan B. Khudaybergenova[1]✉
[1]Nukus Branch of the Uzbek State Institute of Arts and Culture, Nukus, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the pressing aspects of improving marketing services in information and library activities. Today, information and library institutions are focusing on marketing strategies to deliver their services to a broader audience and meet users' needs more efficiently. Key areas such as analyzing user needs and effectively utilizing social media are discussed. Additionally, proposals are presented to enhance libraries' financial and technological capabilities, apply international experiences, and strengthen the social significance of library services. The article highlights the scientific and practical aspects of information and library marketing, examining the challenges and opportunities in this field.

AIM: the purpose of improving marketing services in information and library activities is:

user engagement: Increasing the number of users by providing library services to a wider audience.

expanding access to information resources: making it easier for users to access information resources and provide them with fast and convenient services.

improving the quality of library services: raising the level of library services to the level of modern requirements using innovative marketing tools and technologies.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

These goals are aimed at improving library services in accordance with modern requirements and maximizing user satisfaction.

MATERIALS AND METHODS: materials and methods are important in conducting research on the topic of improving marketing services in information and library activities. In order for these studies to be effective, the following materials and methods are used: materials

library resources: the main materials for analysis are library collections, electronic databases, library catalogs and digital information resources.

statistical data: statistical reports on the effectiveness of library maintenance, the number of users, and the use of information resources are being studied.

Materials and methods are key elements of the research, and they are important for determining which strategies to improve marketing services are effective. This approach makes it possible to develop library services in accordance with the requirements of users.

DISCUSSION AND RESULTS: the conducted research on improving marketing services in information and library activities and the discussions and results based on the studied material indicate that the following aspects indicate that users prefer to use library services mainly due to convenience, speed and a wide range of digital resources. The survey results confirmed that the majority of users want to access information resources on the Internet, which indicates the need to develop digital library services. Users have requested wider access to e-books, scientific articles and other digital resources, which means that the electronic format of library services needs to be expanded.

CONCLUSION: the digitization of library services and the introduction of modern technologies greatly contribute to meeting the needs of users, and marketing strategies, in particular marketing through social networks and e-mail, have shown their effectiveness in attracting users.

Innovation and interactive services Innovative technologies such as QR codes and chatbots play an important role in the interactivity of library services and providing a more user-friendly service.

Key words: marketing, information library, library services, marketing strategies, platforms, social networks.

For citation: Marjan B. Khudaybergenova. (2024) ‘Relevant aspects of improving marketing services in information and library activities, Inter education & global study, (8), pp. 213–223. (In Uzbek).

Bugungi kunda axborot-kutubxona muassasalari faqatgina bilim va axborotni saqlash va ulashish bilan chegaralanmay, ularning xizmatlaridan keng jamoatchilik foydalanishini ta’minlash, resurslardan samarali foydalanishni oshirish yo‘llarini izlash zaruratiga duch kelmoqda. Bunda marketing faoliyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Marketing strategiyalari axborot-kutubxona muassasalarining foydalanuvchilari bazasini kengaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va jamiyat bilan aloqani mustahkamlashga yordam

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

beradi. Shunday ekan, maqolada axborot-kutubxona faoliyatida marketing xizmatlarini takomillashtirishning ilmiy asoslari va dolzarb amaliy yo‘nalishlarini ko‘rib chiqamiz.

Axborot-kutubxona muassasalari o‘zlarining axborot manbalari, xizmatlari va imkoniyatlari haqida keng ommaga aniq, maqsadli va samarali ma’lumot yetkazishlari lozim. Marketing bu maqsadlarga erishishda asosiy vositalardan biridir. Marketing xizmatlari kutubxonaning strategik rejalarida katta ahamiyat kasb etadi, chunki ular foydalanuvchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish, ularning kutubxona xizmatlariga bo‘lgan talabini to‘g‘ri aniqlash va axborot manbalarini yetkazishda ko‘maklashadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari marketing faoliyatini yanada kuchaytiradi, kutubxona xizmatlarini yanada samarali, tezkor va keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy biznesni asosiy muammosi bu tovarlar tanqisligi emas, balki iste’molchilar tanqisligidir. Shu sababli zamonaviy marketing tizimining asosiy vazifasi – bu mijozlar uchun zarur bo‘lgan qiymatni (iste’mol qimmatini) yaratish va mijozlar bilan foydali bo‘lgan munosabatlarni shakllantirishdan iboratdir. Marketing bu ishlab chiqarilgan mahsulotni engil sotish san’ati emas, balki u iste’molchiga qimmatli bo‘lgan narsani berib, uni hayotini yaxshilashga yordam berishdir[1].

Axborot-kutubxona marketingini takomillashtirishning dolzarb yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi. Foydalanuvchi ehtiyojlarini tahlil qilish va segmentatsiya: axborot-kutubxona xizmatlarida foydalanuvchilarning talablarini chuqur tahlil qilish, ularning ehtiyojlari va xatti-harakatlarini segmentatsiya qilish marketing strategiyasining asosidir. Foydalanuvchilarni turli guruhlarga ajratish orqali ularga moslashtirilgan xizmatlarni taklif qilish kutubxona resurslaridan foydalanishni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqotchilar, talaba va o‘quvchilar kabi ma’lum guruhlar uchun alohida xizmatlar va kontent yaratish kutubxona imkoniyatlarini yanada oshiradi. Axborot xizmatlarini raqamlashtirish va raqamli platformalar joriy qilish: raqamlashtirish zamonaviy kutubxona marketingining ajralmas qismidir. Axborot-kutubxona muassasalari raqamli xizmatlarni keng joriy qilish orqali nafaqat foydalanuvchilarga oson va tezkor kirish imkonini yaratadi, balki raqamli platformalarda o‘z xizmatlarini faol reklama qilish imkoniyatini ham beradi. Onlayn kataloglar, elektron resurslar va mobil ilovalar orqali kutubxona foydalanuvchilari istalgan vaqtda kerakli ma’lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kontent marketing va sifatli axborot ta’minoti: axborot-kutubxona faoliyatida kontent marketingi foydalanuvchilarni jalb qilish va ularning qiziqishini uyg‘otishda muhim vositadir. Sifatli kontent yaratish, masalan, ma’lumotli maqolalar, infografikalar, video materiallar va interaktiv darsliklar orqali foydalanuvchilarni kutubxona resurslariga jalb qilish mumkin. Foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan talabini qondiruvchi kontent yaratish orqali kutubxona xizmatlari o‘ziga xos va jozibador bo‘lib qoladi.

Ijtimoiy tarmoqlar va maqsadli reklama kampaniyalari: ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda kutubxona marketingining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Kutubxona xizmatlarini keng jamoatchilikka yetkazishda Facebook, Instagram, Twitter kabi platformalar katta ahamiyatga ega. Kutubxonalar foydalanuvchilari bilan muntazam aloqa o‘rnatish, yangi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

resurslar va tadbirlar haqida ma'lumot yetkazish uchun ijtimoiy tarmoqlar orqali maqsadli reklama kampaniyalarini tashkil qilish samarador usullardan biridir. Bunda turli foydalanuvchi guruhlarini jalb qilish va kutubxona xizmatlaridan kengroq foydalanishga undash mumkin.

Marketing tadqiqotlarida ma'lum bir aniqlovchi rolni kutubxona faoliyat ko'rsatayotgan muhitni taxlil qilish o'ynaydi. U kam deganda uchta muhitda faoliyat ko'rsatadi: makromuhit, bevosita muhit va ichki muhit. Tashqi va ichki muhit kutubxonani ijtimoiy institut sifatida faolit yuritishiga katalizator bo'ladi yoki uni faoliyatini to'xtatishga ta'sir ko'rsatadi. Kutubxonani marketing tadqiqotlarida markaziy o'rinni, yuqorida aytib o'tilganidek iste'molchilarga ajratilgan. Bu esa kutubxona ko'rsatayotgan xizmat va mahsulotlarni sohalashtirish, ularni assortimentini va hajmini belgilash, aniq bir bozor segmentini belgilash imkonini beradi. Iste'molchilarni harakteristikasini tuzayotganda quyidagi parametrlarni e'tiborga olish lozim: ularni yashash joylari, demografik holati (yoshi ta'lumoti, kasbi va x.k.), ijtimoiy-psixologik faktorlar, (odatlari, ta'blari, harakterlari) mahsulotga (xizmatga) bo'lgan munosabatlari. Kutubxonani tashqi muhitini tadqiqot qilish, marketing tadqiqotlari yordamida amalga oshiriladi va hamkorlarni, raqobatchilarni va sohaviy bozorni o'rganish imkonini beradi.

Kutubxona xujjatlar fondini potensial to'ldiruvchilarni (kitob savosi tashkilotlari, nashriyotlar, audiovizual mahsulotlar ishlab chiqaruvchi firmalar va bosh.) raqobatbardoshliligi, ularni mutaxassislik darajasi, boshqa bozorga borish harajatlarini va boshqa tomonlarini o'rganadi. Ko'pgina kutubxonalarda, jumladan Rossiya kutubxonalarida shunday analitik-boshqaruv markazlar tashkil etilgan. Xozirda mavjud bo'lgan marketing bo'limlarini nomlanishi ko'proq ularni faoliyatlarini yo'nalishlari bilan bog'langan, masalan:

kutubxona marketingi;
innovatsiya va kutubxona marketingi;
kutubxona marketingi va innovatsiya-uslubiy faoliyat;
marketing va yangi texnologiyalar;
iqtisodiy tahlil va kutubxona marketingi;
marketing va koordinatsiya;
marketing va reklama;
marketing va pablik releyshinz;
marketing va bo'sh vaqt.

Kutubxonalarning bunday bo'limlari haqidagi nizomlarni tahlili ular uchun asosiy vazifa va ish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi[2].

Marketing – bu ikki yoki undan ortiq shaxslar yoki guruhlar o'rtasida qiymatga ega bo'lgan tovarlar yoki xizmatlar almashinuvi jarayonidir. Kutubxonada doimo ishtirok etadigan shaxslar orasida kutubxonachi ham bo'ladi. Marketing faqatgina reklama yoki targ'ibot bilan cheklanmaydi. Reklama yoki targ'ibot marketing jarayonining faqat bir qismidir. Marketingga mahsulot yaratish, narxlash va tarqatish ham kiradi. Marketing – bu

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

kutubxona va axborot mutaxassislari uchun muhim bo'lgan kompetentsiya sohalaridan biri sifatida tavsiflangan.

Keng ma'noda marketing tushunchasi bir qator jarayonlarni o‘z ichiga oladigan texnikalar to‘plami sifatida; foydalanuvchilarga kerakli vaqtda to‘g‘ri ma'lumotni taqdim etish falsafasi sifatida; mijozlarning axborot ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yondashuv sifatida hamda mijozlar markazida bo‘lgan xizmat sektorida mijozlarga qaratilgan marketing sifatida ta'riflanishi mumkin. Kutubxona va axborot xizmatlarini marketingi – bu kutubxona va mijozni qoniqtiradigan almashuvlar yaratish uchun kutubxona mahsulotlarini rejalashtirish, narxlash, targ‘ib qilish va tarqatish jarayonidir. Kutubxonalar axborot xizmatlarini targ‘ib qilishga majbur bo‘lib, jamiyat bilan mustahkam bog‘lanishni yaratishi, tendensiyalarni oldindan ko‘ra bilishi va veb-asosli axborot texnologiyalaridan foydalanishi kerak. Har bir kutubxonaning marketing harakatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: foydalanuvchilarga foydalanish uchun resurslarni sotib olish, resurslarning tegishli joyda mavjudligini ta'minlash, o‘quvchilarning vaqtini tejash, o‘z mahsulotlarini targ‘ib qilish orqali talabni yaratish va foydalanuvchilarning ehtiyojlarini eng kam xarajat bilan qondirish, shu tariqa “har bir o‘quvchiga uning kitobini” va “har bir kitobga o‘quvchini” topish uchun imkoniyat yaratish. Kutubxonalar axborot xizmatlarini foydalanuvchilarga yangi texnologiyalardan foydalanish, tendensiyalarni oldindan ko‘ra bilish uchun marketing qilishda muhim rol o‘ynaydi. Kompetentsiyalar kutubxona xizmatlarini targ‘ib qilishning ajralmas qismidir va buni kutubxona va axborot mutaxassislari e'tiborga olishlari zarur. Kutubxonachilar va axborot mutaxassislari elektron axborot resurslarining mavjudligini bilishi va ular kutubxona xizmatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi lozim. Ular internetdan foydalanish, veb-asosli elektron resurslar va onlayn axborot qidiruv texnikalaridan foydalanish bo‘yicha xabardorlikni oshirishda faol ishtirok etishlari kerak. Bugungi kunda raqamlashtirilgan resurslar foydalanuvchi jamoasini qondirishda zamonaviy rol o‘ynaydi[3].

AQShda axborot-kutubxona faoliyatida esa, marketingning rivojlanishi juda samarali va keng ko‘lamda amalga oshirilgan. Amerika kutubxonalarida marketing strategiyalari ko‘p yillar davomida shakllangan bo‘lib, ular kutubxonalarni zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar va foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashtirishga katta e'tibor qaratadi. Quyida AQSh kutubxonalari faoliyatida marketingning rivojlanishi va uning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

MATERIALS AND METHODS: "Family education on the heritage of ancestors; For a comprehensive study of the topic during the study of the topic "Women's power, rights and responsibilities" the following materials and methods were used: 1. "Literature review", "Books and scientific journals". Historical and modern information on family education. , women's rights and cultural heritage resources discuss prospects. Peer-reviewed research articles devoted to the role of women in the family, educational implications and the importance of traditional practices. There are specific examples from different cultures reflecting the role of women in family education and the transmission of ancestral knowledge.

DISCUSSION AND RESULTS: today, our Honorable President Sh.M.From the sides of Mirziyoyev, there is no doubt that the strong, consistent social protection policy for the socially vulnerable segments of the population, the emphasis on women, especially mothers with many children, will be an important factor in the process of raising and raising competent individuals who build the great future of our country.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

CONCLUSION: it seems that the system of family monasteries, which have become certain rules and obligations in the life of our ancestors, and the upbringing of a girl in this system have not lost its significance even today. In particular, it is important for all times to pay attention to family strength. The rich spiritual and cultural heritage of our ancestors continues to serve as a valuable resource at different edges of family and marriage, in preparing the younger generation for family and marriage, in forming and improving their spiritual, moral qualities.

Key words: value, national heritage, “Avesto”, pandoma, family, upbringing, spirituality, ethics, duty, responsibility.

For citation: Boymurodova T Gulzoda. (2024) ‘Family education in the heritage of ancestors: freedom, rights and duties of women.’, Inter education & global study, 8, pp. 315-324. (In Uzbek).

Oila jamiyatning asosini tashkil etadi. U kishilik jamiyatida insoniy oriyat va nomusni anglash, shu tuyg‘ularni idrok etishning hosilasidir. Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shuncha mustahkam bo‘ladi. Vatan erki va istiqlolining poydevori, oilaning mustahkamligi ijtimoiy-iqtisodiy omillargagina emas, balki ma’naviy omillarga ham chambarchas bog‘liqdir. Binobarin, o‘zbek oilalari ma’naviyatining tarixiy asoslarini oila va jamiyat, ma’naviy ruhiyat, an’analar, qadriyatlar, farzand tarbiyasi muammolarini istiqlol mafkurasi nuqtayi nazaridan qarab chiqish va baholash g‘oyat muhimdir.

Qadim zamonlardan boshlab, Turonzaminda xalq og‘zaki ijodi namunalari, Qur’oni karim va hadislarda, buyuk qomusiy olimlarimizning betakror, o‘lmas asarlarida oila masalalari, oilaviy munosobatlar tizimi talqin etilgan, maxsus tavsif etilgan.

Ana shunday ma’naviyatimizning qo‘hna sarchashmalaridan biri bo‘lgan, qadimgi Turon va Eronzamin xalqlarining mushtarak ma’naviy qadriyati hisoblanmish “Avesto” da ham insoniyat va uning taraqqiyoti bilan bog‘liq tasavvurlar, ma’naviy-ruhiy va axloqiy mezonlar, olamni, tabiatni bilishga bo‘lgan extiyoj va intilish, insondagi eng oliyjanob, pok fazilatlar ifodlanishi bilan bir qatorda, oila asoslari, tuzilishi, tarkibi, oila ma’naviyati, ota-onalarning oiladagi mavqelari, oilada ayol erki, burchi va xuquqlari yuksak ma’naviy va axloqiy chizgilar asosida tavsiflangan.

“Avesto”da patriarxal oila jamiyatning eng quyi bo‘g‘inini tashkil etilishi aytilib, u o‘z ichiga 4 avlod va 9 guruhni olganligi ta’kidlanadi.

Oila markazida oila boshlig‘i (kadxudo) turgan. Xo‘jalikni er va xotin boshqarib, oila davrasiga : ota-ona , er-xotin, farzand va nevaralar kirgan. Shuningdek oila tarkibiga : otaning aka-ukalari va opa singillari, aka-ukalarining bolalari va nevaralari ham kirgan. Lekin ona tomon qarindoshlar va ota tomondan opa-singillarning bolalari oila tarkibiga kiritilmagan. Chunki ular o‘z xonadonlarining oila a’zolari hisoblanishgan. Istisno tariqasida ota tomon aka-ukalarning qizi oilaning to‘la xuquqli a’zosi hisoblangan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Zardushtiylarning oila ta'limoti asosini hayotning davomiyligi, naslning aslligini ta'minlash eng avvalo oila qanday negizga qurilganligi masalasi tashkil etadi. Oilani tashkil etish esa dastavval nikoh bilan bog'liqdir. "Avesto"ning "Vendidod" qismida oila butunligini saqlash, nikoh tuzish tartiblari, nikohning bekor qilinishi sabablari va shartlari ancha batafsil bayon qilingan :

"- ikki kishi, xoh dindosh, xoh birodar, xoh do'st bir-birovi bilan nima xususda paymon bog'lasalar-biri ikkinchisining xonadonidan o'ziga xotin tanlasa, so'zsiz uning talabi qondirilishi lozim" yoki : «men bu so'zlarim bilan kuyov tanlamoqchi bo'lgan bolig'a qizlarga va siz ikki tanga ham nasihat qilaman. Mening o'gitlarimga quloq solinglar va uni haqiqatda xotirangizga jo qiling va o'z dinlaringizni topinglar-da, uni amalda joriy etinglar».

Bunga ko'ra nikoh zurriyod qoldirish uchun irodasi mushtarak ikki tanni qovushtiradi. U yigit va qizning bir-birini chuqur hurmat qilishiga asoslangan birligidir.

Qadimgi ajdodlarimizda balog'at yoshi 15 yosh hisoblanib, oila qurishga imkoniyati va qobiliyati bo'lgan har bir yigit oila qurish va o'zidan zurriyod qoldirishga majbur bo'lgan. Imkoniyati bo'la turib, uylanmay yurgan yigit badnom qilinib, temir kamar bog'lab yursa, balog'atga yetgan qiz bola umuman turmushga chiqishni istamasa, qopga solinib yigirma besh darra kaltaklanish bilan jazolangan va darmongoh huzuridagi dori tayyorlash korxonasiga ishga jalb etilgan. "Kimning xotini bo'lsa, u xotinsiz va dunyodan farzandsiz o'tayotgan kimsadan yaxshiroqdir ".

Lekin oila masalasida yoshlar erki paymol qilinmagan. Qiz bolani turmushga berish ota-ona izmida bo'lsa ham, nikoh oldidan uning roziligi so'ralgan. Shuningdek, "Kadxudo(er), kadbonu(xotin) mashvaratisiz, roziligisiz, qizini erga berish huquqiga ega bo'lmagan" . Bu o'rinda oila ahlligi, yaqinlar o'rtasidagi iliq munosobatlar, o'zaro hurmat, xususan ayollarga ehtirom va ular erkini himoya qilish zarurligi yuksak axloqiy tamoyil sifatida e'zozlangan :

"- Qo'y, nikohga intiq bo'lgan g'ayratli qizlar,
So'rasinlar zor-intizor kutgan kunlarin
Xonadonin bir bahodir sohibini ham" ...

Ota-onalar voyaga yetgan qizlarining turmush qurish uchun bergan roziligini olgach, ularga sep berishlari majburiyatlari "Vandidod"da o'z aksini topgan : "Uning qalbini pokiza e'tiqod va muqaddas qonunga moyil qilsin, yaxshi yostiqdoshga intiq qilsin. Yosh qizaloqni qaddi-qomati, rangi-ro'yi har jihatdan benuqson bo'lsin. O'n besh yoshli qiz yaxshi obro'-e'tiborga, shan' va oltin zirakka ega bo'lib, u yaxshi e'tiqodli erga turmushga berilsin.

"Avesto"da zardushtiy e'tiqoddagi ajdodlarimizning oila erki, qizlar tarbiyasi, xotin-qizlar haq-huquqi, izzat-nafsini himoya qilish xususidagi qarashlari ham o'z ifodasini topgan. Xotin-qizlar barcha ishlarda, jumladan, ibodat, diniy farz va sunnatlarni bajarish, udum va odatlarni ado etishda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lgan. Ibodatni o'z xohishiga ko'ra manzilida yoki ibodatxonada bajargan.

Nikohga va oila qurishga tayyorgarlik jarayonida qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Qiz balog'atga yetguncha o'z davrining barcha hunarlarini bilishi, chorva

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

mollariga qarash, parvarishlash, uy ro‘zg‘or yumushlarini mukammal tarzda ado etishi, pokiza,ozoda yurishi shart bo‘lgan.

Oilada qizlarga hunar o‘rgatish, o‘qitib bilim berish qat’iy yo‘lga qo‘yilgan. Zeroki, o‘qimishli, hunarmand qiz o‘z kasbi, bilimi bilan dastlab ota-ona xonadonini obod, saranjom qilib yursa, jufti halolinikiga borganda, oilani boshqarish bilan birga kelajak avlod ta’lim va tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanishiga to‘g‘ri kelgan. Shu tariqa qiz bolalarga yungdan ip yigirish, urchuq va charxda ishlash, matolar to‘qish, namat va kigiz bosish, liboslar tikishdan tashqari, o‘g‘il bolalar bilan birga kurash tushish, otda chopish, qilichbozlik va o‘z raqibidan o‘zini qalqonda himoya qila bilish, ot bilan har xil to‘siqlardan, balandliklardan o‘tish, suvda suzish, uzoqqa yugurish, nayza irg‘itish, kamondan o‘q otish va boshqa jismoniy-harbiy malakani egallash ham majburiy bo‘lgan.

O‘g‘il bolalar bilan bir qatorda chuqur bilim va hunar sirlarini egallagan qiz bolalar, keyinchalik ba’zi davlat lavozimlariga ham ega bo‘lganlar. Pandnomalar va Bexustun qoya yozuvlarida Shopurduxt va Roduxt ismli zodagon ayollarning davlat boshqaruvida ishtiroki to‘g‘risida zikr qilingan bo‘lib, bu ham fikrimizning tasdig‘i sifatida, zardushtiylar jamiyatida davlat boshqaruv ishlarida ayollarning ishtirok etishi ularning “Avesto” qoidalari asosida qonuniy huquqlarining kafolatlanganligidan dalolat beradi.

Zardushtiylarning muqaddas o‘simligi hisoblangan Humni terish va undan sharbat tayyorlash ham faqatgina pokiza 15 yoshgacha bo‘lgan bokira va bolig‘a qizlar zimmasiga yuklatilgan : “Hoh ular tog‘ cho‘qqisida o‘ssinlar, hoh daralar tubida; hoh daryo sohillarida. Biz tanglikda va pokiza qizlar bandida bo‘lgan Humlarni-da olqishlaymiz” .

Bu yo‘nalishda qiz bolaning ham ma’naviy, ham jismoniy sog‘lom, barkamol bo‘lishi, birinchidan oilaning mustahkam, xonadonning farovon bo‘lishini ta’minlasa, ikkinchi tomondan sog‘lom farzandlarning dunyoga kelishiga zamin yaratgan bo‘ladi.

Zardushtning o‘z qiziga qarata «..Ey Puruchisto, .. Ey Zardushtning bolig‘a qizi ! Mazda Ezgu niyat va Ashah haqiqatga inongan zotni senga tiriklikning yo‘ldoshi aylaydi. Shunday ekan, o‘z aqling va idrokingdan savol ayla, .. Hushyorligingni ziyoda qil !» deya xitob qilishi barcha qizlarga o‘rnakdir.

Prof. H.Homidov «Avesto»da turmushga chiqish va uy bekasi bo‘lishning 5 turi: - podshoh xotin, ayuq xotin,chokar xotin, o‘zboshimcha xotin, sita xotinlar ko‘rsatilganligini aytib o‘tib, ularning har biriga qisqacha izoh beradi. Bu izohlarda nikoh tuzish va oila qurishdagi huquqiy holatlar, oila tuzilishi va shakllari tavsiflanganligi diqqatga sazavordir.

Shuningdek nikohni bekor qilish tartiblariga to‘xtalib o‘tib, arzimas bahonalar bilan nikohni buzish, bekor qilish jamiyat tartibining susayishiga olib kelinishini alohida qayd qiladi. “Avesto”da mazdoparastlarning yaqin qarindoshlar va o‘zga dindagilar bilan oila qurishi zardushtiylik odat, qonuni bo‘yicha qat’iyan man etilganligi qayd etilgan.

Kimki, bu qonunni buzsa o‘lim jazosiga mahkum etilgan. Zardusht Ahura Mazdadan “Serfarzand xonadonga nima berasan ?” deb so‘raganida u : “Bunday odamlarni o‘z himoyamga olaman” deb javob beradi. Shuning uchun ham sernufuz oilalar va homilador ayollar jamoa tomonidan ijtimoiy himoya qilingan. Ko‘p bolali oilalarga davlat xazinasidan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

nafaqa tayinlangan va bir yo‘la 2-3 tadan egiz farzand tuqqan ayollarga imtiyozlar berilib, sigir yoki tuya bilan mukofotlangan.

Hozirgi kunda ham muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun olib borilayotgan kuchli, izchil ijtimoiy himoya siyosati, ayollarga ayniqsa ko‘p bolali onalarga bo‘lgan e’tibor mamlakatimizning buyuk kelajagini quruvchi barkamol shaxslarni tarbiyalash va voyaga yetkazish jarayonida muhim omil bo‘lishi shubhasizdir.

“Avesto”da zurriyodning pokizaligi, naslning sog‘lomligi xususida qayg‘urilib, bunga erishish yo‘li sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish, jamoat, oila, shaxsiy ozodalik, gigiyenaga rioya qilish, shuningdek oila qurish jarayonida har jihatdan benuqson, sog‘lom kelinlar tanlash uqtiriladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarning asosini “har tomonlama yetuk, barkamol, sog‘lom shaxsni tarbiyalash” masalasi tashkil etar ekan, ajdodlarimizning 3 ming yil ilgari, bu a’molga yetishning yo‘llari, qoidalarini ishlab chiqib, davlat va jamiyatning poydevori hisoblanmish oila negiziga qo‘yganliklari g‘oyatda qadrlidir :

« Menga barkamol va dinogoh, vatansevar va anjumanoro, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag‘ishla. Toki ular manzil, shahar, o‘lka va uning nom hamda ovozasini ko‘tarsinlar” .

Qadimda yaratilib, asrlar osha sayqal topgan bu o‘gitlar keyingi zamonlarda yangicha ta’limot ta’sirida muayyan o‘zgarishlarga uchrab, ularning mazmunan yaqin variantlari paydo bo‘lganini ko‘rish mumkin. Jumladan, Kaykovus “Qobusnoma”da: “xotin olsang ulug‘ salog‘lig‘ xonadondin xotin talab qilg‘il... Xotin kamolg‘a yetg‘on, oqila bo‘lg‘on...bo‘lsin” desa buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur o‘z «Tuzuklar”ida : «O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim” deya ibratli mulohazalarini bayon etgan. Ko‘rinib turibdiki, barcha zamonlarda ham ajdodlarimiz xalq va millatning sog‘lom, jisman va ma’nan barkamollligi xususida qayg‘urishgan.

Qadimgi ajdodlarimiz nasl sog‘lomligining irsiy jihatlarini ham yaxshi bilgan ko‘rinadi. Shu maqsadda ular yaqin qarindosh-urug‘lar, ya’ni aka-uka, opa-singillar farzandlarining o‘zaro nikohga kirishiga aslo yo‘q qo‘ymaganlar. Bunday nikoh naslning, qonning buzilishiga, nuqsonli bolalarning tug‘ilishiga olib keladi degan aqidaga qat’iy amal qilganlar. “Vendidod»da bu holatlar talqiniga maxsus fargardlar bag‘ishlangan.

«Avesto»da qattiq qish kelib , barcha tirik jonzotlarning qirilib ketish xavfi tug‘ilganda shoh Jamshid tangri buyrug‘iga ko‘ra , yer ostiga shahar-var lar qurganligi va bu manzilgohlarga «Ahriman nafasi tekkan», deb har xil kasalliklarga chalingan, nuqsonli kishilar va jonzotlarni kiritmaganligi tasvirlanadi : «… zinhor u yerga bukrilar, pushtsizlar, g‘o‘llar, duyasana (haromzoda bolalarning ota-onasi), dayvak, kasvish, vizborish (tanasi va badanida illati bor kishilar) , so‘yloq tishli, umuman Ahriman o‘z dog‘ini qoldirgan biror bir kimsani kirita ko‘rma !»

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Zardushtiylarda ayol erkini muhofaza qilish uning sog‘ligini asrash ishiga ham jiddiy e’tibor berilgan. Jumladan bolaning sog‘lom tug‘ilishi uchun homilador ayol ortiqcha hayajonlanmasligi, iztirobga tushmasligi, faqat halol va toza luqma yeyishi lozim deb hisoblangan.

Chunki “Avesto”ning “Yasht”larida insonning qilgan halol mehnati evaziga yaratilgan noz-ne’matlar, ziroatlar va mo‘l-ko‘l hosil rizqu-nasiba, kuchli aql va pok ruhning manbaidir deyiladi. Homilador ayolga mutassil ravishda xurmo, anor, uzum, anjir kabi mevalar iste’mol qilish buyurilgan. Bolani ona ko‘kragidan ajratgach, unga sigir va tuya sutini uzluksiz ichirib turish farzandlarning sog‘lom bo‘lib o‘sishi uchun garov ekanligi uqtiriladi.

Sog‘lom avlodning tug‘ilishi uchun ota-onalarning sharob ichmasligi, bang, ya’ni hushdan ketkizuvchi, kayf qildiruvchi boshqa giyohvand moddalarni iste’mol qilmasligi lozimligi ta’kidlanadi. Aks holda pushtning zaiflashib, urug‘ning buzilishiga, naslning sog‘lomligiga putur yetkazilishiga olib kelinishi uqtiriladi.

Shuningdek, «Avesto»da oilaning mustahkamligini ta’minlaydigan asosiy aqoidlardan biri bu sadoqat va o‘zaro ishonch ekanligi ta’kidlanib, er-xotinning bir-biriga xiyonati qattiq la’natlangan, begona erkak bilan juftlashgan ayol badnom qilinib, jazolangan va nikohdagi eri uchun “harom” hisoblangan : “Ey jodugar xotin, yo‘qol ! Ey badkor xotin-kaxovariza, yo‘qol!”.

“Avesto”ning ko‘pgina qismlarida zardushtiylik ahkomlariga asoslangan holda tuzilgan mustahkam oilalarga homiylik va g‘amxo‘rlik qiluvchi ilohlar ta’rifi keltiriladi. Shu ilohlardan biri sifatida Ardvisura Anaxita tavsiflanadi. Ardvisura alqovida u qaddi–qomati kelishgan, bo‘ychan, ko‘kraklari bo‘liq, salabotli go‘zal qiz, goh esa uch yuz babr mo‘ynasidan tikilgan po‘stin kiygan salobatli ayol sifatida namoyon bo‘ladi.

Ardvisura Anaxita qudratli, pokiza, yuksak axloq va bokiralik ramzi hamdir. Amudaryoning va dunyo suvlariga ezgu homiyligidan tashqari uning boshqa sifatlari ham bor. Ular yoshlar, ayniqsa, qizlarning axloqi, ayollar baxti, iymonlilarga saodat va omad ato qilish, onalar doyasi, tug‘ruqni osonlashtirish, chaqaloqlarni omon saqlash hamda farzandlarni ko‘paytirish va boshqalar. Binobarin, Anaxitaning ma’naviy kamoloti, avvalo, inson zotini asrashga qaratilgan muruvvatida namoyon bo‘ladi va u yovuz kimsalarning insonni nobud qilishdek tubanligiga qarshi qo‘yiladi. Vendidodning 15–fargardida ana shunday qabih harakat qattiq qoralanib, uning jazolari bayon etilgan.

Jumladan, «agar biror er balog‘atga yetgan qiz yoxud juvon bilan hoh turmushga chiqqan, hoh chiqmagan bo‘lsin, aloqa qilsa va o‘sha qiz yoki juvon homilador bo‘lgach, odamlardan nomus qilib, tiriklik mevasi bo‘lmish bachadondagi bir parcha go‘shtni nobud qilsa», buning jazosi so‘ralganda Axura Mazda shunday javob beradi: «Agar o‘sha ayol odamlardan nomus qilib bachadondagi tiriklik mevasini nobud qilsa, odam o‘ldirish gunohi ayol va erning gardanidadir. Ular oshkora qatl etiladilar».

Bu o‘rinda go‘dakni yo‘q qilish eng razil gunoh sifatida qoralanadiki, bu umumbashariy qadriyat bo‘lib, inson xilqati hamma narsadan ustun qo‘yiladi. Anaxita ana shu xilqatning tolmas homiysidir.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Agar chaqaloqni bir necha kimsalar nobud qilishsa, shunday oliy jazo ularning hammasiga tatbiq etilishi ta'kidlanadi. Yuqoridagi fikrlarning davomida agar tug'ilajak go'dak homila bir kampir yordamida tushirilib, uzoqlarga eltib tashlansa, uning yuki er, ayol va kampir zimmasida ekani alohida uqtiriladi. Bu hol axloqqa zid harakat sifatida qattiq qoralanadi.

Muhimi shundaki, zardushtiylarda homiladorni himoya qilish har bir er uchun burch, axloqiy me'yor sanalgan. Xilqati pok Anaxita ana shu himoyaning yalovbardori, barcha ayollarning ko'kragida sut paydo qiluvchi va erkaklarni poklikka undovchi ma'budadir.

Shuningdek, Anaxitaning fazilatlaridan yana biri pok axloq asosidagi oila, er-xotin munosabatida ko'rinadi. U oila barqarorligini ta'minlovchi yosh qizlarni orzusidagi munosib yigitga yetishtiruvchi, vafodor va go'zal ayollarning erlari visoliga musharraf qiluvchi hamdir.

Zero, imonli er xonadonidagi ayolning Anaxitadan o'z pushtiga o'g'il farzand ato etishini iltijo qilishi ham ma'budaning farzandlar iqboli va osuda to'q hayotining homiysi bo'lganidan guvohlikdir. Umuman, Anaxita bir xil zotli to'rt oq oti va ezgulik yo'lidagi harakatlari bilan hayot, poklik, xush axloq, yaxshilik dushmanlari bo'lmish devlar va boshqa yovuz kuchlarga qarshi turadi va razolat ustidan yaxshilik g'alabasini ta'minlashga erishadi.

"Avesto"da zikr etilgan ilohalardan biri Chistadir. Chista–pahlaviyda "farzang". Ma'nosi-bilim, donish, ogohlik, farzonalik. Ilmu donish ilohasi. O'n oltinchi yasht "Din yasht" da Chistaga keng ta'rif berilgan, uning sha'niga olqish va madhiyalar o'qilgan. "Din yasht"da ilm-fan, bilim va donishmandlik ilohasi Chistaning madh etilishi shuni ko'rsatadiki, zardushtiylik dini rahnamolari va peshvolari ilm-fan va dinning uyg'unligi va bir butunligini ta'kidlaganlar.

Zardusht qizining ismi ham Puruchista deb atalashi bejiz emas. Mehr yashtda Chista "oq libosli" sifati bilan tavsiflanadi. Shu o'rinda zardushtiylik dini ustoz va murabbiylari dastur va mo'badlarining ham doimo oq libos kiyib yurishlari Chistaga, ilm-fanga bo'lgan hurmat va ehtirom ramzi sifatida izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini har doim ta'minlashga alohida e'tibor beradi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib, 1995-yil 6-mayda BMTning "Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyasiga qo'shildi. Shuningdek, "Onalikni himoya qilish to'g'risida", "Mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to'g'risida"gi konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr qabul qilingan "O'zbekiston – 2030 Strategiyasi"da ham 1.3 yo'nalishi 25-maqsadida Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash uchun 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari qayd etilgan.

Ko‘rinib turibdiki, ajdodlarimiz hayotida ma’lum qoida va ahkomlarga aylangan oilaviy munosobatlar tizimi va shu tizimdagi qiz bola tarbiyasi hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Xususan oila mustahkamligiga e’tibor berish barcha zamonlar uchun muhimdir.

Ajdodlarimizning boy ma’naviy-madaniy merosi oila va turmushning turli qirralarida, yosh avlodni oila va nikohga tayyorlashda, ularni ma’naviy, axloqiy xislatlarini shakllantirish va takomillashtirishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qilaveradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Авеста. Избранные гимны. пер. с авестийского И. М. Стеблин – Каменского. – Душанбе: Ирфон. 1990.
2. «Авесто».Тарихий-адабий ёдгорлик. А. Маҳкам таржимаси –Т.: Шарқ нашриёти-матбаа концерни. 2001.
3. Зороастрийские тексты. -Санкт-Петербург: «Нева», «Лесной сад». 1998.
4. Ҳомидов Ҳ. «Авесто» файзлари. -Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти. 2001.
5. Жабборов И. Антик маданият ва маънавият хазинаси. -Т.: «Ўзбекистон». 1999.
6. Абдуллаев, К. Ф. Процесс воспитания и обучения у зороастрийцев / К. Ф. Абдуллаев // Сборники конференций НИЦ Социосфера. – 2013. – № 31. – С. 140-147.
7. Абдуллаев, К. Ф. Истоки начального образование у зороастрийцев / К. Ф. Абдуллаев // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2011. – № 7. – С. 116-119. – EDN OBSJYN.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Boymurodova Gulzoda Toshtemirovna**, professor [**Боймуродова Гулзода Таштемировна,** профессор], [**Boymurodova Gulzoda Toshtemirovna,** professor]; manzil: O’zbekiston, Buxoro sh., Piridastgir ko‘chasi 2-uy [адрес: Узбекистан, г. Бухара, Улица пиридастгир, 2.], [address: Uzbekistan, Bukhara sh., Piridastgir Street 2.]; ORCID: https://orcid.org/0009-0009-3086-7258; gulzodaboymurodova1976@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

3-SINF O ‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY TAFAKKURNI FANLARARO MEDIATA’LIM VOSITALARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI

© G.I. G‘aniyeva[1]✉
[1]Termiz davlat pedagogika institutii, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada 3-sinf o‘quvchilarida ijtimoiy tafakkurnu shakllantirishda mediata’lim vositalaridan foydalanish xususida so‘z yuritilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarbiyaning vazifalari jamiyatning ehtiyojlari bilan belgilanishi, bu ehtiyoj tarbiyaning umumiy maqsadidan kelib chiqisi, bu maqsad o‘zida ma’naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan, uyg‘un rivojlangan shaxsni shakllantirishdan iboratligi xususida fikrlar bildirilgan. Ijtimoiy tafakkurni mediata’limdan foydalangan holda olib borish bu o ‘quvchilarning tezkorligini hamda bugungi kun axborotlashuv jarayoniga mos holda ulg‘aytiradi. Uzluksiz ta’lim jarayonida o ‘quvchilarni axborot texnologiyalari bilan tarbiyalash yurtimizda va xorijda juda keng o‘rganilgan bo‘lib, ular turlicha nazariyalar, kontseptsiyalar, yondashishlar, yo‘nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Maqolada bu yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilgan.

MAQSAD: uzluksiz ta’lim jarayonida o ‘quvchilarni axborot texnologiyalari bilan tarbiyalash yurtimizda va xorijda juda keng o‘rganilgan bo‘lib, ular turlicha nazariyalar, kontseptsiyalar, yondashishlar, yo‘nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Maqolada bu yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: o‘quvchilarida ijtimoiy tafakkurni fanlararo mediata’lim vositalari asosida shakllantirish metodikasini takomillashtirish tadqiqoti jarayonida adabiyotlar bilan ishlash, suhbat, kuzatish hamda qiyosiy tahlil metdlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: bugungi kunda dunyo miqyosida tabiiy fanlarni mediata’lim vositalari asosida o‘qitishni takomillashtirish, xalqaro baholash dasturlari, darsda o‘quvchilarning tabiiy–ilmiy savodxonligini orttirish sohasida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. BMTning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha “Ma’rifiy, ma’naviy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish to‘g‘risida”gi bitimida dunyo miqyosida ta’lim oluvchilarni o’qitish sifatiga nisbatan keng sharoitlar yaratish, ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy–tadqiqot ishlari olib borish alohida ahamiyatga ega.

XULOSA: tabiiy fan o‘quvchilarga ilmiy-tabiiy dunyoqarashni shakllantiradi, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularga dunyoviy jarayonlar bilan hamnafas

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

bo‘lish va u bilan hamkorlikda ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bu esa, PISA, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishga imkoniyat yaratadi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy–ilmiy bilimlarni yuksak darajada va kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish taqozo etiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarbiya, mediata’lim, ijtimoiy ong, tafakkur, barkamol shaxs.

Iqtibos uchun: G‘aniyeva G.I. 3-sinf o ‘quvchilarida ijtimoiy tafakkurni fanlararo mediata’lim vositalariasosida shakllantirish metodikasi. // Inter education & global study. 2024. №8. B.325-332.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ 3 КЛАССА НА ОСНОВЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ МЕДИАОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ

© Г.И. Ганиева[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье речь идет об использовании медиаобразовательных средств в формировании социального мышления у учащихся 3-х классов. Высказывались также мнения о том, что задачи социального воспитания определяются потребностями общества, что эта потребность вытекает из общей цели воспитания, что цель состоит в формировании гармонично развитой личности, воплощающей в себе духовное богатство, нравственную чистоту и физическое совершенство. Привлечение социального мышления с помощью медиаобразования повысит скорость этих подростков, а также соответствие сегодняшнему процессу информатизации. Воспитание учащихся с помощью информационных технологий в процессе непрерывного образования широко изучалось в нашей стране и за рубежом, основываясь на различных теориях, концепциях, подходах, направлениях. В статье особое внимание уделено этим направлениям.

ЦЕЛЬ: воспитание учащихся с помощью информационных технологий в процессе непрерывного образования очень широко изучалось в нашей стране и за рубежом, основываясь на различных теориях, концепциях, подходах, направлениях. В статье особое внимание уделено этим направлениям.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования совершенствования методики формирования социального мышления у учащихся на основе междисциплинарных медиаобразовательных средств использовались методы работы с литературой, беседы, наблюдения, сравнительного анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: сегодня в мировом масштабе возрастает необходимость проведения масштабных реформ в области совершенствования преподавания естественных наук на основе средств медиаобразования,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

международных оценочных программ, повышения естественнонаучной грамотности учащихся на уроке. В соглашении ООН по вопросам образования, науки и культуры" о ввозе материалов образовательного, духовного и культурного содержания " особое значение придается научно–исследовательской работе по созданию широких условий для качества обучения обучающихся во всем мире, внедрению в образовательный процесс современных инновационных технологий.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: естественные науки формируют у учащихся научно-естественное мировоззрение, развивают исследовательские навыки и дают им возможность идти в ногу с мирскими процессами и участвовать в сотрудничестве с ними. Это дает возможность успешно участвовать в международных исследованиях, таких как PISA, TIMSS. В связи с этим требуется обучение младших школьников естественно–научным знаниям на высоком уровне и на основе компетентностного подхода.

Ключевые слова: социальное образование, медиаобразование, общественное сознание, мышление, всесторонне развитая личность.

Для цитирования: Ганиева Г.И. Методика формирования социального мышления у учащихся 3 класса на основе междисциплинарных медиаобразовательных средств. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 325-332.

METHODS OF FORMING SOCIAL THINKING IN 3RD GRADE STUDENTS BASED ON INTERDISCIPLINARY MEDIA EDUCATIONAL TOOLS

© Gulxayyo I. G‘aniyeva[1]✉
[1]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article is about the use of media educational tools in the formation of social thinking among 3rd grade students. Opinions were also expressed that the tasks of social education are determined by the needs of society, that this need follows from the general purpose of education, that the goal is to form a harmoniously developed personality embodying spiritual wealth, moral purity and physical perfection. Engaging social thinking through media education will increase the speed of these teenagers, as well as compliance with today's informatization process. The education of students using information technology in the process of continuing education has been widely studied in our country and abroad, based on various theories, concepts, approaches, and directions. The article pays special attention to these areas.

AIM: the education of students using information technology in the process of continuing education has been widely studied in our country and abroad, based on various theories, concepts, approaches, directions. The article pays special attention to these areas.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

MATERIALS AND METHODS: in the course of the study of improving the methodology of forming social thinking in students based on interdisciplinary media educational tools, methods of working with literature, conversation, observation, and comparative analysis were used.

DISCUSSION AND RESULTS: today, on a global scale, there is an increasing need for large-scale reforms in the field of improving the teaching of natural sciences based on media education, international assessment programs, and improving the natural science literacy of students in the classroom. The UN Agreement on Education, Science and Culture" on the import of educational, spiritual and cultural materials" attaches special importance to research work to create broad conditions for the quality of education for students around the world, the introduction of modern innovative technologies into the educational process.

CONCLUSION: natural sciences form students' scientific and natural worldview, develop research skills and give them the opportunity to keep up with worldly processes and participate in cooperation with them. This makes it possible to successfully participate in international studies such as PISA, TIMSS. In this regard, it is necessary to teach primary school children natural science knowledge at a high level and on the basis of a competency–based approach.

Key words: social education, media education, social consciousness, thinking, well-rounded person.

For citation: Gulxayyo I. G‘aniyeva. (2024) ‘Methods of forming social thinking in 3rd grade students based on interdisciplinary media educational tools’, Inter education & global study, (8), pp. 325-332. (In Uzbek).

XXI–asrda jahon miqyosida ta’limning barqaror taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030–yilgacha belgilangan Xalqaro ta’lim konsepsiyasida sifatli ta’lim olish va ijodiy qobiliyatni rag‘batlantirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi[1]. Ta’limni globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlariga moslashtirishda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida o‘quvchi yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning mobil va ta’sirchan modellarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va o‘quv materiallarini fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida egallashda kasbiy kompetentlikni orttirish muhim ahamiyat hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta’lim–tarbiya tizimini isloh qilish, ilmiy kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, iqtidorli yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda integratsiyalashgan ta’limni keng qamrovda yo‘lga qo‘yish sohasida keng ko‘lamli chora–tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ta’lim va fan sohasida innovatsiyalarni rivojlantirish, xususan,

[1] Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning forall (Word Education Forum, 19–22 may 2015y, Incheon, Republic of Korea).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, malakali kadrlar tayyorlash siyosatini tizimli amalga oshirish"[2] ustuvor vazifa sifatida belgilanib, ta'limning bosh g'oyasi, bu fan va uning doimiy rivojlanishidir. Mamlakatimizda ilmiy ijod erkinligi, ilmiy–tadqiqotchilik faoliyati bilan shug'ullanish, o'quvchi yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va qo'llab quvvatlash borasida bir qator me'yoriy hujjatlarni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonning demokratik taraqqiyot yo'liga o'tishi jamiyatda ijodiy, mustaqil, tanqidiy fikrlaydigan, jamiyat hayotida faol ishtirok eta oladigan shaxsga ega bo'lishi zarurligini ta'kidladi. Bu jarayon oldimizga muhim vazifa – fuqarolik jamiyatini rivojlantirish vazifasini qo'ymoqda. Biroq, bu missiyaning muvaffaqiyati jamiyatdagi axborot madaniyati darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Bu zamonaviy pedagogika fanining dunyoda axborotlashtirish va demokratlashtirish jarayonlari bilan bog'liq holda sodir bo'layotgan muhim o'zgarishlar kontekstida shaxsni shakllantirish va tarbiyalash muammolarini rivojlantirishga e'tiborini tushuntiradi va shu bilan birga, axborot vositalarining pedagogik salohiyatidan foydalanishni hisobga olgan holda o'qitish, ta'lim va shaxsni rivojlantirishning an'anaviy tashkil etilgan tizimlari, mazmuni, uslublari va texnologiyalarini qayta ko'rib chiqish zarurligini dolzarblashtiradi.

Ta'limda axborotlashtirish o'z asoslarini qayta yozmoqda, o'qitish usullari, mazmuni va boshqaruv tizimlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga, oldimizga yangi vazifalarni fikrlashning yangicha yondashuvlarini izlash va texnokratik rivojlanish modellaridan chekinish zarurati qo'ymoqda.

Axborot oqimining kuchayishi va uning shaxsga ta'siri bilan mediata'limni nazariy tushunish va bu sohadagi o'zgarishlarni tizimlashtirish zarurati oydinlashmoqda.

Fuqarolik jamiyatida shaxs ijtimoiy sohada muloqotning asosiy subyekti sifatida harakat qiladi. Uning o'z-o'zini anglashi ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qilish orqali muloqot orqali shakllanadi va rivojlanadi. Muloqot sifati o'zaro aloqada bo'lgan shaxslarning axborot bazasi va ta'lim darajasi bilan belgilanadi. Axborot madaniyatini rivojlantirishning ma'lum darajasiga ehtiyoj bor, bu yerda asosiy ko'rsatkichlar va komponentlar axborot savodxonligi va axborot kompetensiyasi hisoblanadi.

Axborot madaniyati jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan, axborot sohasidagi inson faoliyatini belgilovchi, faollashtiradigan va amalga oshiradigan mexanizmlar majmuidir. Axborot o'zaro ta'siri tobora kuchayib borayotgan va muloqot shakllari xilma-xil bo'lib borayotgan zamonamizda, axborot madaniyatining rivojlanishi jamiyat hayotining turli ishtirokchilari o'rtasida muloqotni o'rnatishga, shuningdek, insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga va jamiyatni demokratlashtirishga yordam beradi. Ushbu vazifalar jamiyatda tizimli munosabatlarni yaratuvchi turli usullar, texnologiyalar va institutlarni o'z ichiga olgan fuqarolik kommunikatsiyalari doirasida eng to'liq amalga oshiriladi.

[2]Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. –Toshkent: G'.G 'ulom nomidagi NMIU, –70 b.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Fuqarolik kommunikatsiyalari sohasida axborot vositalari ijtimoiy-kommunikativ institut sifatida jamiyat axborot madaniyatining dunyoqarashi, kognitiv jarayonlari, axloqiy va axloqiy me'yorlari, psixologik xususiyatlari, ijtimoiy o'zaro ta'siri va texnologik imkoniyatlari kabi ko'plab jihatlari bilan belgilanadi.

O'quv jarayoni sharoitida ommaviy axborot vositalari kommunikator va qabul qiluvchining o'zaro ta'siri orqali o'zlarining pedagogik imkoniyatlarini ochib beradi. Bu jarayon kasbiy ko'nikmalarni, insonparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy o'zaro munosabatlar tajribasini rivojlantirishga yordam beradi.

Tez o'zgarishlar va innovatsiyalar sharoitida ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning zarur elementiga aylanadi. Bu malakali mutaxassislarni shakllantirishga va umuman shaxsning rivojlanishiga hissa qo'shadi, bu ommaviy axborot vositalari va ta'lim tuzilmalarini muvofiqlashtirilgan va jadal rivojlantirish istagi muhimligini tasdiqlaydi.

Respublikamizda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, uning mazmunini boyitish, ta'lim muassasalarining faoliyatini samarali va hayotiy maqsadlarini ko'zlagan tarzda yodga qo'yish, ularni eng zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan jihozlash hamda ta'lim jarayonini malakali pedagoglar bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda [4]. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy maqsadi mamlakatimizning jahonning yetakchi davlatlari yoshlari bilan raqobatlasha oladigan, zamon talablariga mos yuksak intellektual salohiyatli, chuqur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lgan, mustaqil fikrlay oladigan barkamol avlodlarni voyaga yetkazish hisoblanadi. Buning uchun esa, mamlakatimizda barcha shart–sharoitlar yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–yil 30–iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart–sharoitlami tubdan yaxshilash chora–tadbirlari to'g'risida"gi PF–5099–son Farmoni ham axborot–kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari ko'rsatishning barcha sohalariga joriy etish, axborot xizmatlarini ilgari surish, oshirish, xalq bilan muloqot qilish hamda aholining kundalik muammolarini joylarda "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish va amalga o'z vaqtida hal qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, axborot texnologiyalarining raqobatdosh, shu bilan birga yuqori unumdorlikka ega tarmog'ini shakllantirish uchun mamlakatning fanda, ta'lim sohasidagi salohiyatidan yetarli darajada foydalanish, respublikamizning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishda xalqaro axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) bozoridagi o'rnini kuchaytirish borasidagi ustuvor vazifalarga muvofiq holda malakali kadrlar tayyorlash mazmunini qaytadan ko'rib chiqish, xalqaro standartlarga javob beradigan oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun lozim bo'lgan shart–sharoitlar yaratish masalalariga alohida to'xtalgan [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018–yil 5–sentabrdagi 3931–son qarori bilan tasdiqlangan "2018–2021–yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora–tadbirlar dasturi"[0] tabiiy fanlar fanidan Milliy o'quv dasturini ishlab chiqishda Singapur, Koreya Respublikasi, AQSh va Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi hamda Angliya, AQSh, Estoniya,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Latviya davlatlarining hamda UNICEF tashkiloti ekspertlari bilan hamkorlikda ish olib borildi. O‘rganilgan tajribalar va amaldagi o‘quv –me’yoriy hujjatlarining tanqidiy va qiyosiy tahlillari, amaliy–ilmiy tadqiqotlar natijalari, shuningdek, xalqaro ekspertlar, mahalliy yetakchi olimlar, amaliyotchi o‘qituvchilar va metodistlar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar, takliflari va tavsiyalari asosida umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi.[3]

Tabiiy fanlar yosh o‘quvchilarga dunyo kengliklari va tabiat manzaralari borasida to‘liq tasavvurlarini shakllantirishga yordam beradi. Bu, ularning fizika va kimyo kabi ko‘p qiziq fanlarni o‘rganishga rag‘batlantiradi. Masalan, yomg‘ir haqida o‘rganish jarayonida, yosh o‘quvchilar yomg‘irning biologik tuzilmalarini, fizik xususiyatlarini, qayerda va qanday shaklda hosil bo‘lishini (geografik xususiyatlari), yomg‘irning Yerdagi o‘zgarishlarga olib kelishi, o‘simliklar uchun uning foydasi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladi. Bu fan “Atrofimizdagi olam”ni I–II-sinflarda, tabiatshunoslikni III–IV-sinflarda, geografiyani, biologiyani va fizikani alohida fanlar sifatida o‘qitadi. Kimyo fanining boshlang‘ich tushunchalarini ham o‘rganish masalalarda muhim o‘rin egallaydi. VII-sinfdan boshlab, biologiya, geografiya, iqtisodiyot, fizika va kimyo alohida fanlar sifatida o‘qitiladi.

1. Tadqiqotda maktab o‘quvchilari o‘rtasida mediata’lim orqali fan tushunchalarini rivojlantirish usullarini takomillashtirish zarurati o‘quv jarayonini yangi tarkibiy qismlar, metodlar va tavsiyalar bilan boyitish imkoniyatlarini rivojlantirdi.

2.Tabiiy fanlarni o‘qitishda mediata’limdan foydalanishga pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarda tabiiy fan tushunchalarini mediata’lim asosida yetkazishning didaktik imkoniyatlari, shuningdek, ta’lim mazmunini takomillashtirishning dolzarbligi, to‘liqligi, tarixiy ahamiyati va izchilligi kabi tamoyillari hisobga olindi.

3. Tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida medianing qo‘llanilishi uning o‘rni va roli, zamonaviy science fanlarini o‘qitish asosida ilmiy, tabiatga oid bilimlar va mediata’limdan samarali foydalanish ko‘rsatib berildi. O‘quvchilarning tabiiy fanlarni o‘rganishda mediadan samarali foydalanishlari uchun tabiiy (Science) fanlarini o‘qitishning mediata’lim modeli shakllantirildi.

4. Umumta’lim maktablarining 3–sinflarida tabiiy fan mavzularini mediata’lim vositalar asosida o’qitishning samarali ekanligi ko’rsatib berildi va ularni amalda qo’llash metodikasi ishlab chiqildi.

5. Umumta’lim maktablarining 3–sinflarida tabiiy fanlarni o‘qitishda mediata’lim hamda mediavositalarni qo‘llashga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son-Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi qarori.

[3]Tabiiy fanlar bo‘yicha milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

2. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-apreldagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi PF-5024-son farmoni. 21-04-2017.
3. G‘aniyeva G.I. 3-sinflarda tabiiy fanlarni mediata’lim vositalari asosida o‘qitishga doir dars ishlanmalari metodikasi. Uslubiy qo‘llanma.-Toshkent-Factor press, 2023.-48 b.
4. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. - Toshkent: O‘qituvchi, -287 b
5. Коменский Я.А., Локк Д., Руссо Ж.Ж., Песталоци И.Г. Педагогическое наследие. - М.: Педагогика,1989. -416 с.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**G‘aniyeva Gulxayyo Islom qizi**, o'qituvchi, [**Ганиева Гулхаё Исламовна,** преподаватель], [**Gulxayyo I. G‘aniyeva**, teacher]; manzil: O‘zbekiston, Termiz tumani, At-Termiziy ko'chasi, 1A-uy [адрес: Узбекистан, ул. Ат-Термизи, 1А, г. Термезский район], [address: Uzbekistan, Termez District, At-Termizi Street, House 1A]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING LUG‘AT BOYLIGINI O‘STIRISHNING AN’ANAVIY VA NOAN’ANAVIY USULLARI

© S.F. Safarova[1]✉

[1]Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH. maqola yuqori sinf o‘quvchilarining chet tilini o‘rganishda lug‘at boyligini oshirish bo‘yicha turli yondashuvlarni o‘rganadi. Unda lug‘at boyligini oshirish o‘qish tushunishi, muloqot qilish qobiliyatlari va akademik muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi.

MAQSAD. yuqori sinf o‘quvchilari lug‘at boyligini oshirishda an’anaviy va noan’anaviy usullarni qo‘llashni yutuq va kamchiliklarini o‘rganib chiqib, kerakli tavsiyalar berish.

MATERIALLAR VA METODALAR. ushbu maqolada K.M. Blackmonning “An’anaviy lug‘atni o‘rgatish va talabalar o‘zlari tanlagan lug‘atni o‘rgatish usullarini qiyoshlash: aralash uslubdagi lug‘at yondashuvi nega eng yaxshi usul.”, N. Mediha, M. Enisaning “EFL sinfida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish uchun an’anaviy va kontekstualizatsiya qilingan usullarni ta’sirini taqqoslashni o‘rganish”, J.R. Nelson, M.W. Watkinsning “Lug‘at o‘rgatish: O‘qituvchilar uchun qo‘llanma” va boshqa ko‘plab ilmiy ishlar tahlil va hujjatlarni o‘rganish tatqiqot metodlari yordamida o‘rganildi va kerakli xulosalar chiqarildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. tadqiqotda an’anaviy usullar, masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish va mexanik yodlash, noan’anaviy, o‘quvchi markazli yondashuvlar, jumladan kontekstual o‘qitish, texnologiyadan foydalanish va faol ishtirok bilan taqqoslanadi. Maqola har ikki usulning kuchli va zaif tomonlarini o‘rganib, ularni muvozanatli ravishda integratsiya qilishni tavsiya qiladi, bu esa lug‘at o‘rganish jarayonini dinamik va samarali qilishga yordam beradi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirib, ularning so‘z boyligini uzoq muddatli eslab qolishlari va motivatsiyasini oshiradi.

XULOSA. yuqori sinf o‘quvchilariga lug‘at o‘rgatish o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun an’anaviy va noan’anaviy usullarni strategik ravishda birlashtirishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: lug‘at boyligini oshirish, an’anaviy usullar, noan’anaviy usullar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish, mexanik yodlash, kontekstual o‘qitish, texnologiyani integratsiya qilish, faol ishtirok.

Iqtibos uchun: Safarova S.F. Yuqori sinf o‘quvchilarining lug‘at boyligini o‘stirishning an’anaviy va noan’anaviy usullari. // Inter education & global study. 2024. №8. B.333-341.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ТРАДИЦИОННЫЕ И НЕТРАДИЦИОННЫЕ СПОСОБЫ ПОПОЛНЕНИЯ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА СТАРШЕКЛАССНИКОВ

© С.Ф. Сафарова[1]✉
[1]Навоийский государственный педагогический институт, Навои, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ. статья исследует различные подходы к увеличению словарного запаса у старшеклассников, изучающих иностранный язык. Подчеркивается важность обогащения словарного запаса для улучшения понимания прочитанного, коммуникативных навыков и достижения академического успеха.

ЦЕЛЬ. цель состоит в том, чтобы изучить преимущества и недостатки применения традиционных и нетрадиционных методов для увеличения словарного запаса старшеклассников и предоставить необходимые рекомендации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. в данной статье анализируются работы К.М. Блэкмона «Сравнение традиционного обучения словарю и обучения словарю, выбранному студентами: почему смешанный подход может быть лучшим», исследование Н. Медиha и М. Эниса о «Сравнении влияния традиционных и контекстуализированных методов на увеличение словарного запаса учащихся в классе EFL», а также «Руководство для учителей по обучению словарю» Дж.Р. Нельсона и М.В. Уоткинса и множество других научных работ с использованием методов анализа и изучения документов для вывода необходимых заключений.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ. исследование сравнивает традиционные методы, такие как прямое обучение и механическое запоминание, с нетрадиционными, ориентированными на учащегося подходами, включая контекстное обучение, использование технологий и активное участие. Статья рекомендует сбалансированную интеграцию обоих методов, что помогает сделать процесс изучения словаря динамичным и эффективным. Такой подход удовлетворяет разнообразные потребности учащихся, способствует долговременному запоминанию словарного запаса и увеличивает мотивацию.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. обучение словарю старшеклассников требует стратегического объединения традиционных и нетрадиционных методов для удовлетворения различных потребностей учащихся.

Ключевые слова: обогащение словарного запаса, традиционные методы, нетрадиционные методы, прямое обучение, механическое запоминание, контекстное обучение, интеграция технологий, активное участие.

Для цитирования: Сафарова С.Ф. Традиционные и нетрадиционные способы пополнения словарного запаса старшеклассников. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 333-341.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

TRADITIONAL AND NON-TRADITIONAL WAYS TO REPLENISH THE VOCABULARY OF HIGH SCHOOL STUDENTS

© Sarvinoz F. Safarova[1]✉
[1]Navoi State Pedagogical Institute, Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION. this article explores various approaches to enhancing vocabulary knowledge among high school students learning a foreign language. It emphasizes the importance of vocabulary enrichment in improving reading comprehension, communication skills, and achieving academic success.

AIM. the aim is to examine the advantages and disadvantages of applying traditional and non-traditional methods to enhance vocabulary among high school students and provide necessary recommendations.

MATERIALS AND METHODS. this article analyzes the works of K.M. Blackmon on "Comparing Traditional Vocabulary Teaching and Student Self-Selected Vocabulary Instruction: Why a Mixed Methods Approach Might Work Best," N. Mediha and M. Enisan's study on "Comparative Study of the Effectiveness of Traditional and Contextualized Methods for Enhancing Learners' Vocabulary Knowledge in an EFL Classroom," J.R. Nelson and M.W. Watkins' "Vocabulary Teaching: A Guide for Teachers," along with many other scholarly works, using analysis and document review as research methods to draw necessary conclusions.

DISCUSSION AND RESULTS. the study compares traditional methods, such as direct instruction and mechanical memorization, with non-traditional, student-centered approaches, including contextual teaching, technology use, and active participation. The article recommends a balanced integration of both methods, which helps make the vocabulary learning process dynamic and effective. This approach addresses the diverse needs of students, promoting long-term retention of vocabulary and increasing motivation.

CONCLUSION. teaching vocabulary to high school students requires a strategic combination of traditional and non-traditional methods to meet various student needs.

Key words: vocabulary enhancement, traditional methods, non-traditional methods, direct instruction, mechanical memorization, contextual teaching, technology integration, active participation.

For citation: Sarvinoz F. Safarova. (2024) 'Traditional and non-traditional ways to replenish the vocabulary of high school students', Inter education & global study, (8), pp. 333-341 (In Uzbek).

Lug'at boyligini oshirish til o'rganishning asosi hisoblanadi. Bu o'qishni tushunish, muloqot qilish va akademik muvaffaqiyatga erishishda juda muhimdir. Lug'at o'rgatish usullari o'quvchilarning qiziqishi va yodda saqlashiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'rta maktablarda o'qituvchilar lug'atni samarali o'rgatish uchun an'anaviy va noan'anaviy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

usullarni muvozanatlashtirishda ko‘pincha qiyinchiliklarga duch keladilar. Quyida ikkala yondashuvni ko‘rib chiqamiz, ularning kuchli va zaif tomonlari o‘rganib hamda lug‘at o‘rganishni yaxshilash uchun ularni qanday qilib birlashtirish mumkinligi haqida fikr yuritamiz.

Lug‘at o‘rgatishning an’anaviy usullari.

Har qanday chet tilini o‘qitish metodologiyasining maqsadlaridan biri o‘quvchining chet tilidagi ko‘nikmalarini oshirishdir. Biroq, an’anaviy metodologiya chet tilidan foydalanishning integratsiyalashgan jarayonini ko‘p jihatdan alohida ko‘nikmalar va bilim sohalariga ajratishga asoslanadi. Bu asosan funksional usul bo‘lib, ko‘nikmalar va bilim sohalariga izolyatsiyada e’tibor qaratadi**.**

Lug‘at o‘rgatishning an’anaviy usullari odatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitishni o‘z ichiga oladi, bunda o‘qituvchilar so‘zlar ro‘yxatini, ularning ta’riflarini va gaplarda qo‘llanilishini taqdim etadilar. Odatda, mexanik yodlash, imlo testlari va lug‘atlardan foydalanish kabi usullar qo‘llaniladi. Ushbu usullar lug‘atni boshlang‘ich darajada tushunishni ta’minlasa-da, ular chuqur o‘rganish va uzoq muddatli yodda saqlashni rag‘batlantirishda ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitish: An’anaviy usullardan biri bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitishdir, bunda o‘qituvchilar ma’ruzalar yoki taqdimotlar orqali so‘zlarning ma’nolarini ochib beradilar. Beck va boshqalar qayd etishicha, “o‘qituvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitishga ortiqcha tayanib, ko‘pincha talabalarning faol ishtirokini rag‘batlantirmaydigan zerikarli faoliyatlardan foydalanadilar.” Bu usul yangi so‘zlarni kiritishda samarali bo‘lsa-da, unda interaktiv va kontekstual elementlardan yetishmaydi[1].

Mexanik yodlash: Yana bir an’anaviy usul mexanik yodlashdir, bunda o‘quvchilardan so‘zlar ro‘yxatini va ta’riflarini yodlash talab etiladi. Bu yondashuv zerikarli va haqiqiy hayotdagi til qo‘llanilishidan ajralganligi uchun tanqid qilinadi. Sagmiller ta’kidlaganidek, “talabalarga odatda so‘zlarning ta’riflari va qo‘llanishiga bir marta duch kelish beriladi va faqat imloga e’tibor qaratiladi, ma’noga emas”[10]. Yodlash qisqa vaqt ichida ko‘p sonli so‘zlarni o‘rganishda yordam bersa-da, ularni kontekstdan foydalanish bo‘yicha chuqur tushunishni rag‘batlantirmaydi.

An’anaviy o‘qitish usullari ba’zi cheklovlarga ega: An’anaviy lug‘at o‘qitish ko‘pincha o‘qituvchilar tomonidan tanlangan so‘zlarga qaratiladi, bu esa har doim ham o‘quvchilarning qiziqishlari yoki ehtiyojlariga mos kelmasligi mumkin. Nelson va Watkins ta’kidlashicha: “Ko‘plab lug‘atga oid topshiriqlar talabalarni mustaqil ravishda lug‘at o‘rganishga tayyorlamaydi”[9]. Bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil ravishda tilni o‘rganish va o‘z bilimlarini yangi kontekstlarda qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi. Bundan tashqari, an’anaviy usullar faol bo‘lmagan o‘quvchilarni jalb qilmasligi mumkin.

Lug‘at o‘rgatishning noan’anaviy usullari.

An’anaviy metodologiyadan farqli o‘laroq, zamonaviy metodologiya ko‘proq o‘quvchi markazli hisoblanadi. Jim Scrivenerning fikriga ko‘ra, o‘qituvchining asosiy vazifasi “o‘rganishni ro‘yobga chiqarishga yordam berish”, ya’ni “talabalarni o‘z tezliklarida ishlashga imkon yaratish, uzoq tushuntirishlardan qochish, ularni qatnashishga,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

gapirishga, muloqot qilishga, nimadir qilishga undash”dan iboratdir[11]. Broughtonning fikrini bunga qo‘shimcha qilsak: “Til o‘rganuvchisi til haqiqatan ham kommunikativ ekanligini, kontekstga mosligini, o‘qituvchining mahorati uni chet tilida to‘liqroq bilimga yetaklayotganini his qilganida eng yaxshi rag‘batlanadi”[2]. Qisqacha aytganda, o‘quvchilarlar bu jarayonning eng faol elementi hisoblanadi. O‘qituvchi esa tushuntirish uchun emas, balki o‘quvchilarni izlanishga, sinab ko‘rishga, o‘rganishni qiziqarli qilishga undash va ularga yordam berish uchun bu yerda bo‘lishi kerak.

Lug‘at o‘rgatishning noan’anaviy usullari o‘quvchi markazli o‘qitish, faol ishtirok etish va texnologiya va real hayotiy kontekstlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlar lug‘at o‘rganishni yanada dolzarb, qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqishlari va kundalik tajribalariga bog‘liq faoliyatlarni o‘z ichiga oladi.

Kontekstual o‘qitish: Noan’anaviy yondashuvlardan biri bu kontekstual o‘qitish bo‘lib, bunda lug‘at o‘qish, muhokama yoki mavzuli birliklar doirasida o‘rgatiladi. Ushbu usul o‘quvchilarga so‘zlarning turli holatlarda qanday ishlatilishini ko‘rish imkonini beradi, bu esa ma’no va qo‘llanilishni chuqurroq tushunishni rag‘batlantiradi.

AQShdagi milliy savodxonlik institute qayd etganidek, “yangi so‘zlarga turli kontekstlarda qayta-qayta duch kelish lug‘atni o‘zlashtirish uchun juda muhimdir.”[8] So‘zlarni turli kontekstlarda uchratish orqali o‘quvchilar ularni to‘g‘ri eslab qolishi va to‘g‘ri ishlatishi ehtimoli ko‘proq bo‘ladi.

Texnologiyani integratsiya qilish: Lug‘at o‘qitishda texnologiyaning qo‘llanilishi o‘quvchilarning yangi so‘zlarni qanday o‘rganishlari va o‘zaro munosabat qilishlarini tubdan o‘zgartiradi. Lug‘at dasturlari, onlayn o‘yinlar va interaktiv fleshkartlar kabi raqamli vositalar dinamik va shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribalarini taklif qiladi. Chen va Hsu tadqiqotiga ko‘ra, “lug‘atni o‘rganish uchun mobil ilovalardan foydalangan talabalar faqat an’anaviy usullarga tayanganlarga nisbatan yodda saqlash va motivatsiyada sezilarli yaxshilanishni ko‘rsatgan.”[3] Texnologiya moslashuvchan ta’lim imkonini beradi, bunda o‘quvchilar o‘z sur’atlarida mashq qilishlari va darhol fikr-mulohaza olishlari mumkin.

Faol o‘qitish strategiyalari: Noan’anaviy usullar ko‘pincha guruh ishini, muhokamalar va loyihaga asoslangan ta’limni o‘z ichiga olgan faol o‘qitish strategiyalarini qo‘llaydi. Ushbu faoliyatlar o‘quvchilarni yangi lug‘atni mazmunli tarzda qo‘llashga undaydi, bu esa yodda saqlash va tushunishni yaxshilaydi. Masalan, lug‘at jurnallari, so‘z xaritalari va tengdoshlarga o‘qitish kabi samarali strategiyalar faol ishtirokni rag‘batlantiradi. Stahl va Fairbanks ta’kidlaydilar: “So‘zlarni muhokamalarda yoki yozishda ishlatish kabi faol ishlov berishni o‘z ichiga olgan lug‘at o‘qitish katta yodda saqlash va tushunishga olib keladi.”[12]

O‘quvchilarning mustaqilligi: Lug‘atni o‘rganishda o‘quvchilarning mustaqilligini rag‘batlantirish noan’anaviy yondashuvlarning yana bir xususiyatidir. O‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘zlari qiziq yoki dolzarb deb hisoblagan so‘zlarni tanlash imkoniyatini berish orqali egalik va motivatsiya hissini shakllantirishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarga o‘z ta’limlarida tanlov berilganda, ular ko‘proq qiziqish bildiradilar va o‘z

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

yutuqlari uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga olishadi [4]. Shaxsiy lug‘at ro‘yxatlari va mustaqil o‘qish dasturlari kabi texnikalar ushbu mustaqillikni qo‘llab quvvatlaydi.

Lug‘at o‘rgatishning an’anaviy va noan’anaviy usullari ko‘plab ilmiy ishlarda taqqoslanib tahlil qilib o‘tilgan va izlanuvchi tomonidan ilmiy izlanish natija va xulosalari bayon qilingan. Shu kabi izlanishlar biri bo‘lmish "An’anaviy va kontekstual usullarning chet tili sifatida ingliz tilida so‘z boyligini rivojlantirishga ta’sirini tadqiq etish" nomli maqolani ko‘rib o‘tsak. Ushbu tadqiqot Turkiyaning Yeditepe universiteti tatqiqotchilari Narin Mediha va Enisa Mede tomonidan o‘tkazilgan bo‘lib, chet tili sifatida o‘qitiladigan ingliz tili darslarida so‘z boyligini oshirishda an’anaviy va zamonaviy usullardan biri bo‘lmish kontekstual usullarning samaradorligini tadqiq qiladi. Tadqiqot qaysi usul o‘quvchilarning so‘z boyligini yaxshiroq rivojlantirishni aniqlash va o‘qituvchilarga eng samarali o‘qitish strategiyalarini topishda yordam berishni maqsad qiladi.

Tadqiqot an’anaviy so‘z boyligini o‘rgatish usullarini, ya’ni yodlash va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishni, kontekstual usullar bilan solishtiradi. Kontekstual usullar adabiy matnlar va kontekstual taxmin qilish strategiyalaridan foydalanib, so‘z boyligini yanada integratsiyalashgan va qiziqarli tarzda o‘rgatishni maqsad qiladi.

Tadqiqot ikkita asosiy o‘qitish usulini o‘rganadi:

1. An’anaviy Usullar: Bu usullar dekontekstualizatsiyalangan yondashuvlar bo‘lib, ularga so‘z ro‘yxatlarini yodlash va lug‘atlardan foydalanish kiradi. Ushbu usullar sodda bo‘lishiga qaramay, ko‘pincha so‘z boyligini chuqurroq tushunish va yodlash uchun zarur bo‘lgan kontekstni ta’minlay olmaydi.

2. Kontekstual Usullar: Ushbu yondashuv so‘z boyligini kontekst orqali, masalan, adabiy matnlar yordamida yoki so‘zlarni tabiiy til muhitida o‘rgatishni nazarda tutadi. Bu usul o‘quvchilarni kontekstdan ma’nolarni taxmin qilishga undaydi va so‘z boyligini yanada mazmunli va barqaror qilishga yordam beradi [7].

Tadqiqot so‘z boyligi, o‘qish va bilimning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi nazariyalarga asoslanadi. Masalan, Krashen so‘z boyligi bilimining o‘qish tushunishiga yordam berishini va bu esa so‘z boyligini o‘zlashtirishni kuchaytirishini ta’kidlaydi [5].

Tadqiqotga xususiy maktabning to‘qqizinchi sinfida o‘qiyotgan 40 nafar o‘quvchi jalb etiladi. Ular ikki guruhga bo‘linadi: kontekstual usullarni qo‘llagan eksperimental guruh va an’anaviy usullardan foydalangan nazorat guruhi. Ikkala guruh ham to‘rt hafta davomida ishtirok etadi. Eksperimental guruh so‘z boyligini adabiy matnlar orqali o‘rganishadi, nazorat guruhi esa an’anaviy so‘z ro‘yxatlari va yodlash orqali o‘rganishadi[7].

Dastlabki natijalarda har ikkala guruh ham oldindan testlarda o‘xshash ball to‘plagan, bu ularning so‘z boyligi bilimida o‘xshashlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Keyingi test natijalariga ko‘raa eksperimental guruh nazorat guruhidan ancha yuqori natijalar ko‘rsatdi. Masalan, "The Butler" hikoyasi bo‘yicha eksperimental guruhning keyingi testdagi o‘rtacha balli 10.35 bo‘lgan, nazorat guruhining esa 7.75.

Yodlash Testlari: Eksperimental guruh yodlash testlarida ham yuqori ball to‘plagan, bu kontekstual usul o‘quvchilarga so‘z boyligini samarali o‘rganishda va uzoq muddatli

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

yodlashda yordam berganligini ko‘rsatadi. "The Butler" hikoyasi uchun yodlash ballari eksperimental guruhda 8.00, nazorat guruhida esa 2.65 edi [8].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kontekstual o‘qitish usullari, ayniqsa adabiy matnlardan foydalanish an’anaviy usullardan ko‘ra samaraliroqdir. Eksperimental guruhdagi o‘quvchilar so‘z boyligini yodlash va eslab qolish qobiliyatini ko‘proq namoyon etishdi, bu so‘zlarni kontekstda o‘rganish ularni eslab qolishni osonlashtirishini ko‘rsatadi.

Lug‘at boyligini oshirishda an’anaviy usul va noan’anaviy usullardan biri o‘quvchi markazli usulning o‘zaro taqqoslanishi yoritib o‘tilgan, K. M. Blackmon tomonidan yozilgan “An’anaviy lug‘at o‘rgatish va talabalarning mustaqil tanlovi: Nega "aralash usullar" lug‘at yondashuvi yaxshi natija ko‘rsatishi mumkin” mavzusidagi tatqiqot tezisida ushbu usullarning yaxshi va yomon taraflari yoritilib o‘tilgan va muallif tomonidan o‘z firklari bayon qilingan. Ushbu dissertatsiya o‘quvchilarga mustaqil ravishda o‘rganish uchun so‘z boyligini tanlashga ruxsat berishning foydalarini o‘rganadi. Tadqiqotda o‘qituvchi talabalarga o‘rganish uchun so‘zlarni tanlab beradigan an’anaviy so‘z boyligi o‘rgatish usuli bilan, o‘quvchilar lug‘at daftaridan foydalangan holda mustaqil ravishda so‘zlarni tanlashga undalgan usulning samaradorligi solishtirilgan. Tadqiqotda ikkala yondashuvning ham foydali va kamchilikli tomonlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, an’anaviy so‘z boyligi o‘rgatish usulini olgan nazorat guruhi talabalari so‘z boyligi bo‘yicha testlarda biroz yaxshi natijalarni ko‘rsatgan, biroq ular o‘qituvchi tomonidan tanlangan so‘zlarni o‘rganishga motivatsiya va qiziqish yo‘qligini bildirganlar. Ular bu jarayonni ahamiyatsiz deb his qilgan va testlarda yaxshi natija ko‘rsatish uchun “intellektual qiziqish” zarurligini ta’kidlashgan.

Bunga qarama-qarshi ravishda, tajriba guruhidagi talabalar, ya’ni mustaqil ravishda so‘zlarni tanlash imkoniga ega bo‘lganlar, yangi so‘zlarni o‘rganishga qiziqish va ishtiyoq bilan yondashgan va bu jarayondan zavqlanishgan. Ammo ular so‘z boyligi bo‘yicha testlarda unchalik yaxshi natija ko‘rsatmaganlar [6].

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar har bir bo‘lim uchun oldindan belgilangan miqdordagi majburiy so‘zlarni tanlab berib, qo‘shimcha so‘zlarni talabalar o‘zlari tanlashi mumkin bo‘lgan aralash yondashuv eng foydali bo‘lishi mumkin. Tadqiqot, shuningdek, so‘z boyligini o‘rganishni baholash uchun turli usullardan foydalanish muhimligini ta’kidlaydi, shu jumladan an’anaviy baholash va talabalar so‘z ma’nosining chuqurroq bilimini o‘lchaydigan baholash usullari.

Tadqiqot xulosasiga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rgatish va mustaqil o‘rganish so‘z boyligini o‘rgatishda foydali usullardir, biroq eng samarali yondashuv ikkisini aralashtirishdan iborat bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita o‘rgatishni aralashtirib, talabalarning so‘z boyligini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi va ishtirokini qo‘llab-quvvatlashlari, so‘z ma’nosini chuqurroq tushunishlariga yordam berishlari va o‘z yozuvlari va muloqotlarida so‘z boyligidan foydalanishga undashlari mumkin [6].

An’anaviy lug‘at o‘rganishning muammosi shundaki, ko‘plab o‘qituvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitishga ortiqcha ishonib, zerikarli, qiziqarsiz yoki jozibador bo‘lmagan

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

faoliyatlardan foydalanadilar, bu esa faol o‘quvchi ishtirokini rag‘batlantirmaydi [1]. Lug‘at o‘qitishning an’anaviy yondashuvi o‘qituvchilar talabalarga qanday so‘zlarni o‘rganishini tanlashiga qaratilgan. Shunday qilib, lug‘at bilan bog‘liq ko‘plab topshiriqlar talabalarni mustaqil ravishda lug‘at o‘rganishga tayyorlamaydi [9]. Chunki yangi so‘zlarni mustaqil ravishda o‘rganish qobiliyati o‘qish jarayonida muhim rol o‘ynaydi, o‘qituvchilar yangi so‘zlarni qayta-qayta duch keltirish uchun turli o‘quv texnikalaridan foydalanishlari kerak [4].

Ushbu tezis asosan ikkala usulni integrallashtirish orqali dars o‘tishni taklif qiladi va bu usul faqat bir tomonlama metodlarga tayangan darslardan ko‘ra samaraliroq bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi.

An’anaviy va noan’anaviy usullarni integratsiya qilish.

Har ikkala an’anaviy va noan’anaviy usullar o‘z afzalliklariga ega bo‘lsa-da, lug‘atni samarali o‘rgatish ko‘pincha ularning ikkalasini birlashtirish orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchilar yangi so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitishni interaktiv va kontekstual faoliyatlar bilan birlashtirib, keng qamrovli o‘qitish tajribasini ta’minlashlari mumkin. Masalan, yangi so‘zlarni dastlab to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rgatishdan so‘ng, so‘zlarni mustahkamlovchi matnlarni o‘qish yoki interaktiv o‘yinlar kabi kontekstual qo‘llashlar bilan davom ettirish mumkin.

Bundan tashqari, texnologiyadan foydalanish an’anaviy usullarni sinfdan tashqarida qo‘shimcha amaliyot imkoniyatlarini taqdim etish orqali to‘ldirishi mumkin. Masalan, lug‘at ilovalari sinfda kiritilgan so‘zlarni mustahkamlash uchun multisensorli o‘qitish tajribasini taklif qilib, turli o‘quv uslublariga moslashadi.

Yuqori sinf o‘quvchilariga lug‘at o‘rgatish o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun an’anaviy va noan’anaviy usullarni strategik ravishda birlashtirishni talab qiladi. An’anaviy usullar so‘zlarni tuzilmasi va aniq kirishini ta’minlasa, noan’anaviy yondashuvlar chuqur o‘rganish uchun zarur bo‘lgan qiziqish va kontekstual tushunchani taklif qiladi. Ushbu usullarni birlashtirish orqali o‘qituvchilar nafaqat so‘zlarni o‘rgatadigan, balki umrbod til o‘rganishga muhabbat uyg‘otadigan dinamik va samarali lug‘at dasturini yaratishlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Beck, I. L., McKeown, M. G., & Kucan, L. (2013). Bringing Words to Life: Robust Vocabulary Instruction. Guilford Press.
2. Broughton, Geoffrey (1994) Teaching English as a Foreign Language 2nd ed London: Routledge
3. Chen, N. S., & Hsu, S. Y. (2019). Mobile learning: A review of vocabulary learning with mobile technologies. Educational Technology & Society, 22(1), 56-67.
4. Guthrie, J. T., Wigfield, A., & You, W. (2004). Motivating adolescent reading. In T. L. Jetton & J. A. Dole (Eds.), Adolescent Literacy Research and Practice. Guilford Press.
5. Krashen, S. (1989). We Acquire Vocabulary and Spelling by Reading. The Modern Language Journal, 73(4), 440-64

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

6. Kathryn Marie Blackmon. (2022) A comparison of traditional vocabulary instruction and student self selection: why a mixed methods vocabulary approach might work best. https://hdl.handle.net/20.500.12741/rep:274
7. N. Mediha, M. Enisa. (2014). A comparative study on the effectiveness of using traditional and contextualized methods for enhancing learners' vocabulary knowledge in an EFL classroom, 3443-3448. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.01.780
8. National Institute for Literacy. (2007). What content-area teachers should know about adolescent literacy. U.S. Department of Education.
9. Nelson, J. R., & Watkins, M. W. (2019). Teaching vocabulary: A guide for teachers. Learning Disabilities Research & Practice, 34(2), 102-113.
10. Sagmiller, E. J. (2002). Teaching Vocabulary for Reading Success. Scholastic.
11. Scrivener, Jim (2005). Learning Teaching Oxford: Macmillan
12. Stahl, S. A., & Fairbanks, M. M. (1986). The effects of vocabulary instruction: A model-based meta-analysis. Review of Educational Research, 56(1), 72-110.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Safarova Sarvinoz Faxriddin qizi**, tayanch doktorant, [**Сафарова Сарвиноз Фахриддиновна,** докторант], [**Sarvinoz F. Safarova**, 2nd year student of Fine arts and Engineering graphics]; manzil: O'zbekiston, Navoiy sh., Ibn Slno ko`chasi 45 [адрес: Узбекистан, ул. Г. Навои, Улица Ибн Сина, 45], [address: Uzbekistan, Navoi, Ibn Sina Street, 45]; E-mail:sarvinoz.ssf.ab@gmail.com, ORCID:0009-0003-4290-0824

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY XUSUSIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH AHAMIYATI

© Z.X. Abdunazarova[1]✉
[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishning falsafiy xususiyatlarini takomillashtirish ahamiyatining maqsad va vazifalari, ekologik tafakkurning falsafiy ahamiyati xususida fikrlar bildirilgan.

MAQSAD: ekologik tafakkur odamlarning, ijtimoiy-madaniy guruhlarning va davlat organlarining sa'y-harakatlarini ekologik muvozanatni saqlashga, muayyan hududlarning tabiiy boyligini saqlashga va yerning tabiatini vaqtincha istiqbol uchun ajralmas ekotizim sifatida saqlashga yo'naltiradi.

MATERIALLAR VA METODLAR: mamlakatimizda ekolgik tarbiya tizimi mafkuraviy, ilmiy - metodik, dasturiy - me’yoriy, asoslar birligidan iborat. Yurtimizdagi ekologik tarbiya tizimi o‘zini g‘oyaviyligi, xalqchilligi va ilmiyligi bilan ajralib turadi. U barkamol avlodni tarbiyalash, rivojlantirish, sog‘lomlashtirish bilan bog‘liqdir, shuningdek jismoniy tarbiyaning mehnat bilan aloqasiga bog‘liqdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: uzluksiz ta’lim jarayonida yoshlarni ekologik tarbiyalash yurtimizda va xorijda juda keng o‘rganilgan bo‘lib, ular turlicha nazariyalar, kontseptsiyalar, yondashishlar, yo‘nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Maqolada bu yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilgan.

XULOSA: jismoniy mashqlar bolalarning tulaqonli aqliy, ahloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga yordam berib, ularning ma’naviy – irodaviy sifatlarini (jasurlik, halollik, kat’iyat va boshqalarni) rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: tafakkur, tarbiya falsafiy**,** rivojlanish, shakllanish, barkamol shaxs, ekologiya.

Iqtibos uchun: Abdunazarova Z.X. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishning falsafiy xususiyatlarini takomillashtirish ahamiyati. // Inter education & global study. 2024. №8. B.342-348.

ЗНАЧЕНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ФИЛОСОФСКИХ АСПЕКТОВ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

© З.Х. Абдуназарова[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются цели и задачи совершенствования философских аспектов формирования экологического мышления у учеников начальных классов, а также философское значение экологического мышления.

ЦЕЛЬ: экологическое мышление направляет усилия людей, социально-культурных групп и государственных органов на сохранение экологического баланса, сохранение природных ресурсов определенных территорий и сохранение природы Земли как неотъемлемой экосистемы для временной перспективы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: система экологического воспитания в нашей стране состоит из идеологических, научно-методических и нормативных основ. Система экологического воспитания в нашей стране выделяется своей идейностью, народностью и научностью. Она связана с воспитанием гармоничного поколения, его развитием и оздоровлением, а также с связью физического воспитания с трудом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в процессе непрерывного образования воспитание молодежи в духе экологической осознанности в нашей стране и за рубежом было широко изучено, опираясь на различные теории, концепции, подходы и направления. В статье уделяется особое внимание этим аспектам.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: физические упражнения помогают детям в их полном интеллектуальном, моральном, эстетическом и трудовом воспитании, развивая их духовные и волевые качества (смелость, честность, решимость и другие).

Ключевые слова: мышление, философия воспитания, развитие, формирование, гармоничная личность, экология.

Для цитирования: Абдуназарова З.Х. Значение совершенствования философских аспектов формирования экологического мышления у учеников начальных классов. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 342-348.

THE IMPORTANCE OF IMPROVING THE PHILOSOPHICAL ASPECTS OF DEVELOPING ENVIRONMENTAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

© Zebiniso Kh. Abdunazarova[1]✉
[1]Termiz State Pedagogical Institute, Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the goals and objectives of improving the philosophical aspects of developing environmental thinking in primary school students, as well as the philosophical significance of environmental thinking.

AIM: Environmental thinking directs the efforts of individuals, socio-cultural groups, and governmental bodies toward maintaining ecological balance, preserving the natural wealth of specific regions, and conserving Earth's nature as an integral ecosystem for the foreseeable future.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

MATERIALS AND METHODS: the environmental education system in our country consists of ideological, scientific-methodological, and regulatory foundations. The system is characterized by its ideological depth, popular engagement, and scientific approach. It is related to the education, development, and well-being of a well-rounded generation and is linked to the connection between physical education and labor.

DISCUSSION AND RESULTS: the education of young people in the context of continuous environmental education has been extensively studied both domestically and internationally, based on various theories, concepts, approaches, and directions. The article pays special attention to these aspects.

CONCLUSION: physical exercises help children in their comprehensive intellectual, moral, aesthetic, and labor education, developing their spiritual and volitional qualities (courage, honesty, determination, and others).

Key words: thinking, philosophy of education, development, formation, well-rounded personality, ecology.

For citation: Zebiniso Kh. Abdunazarova (2024) 'The Importance of Improving the Philosophical Aspects of Developing Environmental Thinking in Primary School Students', Inter education & global study, (8), pp. 342-348. (In Uzbek).

Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan bolalar va o'smirlarda xarakat sifatlarini rivojlantiruvchi va o'zgartiruvchi irsiy tibbiy omillar chuqur o'rganilib ilmiy nazariy-amaliy asosda isbotlab berilgan. Shaxsning har kungi xayotida zarur bo'lgan asosiy xarakat ko'nikmalarining shakllanishi asosan boshlang'ich sinf oquvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishning falsafiy xususiyatlarini takomillashtirish ahamiyati qaratilgan. Ekologik tafakkurning shakllanishi shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirishga, borliq barqarorligi va tabiat uyg'unligining sub'ektiv tuyg'usiga yordam beradi. Inson atrof-olam (narsa, hodisalar, insonlarni) va o'zini turli xil faoliyatlarni bajarish va bu ob'ektlarga ta'sir ko'rsatgan holda ma'lum bir ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish uchun o'rganadi. Sezgi, idrok va tasavvurlar ixtiyorsiz diqqat va ko'rgazma-obrazli xotira bilan hamkorlikda insonga aniq bir ob'ektlar va ularning bevosita o'rganiladigan xossalari haqida ma'lumot beradilar. Psixik aks ettirishning bu shakllari inson tomonidan ob'ektiv reallikni bilishning hissiyotli asoslaridir. Lekin alohida jismlar va real olam hodisalarini bilish istalgan amaliy vazifani hal etishda yuzaga keladigan uch ahamiyatga ega bo'lgan savolga javob topish uchun etarli emas. Bu savollar: «yuaga kelgan vaziyatda nimani, qay tarzda bajarish mumkin, va bu harakat natijasida nima hosil bo'ladi?»dan iborat.

Bu savollarga javob izlashda bizlarga tafakkur yordam beradi. Avvalambor, tafakkur yuksak darajadagi bilish psixik jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan voqelikning faol ijodiy aks ettirish va o'zgartirishdan iborat. Tafakkur bevosita idrokda anglaymaydiganlarni ochib beradi; u olamni ahamiyatli aloqalar va munosabatlarda, uning turli xildagi vositalarida aks ettiradi. Tafakkurning asosiy vazifasi real bog'liqliklarga asoslangan zarur aloqalarni vaqt va fazodagi tasodifiy mos kelishlardan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ajratgan holda aniqlashdan iborat. Tafakkur jarayonida tasodifiydan zaruratga, ayrimlikdan umumiylikka o‘tish sodir bo‘ladi.

Ekologik tarbiya ahloqiy tarbiya bilan bog‘likdir. Bolalar gigiena, chiniqtirish tadbirlarini, xarakatli o‘yinlarni bajarish chog‘ida faqat axloqiy hulq - atvor (mardlik, halolllik, tartiblilik va hokazolar) to‘g‘risidagina tasavvurlarga ega bo‘lib qolmay, shu bilan birga anna shu hulq - atvor hususida mashq qiladilar, ularda irodaviy sifatlar (kat’iyat, mustakillik va hokazolar) rivojlanadi. Aksariyat jismoniy mashklarning his – tuyg‘uga boyligi ularning bola shaxsini shakllantirishga ta’sirini kuchaytiradi.

Erologik tarbiya asosan ishning jamoa shakllarida amalga oshiriladi. Jismoniy mashg‘ulotlarda, harakatli o‘yinlarda bolalarda jamoatchilik tuyg‘usi shakllanadi, uyushqoqlik, intizom tarbiyalanadi.

Ekologik tarbiya bilan estetik tarbiyaning aloqasi dastavval shunda o‘z ifodasini topadiki, tulaqonli jsmoniy rivojlanish - bola estetik tashqi ko‘rinishining garovidir. Bolalar mashqlarni bajarar ekanlar, erkin, chiroyli ifodali harakat qilishga o‘rganadilar, bu esa estetik tuyg‘ularni tarbiyalashga ko‘maklashadi [3].

Ekologik tarbiya mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Umumiy chidamlilikni rivojlantirish – ishchanlikni tarbiyalash asosidir. Jismoniy mashklar jarayonida harakat tajribasini to‘plash, harakatlar uyg‘unligini, kuchni, chamalashni va boshqa qobiliyatlarni rivojlantirish mehnat xarakatlarini egallashda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Irodaviy kuch -g‘ayrat sarflash odatini tarbiyalash ham muhimdir. Sog‘lom, chaqqon bola mehnat topshiriklarini oson bajaradi.

Ekokologiya tarbiyaning tabiiy - ilmiy asoslari. Bolaning biologik rivojlanishi jarayonini tabiiy fanlar majmui o‘rganadi, ularning asosini I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, va ular izdoshlarining organizm va muxit birligi, organizmning yaxlitligi va uning hayotiy faoliyatida markaziy asab sistemasining tartibga soluvchilik roli haqidagi ta’limoti tashkil etadi [4].

Oliy asab faoliyati, shartli reflektorla vositalari organizmning muhit bilan o‘zaro alokasini va unga eng ko‘p darajada moslashuvini ta’minlovchi asosiy qonunlarning kashf etilishi bolani to‘laqonli jismoniy va ijtimoiy rivojlantirishda tarbiyaning rolini to‘g‘ri tushunishga, bolalar organizmining funktsional imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berdi. Organizmdagi barcha jarayonlarning birligi to‘g‘risidagi qoida ko‘p qirrali masala sifatida ko‘rib chiqiladi.

Birinchidan, organizm yagona bir butunlikdan iborat bo‘lib, undagi alohida organlar va sistemalarning ishini o‘zaro bog‘liq qilib qo‘yadi. Bu qoida jismoniy tarbiya, bolaga alohida yondashish vazifalarini hal etishning asosini tashkil etadi. «Jumladan chiniqtirish faqat shamollash kasalliklarni oldini olish uchun emas, shu bilan birga organizmning atrof muhitning turli noqulay ta’sirlariga chidamliligini oshirish uchun o‘tkaziladi; har tomonlama jismoniy rivojlanish shuning uchun kerakki, organlar va sistemalar rivojlanishidagi nomutanosibliklar ulardan har birining ishlashiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi, bu esa sog‘liqning ahvolida ham, harakat sifatlarida ham namoyon bo‘ladi» [5].

Ikkinchidan, organizm - yagona bir butun bo‘lib, unda jismoniy va ruhiy jarayonlar bir - birini shart qilib qo‘yadi. Bu qoida maktabgacha tarbiya muassasasida butun ishni tashkil

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

etish uchun ayniqsa muhimdir. Jismoniy tarbiya vositalari normal jismoniy rivojlanishni, yaxshi kayfiyatni, bolalarning bosiq va ayni paytda shodon holatini ularning ishchanligini ta'minlashga da'vat etilgandir. Busiz bolada ruhiy jarayonlarning to'laqonli kechishi, uning har tomonlama rivojlanishi mumkin emas.

Uchinchidan, organizm yaxlit bir narsa sifatida atrofdagi muhit bilan o'zaro aloqada bo'ladi. O'zgarib borayotgan muhit sharoitlariga yuksak darajada moslashish murakkab dinamik andazalarni va shartli reflektorli aloqalarni vujudga keltirish bilan ta'minlanadi. I.P. Pavlovning beixtiyor harakatlarning shartli reflektor tabiatiga bog'liqligi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro aloqasi haqidagi ta'limoti negizida jismoniy mashqlar didaktikasi ishlab chiqiladi, bolalarning madaniy - gigienik ko'nikmalarni va odatlarni o'zlashtirishi ro'y beradi.

Oliy asab faoliyati tiplari to'g'risidagi ta'limot katta ahamiyatga ega, chunki bolalarning o'ziga hos hususiyatlarini o'rganish, alohida ish olib borish metodikasi shunga asoslangandir.

Boshlang'ich sinf oquvchilarida ekologik tafakkurni maktab yoshdagi bolalar bilan ish olib borishda bu qoidalar quyidagilarda o'z ifodasini topadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish qoidasi harakat madaniyati asoslarini shakllantirishni va ayni vaqtda aqliy qobiliyatlarni (topqirlik, kuzatuvchanlik, qiziqish va boshqalar), ahloqiy fazilatlarni (intizomlilik, jamoatchilik, va boshqalar), estetik didni rivojlantirishni ta'minlaydi. U yoki bu alohida jismoniy mashq turlariga erta ixtisoslashuviga yo'l qo'yib bo'lmaydi. U bola salomatligiga va uning uyg'un jismoniy rivojlanishiga zarar etkazishi, yangi ko'nikmalar, keyinchalik sport mahorati tarkib topishida, shakllanishida qiyinchilik tug'dirish mumkin [6].

Sog'lomlashtirish yo'nalishi qoidasi materiallar va vositalar mazmunini, hajmini tanlashni ko'zda tutadi, u salomatlikni mustahkamlashni, shifokor – pedagog nazoratini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Ekologik tarbiyaning mehnat tajribasi bilan aloqasi qoidasi bolalarni ijtimoiy asoslangan xar hil harakatlar tajribasi bilan boyitishda namoyon bo'ladi. Turli vositalardan foydalanib, bolalarda aniqlik, harakatlar tezligi, sharoitga bog'liq tarzda o'zini qayta ko'ra olish, o'quv, mehnat, maishiy kabi har qanday yangi faoliyatda tezda o'z o'rnini topish tarbiyalanadi.

Boshlang'ich sinf oquvchilarida ekologik tarbiya sistemasi ekologik tarbiya vazifalari ruyobga chiqariladigan ilmiy asoslangan mazmun, vositalar, metodlar va shartlarning kompleks mazmunidan iboratdir.

Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari jamiyatning ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bu ehtiyoj tarbiyaning umumiy maqsadidan kelib chiqadi, bu maqsad uzida ma'naviy boylikni, axloqiy poqlikni va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Boshlang'ich sinf oquvchilarida ekologik bolalarning jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda ularning yosh hususiyatlari hisobga olinadi. Jadal o'sish va rivojlanish maktabgacha yoshdagi bola organizmining uo'ziga hos xususiyatidir. Lekin sistemalar va ular vazifalarining shakllanishi xali tugallanmagan bo'ladi. Shuning uchun

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Boshlang‘ich sinf oquvchilarida ekologik tarbiya bola juda nozik bo‘ladi. Shu munosabat bilan quyidagi sog‘lomlashtirish vazifalari birinchi o‘ringa qo‘yiladi:

1) hayotni muhofaza qilish, kasallikka qarshi kurash olib borish, organizmning tashqi muhit ta’siriga qarshiligini oshirish;

2) organizmning barcha sistemalarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida rivojlantirish, ularning funktsional imkoniyatlarini kengaytirish to‘g‘ri qaddi - qomat va tovonni shakllantirish uyg‘un jismoniy rivojlantirish.

Bolalar organizmining nomukammalligi, nozikligi bilan birga unga qudratli rivojlanishni ta’minlovchi hususiyatlar ham hosdir. Bu barcha to‘qimalarning juda egiluvchanligi, tezkorligi, modda almashinuvi jarayonlarining jadalligidir. Uning juda katta moslashish imkoniyatlari shuning natijasidir. Bola sharoitlarning o‘zgarishiga, jismoniy zo‘riqishga kattalarga nisbatan ancha tezroq va yaxshiroq moslashadi. U o‘ziga tushunarli bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga idroki baland bo‘ladi, bu esa bir qancha ta’limiy vazifalarni hal etish imkonini beradi:

1) jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish va madaniy – gigienik ko‘nikmalarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq dastlabki bilimlarni shakllantirish;

2) shaxsiy va ijtimoiy gigiena ko‘nikmalarini singdirish;

3) kelgusida sport bilan shug‘ullanish uchu nasos bo‘lib hizmat qiladigan hayotiy zarur xarakatlar malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish [7].

Ekologik tarbiya mazmuni ijtimoiy – tarixiy tajribaning shunday qismiki, u odam salomatligini saqlashni va mustaxkamlashni shuningdek harakat madaniyatini ta’minlovchi bilimlar, malakalar, ko‘nikmalarni o‘z ichiga olib, maktabgacha ta’lim bolalar muassasalarida jismoniy tarbiyaning quyidagi o‘ziga xos vositalaridan foydalaniladi:

1) harakatli o‘yinlar o‘tkazilib, ularga eng ko‘p o‘rin beriladi;

2) asosiy gimnastika (asosiy harakatlar, umum rivojlantiruvchi va saf tortish mashqlari);

3) sport mashqlari (konkida uchish, chang‘ida yurish, suzish, velosipeda uchish);

4) bolalar turizmi.

Ko‘rsatilgan vositalardan uyg‘un birlikda foydalanish har tomonlama jismoniy rivojlanishni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdinazarova Zebiniso Khudoyshukurovna, & Kasimov Shavkat Urolovich.(2022). Main Tasks Of Moral Education And The Role Of Youth InLife. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 547–551.
2. Abdunazarova, Z. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students'ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.
3. Al-Buxoriy, Imom Ismoil. Hadis. Al jome’ as-sahih. 4-kitob. - T.: - Qomuslar bosh tahririyati, 1997.- 528 b.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

4. At-Termiziy, Abu Iso. Ash shamoil an- nabaviya. - T.: Cho‘lpon, 1993. -112b.
5. Avazov Sh. Maktabda ekologik tarbiya.-Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 62 b.
6. Zebiniso Abdunazarova. (2023). Formation Of The Components Of Ecological Thinking In Primary Class Students. Emergent: Journal Of Educational Discoveries And Lifelong Learning (Ejedl), 4(07), 4–9.
7. Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities Of Forming Students’ Ecological Thinking In The Teaching OfNatural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.
8. Zebiniso Abdunazarova. (2024). Developing The Opportunities OfForming Students’ Ecological Thinking In The Teaching Of Natural Sciences. World Bulletin Of Social Sciences, 32, 80-83.
9. Абдуназарова Зебинисо Формирование ЭкологическогоМышления У Учащихся Начальных Классов "Экономика Исоциум" 11(114) 2023
10. Абдуназарова, З. Х. (2024). Tabiiy Fanlarni O ‘Qitishda O ‘Quvchilar Ekologik Tafakkurini Shakllantirishning O ‘Ziga Xos Xususiyatlari. Inter Education & Global Study, (3 (1)), 123-129

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdunazarova Zebiniso Xudoyshukurovna,** o‘qituvchi, [**Абдуназарова Зебинисо Худойшукуровна,** педагог], [**Zebiniso Kh. Abdunazarova,** teacher]; manzil: O‘zbekiston, 117036, Surxandaryo, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi 43-uy [адрес: Узбекистан, 117036, Город Термез, ул. Barkamol avlod 43], [address: Uzbekistan, 117036, Surkhandarya, Termez city, Barkamol avlod at street, 43]; E-mail: sarvinozraximqulova1990@mail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA TABIATGA NISBATAN IJOBIY MUHITNI SHAKLLANTIRISH

© D.A. Suyunov[1]✉
[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda tabiatni sevish tushunchasini shakllantirish texnologiyasi, tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilar atrof muhitni asrab-avaylash imkoniyatlarini aniqlash, o'quvchilarda ekologik tafakkurni takomillashtirish, o'quvchilarning faktlarni tahlil qilishlari, muammolarni o'rganuvchi turli o'quv fanlariga oid bilimlar uzviyligini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bayon etilgan.

MAQSAD: o'quvchilarning ekologik madaniyatini, ekologik tafakkuri, ularning dunyoqarashi, hatti - harakati, umumiy madaniyati, tabiiy fanlarni o'qitishda atrof - muhit muhofazasi, kreativlik mazmuni, shakllari, o'qitish metodlari, yo'llari, imkoniyatlari va vositalarini maqsadga muvofiq holda ishlab chiqish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o'quvchilar ekologik tafakkurini rivojlantirish o'quvchilarning faktlarni tahlil qilishlari, hodisa va jarayonlarni o'rganishda bog'lanishlar mexanizimini yaratish, insoniy qadriyatlarning kelib chiqishini madaniyat, jamiyat, uning institutlari va shaxsda kuzatilishi, maqsadli va vositali qadriyatlarning korrelyatsion tahlili, ta'lim va tarbiya jarayonida ijobiy munosabat mezonlarini kiritish asosida rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

XULOSA: bolalik davri inson hayotining ilk betashvish bosqichi hisoblanadi. Bolalar atrof-muhit va unda ro'y berayotgan hodisalarni anglashga hissiy yondashadilar. Buning natijasida ularda, asta-sekin hodisalar mohiyatini ifodalovchi shaxsiy qarash, sifat va mustaqil munosabat shakllanib, ularning ruhiyatida saqlanib qoladi.

Kalit so'zlar: ekologiya, maktab, ta'lim, shakl, metod, foydalanish, meros, manba, ekologik ta'lim, o'qitish, tarbiya, munosabat, tushuntirish, , o'qituvchi, boshlang'ich sinf.

Iqtibos uchun: Suyunov D.A. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarda tabiiy fanlarni o'qitishda tabiatga nisbatan ijobiy muhitni shakllantirish. // Inter education & global study. 2024. №8. B.349-354.

ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ОТНОШЕНИЯ К ПРИРОДЕ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЕСТЕСТВЕННЫМ НАУКАМ У УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

© Д.А. Суюнов[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье описана технология формирования понятия любви к природе при обучении естественным наукам в начальных классах, выявление возможностей учащихся по охране окружающей среды, совершенствование экологического мышления, анализ фактов, связь между различными учебными дисциплинами и их роль в решении проблем. Представлены современные образовательные технологии.

ЦЕЛЬ: разработка и совершенствование экологической культуры учащихся, их мышления, мировоззрения, поведения, общей культуры; охрана окружающей среды при обучении естественным наукам. В статье рассматриваются креативные подходы к формированию экологической культуры у учащихся начальных классов, а также возможности усовершенствования этих подходов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования использовались такие методы, как беседа, социо-психологический опрос, наблюдение, а также факторный анализ для подтверждения статистической достоверности полученных результатов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: развитие экологического мышления у учащихся характеризуется анализом фактов, созданием механизмов связи при изучении явлений и процессов, наблюдением за человеческими ценностями в культуре, обществе, его институтах и личности, корреляционным анализом целевых и инструментальных ценностей, внедрением позитивных критериев отношений в процессе обучения и воспитания. Разработаны предложения и рекомендации по развитию экологического мышления учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: детство считается первым беззаботным этапом жизни человека. Дети эмоционально воспринимают окружающую среду и происходящие в ней явления. В результате этого у них постепенно формируются личные взгляды, качества и независимые отношения, которые сохраняются в их психике.

Ключевые слова: экология, школа, образование, форма, метод, использование, наследие, источник, экологическое образование, обучение, воспитание, отношение, объяснение, учитель, начальные классы.

Для цитирования: Суюнов Д.А. Формирование положительного отношения к природе при обучении естественным наукам у учителей начальных классов. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 349-354.

FORMING A POSITIVE ATTITUDE TOWARD NATURE IN PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN THE TEACHING OF NATURAL SCIENCES

© D.A. Suyunov[1]✉
[1]Termiz State Pedagogical Institute, Termiz, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

INTRODUCTION: this article discusses the technology for forming the concept of love for nature in the teaching of natural sciences in primary school, identifying opportunities for students to protect the environment, improving environmental thinking, analyzing facts, and the connection between various academic disciplines in addressing problems. Modern educational technologies are also presented.

AIM: to develop and improve students' ecological culture, thinking, worldview, behavior, and general culture; to explore the protection of the environment in the teaching of natural sciences. The article also discusses creative approaches to forming ecological culture in primary school students and the potential for improving these approaches.

MATERIALS AND METHODS: research methods such as interviews, socio-psychological surveys, and observation were used in the study. The statistical reliability of the results was confirmed through factor analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: the development of students' environmental thinking is characterized by the analysis of facts, the creation of mechanisms of connection when studying phenomena and processes, observing human values in culture, society, its institutions, and individuals. A correlation analysis of target and instrumental values was conducted, with positive relationship criteria being integrated into the teaching and educational process. Suggestions and recommendations were developed to improve students' environmental thinking.

CONCLUSION: childhood is considered the first carefree stage of a person's life. Children emotionally approach their understanding of the environment and the phenomena occurring within it. As a result, they gradually form personal views, qualities, and independent relationships that are retained in their psychology.

Key words: ecology, school, education, form, method, use, heritage, source, ecological education, teaching, upbringing, attitude, explanation, teacher, primary school.

For citation: Suyunov D.A. (2024) 'Forming a Positive Attitude Toward Nature in Primary School Teachers in the Teaching of Natural Sciences', Inter education & global study, (8), pp. 349-354. (In Uzbek).

Respublikamizda ekologik ta'lim samaradorligining nazariy asoslangan va tajriba-sinovlar tasdiqlangan ko'rsatkichlari pedagogika instituti bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi darajasining oshishini ko'rsatadigan ma'lumotlarni obyektiv baholash imkonini beradi. Ekologik ta'lim insonning atrof-muhit bilan munosabatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan; hayot sifatini belgilaydigan tabiatning bir qismi sifatida o'zini anglash; uning holati uchun javobgarlikni shakllantirish. Bu tabiiy muhitni muhofaza qilish va himoya qilish, uning ma'naviy va moddiy qadriyatlarini o'zlashtirish majburiyatlarini chuqur anglash orqali pedagogik ta'sir subyektining ufqlarini sezilarli darajada kengaytirish va boyitishga qaratilgan ekologik ta'limning rivojlanayotgan funksiyasidan dalolat beradi. Zamonaviy sivilizatsiyani saqlab qolish va yanada rivojlantirish sharti. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ilmi hamda amaliyoti o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

XX asr oxirida ekologik ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasini ishlab chiqishdagi dastlabki qadam tabiatni muhofaza qilish vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan, odamning tabiatni muhofaza qilish faoliyati esa uning asosiy mazmuniga aylangan. Biroq tabiatni muhofaza qilish ta'lim - tarbiyasi, o'sha paytdagi tajribalar ko'rsatganidek, odamning tabiatga uyg'un munosabatini shakllantirishda muhim o'rin egallamagan.

Atrof-muhit va tabiat – inson uchun go'yoki beshik, bamisoli ona quchog'i. Uning bag'ri keng, qalbi esa inson uchun hamisha ochiq. U o'z saxovati, noz-ne'matlarini insonlardan aslo ayamaydi. Yer esa jamiki boyliklar, noz-ne'matlar manbai. Shu bois insoniyat tomonidan e'zozlanib, ulug'lanib, ona - zamin deya e'tirof etiladi. Bugungi kunda tahdid solayotgan eng katta muammo – ekologik halokatning oldini olishda atrof-muhitni mehr-muhabbat va shafqat bilan muhofaza qilish, e'zozlash insoniyatga yordam berishi mumkin.

Jonajon tabiatimizdan foydalanish – jamiyatning moddiy va ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiiy sharoit va resurslar xilma-xilligidan foydalanish shakllari va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlari majmui. Tabiatdan foydalanish bo'yicha har bir tadbir uni muhofaza qilish bilan birga qo'shib olib borilgandagina atrof-muhit ifloslanishining oldini olish mumkin bo'ladi.

Bu jamiyatning iste'molchilikdan tabiatni muhofaza qilishgacha bo'lgan tashqi dunyo bilan munosabatlar tabiatini tubdan o'zgartirishga tayyor emasligidan dalolat beradi; jonlantirish zarurati milliy tizimning barcha qismlarida ekologik ta'limga qaratilganligida. Tabiatga bo'lgan ijobiy munosabat ustunligidan dalolat beradi. Fikrlash jarayonlarining ta'siri uning hissiylik darajasi bilan bog'liq. Hissiy jihatdan rang-barang mazmunga ega bo'lib, u nafaqat subyektning ma'lum bir lahzadagi yoki hozirgi vaziyatdagi holatini, balki uning ma'lum bir davrdagi rivojlanish yo'nalishini ham aks ettiradi.

Yuqorida ayib o'tilganidek ijobiy psixo-emotsional fon yaratadi, qadriyatlarni o'zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlar vositalaridan biri tabiatdir, ekologik ta'lim, asosiy uning vazifasi shaxsiy rivojlanish va takomillashtirish maqsadlari tizimi sifatida hayotiy qadriyatlar yo'nalishlarini shakllantirishdir. Atrof-muhit bilan o'zaro munosabatda bo'lish uchun keng imkoniyatlar yaratadi o'z-o'zini namoyon qilish, o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi bilish, bu kasbiy pedagogik ekologik makonni sezilarli darajada kengaytiradi.

Yuqori daraja kasbiy va pedagogik ekologik tayyorgarlik ekologik ta'limni uning ajralmas tarkibiy qismi sifatida idrok etishga yordam beradi, imkon beradi, bo'lajak o'qituvchining shaxsiy qadriyatlari tizimini qayta qurish; ijtimoiy shartli standartlarni o'rganish xulq-atvor normalari va qoidalarining tuzilishi sifatida tabiat bilan o'zaro munosabat va uning xavfsizligini ta'minlash.

Tizim-inergetik metodologiyasi va ijtimoiy-pedagogik kasbiy faoliyatni tashkil etish algoritmini ishlab chiqishga imkon berdi. Ekologik ta'limga yo'naltirilgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ekologik tayyorgarligining nazariy modelini ishlab chiqish. Tabiatdagi ekologik ta'limga yo'naltirilgan bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik ekologik tayyorgarligi jarayonini tashkil etish algoritmi ekologik ta'lim natijalarini bashorat

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

qilish samaradorligi bir qator omillar bilan bog‘liq: bu jarayonning tarkibiy murakkabligi, uning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning ko‘pligi; ko‘p darajali ular o‘rtasidagi munosabatlar;

Ekologik ta’limning maqsad va vazifalarining vositalar, usullar, tashkil etish, shart-sharoitlarni tanlash, obyektiv baholash mezonlarini ishlab chiqish va boshqalaralar bilan o‘zaro bog‘liqligi. Ekologik bilim tizimlari, amaliy ekologik faoliyat qobiliyatlari va malakalari. Alohida ahamiyatga ega nazariy model ekologik ta’limni faoliyatning boshqalara sohalaridan tashqarida ko‘rib chiqish mumkin emasligi sababli olinadi: o‘quv, ilmiy, jamoat, madaniy. Bu ekologik ta’limning maqsadlari, vazifalari, funksiyalari va tamoyillarini ishlab chiqishni talab qiladi, ularni bilish imkon beradi jarayonni boshqalararish mexanizmini professional tarzda aniqlang pedagogik o’z bo‘lajak o‘qituvchilarini pedagogik ekologik tarbiyalash.

Tabiatni muhofaza qilish – hozirgi va kelgusi avlodlar manfaatlari yo‘lida tabiiy resurslar va tabiiy muhitni, jumladan, yer, yer osti boyliklarini, flora va faunada turlar xilma-xilligini, suv va havoning tozaligini saqlash, to‘g‘ri foydalanish va qayta tiklashga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan mahalliy, davlat va xalqaro chora-tadbirlar majmui.

Ekologiya, pedagogika, ilmiy tadqiqotlar natijalarini qiyosiy tahlil qilish va umumlashtirish, psixologiya, shuningdek, tadqiqotimiz ma’lumotlari aniqlashga imkon berdi. Ekologik ta’lim jarayonini tizimli-strukturaviy ta’minlash foydalanish bilan bog‘liq integrativ asoslangan, shaxsiy faoliyat, sinergetik va boshqalara yondashuvlar. Bu munosabatlarni hisobga olgan holda o‘rganilayotgan jarayonni ko‘rib chiqish imkonini beradi, uning turli tarkibiy qismlari va elementlarining o‘zaro bog‘liqligi.

Integratsiyalashgan yondashuv keng qamrovli dasturni ta’minlaydi, qaratilgan ta’lim jarayoni tizimining elementlari belgilangan maqsadga erishish uchun. Ushbu yondashuv inklyuziyaga hissa qo‘shadi, metodologiyasi tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim muhitida o‘quvchilarning ekologik tarbiyasi pedagogika universiteti o‘rganishga asoslangan o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini tashkil etish ijtimoiy va tabiat hodisalari. Sinergiyada topiladi tizimli yondashuv g‘oyasini amalga oshirish, kibernetika va boshqalara bilimlarni qadim zamonlardan to hozirgi davrgacha ijtimoiy rivojlanish. Sinergetik yondashuv tabiatdan o‘rganishni talab qiladi; asosiy tadqiqot usullari sifatida tahlil, tajriba-sinov va hokazolardan foydalanadi, uslubiy jihatdan farqlanadi ongning stereotiplarini engishga yordam beradigan everistik yo‘nalish;

Bu yondashuv ta’lim tizimining o‘zaro ta’sir qilish usullarini aniqlash va foydalanish imkonini beradi, boshqalaralar bilan universitet davlat tashkilotlari, qo‘mitalar, markazlar; mumkin ularning o‘zgaruvchanligi asosida birgalikda rivojlanish yo‘nalishlari; atrof-muhit parametrlarining holati to‘g‘risida yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish asosida qayta aloqaning ta’sirini hisobga olish va hokazo.

Asosiy g‘oya shaxsan faoliyat yondashuvi subyektni uning fazilatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari namoyon bo‘ladigan faoliyatga kiritish zaruratidan iborat; individual rivojlanish va takomillashtirishning istiqbollari va asosiy yo‘nalishlari ochiladi. Amaliy ekologik faoliyat

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ko‘nikmalarining etishmasligi asosiy hisoblanadi, muhitga to‘sqinlik qiladi. Ta’lim yuqori o‘ziga xosliklar kasbiy-pedagogik ta’lim uning shakllanishiga qaratilganligidan iborat, mutaxassis o‘qituvchilar bilan o‘rta maktab kasbiy-pedagogik bolalar uchun muhabbat, sabr-toqat, adolat va boshqalaralar, shaxsiy halollik, mustaqillik, mehnatsevarlik va boshqalara xossalari.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, atrof-muhitni muhofaza qilish – insoniyatning sog‘lom yashashi va faoliyat ko‘rsatishi muhitini, ya’ni tabiiy, tabiiy-antropogen va antropogen obyektlarni, ekologik tizimlarni va tabiiy resurslarni saqlash, qayta tiklash va ulardan to‘g‘ri foydalanishga, odam faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini cheklashga, mahalliy va mintaqaviy qulay sharoitlarni bir maromda saqlab, shaxsning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatini uyg‘unlashtirish va ekologik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Vvedenie v nauchnoe issledovanie po pedagogike. /Pod red. V.I. Juravleva - M., 1998
13. Ismailova Z. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. Uslubiy qo‘llanma. - T., 2001
2. Suyunov D.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda matematika fanini o‘qitishda aqliy tafakkurini shakllantirishda mental arifmetikaning o’rni. “Boshlang‘ich ta’lim: samarali ta’lim amaliyoti, muammolari, istiqbollari”., mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. 17-18-may 2024-yil. II qism
3. Kurbanov Sh., Seytxalilov E. Natsionalnaya model i programma po podgotovke kadrov dostijenie i rezultat nezavisimosti Uzbekistana. - T., 1998
4. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. (Tuzuvchi O. Hasanboeva). - T., 1993
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. - T., 2010
6. G‘aybullayev N. va boshqalar. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. - T., 2005
7. Suyunov D.A. Improving the use of the heritage of central asian thinkers in forming ecological thinking in primary school students. Web of Scientist: International Scientific Research Journal ISSN: 2776-0979 Impact Factor: 7.565 volume 3, issue 3, March - 2022 -P.159**-**165.
8. Suyunov D.A. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirish vositalari // Science and innovation. International scientific journal//2022 №5 -P.43-47.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**D.A. Suyunov,** Boshlang‘ich ta’lim dotsenti. p.f.b.f.d (PhD), [**Д.А. Суюнов,** Доцент кафедры начального образования, кандидат педагогических наук (PhD)], [**D.A. Suyunov**, Associate Professor of Primary Education, PhD in Pedagogy]; manzil: O‘zbekiston, Termiz, At-Termiziy ko'chasi, 1A-uy [адрес: Узбекистан, ул. Ат-Темезий,1A, г. Термез], [address: Uzbekistan, 1A, At-Termiziy st., Termiz city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

IJTIMOIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'SMIRLARNING LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

© D.B. Gadoeva[1]✉

[1]Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada o'smirlik davridagi yoshlarni zamonaviy ijtimoiy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, tarbiyalash ularda liderlik kompetensiyalarini shakllantirish yo'llari yoritib o'tilgan.

MAQSAD: ijtimoiy pedagogik texnologiyalardan turlicha yo'nalishda foydalangan holda darslar tashkil etish ularda muloqot qobiliyati, jamoa boshqaruvi, mas'uliyat, tashabbuskorlik, liderlik kompetensiyalarini turli texnologiyalar asosida takomillashtirish lozim. O'smirlik davri eng murakkab va takrorlanmas o'zgacha davr ekanligi inobatga olinib o'ta e'tiborli yondashish zarurligi yuzasidan yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: yoshlarda liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishda ularning madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir fuqaro shaxsini inson sifatida hurmat qilish unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, ishga ijodiy yondashish talab qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o'rganilgan ilmiy qarashlarni umumlashtirish va tahliliy o'rganish natijasida liderlik komopetensiyalariga ta'limiy nuqtai nazardan quyidagi yondashuvni keltirish mumkin, ya'ni liderlik - bu inson o'zining boshqarov mahorati va samarali mehnat faoliyati, shaxsiy hamda kasbiy manfaatlari, o'z maqsadlariga erishishni ta'minlashga undaydigan, ehtiyojlarini uyg'otadigan va rag'batlantiradigan kuchlarning doimiy faolligi tushuniladi.

XULOSA: zamonaviy jamiyatda o'smirlarning liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Jamiyatdagi o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlar va texnologik rivojlanish davrida o'smirlar jamiyatning faol a'zolari sifatida o'z rolini topishlari va shakllantirishlari kerak. Buning uchun ijtimoiy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim berish, o'smirlarning liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy pedagogik texnologiya, liderlik kompetensiyalari, muloqot qobiliyati, tashabuskorlik, jamoa boshqaruvi, loyiha texnologiyalari, o'yin texnologiyalari, maslahat texnologiyalari, treninglar.

Iqtibos uchun: Gadoeva D.B. Ijtimoiy pedagogik texnologiyalar asosida o'smirlarning liderlik kompetensiyalarini takomillashtirish. // Inter education & global study. 2024. №8. B.355-361.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЛИДЕРСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

© Д. Б. Гадоева[1]✉
[1]Навоийский государственный педагогический институт, Навоий, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье освещаются пути формирования лидерских компетенций у подростков на основе современных социальных педагогических технологий.

ЦЕЛЬ: целесообразно организовывать уроки с использованием различных направлений социальных педагогических технологий, чтобы развивать у подростков коммуникативные навыки, управление командой, ответственность, инициативность и лидерские компетенции. Учитывая, что подростковый возраст является сложным и неповторимым, необходимо уделять этому периоду особое внимание.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе развития лидерских компетенций у подростков важно учитывать их культурный уровень, соблюдать педагогическую этику, уважать каждого человека как личность, не забывая о требовательности. Также необходимо обладать организационными навыками и творческим подходом к работе.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: обобщив и проанализировав изученные научные подходы, можно предложить следующий взгляд на образовательное развитие лидерских компетенций: лидерство — это постоянная активность сил, побуждающих человека совершенствовать свои управленческие навыки, стремиться к достижению личных и профессиональных целей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие лидерских компетенций у подростков является одной из актуальных задач современного общества. В условиях социальных изменений и технологического прогресса подростки должны находить и укреплять свою роль как активные члены общества. В этом процессе важную роль играют социальные педагогические технологии.

Ключевые слова: социальная педагогическая технология, лидерские компетенции, коммуникативные навыки, инициативность, управление командой, проектные технологии, игровые технологии, консультативные технологии, тренинги.

Для цитирования: Гадоева Д.Б. Совершенствование лидерских компетенций подростков на основе социально-педагогических технологий. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 355-361.

IMPROVEMENT OF LEADERSHIP COMPETENCIES OF TEENAGERS ON THE BASIS OF SOCIAL PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

© Dildora B. Gadoeva[1]✉
[1]Navoiy State Pedagogical Institute, Navoiy, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Annotation

INTRODUCTION: this article highlights the methods for developing leadership competencies in adolescents through modern social pedagogical technologies.

AIM: it is important to organize lessons using various approaches to social pedagogical technologies to improve communication skills, team management, responsibility, initiative, and leadership competencies in adolescents. Considering that adolescence is a complex and unique period, it requires a particularly attentive approach.

MATERIALS AND METHODS: in enhancing leadership competencies among adolescents, it is necessary to consider their cultural level, adhere to pedagogical ethics, respect each individual as a person without forgetting the importance of maintaining standards, possess organizational skills, and adopt a creative approach to work.

DISCUSSION AND RESULTS: by summarizing and analyzing the studied scientific views, the following educational approach to leadership competencies can be proposed: leadership is the continuous activation of forces that encourage a person to improve their management skills, pursue personal and professional goals, and maintain motivation.

CONCLUSION: developing leadership competencies in adolescents is one of the pressing issues in modern society. In the context of social changes and technological progress, adolescents must find and establish their role as active members of society. In this process, social pedagogical technologies play a crucial role.

Key words: social pedagogical technology, leadership competencies, communication skills, initiative, team management, project technologies, game technologies, advisory technologies, training sessions.

For citation: Dildora B. Gadoeva (2024) 'Improvement of leadership competencies of teenagers on the basis of social pedagogical technologies', Inter education & global study, (8), pp. 355-361. (In Uzbek).

O'tish davri yoki o'smirlik bu — bolaning katta insonga aylanishining uzoq va qiyin bosqichi. JSST o'smirlarni 10 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan bolalar va yoshlar deb belgilaydi. Aynan bu davrda psixologik, jismonan, biologik o'zgarishlar o'smirlarda jadallik bilan kechadi. O'smirlik davrida ijtimoiy muhit-ta'lim, jamiyat, do'stlar, oila yetakchilik bilan ularning to'g'ri yo'nalish bo'yicha shakllanishi, ravnaq topishiga, mana shu davrdan yengillik bilan o'ta olishiga ko'maklashishi zarur bo'ladi. Aynan bu davr yuksaklikka yetaklovchi, yashirin qirralarni namoyish etish uchun eng maqbul davr bo'lib, o'smirlaning jamiyatda faol o'ringa ega bo'lishi hamda liderlik, yetakchilik, faollik kompetensiyalarini yuzaga olib chiqa olishi va bunga ijtimoiy ko'mak zarurligi bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy pedagogik texnologiyalar tushunchasi.

Ijtimoiy pedagogik texnologiyalar — bu pedagogik jarayonda ijtimoiy muhitni va resurslarni samarali qo'llash orqali yoshlarning bilim olish, mahorat va kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan usullar va vositalarning majmuasi hisoblanadi. Bu texnologiyalar jamiyatdagi o'zgarishlar, o'smirlar bilan muloqot qilish va ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

usullariga moslashtiriladi. Asosiy vazifa esa o'smirlarning individual imkoniyatlarini rivojlantirish va ularda mustaqil fikrlash, yetakchilik,liderlik qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Liderlik kompetensiyalari nima? Liderlik kompetensiyalari bu o'smirlarning o‘ziga xos qobiliyatlari bo‘lib, ularga guruhda yetakchilik qilish, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkonini beradi. Yetakchilik qobiliyatlari rivojlangan o'smirlar kelajakda ishbilarmonlik, tadbirkorlik yoki ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishga katta imkoniyatga ega bo'ladi. Bu kompetensiyalar quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Muloqot qobiliyati: samarali va to'g'ri muloqot qilish, o'z fikrini aniq yetkazish.

Tashabbuskorlik: yangi g‘oyalar va loyihalarni ilgari surish va ularni amalga oshirish qobiliyati. Jamoa boshqaruvi: guruh ishlarini tashkil etish va boshqarish, jamoani birlashtira olish. Mas'uliyat: qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish. O’quvchilarda liderlik kompetensiyasining shakllanishi besh bosqichdan iborat bo‘lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

-o’quvchining qobiliyatni aniqlash;

-o’quvchilarga ta’lim-tarbiya berish va ularni komil inson qilib shakllantirish;

-chiniqtirish (harbiy mashqlar, IIB xodimlarni odob-axloq kodeksini bilish kompetensiyasi rivojlantirish)

-kichik va katta hajmdagi topshiriqlar berish;

-ishonch (guruhda lider bo’lish imkoniyatini berish);

Ijtimoiy pedagogik texnologiyalar va liderlik kompetensiyalarining o‘zaro aloqasi.

Ijtimoiy pedagogik texnologiyalar o'smirlarning liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar o'quv-tarbiyaviy jarayonda turli usullar va strategiyalarni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Quyidagi pedagogik texnologiyalar liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘mak beradi:

1. Loyiha texnologiyalari: O'smirlarni loyihalar asosida ishlashga jalb qilish ularda tashabbuskorlik va ijodkorlikni rivojlantiradi. Loyihalarda yetakchi bo'lish, jamoani tashkil qilish va loyihaning bajarilishini nazorat qilish ularda mas'uliyatni oshiradi.

2. O'yin texnologiyalari: Rol o'ynash va turli o'yinlar orqali o'smirlar turli ijtimoiy vaziyatlarni o'rganadi,rollarda yashirin qobiliyatlar yuzaga chiqishi mumkinligi e’tiborga olinib ungga ko’ra yondashiladi. Muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va rahbarlik qobiliyatlarini oshiradi. Bu usul ularning ijtimoiy tajribasini boyitadi.

3. Treninglar va mahorat darslari: Treninglar orqali o'smirlarning muloqot, jamoa boshqaruvi, muammolarni hal qilish qobiliyatlari takomillashadi. Liderlikka oid maxsus treninglar ularni liderlik qobiliyatlarini amalda qo'llashga tayyorlaydi.

4. Maslahat texnologiyalari: O'smirlar bilan individual yoki guruhiy maslahatlar o'tkazish orqali ularning o'ziga ishonchini oshirish, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Ushbu texnologiya o'smirlarning qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi va ular yetakchilik qobiliyatlarini kuchaytiradi.

O'smirlar liderligini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

O'smirlarning liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish nafaqat individual darajada, balki jamiyatda ham katta ahamiyatga ega. Yetakchi bo'lishga intilgan va bu qobiliyatlarni egallagan o'smirlar jamiyatda faol fuqarolar sifatida o'z o'rinlarini topadilar, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirok etadilar. Shuningdek, yetakchilik kompetensiyalari rivojlangan yoshlar kelajakda rahbarlik vazifalarini bajarishda ham muhim rol o'ynaydilar.O'qituvchi tomonidan quyidagi qoidalar amalga oshirilsa o'quvchilarda lider qobiliyat shakllanadi:

-o'quvchi nafaqat o'quv mashg'ulotining maqsadini, balki uning yakunida taxminan qanday o'quv natijalarga erishish mumkinligini ham bilishi zarur;

-o'quv natijalariga erishish yo'llari ko'rsatilganda - berilgan ishga ma'lum bo'lgan usul yoki texnikani o'rganish va qo'llashni yoki ishlar tartibi bo'yicha batafsil yo'riqnoma yoki ko'rsatmani mustaqil aytib berish zarur;

-o'quvchi nazoratning shakli va turi: yozma-esse, hisobot, referat va boshqalar, og'zaki-taqdimot, savollarga javob berish va boshqalar, shuningdek har bir o'quv topshirig'ini baholashni sifat va miqdoriy mezonlari bilan tanishtirilgan bo'lishi zarur;

-o'zini o'z tekshirish uchun har bir o'quv mashg'ulotiga tavsiya etilayotgan topshiriq (test, savol, vazifa va mashqlar) joriy pedagogik nazoratni va talaba tomonidan ko'zlanayotgan ta'limiy maqsadlarga erishish darajasini doimiy o'zi baholashni ta'minlaydi;

-“O'quv fani bo'yicha o'quvchini o'quv natijalarining yutuqlar varag'i” ishlab chiqish. U o'quvchi tomonidan reyting ballarning to'planishi to'g'risida tezkor ma'lumotlarni olishning vositasi hisoblanadi.

Ammo yana bir muhim jihat borki bu ham bo’lsa o’smirlardagi ma’naviy bo’shliqdir. Ba'zi lisey o`quvchilarining ongidagi ma'naviy bo'shliqning ijtimoiy kelib chiqishi sababalarini aniqlash, ularni hal qilish mexanizmini yaratish kabi yangi muammolarning yechimini topish uchun pedagogik va sotsiologik tushunchalarning tutashligiga asoslangan yangi metodologiya talab etmoqda. Inson shaxsini shakllantirishda undagi tabiiy (irsiy) va ijtimoiy xususiyatlarini, uning oliy nerv faoliyati imkoniyatlarini hisobga olib yondashmoq lozim. Inson organizmining biologik va sub'ektiv (shaxsiy tomonlari) asosida o'z-o'zini tarbiyaga olish, sharoitga moslashish, ma'lum ob'ektga yo'naltirish qonunlarini bilish asosida uning tarbiyasini tashkil etish lozim. Shaxs shakllanishi jarayonida ichki va tashqi ta'sir imkoniyatlari o'zaro omuxta qilish, tarbiya jarayonini yoshlar faoliyatining xususiyatlari, qizishini anglash kabi muhim xususiyatlari asosida shaxsning erkinligi va g'ururini paymol qilmasdan, demokratik, insonparvarlik va milliy tamoyillarga tayanib, ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish davr talabidir.

Yoshlarimiz, farzandlarimiz ongi, tafakkurini yot va zararli ta'sirlardan himoyalash, ichki dunyosini komillik sari yo'naltirish orqali bo'shliqlarni to'ldirish bugunning dolzarb masalalaridan biridir. Nega deganda, biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz.Qaysi mamlakatda iste'dodli, fidoyi hamda ijodkor yoshlar qanchalik

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ko'p bo'lsa, o'sha erda ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot ko'zga tashlanadi. Kelajagini o'ylagan davlat ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ijodiy faoliyatga keng yo'l ochib beradi. “O'zbekiston yoshlari - 2030” konsepsiyasi loyihasida “kadrlarning turli xil salbiy vaziyatlarga chidamlilik va mojarolarni boshqarish kabi qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida psixologik va sotsiologik testlar o'tkazish hamda ularni tegishli rahbar kadrlar zaxirasiga kiritish tizimini ishlab chiqish” vazifasi belgilanganligi yosh rahbarlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini yuksaltirishni talab etadi. Ijtimoiy pedagogik texnologiyalar asosida o'smirlarning liderlik kompetensiyalarini takomillashtirish ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar orqali o'smirlar mustaqil, mas'uliyatli va tashabbuskor shaxslar sifatida jamiyatda o'z o'rnini topadi. Shunday qilib, yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi lozim.O'smirlar yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish kelajakda jamiyatda faol va muvaffaqiyatli shaxslar sifatida o'z o'rinlarini topishlariga yordam beradi.

Takliflar:

-ijtimoiy pedagogik texnologiyalar asosida mashg’ulot darslari tashkil etish va buning doimiy tashkil etilishiga erishish;(haftada 2 yoki 3 kunga mo’ljallanishi)

-ijtimoiy institutlar faoliyatini o’rgatish;

-sayohatlar tashkil etish, ijtimoiy turizmni takomillashtirish;

-maslahat treninglari va o’rnak qilib ko’rsata oladigan boshqaruvchi, lider rahbarlar uchrashuvini tez-tez uyushtirish;

-o’smirlarining o’z ishtiroklari yordamida turli so’rovnomlar tashkil etish va bu so’rovnomalarga o’zlarini mas’ul qilib qo’yish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. G’aniyev A.G “10-11-sinf va akademik litsey o’quvchilarida “to’la fikrlash” ko’nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish” Monografiya.Qarshi “Fan va ta’lim nashriyoti 2021 y.
2. Amonov, B. (2021). Pedagogik texnologiyalar va ularning o'smirlarni tarbiyalashdagi o'rni. Toshkent: O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi.
3. Asqarov, O. (2020). Liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar. Samarqand davlat universiteti nashri
4. Rahimova, D. (2019). O'smirlarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogik Innovatsiyalar Jurnali, 3(1), 45-50.
5. Karimova, N. (2022). O‘quv jarayonida loyihaviy faoliyatni tashkil etish va uning ta’limiy samaradorligi. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.
6. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

✉**Gadoeva Dildora Baxtiyorovna,** mustaqil tadqiqotchi, [**Гадоева Дильдора Бахтиёровна,** независимый исследователь], [**Dildora B. Gadoeva,** independent researcher]; manzil: O‘zbekiston, Navoiy sh., Ibn Sino ko'chasi, 45-uy [адрес: Узбекистан, ул. Ибн Сина, 45, г. Навоий], [address: Uzbekistan, 45, Ibn Sina st., Navoiy city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

MAKTABGACHA TA’LIM SIFATINI TA’MINLASHDA ZAMONAVIY METODIKALARNING O‘RNI

© M.R. Isxakova[1]✉

[1]Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada maktabgacha ta’lim sifatini ta’minlashda kafolatgan samarali natijaga asoslangan malaka oshirish tizimi, zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish, uning potentsial afzalliklari va amalga oshirish strategiyalari yoritilgan.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etishning keng qamrovli asoslarini ishlab chiqish va baholashdan iborat. Tadqiqot zamonaviy metodikalarni erta bolalik ta’limiga integratsiyalashning samarali strategiyalarini aniqlash, uning bolalar rivojlanishiga ta’sirini baholash hamda o‘qituvchilar va siyosatchilar uchun tavsiyalar berishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot miqdoriy va sifatli tadqiqotlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Materiallarga ta’lim resurslari, STEAM o‘quv dasturlari bo‘yicha qo‘llanmalar va o‘quv vositalari kiradi. Usullar turli maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan so'rovlar, suhbatlar va kuzatuv tadqiqotlarini o'z ichiga oladi. Miqdoriy ma'lumotlarni tahlil qilish bolalarning kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarini oldindan va keyingi baholashni o'z ichiga oladi, sifatli ma'lumotlarni tahlil qilish esa o'qituvchilar va ota-onalarning tajribalari va tasavvurlarini qo'lga kiritish uchun suhbat va kuzatuv stenogrammalarini tematik kodlashni o'z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqotlarimiz natijasida andragogik va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalangan holda pedagogik tadqiqotlarda tajriba-sinov natijalari tahlilini o‘tkazish sifatini oshirish maqsadida mualliflik metodikasi ishlab chiqdik va tajriba-sinov ishiga joriy qildik. Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov natijalariga ko‘ra biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodika va model samarali ekanligi isbotlandi.

XULOSA: bugungi kunda zamonaviy globallashuv sharoitida yuqori malakali mutaxassis-pedagoglarning malakasini oshirish jarayonini andragogik yondashuv asosida takomillashtirishda kafolatlangan samarali natijani vujudga keltiruvchi yo‘nalish juda katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: andragogik yondashuv, metodika, trening, yaxlitlik, uzluksizlik, hayot davomida ta’lim.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Iqtibos uchun: Isxakova M.R. Maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy metodikalarning o'rni. // Inter education & global study. 2024. №8. B.362-370.

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДИК В ОБЕСПЕЧЕНИИ КАЧЕСТВА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

© М.Р. Исхакова[1]✉
[1]Института переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных учреждений, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье освещается система повышения квалификации, основанная на гарантированном эффективном результате для обеспечения качества дошкольного образования, создание развивающей образовательной среды на основе современных образовательных технологий, ее потенциальные преимущества и стратегии реализации.

ЦЕЛЬ: цель данного исследования заключается в разработке и оценке комплексных основ внедрения современных технологий в дошкольных учреждениях. Исследование направлено на определение эффективных стратегий интеграции современных методик в раннее детское образование, оценку их влияния на развитие детей, а также предоставление рекомендаций для педагогов и политиков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование использует смешанные методы, объединяющие количественные и качественные исследования. Материалы включают образовательные ресурсы, учебные пособия и инструменты по программам STEAM. Методы включают опросы, интервью и наблюдательные исследования, проводимые в различных дошкольных учреждениях. Количественный анализ включает оценку когнитивных и социальных навыков детей до и после, а качественный анализ — тематическое кодирование стенограмм интервью и наблюдений с целью выявления опыта и представлений педагогов и родителей.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в результате наших исследований мы разработали авторскую методику и внедрили ее в экспериментальное исследование с целью повышения качества анализа результатов педагогических исследований с использованием андрагогического подхода и подходов, направленных на саморазвитие. По результатам педагогического эксперимента было доказано, что разработанная методика и модель эффективны.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в условиях современной глобализации большое значение имеет направление, обеспечивающее гарантированный эффективный результат в процессе повышения квалификации высококвалифицированных специалистов-педагогов на основе андрагогического подхода.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Ключевые слова: андрагогический подход, методика, тренинг, целостность, непрерывность, обучение в течение всей жизни.

Для цитирования: Исхакова М. Р. Роль современных методик в обеспечении качества дошкольного образования. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 362-370.

THE ROLE OF MODERN METHODOLOGIES IN ENSURING THE QUALITY OF PRESCHOOL EDUCATION

© Mavlyuda R. Iskhakova [1]✉
[1]Institute for Retraining and Professional Development of Directors and Specialists of Preschool Education Institutions, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article highlights the qualification improvement system based on guaranteed effective results to ensure the quality of preschool education, the creation of a developmental educational environment based on modern educational technologies, its potential advantages, and implementation strategies.

AIM: the goal of this research is to develop and assess comprehensive foundations for implementing modern technologies in preschool institutions. The study aims to identify effective strategies for integrating modern methodologies into early childhood education, assess their impact on children's development, and provide recommendations for educators and policymakers.

MATERIALS AND METHODS: the research employs mixed methods combining quantitative and qualitative studies. Materials include educational resources, guides, and tools for STEAM curricula. Methods include surveys, interviews, and observational studies conducted in various preschool institutions. Quantitative data analysis involves pre- and post-assessment of children's cognitive and social skills, while qualitative data analysis includes thematic coding of interview and observation transcripts to capture the experiences and perceptions of teachers and parents.

DISCUSSION AND RESULTS: as a result of our research, we developed an original methodology and implemented it in experimental studies to improve the quality of pedagogical research analysis using an andragogical approach and self-development-oriented methods. The pedagogical experiment results demonstrated that the developed methodology and model are effective.

CONCLUSION: in the context of modern globalization, the direction that ensures guaranteed effective results in the process of improving the qualifications of highly skilled pedagogical specialists based on an andragogical approach is of great importance.


Key words: andragogical approach, methodology, training, integrity, continuity, lifelong learning.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

For citation: Mavlyuda R. Iskhakova. (2024) 'The Role of Modern Methodologies in Ensuring the Quality of Preschool Education', Inter education & global study, (8), pp. 362-370. (In Uzbek).

Faqat kafolatgan samarali natijaga asoslangan malaka oshirish tizimigina maktabgacha ta'lim tizimiga sifatli, yangicha fikrlaydigan va zamonaviy metodika va texnologiyalar bilan qurollangan yetuk pedagog mutaxassislarni yetkaza oladi.

Biz tadqiqotimizda andragogik va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida MTT pedagoglarining malakasini oshirish jarayoni metodikasini quyidagi ko'rinishda yaratdik. [1]



Mazkur metodikaning "Dastlabki shart-sharoitlarni belgilash va ta'minlash (o'quv reja va dasturlar)" qismida malaka oshirish tizimining barcha toifadagi MTT pedagoglari (tarbiyachi, tarbiyachi-metodist, til o'qituvchisi, musiqa rahbari)ga tadqiqotimiz doirasida aprobatsiyadan o'tkazilgan "Pedagogik kadrlarni rivojlantirishda andragogik yondashuv" o'quv modulidan tuzilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ilmiy kengashining 2021-yil 3-dekabrdagi 10-sonli yig'ilishida ma'qullangan ishchi o'quv dasturi va uslubiy-metodik majmua bo'yicha mashg'ulotlar olib borildi. O'quv modulda tinglovchi (MTT pedagoglari)larini andragogik yondashuvning ahamiyatini bilib olishlari, ushbu yondashuv asosida pedagoglar bilan ishlash ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari maqsad qilib olingan bo'lib, kutilayotgan natija sifatida quyidagilar belgilangan: pedagog kadrlarni rivojlantirishning andragogik asoslari, tamoyillari va didaktil omillari haqida bilimlarga ega bo'lish; pedagogika va andragogikaning farqlarini tahlil qilish va undan ish faoliyatda o'rinli foydalana olish; andragogik yondashuvga asoslangan texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash; malaka oshirish kursida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarga tayanib

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

andragogik yondashuv asosida dastur ishlab chiqa olish va o‘quv kurs (trening, seminar va h.o.)larni tashkil etish va olib bora olish. Ushbu maqsad va natijalarga erishish uchun “Pedagog kadrlarni rivojlantirishning andragogik asoslari”, “Andragogik yondashuvga asoslangan texnologiyalar”, “O‘quv kursi (seminar, trening) dasturini andragogik yondashuv asosida tuzish” kabi mavzularning texnologik xaritasi ishlab chiqildi [2].

Shuningdek, MTT pedagoglari va maktabgacha ta’lim tizimi mutaxassislari uchun “Malaka oshirish tizimida andragogik yondashuv” tanlov fani moduli bo‘yicha ishchi o‘quv dasturi tuzildi va o‘quv-uslubiy majmua ishlab chiqildi. Mazkur ishchi o‘quv dasturi va o‘quv-uslubiy majmua MTT pedagoglari va tizimda faoliyat olib boradigan mutaxassislarning malakasini oshirish jarayonida qo‘llanildi. Ushbu o‘quv modulida tinglovchining auditoriya o‘quv yuklamasi 4 soat bo‘lib, shundan: nazariy mashg‘ulotlar 2 soat, amaliy mashg‘ulotlarga 2 soat ajratildi. O‘quv modulining maqsadi tinglovchilarning pedagog kadrlarni rivojlantirishda andragogik yondashuvning ahamiyatini bilib olishlari, ushbu yondashuv asosida pedagoglar (ota-onalar, jamoatchilik vakillari kabi) bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratildi. Ushbu o‘quv moduli yakunida tinglovchilar quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ldilar:

- andragogika ta’limoti va uning mohiyatini bilib oldilar;
- pedagogika va andragogikaning farqlarini tahlil qildilar va undan ish faoliyatlarida o‘rinli qo‘llay oldilar;
- andragogning shaxsiy sifatlari, kattalar auditoriyasida trening (seminar) olib borish yuzasidan BKMlarini takomillashtirdilar;
- malaka oshirish kursida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayanib andragogik yondashuv asosida dastur ishlab chiqa oldilar va o‘quv kurs (trening, seminar va h.o.)larni tashkil etdilar va uni olib bordilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim sohasidagi innovatsion yondashuvlarni joriy etish loyihalarini amalga oshirish uchun eksperimental maydonchalarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 605-son qarorida maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari oldiga ilg‘or xorijiy tajribalarni, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berishda innovatsion usullar va samarali zamonaviy pedagogik amaliyotlarni, ilg‘or pedagogik axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng joriy etish vazifasi qo‘yilgan [3].

Belgilangan vazifani amalga oshirish maqsadida maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar uchun “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetensiyasi va kreativligini oshirish” mavzusida qisqa muddatli o‘quv kursining “Interfaol texnologiyalar orqali kasbiy kompetentlikni oshirish” mavzusi bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua tayyorlandi.

Metodikaning 2-yo‘nalishi “Ma’ruzalar (matn va metodik ishlanmalar)da mazkur tadqiqot ishimiz davomida MTT pedagoglarining malakasini oshirish jarayonini andragogik va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslangan metodologiya orqali mutaxassis pedagoglarning kasbiy rivojlanish sifat va samaradorlik darajasini

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

takomillashtirish tizimi joriy etildi. Bunda tadqiqotimiz doirasida ma’ruza matnlar, metodik ishlanmalar yaratildi.

Biz o‘z metodikamizning 3-yo‘nalishida MTT pedagoglarini andragogik yondashuv asosida tashkil etilgan malaka oshirish jarayonining bevosita ishtirokchisi ekanligini hisobga olib, ularni amaliy ko‘nikma va malakalari va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasiga alohida e’tibor qaratdik.

Bu borada O‘zbekiston Pespublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-on Farmonining 39-maqsadi: “Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish”da “Bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish” uchun ... maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarining malakasini oshirish shakl va metodikalarini xalqaro tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish ” vazifasi belgilangan [4].

Biz “Andragogik yondashuvga asoslangan malaka oshirish jarayoni metodikasini yaratish” deb nomlangan metodik qo‘llanmamizda MTT pedagoglarining malakasini andragogik yondashuv asosida takomillashtirish jarayonida ta’lim metodlarining qo‘llanish maqsadi va o‘rniga ko‘ra quyidagicha bir nechta guruhga ajratdik:

Kirish metodlari (“Muzyorar”, mashg‘ulotdan kutilayotgan natijalarni muhokama qilishga qaratilgan metod va mashqlar);

Axborotni uzatish, bilim olish va mazmunini rivojlantirish metodlari (“Kichik guruhlarda ishlash”, “Aqliy hujum”, “Debat”, “Nuqtai nazaring bo‘lsin”, “Hamma hammaga o‘rgatadi”, “Muayyan vaziyatni o‘rganish”, “Klaster”, “Fikrlay olasanmi?”, “Oqibatlar”, “SWOT-tahlil”, “Keys-stadi”, “Qadriyatlar yarmarkasi”, “Munosabatlar chizig‘i“ kabilar);

Guruhli faoliyat metodlari (“Charxpalak”, “5x5”, “Mozaika”, “Labirint”, “FSMU”, “Insert”, “Tarmoqlash”, “Arra” kabilar);

Mustaqil ta’lim, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodlar (“Assotsiatsiyalar” “Esse”, “O‘quv kundaligi”, kompyuterga asoslangan o‘qish, mustaqil o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash va mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini yaratish metodlari);

Ijtimoiy va empirik o‘qish metodlari (Munozara”, “Tasdiqlar muhokamasi”, “Rolli o‘yinlar”, “Ishchanlik o‘yinlari” simulyatsiyalar, psixodrama, seminar, “Jahon qahvasi”, “Oren srase”, “Loyihalar”, biografik ta’lim);

Kreativ metodlar (“Umumiy muhokama”, “Haykallar”, raqs, teatr, yozuv ijodkorligi, karikatura va komikslar);

Moderatsiya metodlari (“Delfi”, “Slustern”, “Morfologik quticha”, “Osborn nazorat jadvali”, “Workshor” texnologiyasi, ochiq joy texnologiyasi (“Oren SraseTexnologu”), “Mind-marring”, “Oltita fikrlovchi shlyapa”, “Uolt Disney”);

Enerjayzer va diqqatni jamlashga qaratilgan metodlar;

Yakunlovchi (baholash) metodlar (o‘quv natijalarini mustahkamlash, o‘quv jarayoni bo‘yicha qayta aloqa, fidbek, refleksiya, termometr).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Har bir metod o‘ziga xos tarzda “jozibali” bo‘lib, u yoki bu metodni tanlash har safar ta’lim maqsadi, shart-sharoitga qarab yangidan tanlanadi [5].

Metodikamizning “Amaliy mashg‘ulotlar” deb nomlangan 3-qismida biz seminar va treninglarni olib borish metodikasiga alohida to‘xtalganmiz, bunda “Pedagog kadrlarni rivojlantirishda andragogik yondashuv” o‘quv qo‘llanmada andragogik va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlarga asoslangan seminar va treninglar dasturi dizayni (algoritmi) va mazmuni, ularni olib borish va metodikasini ishlab chiqdik.

Metodikamizning 4-yo‘nalishi mustaqil ishlarni o‘tkazishga qaratilgan bo‘lib, unda malaka oshirish jarayonining andragogik yondashuvga bo‘lgan o‘ziga xoslik namoyon qilingan. Birinchidan, malaka oshirish jarayoninning subyektlari: katta yoshli tinglovchilar hamda ta’lim jarayoni tashkilotchilari - katta yoshli professor-o‘qituvchilardan iborat. Ikkinchidan, katta yoshli tinglovchilar o‘z tajribasi, salohiyati, dunyoqarashi, qadriyatlar va kasbiy kompetensiyalariga ega mutaxassislar, ular o‘z bilim, va malakalarini mustaqil sinay oladilar. Shu bois metodikada turli usullar orqali mustaqil ishlarni olib borish ko‘rsatilgan. Masalan, malaka oshirish kurslarida MTT pedagoglari ixtiyoriylik tamoyili asosida malakaviy loyiha ishlari mavzularini tanlaydilar va uni bajaradilar. Biz “Pedagog kadrlarni rivojlantirishda andargogik yondashuv” o‘quv qo‘llanmasida modul o‘quv dasturiga mos bo‘lgan quyidagi mavzularni keltirganmiz:

1. Pedagog kadrlarni rivojlantirishning andragogik asoslari
2. Katta yoshli inson – ta’lim subyekti sifarida
3. Pedagog kadrlarni rivojlantirishning tamoyillari
4. Pedagogika va andragogikaning farqi
5. Pedagog kadrlarni rivojlantirishning didaktik omillari
6. Andragogikaning pedagogikadan o‘quv jarayonining o‘xshash va farqi tomonlari
7. Kattalar ta’lim olishining maqsad va vazifalari
8. Andragogika tamoyillarining tasnifi kabilar [6].

Metodikaning 5-yo‘nalishi “BKM baholash (har bir modulni baholash)ga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqotimiz doirasida baholash jarayoni, mazmuni, shakllariga e’tibor qaratildi.

“Pedagog kadrlarni rivojlantirshda andragogik yondashuv” o‘quv qo‘llanmasida baholash haqida quyidagilar qayd etildi. Baholash seminar/treningning yakuniy qismi bo‘lib, bu blokni rejalashtirishda:

1. Baholashni kim o‘tkazishini
2. Nimani baholash zarurligini
3. Baholash qanday usulda, qanday qilib olib borilishini
4. Baholash natijasi kimga va qanday ko‘rinishda kerakliligini tushunish muhimdir.

Seminar/trening ko‘p kunli bo‘lsa, baholashni har kuni o‘tkazish mumkin. Bu zaruriy o‘zgartirishlar kiritish, xato va kamchiliklarni tuzatish, taklif, istaklarni to‘laqonli inobatga olishga yordam beradi. Seminar/trening qanchalik uzoq muddatli va ko‘p sonli ishtirokchilardan iborat bo‘lsa, shunchalik seminar/treningning muhim va zaruriy qismlariga

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

vaqtni ko‘proq ajratish kerak bo‘ladi. Bir kunlik,15 kishilik guruhda. 8 soat davom etadigan seminar/treningda bu bloklar taxminan bir soat vaqtni egallaydi.

Metodikaning 6-yo‘nalishi “Natija (refleksiya, fidbek)”da “Pedagogik kadrlarni andragogik yondashuvlar asosida rivojlantirish” o‘quv moduli bo‘yicha tinglovchilarning fikrlarini o‘rganish maqsadida quyidagi so‘rovnoma o‘tkazildi.

Andragogik va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida MTT pedagoglarining malakasini oshirish jarayonini takomillashtirishda refleksiya alohida ahamiyat kasb etadi, chunki refleksiya o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash imkonini berib, mashg‘ulot jarayonida tinglovchilarni o‘z his-tuyg‘ulari, holati, o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish va baholash imkonini yaratadi. Shuning uchun, tadqiqotimiz jarayonida biz natijalarni tahlil qilishda refleksiyaning turli usullaridan foydalandik. “Pedagog kadrlarni rivojlantirishda andragogik yondashuv” o‘quv-uslubiy majmuasida o‘quv moduli yakunida “Ovoz beramiz” mashqini o‘tkazish orqali tinglovchilarning bilimlari mustahkamlandi. Refleksiya mashqi quyidagi tartibda olib borildi: xonaning turli joylariga, devorga “To‘g‘ri”, “Noto‘g‘ri”, “Bilmayman” yozuvli jadvallar ilindi. Professor-o‘qituvchi mavzuga aloqador bir qator fikrlarni o‘qib eshittirdi, tinglovchilar esa jadvallarda o‘z javoblarini belgiladilar. Har bir ovozdan so‘ng 2-3 tinglovchi taklif etilib, ular o‘z tanlovlarini sharhladilar. Har bir javobdan so‘ng professor-o‘qituvchi to‘g‘ri javobni o‘qib eshittirdi.

Metodikamizning 7-yo‘nalishi “O‘z-o‘zini rivojlantirish” bo‘lib, tadqiqotimiz jarayonida MTT pedagoglarini andragogik va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida malaka oshirish jarayonini takomillashtirishning maqsadli yakuniy nuqtasi hisoblanadi. Chunki tinglovchilarning o‘zini atroflicha chuqur o‘rganish, o‘z ishidagi yutuq va kamchiliklarni ko‘ra olishi, bu o‘z-o‘zini o‘rganish va anglash va baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi. Demak, ilmiy izlanishimizda ta’kidlangandek, o‘z-o‘zini rivojlantirish o‘z faoliyatini tahlil qilishdan va o‘z shaxsi va pedagogik mahoratini uzluksiz ravishda takomillashtirishdan boshlanadi. Bu o‘z navbatida MTT pedagogini o‘z-o‘zini kuzatib, o‘z imkoniyatlarini baholab borishga undaydi, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi. Eng muhimi MTT pedagogi malaka oshirish kursini yakunlaganidan so‘ng unda muloqotni davom ettirish, muntazam o‘z ustida ishlash xohishi mavjud bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Isxakova M.R. Andragogik va o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish // Ped.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoreferati.-Toshkent, 2023
2. Isxakova M.R. “Pedagogik kadrlarni rivojlantirishda andragogik yondashuv” o`‘quv modulidan o`quv-uslubiy majmua/ Malaka oshirish kurslari uchun/ Toshkent 2022-yil. – 56 bet

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim sohasidagi innovatsion yondashuvlarni joriy etish loyihalarini amalga oshirish uchun eksperimental maydonchalarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 605-son qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-son Farmoni, 28-yanvar 2022-yil
5. Isxakova M.R. Andragogik yondashuvga asoslangan malaka oshirish jarayoni metodikasini yaratish” metodik qo‘llanma, 2022-y.
6. Isxakova M.R. Pedagog kadrlarni rivojlantirishda andragogik yondashuv/ O‘quv qo‘llanma/ Toshkent 2022, 72 bet

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Isxakova Mavlyuda Raxmanovna**, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD), [**Исхакова Мавлиуда Рахмановна**, Доцент кафедры «Педагогика и психология», кандидат педагогических наук (PhD)], [**Mavlyuda R. Iskhakova**, Docent at the Department of Pedagogy and Psychology, PhD]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent sh., Yusuf Xos Xojib ko'chasi, 64-uy [адрес: Узбекистан, ул. Юсуф Хос Хожиб, 64, г. Ташкент], [address: Uzbekistan, 64, Yusuf Khos Khojib st., Tashkent city]
Email:mavlyuda_ir@mail.ru;

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

© G. J. Pardayeva [1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ona tili darslarida til o‘qitishdagi zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslanib, didaktik vositalar va interfaol ta’lim metodlaridan maqsadli foydalanish o‘quvchilarda nutqiy kompetensiya tarkibiy elementlari: tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozish kabi nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali natijalar berishi yoritilgan.

MAQSAD: ushbu tadqiqodning bosh maqsadi bu ona tili mashg`ulotlarida o`quvchilarning nutqini o`stirish, ularga to`g`ri talaffuz me`yorlarini o`rgatib borish, so`z boyligini kengaytirish metodlarini takomillashtirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturida “Ona tili fani o‘quvchi shaxsida fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchida til qurilishiga oid o‘zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so‘z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish”ni nazarda tutadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o’zbek tili orfoepiyasi, leksikasi, morfologiyasi ilmiy jihatdan muayyan darajada o`rganilgan, biroq bu borada hozirgacha to`plangan nazariy ma`lumotlar uning o`ziga xosligi, milliy xususiyatlarini to`laligicha yoritib berolmaydi. Davr taqozosi bilan XX asrning 40 -yillaridan boshlab boshqa til qoliplari asosida o`lchangan ona tilimizda hamon eski qoliplar asoratidan to`la-to`kis xalos bo`la olmagan o`rinlar seziladi. Jumladan, o`qitish metodikasi ham. Buning natijasi ona tili ta`limiga, ayniqsa, maktabda ona tili o`qitish grammatikaga asoslanib qoldi va nutqiy ko`nikmalar talab darajasida rivojlanmadi.

XULOSA: ona tili darslarida o‘quvchilarga nutqiy kompetensiya tarkibiy elementlarining funksional mazmunini singdirish va amalda qo‘llashga o‘rgatish ularning jamiyatda kommunikativ aloqaga kirishlarida, og‘zaki va yozma muloqot jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: integrativ, kompetensiyaviy, modul,kommunikativ yondashuvlar; o‘qish, so’zlash, tinglash va yozish ko‘nikmalari; nutqiy kompetensiya, interfaol metodlar, didaktik vositalar.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Iqtibos uchun: Pardayeva G.J. Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish. // Inter education & global study. 2024. №8. B.371-377.

РАЗВИТИЕ РЕЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

© Г. Ж.Пардаева[1]✉
[1]Термез государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье раскрывается, что целенаправленное использование дидактических средств и интерактивных методов обучения, основанных на современных педагогических подходах к преподаванию родного языка, способствует эффективному развитию речевых навыков учащихся, таких как слушание, говорение, чтение и письмо, составляющие элементы речевой компетенции.

ЦЕЛЬ: основная цель данного исследования — развитие речи учащихся на уроках родного языка, обучение их правильному произношению, а также совершенствование методов расширения словарного запаса.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: национальная учебная программа общего среднего образования предусматривает развитие у учащихся речевой (коммуникативной) компетенции, направленной на мышление, понимание мыслей других и грамотное изложение своих мыслей как в устной, так и в письменной форме, в зависимости от речевой ситуации. Включены также практические знания о строении языка (фонетика, орфоэпия, лексика, морфология, синтаксис и др.).

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: хотя орфоэпия, лексика и морфология узбекского языка научно изучены, накопленные теоретические данные не полностью раскрывают его национальные особенности. В результате, начиная с 40-х годов XX века, язык до сих пор испытывает влияние старых шаблонов, что особенно заметно в методике преподавания. Это привело к тому, что обучение родному языку в школе в значительной степени основано на грамматике, а речевые навыки развиваются недостаточно.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: преподавание на уроках родного языка функциональной сущности элементов речевой компетенции и их практическое применение способствует активному участию учащихся в устной и письменной коммуникации в обществе.

Ключевые слова: интегративный, компетентностный, модульный, коммуникативный подходы; навыки чтения, говорения, слушания и письма; речевая компетенция, интерактивные методы, дидактические средства.

Для цитирования: Пардаева Г.Ж. Развитие речевых компетенций учащихся на уроках родного языка. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 371-377.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPEECH COMPETENCIES IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

© G. J. Pardayeva[1]✉
[1]Termiz State Pedagogical Institute, Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article highlights that the targeted use of didactic tools and interactive teaching methods based on modern pedagogical approaches to language teaching effectively develops speech skills such as listening, speaking, reading, and writing, which are the components of speech competence in students.

AIM: the main objective of this study is to enhance students' speech during native language lessons, teaching them correct pronunciation standards and improving methods to expand their vocabulary.

MATERIALS AND METHODS: the National Curriculum for General Secondary Education includes the development of students' speech (communicative) competence aimed at thinking, understanding others' ideas, and expressing their own thoughts orally and in writing appropriately to the context. It also includes practical knowledge of language structure (phonetics, orthoepy, lexicon, morphology, syntax, etc.).

DISCUSSION AND RESULTS: Although the orthoepy, lexicon, and morphology of the Uzbek language have been studied scientifically, the theoretical data accumulated so far do not fully reflect its national characteristics. As a result, starting from the 1940s, the language has still not fully escaped the influence of old patterns, which is also reflected in teaching methods. This has led to native language teaching in schools being primarily grammar-based, while speech skills have not developed sufficiently.

CONCLUSION: Teaching the functional content of speech competence elements and their practical application in native language lessons ensures active participation of students in oral and written communication in society.

Key words: integrative, competence-based, modular, communicative approaches; reading, speaking, listening, and writing skills; speech competence, interactive methods, didactic tools.

For citation: Pardayeva G.J. (2024) 'Development of students' speech competencies in native language lessons', Inter education & global study, (8), pp. 371-377. (In Uzbek).

So'nggi yillarda respublikamizda til o'qitish tizimini yangicha innovatsion sifat bosqichiga olib chiqishga oid islohotlar umumiy o'rta ta'lim ona tili darslarida o'quvchilarga nutqiy kompetensiya komponentlarini egallashga doir ilmiy-nazariy bilimlarni chuqur o'rganish, erkin, kreativ, ilmiy va mantiqiy fikrlash hamda atrof-muhitga ongli munosabatni rivojlantirish, og'zaki va yozma savodxonligini mustaqil ifodalay olishlari uchun zarur imkoniyatlar bermoqda. Ta'limga kompetensiyaviy, integrativ va kommunikativ yondashuv

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

o‘quvchilarda ilmiy tafakkur potensialining o‘sishi, kasbiy kompetentlikning faollashuvi, izlanuvchan, yangilikka intilgan, harakatchan, tashabbuskor, o‘zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, yetuk, barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga ijobiy, samarali ta’sir ko‘rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarning ilg`or o`qitish uslublari ommalashmoqda. Ona tili ta`limi har bir millatning taraqqiyot darajasini belgilab beruvchi muhim omildir, agar barcha sohada ilmiy renessansni amalga oshirmoqchi bo`lsak, buni ona tili ta`limini takomillashtirishdan boshlash kerak.

O‘quvchilarda til qurilishiga oid o‘zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so‘z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) malaka talablarini rivojlantirish va takomillashtirishda esa ona tili o‘qituvchisining o‘rni beqiyosdir. Bu xususida psixolog olim E.G‘oziyev shunday deydi: “O‘smirning to‘g‘ri mantiqiy fikrlashini rivojlantirish borasida ona tili va adabiyot o‘qituvchisining roli juda muhimdir. U hamma vaqt o‘quvchilarni to‘g‘ri jumla tuzishga, ravon mulohaza qilishga, fikr yuritishga, yozish o‘rgatib boradi”. Demak, nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida ona tili o‘qituvchisi kontekstli o‘qitish va zamonaviy yondashuvlar asosida o‘quvchilarga mazmunan va grammatik jihatdan to‘g‘ri jumla tuzishni, mustaqil fikr yuritishni hamda o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki hamda yozma bayon qilishda olingan bilimlarni amalda qo‘llay olishni o‘rgatib boradi. Ona tili nafaqat barcha fanlarni o‘zlashtirishda, balki umuman, jamiyatda insonlarning o‘zaro munosabatga kirishishida – muloqotning shakllanishida ham ahamiyatlidir. Ona tili darslarida milliy til - ona tilini o‘qitishda har bir sinfda o‘quvchilar egallashi ko‘zda tutilgan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt lisoniy ko‘nikmasini, ya’ni nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha talab etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yori rivojlantirilib boriladi.

Umumta`lim maktablarida ona tili, o`zbek tili bo`yicha amalda bo`lgan dasturlarning mazmuni va asosiy yo`nalishlari 1950- yillarning o`rtalarida shakllangan bo`lib, shundan beri ular ayrim o`zgarishlar, to`ldirishlar bilan bugunga qadar kun tartibidan tushgani yo`q. Shu asosda darsliklar yaratildi, ular takror-takror davr sinovidan o`tdi. Bir tomondan qaraganda bu boradagi ishlar takomillashib, mukammallashib borganga o`xshab ko`rinadi. Biroq ijtimoiy hayotimizda keyingi chorak asrdan ko`proq o`tgan vaqt mobaynida siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy, ma`rifiy jihatdan keskin o`zgarishlar ro`y berdi; milliy dunyoqarashimizda, shu bilan bog`liq shaxs tarbiyasiga munosabat masalasida yangilanishlar kuzatildi; mustaqillik mafkurasi jamiyatning har bir a`zosi, har bir sohasi, har bir ko`rinishi oldiga yangicha talablarni qo`ydi. Jamiyatimizda ulkan o`zgarishlar ro`y berdi va ro`y bermoqda. Shunday o`zgarishlar sirasida o`zbek tilshunosligi va uning tadriji bilan bog`liq yangilanishlar ham yaqqol ko`zga tashlanadi. Jumladan, o`zbek tilshunosligida tilni umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab xarakteridagi tizim; nutqni esa alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat sifatida o`rganuvchi substantsial tilshunoslik yo`nalishi shakllandi, rivojlandi, ulkan yutuqlarni qo`lga kiritd. Biroq bu yangilanishlarning barchasi ta`lim tizimi bosqichlarida saralanib, birdek qabul qilingani yo`q. Jumladan, o`zbek substantsial tilshunosligining yuzaga kelishi uchun poydevor vazifasini o`tagan an`anaviy tilshunoslik yutuqlari oliy ta`lim dastur-u darsliklarida ham, o`rta maxsus ta`lim tizimida ham, maktab

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

programmasida ham yangi yo`nalish yutuqlari bilan qorishib ketdi. Bir-birini rad etuvchi nazariy bilimlar maktab darsliklarida ko`plab uchrashi ham achinarli holdir. Atrofimizga nazar tashlasak, ilg`or davlatlarning ko`pida ona tilidan ta`lim mazmuni tubdan yangilandi. “Ta`lim mazmuni sirasida o`quvchilarga taqdim etilayotgan bilimlar ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka undashi lozim” 7 ligi belgilandi. O`quvchilarda ijodkorlikni, mustaqil fikrlash ko`nikmasini shakllantirish, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og`zaki va yozma shaklda to`g`ri, ravon ifodalashga o`rgatish uchun ona tili ta`limining mazmunini tubdan yangilash, o`quv materiallarini zamon ehtiyojiga moslash talab qilindi. Buni amalga oshirishda, tabiiyki, ta`lim vositalari muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunga qadar bir qator maktab “Ona tili” darsliklari yaratildi, lekin ulardagi o`quv materiallarning hammasi ham talabga javob beradimi, degan savol atrofida mulohaza yuritishga to`g`ri keladi. Professorlar Hamid Ne`matov va Asqar G`ulomov ona tili ta`limining bugungi holatini, uni yaxshilashda nimalar qilish kerakligini, o`quvchilarga nimalarni o`rgatish lozimligini jiddiy tahlil orqali o`rinli asoslagan edilar9 . Raqobatbardosh, malakali kadrlarni tarbiyalash ona tili ta`limi oldida turgan dolzarb vazifa bo`lib, uni amalga oshirish umumiy o`rta ta`limning asosiy vositasi bo`lgan darsliklar, ulardan o`rin olgan o`quv materiallarining saviyasiga ko`proq bog`liqdir. Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, bugungi kun ona tili ta`limi maqsadi darslarda asosiy ta`lim vositasi faqat darslik bo`lishini taqozo etmaydi. O`qituvchi ham, o`quvchilar ham belgilangan mavzular mohiyati bilan bog`liq tarzda, odatda, “Axborot banki” materiallari (lug`atlar, ma`lumotnomalar, qomuslar, qaydlar va h.lar) ga tez-tez murojjaat etishlari lozim. Afsuski, ona tili ta`limi mazmuni yangilanganiga qariyib yigirma yildan oshgan bo`lsa-da, maktab o`qituvchilarimizning aksariyati hamon faqatgina darslik materiallaridan foydalanishmoqda.

O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalari ular mavjud bo‘ladigan barcha lisoniy hamjamiyatlarda, ya’ni: o‘z oilasida, tengdoshlari davrasida, ijtimoiy muhitlarda amalga oshiriladigan nutqiy faoliyatlari davomida sayqallanib boradi, chunki o‘quvchi o‘z navbati bilan ham so‘zlovchi, ham tinglovchi pozitsiyasini egallaydi, jarayonning faol ishtirokchisi sifatida savol-javoblarda qatnashadi, munosabat bildiradi, o‘z fikrlarini himoya qilishda so‘z boyligidan to‘la foydalanishga ehtiyoj sezadi, shu holat o‘quvchi leksikonida hikmatli so‘zlar, maqollar, hikoyalardan eshitib, o‘qib o‘zlashtirgan so‘zlardan amalda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Nutqiy kompetensiyani tashkil etuvchi tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozish tarkibiy elementlari o‘quvchilarda bir-birini taqoza etuvchi hamda to‘ldirib boruvchi, o‘zaro chambarchas bog‘langan nutqiy jarayonlar bo‘lib, har biri nutqiy faoliyatning rivoji uchun muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalari tizimli va uzluksiz ravishda o‘qitishning dastlabki bosqichlaridan boshlab rejaga muvofiq til sathlariga oid grammatik qoidalar va ularni mustahkamlashga doir mashq va topshiriqlar asosida rivojlantirilib boriladi. Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalari ham rivojlantirilib boriladi. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot asrida til o‘qitish tizimida ham zamonaviy yondashuvlar, interfaol metodlar va zamonaviy didaktik vositalardan foydalangan holda o‘quvchilarda tinglash, so‘zlash, o‘qish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

va yozish nutqiy ko‘nikmalarni kompleks rivojlantirish bugungi davr talabidir. Shu nuqtayi nazardan amaliyotda o‘quvchilaning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan

Ona tili darslarida qo‘llaniladigan ta’lim metodlari va didaktik vositalar tizimi quyidagicha mazmunga ega bo‘lishi tavsiya etiladi:

- o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid berilgan nazariy ma’lumotlar;
- o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikma va malakalarini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar tizimi;
- o‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikma va malakalarini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar tizimi;
- o‘quvchilarning so‘zlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar tizimi;
- o‘quvchilarning yozish ko‘nikma va malakalarini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar tizimi;
- o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn va matn ustida ishlashga oid mashq va topshiriqlar tizimi;
- o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda rasmli mashq va topshiriqlar tizim

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Yo`ldosheva D.N. Ona tili ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 168 b.
2. Yuldasheva Sh.Sh. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimida o‘qitish metodikasi: aralash ta’limning afzalliklari. Innovation and Global Issues Congress V. May 2 and 4, 2019. Ankara. INGLOBE ACADEMY. 2019.
3. Mirzaqulov T. Grammatika o`qitishning lingvistik asoslari. –T.: O`qituvchi, 1994. –56 6.
4. Shabbazova D.R., Ona tili o‘qitish metodikasi. O'quv qo'llanma –T.: METODIST NASHRYOTI, 2023
5. Safarova R., Nurjanova R., Ne`matov Sh., Quchkarova F. Zamonaviy darsliklarda kontsentrizm printsipi asosida taqdim etiladigan o`quv materiallarini tanlash va bloklarga ajratish. –T.: Fan va texnologiya, 2013. – 128 b.
6. G`ulomov A., Qodirov M. Ona tili o`qitish metodikasi. – T., O`qituvchi, 2001. – 221 b.
7. Aminova S. Ona tili darslarida noan`anaviy usullar // Til va adabiyot ta`limi. – Toshkent, 1995. – № 1. – B. 17-18.
8. Bektoshev Sh. Ona tili darslarida o`yin usulidan foydalanish // Til va adabiyot ta`limi. – Toshkent, 1993. – № 5-6. – B. 15-16 8. G’ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni.–T.: O‘qituvchi ,1995. – 27- b.
9. Mambetova Lobar Mirzavali qizi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Boshlang’ich ta’limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi “ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI" Maqolasi March 13, 2024
10. Mukhtarova L.A. Ways of formation of ecological culture in children of primary age // AJMR:Asian Journal of Multimensional Research Journal. Vol 10, Issue 4, April, 2021. - Pp 648-652. (Impact Factor 7.699).
11. 11.Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANG'ICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI
12. TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Апробация, (2),93-94. 12.Gulbahor Pardayeva. (2023). THE IMPORTANCE OF STEAM TECHNOLOGY AND ITS USE IN TEACHING NATURAL SCIENCES. Academia Repository, 4(10), 18–23.
13. Jalgashovna, P. G., & Abdimannabovna, M. L. (2023). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM TECHNOLOGY. World Bulletin of Social Sciences, 21, 109-111

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Pardayeva G. J**, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi, [**Пардаева Г. Ж.** Преподаватель кафедры методики начального образования], [**Pardayeva G. J.** Teacher at the Department of Primary Education Methods]; manzil: O'zbekiston, Termiz tumani, At-Termiziy ko'chasi, 1A-uy [адрес: Узбекистан, ул. Ат-Термизи, 1А, г. Термезский район], [address: Uzbekistan, Termez District, At-Termizi Street, House 1A]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

O'QUVCHILAR AQLIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ ALLOMALARINI QARASHLARI

© S.B. Niyozova[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada o'quvchilar aqliy tarbiyasini shakllantirishda sharq allomalari qarashlaridan foydalanish haqida so'z yuritilgan.

MAQSAD: yosh avlodga oilaviy hayotgani o'rgatish, ularni kelajak faoliyatga tayyorlash uchun bilim va ko'nikmalarni chuqur rivojlantirish, o'tmish avlodning hayotiy tajribalarini yoshlarga o'rgatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'quvchilarni erkin, mustaqil fikrlashga yo'naltirish, o'quv jarayoni mazmunini yangilash, darsliklarning yangi avlodini yaratish, o'quvchilarning o'z ona tili va chet tillarini puxta o'rganishiga erishish, pedagog kadrlarni tayyorlashga yangicha yondashish, ta'lim tizimida uning har bir bosqichini, xususan, yangi tarkibdagi va yagona uslubdagi zamonaviy maktab ta'limini rivojlantirish, oliy o'quv yurtlari ta'lim sohasini xalqaro me'yorlar va andozalar asosida tashkil etish, zamon talabiga mos mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklarini yaratish bilan bog'liq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, o'zini o'zi qadrlashi, atrofdagi voqelikni, shu jumladan olamni qanday idrok etishi va sharhlashi ustuvor omil sifatida namoyon bo'lishi dalillanganligi va qadriyatlarning ta'siri barcha ijtimoiy hodisalarda namoyon bo'lishini, insoniy qadriyatlarning kelib chiqishini madaniyat, jamiyat, uning institutlari va shaxsda kuzatilishi, ta'lim va tarbiya jarayonida ijobiy munosabat mezonlarini kiritish asosida rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

XULOSA: O'tmish avlod o'zining hayotiy tajribalarini yoshlarga o'rgatish to'g'risida g'amxo'rlik qilib kelgan, o'z tajribalarini turli xil manbalarga bitganlar, yozuv paydo bo'lganidan keyin esa, turli xil asarlar yaratish orqali kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirganlar.

Kalit so'zlar: o'quvchilar, aqliy tarbiya, shakllantirish, sharq allomalari, pedagogika.

Iqtibos uchun: Niyozova S.B. O'quvchilar aqliy tarbiyasini shakllantirishda Sharq allomalarini qarashlari. // Inter education & global study. 2024. №8. B.378-383.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ФОРМИРОВАНИЕ УМСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ВЗГЛЯДОВ ВОСТОЧНЫХ УЧЕНЫХ

© С.Б. Ниязова[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается использование взглядов восточных ученых при формировании умственного воспитания учащихся.

ЦЕЛЬ: глубокое развитие знаний и навыков у молодого поколения для подготовки к будущей деятельности, обучение семейной жизни, передача молодежи жизненного опыта прошлых поколений.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: для развития умственных способностей учащихся предлагается направить их на свободное, самостоятельное мышление, обновление содержания учебного процесса, создание новых поколений учебников, обеспечение глубокого изучения родного и иностранных языков, новый подход к подготовке педагогических кадров, развитие системы образования на всех уровнях, особенно современной школьной системы с новым содержанием и единой методикой, организация образовательной системы вузов на основе международных норм и стандартов, подготовка специалистов в соответствии с требованиями времени, создание государственных образовательных стандартов, учебных программ и учебников на всех уровнях образовательной системы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: было доказано, что личностное развитие учащихся, их самоуважение, восприятие окружающей действительности, включая мир, являются важными факторами, а также влияние ценностей проявляется во всех социальных явлениях. Были разработаны предложения и рекомендации по развитию образования и воспитания с использованием критериев позитивного отношения, изучение происхождения человеческих ценностей через культуру, общество и его институты.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: предыдущие поколения заботились о передаче своего жизненного опыта молодежи, оставляя его в различных источниках. С появлением письменности они создавали разнообразные произведения, которые передавались как наследие будущим поколениям.

Ключевые слова: учащиеся, умственное воспитание, формирование, восточные ученые, педагогика.

Для цитирования: Ниязова С.Б. Формирование умственного воспитания учащихся на основе взглядов восточных ученых . // Inter education & global study. 2024. №8. С. 378-383.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

FORMATION OF STUDENTS' INTELLECTUAL EDUCATION BASED ON THE VIEWS OF EASTERN SCHOLARS

© Safiya B. Niyozova[1]✉
[1]Termiz State Pedagogical Institute, Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the use of the views of Eastern scholars in shaping students' intellectual education.

AIM: the goal is to deeply develop the knowledge and skills of the younger generation to prepare them for future activities, teach them about family life, and pass on the life experiences of past generations.

MATERIALS AND METHODS: to develop students' intellectual abilities, the focus is on encouraging them to think freely and independently, updating the content of the educational process, creating new generations of textbooks, ensuring that students master their native and foreign languages, adopting a new approach to teacher training, developing the educational system at all levels, especially modern school education with new content and unified methodology, organizing higher education institutions based on international standards, preparing specialists in line with contemporary demands, and creating state education standards, curricula, and textbooks for all levels of the education system.

DISCUSSION AND RESULTS: it has been proven that students' personal development, their self-respect, and their perception of the world are essential factors, and the influence of values is evident in all social phenomena. Proposals and recommendations for developing education and upbringing by introducing criteria for positive attitudes, as well as studying the origins of human values through culture, society, and its institutions, were developed.

CONCLUSION: past generations took care to pass on their life experiences to the youth, documenting them in various sources. With the advent of writing, they created various works, which were passed down as a legacy to future generations.

Key words: Students, intellectual education, formation, Eastern scholars, pedagogy.

For citation: Safiya B. Niyozova. (2024) 'Formation of students' intellectual education based on the views of eastern scholars', Inter education & global study, (8), pp. 378-383. (In Uzbek).

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi». Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqbolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi».

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi».

Ibn sinoning aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslarini aniqlashga xarakat qiladi. Uning fikricha, xayot, xayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, xayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki xunar egallashga intilishida o'qituvchining unga bilim, xunar o'rgatishi zarurligini uqtiradi.

Ilm fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi

Tarq qil bor narsani, jon barchidin a'lodurur,
Jon kamoli ilmdandir, ilmdandir so'lu sog'.
Jon agar bir shisha bo'lsa, ilm sham chirog'.

Uning fikricha, ta'lim-tarbiya, avvalo, aqliy tarbiyani, yoshlarga ilm-fan o'rgatishni, jismoniy tarbiyani (bunga tibbiyot ilmi hizmat qiladi), axloqiy tarbiyani, nafosat tarbiyasini hamda yoshlarni ma'lum hunarga o'rgatish masalalarini o'z ichiga oladi. Axloqiy tarbiya inson uchun nixoyatda muhim ahamiyatga ega. Bolaning axloqiy tarbiyasi yoshlikdan, bolalikdan boshlanishi kerak.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish yetakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm-ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo'lgan ilm puxta va mustahkam bo'ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o'zlashtirish zarurligini uqtiradi. SHuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy o'z asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo'luvchi ma'naviy-axloqiy sifatlarni ulug'lagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiymuammolarni yorituvchi asarlarida esa komil insonni shakllantirish jarayonining mazmuni, ushbu jarayonning o'ziga xos jihatlari, yo'llari, shakl va usullari borasidagi mulohazalarni bayon etadi.

Alloma tomonidan yaratilgan asarlar mazmunidan anglanadiki, ularda ilgari surilgan qarashlarning markazida inson va uning kamolotini ta'minlash g'oyasi turadi. Mazkur o'rinda navoiyshunos olim V. Zohidov quyidagi fikrni ifoda etadi: "Navoiy ijodi hamda amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo'nalish nuqtasi har narsadan oldin inson, uning taqdiri, baxti, saodati, uning yaxshi yashashi, bu uchun zarur jamiyat masalalaridir".

Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o'rni, bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'lgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya va uning mohiyatini yoritishga alohida e'tibor qaratadi. Alloma insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlari xususida so'z yuritadi hamda mazkur sifatlarning har biriga to'laqonli ta'rif berib o'tadi. qanoat, sabr, tavoze (adab), o'zgalarga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lish, ishqda vafodorlik, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (hilm) kabi xislatlarni ijobiy fazilatlar sirasiga kiritadi va ularning har biriga ta'rif berganidan so'ng tanbeh va hikoyatlar vositasida shaxsiy qarashlarini dalillar bilan to'ldiradi. Asarda, shuningdek, axloqiy fazilatlarning antonimi hisoblangan salbiy illatlar va ulardan qutulish yo'llari ham bayon etilgan.

Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezoni odob deb hisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. Odobga ega bo'lishning inson hayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: "Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab, kichkinalar mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. II-III jildlar. – Toshkent, Davlat nashriyoti, 1965.
2. Babamuratov, E., Ulmashon, D., & Zhurabek, Z. (2023). METHODS OF IDEOLOGICAL WORK FOR YOUTH WITH IDEOLOGICAL DEPRESSION. World Bulletin of Social Sciences, 27, 136-143.
3. Jovliev, J. (2023). EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL AND GENERAL HUMAN VALUESTECHNOLOGY. Open Access Repository, 10(10), 51-55.
4. KULMOMINOV, O. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S CREATIVE SKILLS IN WORLD SCIENCE. World Bulletin of Social Sciences, 27, 54-56.
5. Kulmominov O. (2023). TECHNOLOGY FOR DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN NATURAL SCIENCE TEACHING. Open Access Repository, 9(10), 112-116.
6. Kulmuminov U. (2023). CREATIVE TEACHING IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE EDUCATION. Open Access Repository, 4(2), 434-437.
7. Boynazov Z. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BUGUNGI TA’LIM JARAYONI VA USULLARI //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №.
8. Khudaiberdieva G. ACTIVITIES OF CULTURAL INSTITUTIONS IN SURKHANDARYA DURING THE SOVIET REGIME // Journal of Modern Educational Achievements.2024.–T.3.–№.1.–C.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Niyozova Safiya Bukayevna**, Maktabgacha va Boshlang’ich ta’lim fakulteti, Boshlang’ich ta’lim kafedrasining katta o’qituvchisi, [**Ниязова Сафия Букаевна**, Старший преподаватель кафедры начального образования факультета дошкольного и начального образования], [**Safiya B. Niyozova**, Senior Lecturer at the Department of Primary Education, Faculty of Preschool and Primary Education]; manzil: O‘zbekiston, Termiz tumani, At-Termiziy ko'chasi, 1A-uy [адрес: Узбекистан, ул. Ат-Термизи, 1А, г. Термезский район], [address: Uzbekistan, Termez District, At-Termizi Street, House 1A]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM MUASSASALARINING O‘RNI

© A.U. Jo‘rayev[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogikainstituti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqola bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarida qanday qobiliyatlari borligi, ularning o‘qishga bo‘lgan intilishi, o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi, eslab qolishi va o‘z bilimini o‘quv torshiriqlarni bajarishda qo‘llay olishi, masalalarni echishda puxta fikr yuritishi, verbal va noverbal nutqni qanchalik egallaganligiga qarab olib bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanligi masalasi keng yoritib berilgan.

MAQSAD: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatni shakllantirishda va rivojlantirishda ta’lim muassasalari o‘rni asosida ta’lim-tarbiya sifatini integrasiyalash, o‘quv dialogi asosida ta’lim jarayonini individuallashtirish, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishning metodik tizimini takomillashtirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida mavzuga oid o‘quv adabiyotrlarni tahlil qilish, suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Ijodkorlik- faoliyatning turli holatlarida paydo bo’ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo’lishidan, namoyon bo’lishigacha jarayonini o’z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo’yilmagan, hal etuvchi vosita bo’lib hisoblanmagan intilishdir.2 Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy ijodiy izlanishlarga yo‘llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o‘z samarasini beradi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolar qo‘yish va ularni yechish darslari; ishtirokchilik darslari, modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, ijod qilish, kichik kashfiyotlar yaratish, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samaralidir.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, maktab bosqichidagi ta’lim o‘quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, joiz bo’lsa, ushbu davrlardayoq o‘quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan, o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy faoliyatni yanada takomillashtirish lozimligi bugungi kunning kun tartibidagi muammo bo’lishi darkor.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Kalit so'zlar: ijodiy, rivojlantirish, ta'lim , hamkorlik , xususiyat , innovasion.

Iqtibos uchun: Jo'rayev A.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda ta'lim muassasalarining o'rni. // Inter education & global study. 2024. №8. B.384-389.

РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

© А.У. Жураев[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье широко освещается вопрос о том, какими навыками обладает учитель начальных классов сегодня у своих учеников, их стремление к обучению, степень усвоения учебного материала, запоминание и умение применять свои знания при выполнении учебных заданий, продуманность решения задач, овладение вербальной и невербальной речью-актуальная задача сегодняшнего дня.

ЦЕЛЬ: интеграция качества образования на основе роли образовательных учреждений в формировании и развитии творческой деятельности учащихся начальных классов, индивидуализация образовательного процесса на основе образовательного диалога, совершенствование методической системы разработки и внедрения в практику технологий совместного обучения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались такие методы, как анализ учебной литературы по теме, беседа, социально-психологический опрос, наблюдение, а степень статистической достоверности полученных результатов подтверждалась факторным анализом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: творчество - возникает в различных ситуациях деятельности. Любопытство включает в себя процесс Вдохновения, стремления и т. д. от наивысшего проявления творчества в человеческом сознании до его проявления. Потребность в деятельности у человека-это стремление к деятельности, которое не ставится в качестве новой ранее цели, не считается решающим инструментом.2 в развитии творческой деятельности плодотворно использование форм и методов организации познавательной научной деятельности, направленных на формирование творческих способностей, научных творческих поисков. К занятиям по развитию творческой деятельности в этом отношении наиболее эффективны такие, как диалог-уроки дискуссии, дебатов, бесед, фантазии, уроки исследования, уроки постановки и решения проблем; уроки участия, моделирования, художественно-технического творчества, творчества, создания небольших открытий, использования инновационных методов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: подводя итог, можно сказать, что, поскольку образование на школьном этапе является основой обучения учащихся, оно, допустим, требует

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

развития творческой активности у учащихся уже в эти периоды. Таким образом, необходимость развития творческих способностей учащихся, дальнейшего совершенствования творческой деятельности является проблемой сегодняшней повестки дня.

Ключевые слова: творчество, развитие, образование, сотрудничество, функция, инновации.

Для цитирования: Жураев А.У. Роль образовательных учреждений в развитии творческой деятельности младших школьников. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 384-389.

THE ROLE OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF YOUNGER STUDENTS

© Avazbek U. Jo‘rayev[1]✉
[1]Termez State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article extensively highlights the question of what skills a primary school teacher has today among his students, their desire to learn, the degree of assimilation of educational material, memorization and the ability to apply their knowledge when performing educational tasks, thoughtfulness of problem solving, mastery of verbal and non-verbal speech is an urgent task of today.

AIM: integration of the quality of education based on the role of educational institutions in the formation and development of creative activity of primary school students, individualization of the educational process based on educational dialogue, improvement of the methodological system for the development and implementation of co-educational technologies.

MATERIALS AND METHODS: in the course of the study, methods such as analysis of educational literature on the topic, conversation, socio-psychological survey, observation were used, and the degree of statistical reliability of the results obtained was confirmed by factor analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: creativity arises in various situations of activity. Curiosity includes the process of Inspiration, aspiration, etc. from the highest manifestation of creativity in human consciousness to its manifestation. The need for activity in a person is the desire for activity, which is not set as a previously new goal, is not considered a decisive tool.2 in the development of creative activity, the use of forms and methods of organizing cognitive scientific activities aimed at the formation of creative abilities and scientific creative searches is fruitful. In this regard, the most effective classes for the development of creative activity are such as dialogue-lessons of discussion, debate, conversations, fantasy, research lessons, lessons in setting and solving problems; lessons of participation, modeling, artistic and technical creativity, creativity, creating small discoveries, using innovative methods.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

CONCLUSION: summing up, we can say that, since education at the school stage is the basis of student learning, it, for example, requires the development of creative activity among students already during these periods. Thus, the need to develop students' creative abilities and further improve their creative activities is a problem on today's agenda.

Keywords: creativity, development, education, cooperation, function, innovation.

For citation: Avazbek U. Jo'rayev. (2024) **'**The role of educational institutions in the development of creative activity of younger students', Inter education & global study, (8), pp. 384–389. (In Uzbek).

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatni shakllantirishda va rivojlantirishda ta'lim muassasalari o'rni asosida ta'lim-tarbiya sifatini integrasiyalash, o'quv dialogi asosida ta'lim jarayonini individuallashtirish, hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishning metodik tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'limga yangicha yondashuvlar ta'sirida ta'lim muassasalari faoliyatni takomillashtirishning muhim belgisi sifatida ijodiy yondashuvni qaror toptirish muammosi tadqiq etilmoqda. Shu bilan birga ta'lim nazariyasi va amaliyoti ta'lim muassasasi faoliyatni ilmiy-metodik asosda takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatni rivojlantirishda ta'lim muassasalarning hamkorligi quyidagilarga asoslanadi :

birinchidan, jamiyatda ijtimoiy va pedagogik jarayonlarning jadal sur'atlarda amalga oshirilayotganligi (munosabatlarning insonrarvarlashuvi va demokratlashuvi, inson omili rolining kuchayayotganligi, innovasion jarayonlar asosida ta'lim-tarbiya sifatining oila hamda ta'lim, maktab muammolariga xalq e'tiborining ortib borayotganligi va h.k.);

ikkinchidan, umumiy, ta'lim muassasalarining hamkorlik holati (o'qituvchi va o'quvchilarga etarli darajada pedagogik qo'llab-quvvatlashning berilmayotganligi, ularning o'quv-tarbiya jarayonidan qoniqmayotganliklari; o'qituvchilarning o'quvchilar bilan insonrarvar va do'stona munosabatni tashkil etish malakalarining etarli emasligi va h.k.);

uchinchidan, hamkor ta'lim muaassalarning ta'limiy innovasiyalarga katta ehtiyoj sezishi (boshlang'ich sinf o'quvchilarining shakllantirishga va rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiyaning innovasion texnologiyalarini ishlab chiqish va dars jarayoniga tatbiq etish va h.k.);

to'rtinchidan, maktab ta'limini samarali tashkil etishda oliy ta'lim muassasalari bilan doimiy aloqani ushlab turish orqali yangi metodikalarni o'zlashtirish (mavjud muammolarni ilmiy tahlil qilish ...)

beshinchidan, buyurtmachi sifatida ota-onalarning hamkorligini ta'minlash (uydagi ta'limning uzluksizligini ta'minlashdagi ularning bilimi, bolaning shaxsiy qiziqishlarini inobatga olgan halda maqsadga yo'naltirish va x.k.).

Xorijiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida hamkorlikda o'qitish ("coorerativ learning") birgalikda o'qitish an'anaviy ta'limning muqobili sifatida keng tadqiq etilgan. Tahlillar shuni


ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ko‘rsatadiki, hamkorlik samaradorligi umumiy natija hisobiga ishtirokchilarning interfaolligi, o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro mas’uliyati va uning takomillashuvini, guruh ishtirokchilarining konstruktiv o‘zaro birgalikdagi harakatiga individual mas’uliyati va yo‘nalganligini ta’minlaydi . Xamkorlik ta’lim samaradorligini oshirish omili hisoblanib, ta’lim sub’ektlar faolligi uni takomillashtirishga xizmat qiladi. Ta’lim sifatini takomillashtirish deganda ta’lim-tarbiya jarayonlarini tizimli loyihalashtirish va pedagogik qo‘llab-quvvatlash, qayta aloqaning intensivligini ta’minlash, pedagogik tizimning ochiqligi, dinamikligi, statistikligi, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishi, intellektual, hissiy, axloqiy, madaniy, jismoniy imkoniyatlarini faollashtirishga erishish tushuniladi .

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatga yo‘naltirib o‘qitishda hamkor ta’lim muassasalar va oilalar bilan birgalikda ta’lim jarayoni sifatini takomillashtirishning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin: joriy va strategik rivojlanish jarayonni tahlil qilish mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, o‘qitishning taktik va strategik vazifalarini loyihalashtirish; ta’limni boshqarish organlari, mahalliy davlat boshqaruv organlari, o‘z-o‘zini boshqarish organlari, huquq-tartibot organlari, jamoat tashkilotlari va oilalar manfaatlarini ustuvorligiga erishish, ularning huquq va mafaatlarini himoya qilishning samarali usullarini joriy etish; ta’lim sohasidan manfaatdor guruhlarning talab va ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning individualligini to‘liq qo‘llab-quvvatlash va faol hamkorlikni ta’minlashga erishish.

Shu o‘rinda ta’lim klasteri muhiti xususida qisqacha to‘xtalib o‘tish joiz. Ta’lim klasteri muhiti deganda, manfaatli hamkorlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ijodiy qobiliyatini shakllantirish jarayonidagi va ayni paytda bir-birini to‘ldiruvchi faoliyati nazarda tutiladi. Masalan, Texnologiya darslarida o‘quvchilarning yakka ishlashini tashkil qilishda o‘quvchilarda faollikni, mustaqillikni tarbiyalash, uning torshiriqni har bir o‘quvchi ishni o‘zi bajarishi kerak. Torshiriqlar bir xil yoki tabaqalangan holda bo‘lishi mumkin. Tabiiy holki o‘quvchi bunday torshiriqlarga kimnigdir yordamiga muhtojlik sezadi. Agar o‘quvchi faoliyat davomida xato qilsa yoki qiynalsa, o‘qituvchi yoki uning ota-onasi yordam berishi kerak bo‘ladi. Mustaqil ishlar oraqali o‘quvchilarda mehnat malakalari, modellashtirish ko‘nikmalari tarkib torishi kerak bo‘ladi.Ya’ni:ish rejasini tuzadi;talabnoma tuzadi;ish yuzasidan hisobot beradi. Shunday qilib, ta’lim muassasasida o‘quvchining amaliy ko‘nikmasini shakllantirishga yangicha metodik ta’minot (OTM bilan hamkorlik), ta’lim texnologiyalarini aniq bajarishga yo‘naltirish (o‘qituvchi), pedagogik shart-sharoit (maktab), moddiy ta’minot (xokimlik, yuqori turuvchi tashuilotlar), darsni samarali yakunlash (o‘quvchi) imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish modeli aqliy va estetik tarbiya uyg‘unligidagi ko‘rgazmalilik, vaziyatga moslashish kabi tamoyillarga asoslangan. Bu yondashuvning pedagogik shar-sharoitlari o‘quvchilarning “tabiat va ijodiy muhit” munosabatiga asoslangan ta’lim-tarbiyaviy hamda texnologik jarayonida yakka, jamoaviy ishlash kabi o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi rivojlantirishga qaratilgan moslashuvchan (mobil) muhitni yaratishni ko‘zda tutadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8



ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullayeva K.A, P.G.Safarova, N.U.Bikbayeva, A.Baxromov. O‘zbekistan Respublikasining Davlat ta’lim standarti. Boshlang‘ich ta’lim. – Toshkent.
2. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi akademik liseylarda matematika o‘qitish misolida): Ped. fan. dokt. .. diss. – Toshkent, 2006.
3. Abdullayeva K., Yusupova M., Raxmonbekova S. Odobnoma 2-sinf uchun darslik. – Toshkent.
4. Abduqodirov A. “Keys-stadi” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba – T.: “ Tafakkur qanoti”, 2012 – 131 bet.
5. Jo‘rayev A. MULTIMEDIALI TA’LIM VOSITALARI VA ULARNI TAYYORLASH USULLARI //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 1.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jo‘rayev Avazbek Umar o‘g‘li**, boshlang‘ich ta’lim nazariysi kafedrasi o‘qituvchisi, [**Жураев Авазбек Умар оглы,** преподаватель кафедры теории начального образования], [**Shaymardonova A. Dilafruz**, teacher of the department of theory of primary education]; manzil: O‘zbekiston, Termiz tumani, At-Termiziy ko'chasi, 1A-uy [адрес: Узбекистан, ул. Ат-Термизи, 1А, г. Термезский район], [address: Uzbekistan, Termez District, At-Termizi Street, House 1A]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

© Z.B. Pardayeva[1]✉

[1]Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: hozirgi kunda mamlakatimizda til o‘rganishga bo‘lgan talab kundan-kunga ortmoqda. Shu bilan birga uni o‘rganishning ko‘pgina metodlari yaratilmoqda. Ushbu maqolada horijiy tillarni o‘qitishda yangi texnologiyalardan foydalanish va undan maqsad, yangi metodlarni jalb qilish, uning natijalari va xulosa o‘rin egallagan.

MAQSAD: hozirgi rivojlanayotgan zamonda odamlarining ko‘pchiligi ikki va undan ortiq tilda gaplasha oladi. Tillar kesimida oladigan bo‘lsak ba‘zi tillarni o‘rganish birmuncha oson ba’zilarini o‘rganish murakkab hisoblanadi va ularni o‘rganish insonlardan biroz vaqt va mehnat talab qiladi. Hozirgi kun nuqtai nazaridan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak xorijiy tillarni o‘rganishda qilinayotgan islohotlar natijasida til o‘rganishga kirib kelayotgan yosh avlod soni kundan kunga ortib bormoqda.

MATERIALLAR VA METODLAR: xorijiy tillarni o‘qitish sohasida yangi texnologiyalar bilan ishlash tadqiqoti jarayonida suhbat, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

Oyoqlar raqqosa uchun muhim ahamiyatga ega. Sozanda uchun qo‘llari va har bir barmog‘i qadrli.Enash xalfa oyog‘i cho‘loq bo‘lib qolsa ham raqs tushaveradi. O‘zining jismoniy holatiga mos ravishda Chanoq lazgisini o‘ylab topadi. YA’ni ovqat suziladigan chanoq-mis laganda turib raqs ijro etadi, bunda raqqosaning butun jismi to‘rt yuz oltmish suyaklari harakatlanadi.Faqat mayib oyoqlari bir joyda, chanoq ichida harakatsiz turadi.Chentdan qaraganda chanoq, yo‘q, tuvakda o‘sgan gul burlib, eshilib, ko‘kka o‘rlaydi. Festival doirasida raqqosa Dilnoza Ortiqova gran-pri (7000 AQSH dollari), “Eng yaxshi raqs jamoasi” nominatsiyasi bo‘yicha Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat Akademik katta teatrining “Tumor” raqs ansambli, “Eng yaxshi yakkaxon raqs ijrochisi” o‘zbekistonlik Sherzod Kenjaboyev va qozog‘istonlik Gulnur Kosimbek, “Eng yaxshi sahnalashtirilgan raqs” nominatsiyasi bo‘yicha Bolgariyaning “Pirin” raqs jamoasi, “Eng yaxshi raqs jamoasi” nominatsiyasi bo‘yicha ikkinchi o‘rin O‘zbekiston davlat filarmoniyasining “Navbahor” ansambli, Fikrat Aminov nomidagi Ozarbayjon davlat ashula va raqs ansambliga, uchinchi o‘rin Qirg‘izistonning “Shattik”va Turkiyaning “Inegol” raqs ansambliga, “Eng yaxshi yakkaxon raqs ijrochisi” nominatsiyasi bo‘yicha ikkinchi o‘rin hindistonlik Nidxi Misra va o‘zbekistonlik Feruza Azatovaga uchinchi o‘rin ispaniyalik Nireya Fernandesga, rossiyalik kristina Kovrovaga, Nikita Gruzdevga nasib qildi, Eng yaxshi sahnalashtirilgan raqs” nominatsiyasi bo‘yicha ikkinchi o‘rin O‘zbekiston davlat filarmoniyasining “O‘zbekiston” ashula va raqs ansambliga, Tojikistonning “Zebo” ansambliga, shu nonominatsiya bo‘yicha uchinchi o‘rin Serbiyaning “Sveti dordi”, Misrning “Tannura” ansambliga nasib etdi.

Yangi O‘zbekistonning madaniyat va san’at solnomasiga nazar tashlsangiz ijod va ijodkorga munosabat yangicha dunyoqarash asnosida shakllanadi.O‘zbek estradasi milliy qiyofasining asoschisi, serqirra ijodkor, san’atimiz fidoyisi Botir Zokirovning XX asr zamonaviy o‘zbek musiqa san’atini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘targani, respublikada yetuk “Myuzik-xoll” singari yetuk estrada jamoasini tashkil etgani muxlislarga ma’lum. Romanslar, operalar, ariyalarni yuksak professional uslubda ijro etgan taniqli san’atkorning hind, eron, tojik, arab, ukrain, italyan, yugoslav, rus fransuz tillaridagi qo‘shiqlari umumjahon musiqa madaniyatida katta o‘rin topgan.

Prezidentimizning 2020-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”giqaroriga muvofiq O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzurida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti tashkil etilgani, milliy estrada yo‘nalishida zamonaviy ijro namunalarining “Oltin fondi”ni yaratildi. Madaniyat va san’atning insonni ma’naviy kamolotga erishishiga xizmat qiluvchi tarixiy islohotlar, inson ruhiyatining benazir chizgilariga ezgulik, mehr, yaxshilik siyratlari bilan bezovchi xalqaro anjumanlar soni va sifati kundan-kunga ortib bormoqda. Mana shu beqiyos ilhom va ijod sohiblarining besh yil davomida davlatimiz va hukumatimiz rahbariyati boshchiligida o‘zbek madaniyati va san’atini dunyo minbarlariga, jahon sahnalariga olib chiqqan munosib baholanib kelinmoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

“O‘z kuch va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonch bizni Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Yangi Uyg‘onish davri poydevorini yaratishdek ulug‘ maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli va mustahkam qilmoqda[1].

“Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 21-aprelda imzolangan Prezident Qarori milliy madaniy merosni qadrlash, buyuk musavvir va rassom Kamoliddin Behzod tavalludining 565 yilligini keng nishonlash bilan birga atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo‘nalishda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni tashkil etish, tasviriy va amaliy san’at, dizayn sohasini takomillashtirish, “Kamoliddin Behzod izdoshlari” miniatyura va xalq amaliy san’ati asarlari ijodiy tanlovi, “O‘zbekiston zamonaviy miniatyurasi” katalogini tayyorlash, tasviriy san’at yo‘nalishlarida (dastgohli, grafika, mahobatli, miniatyura, haykaltaroshlik) faoliyat olib borayotgan iste’dodli ijodkorlarni saralash imkonini beradi.

Yurtimiz muzeylari fondlarini yuksak darajadagi tasviriy san’at asarlari bilan muntazam boyitib borish, tasviriy san’atiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli ijodkor Pavel Benkov nomini Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabiga berish kabi fayzli amallar bo‘lajak tasviriy va amaliy san’at egalari uchun qutlug‘ imkoniyatlar eshigini ochgani rost. Millatning ma’nan yuksalishida madaniyat va san’at sohasining transformatsiya jarayonlari katta o‘rin tutadi. Odamlarning ruhiyati, kayfiyatiga qanot berishga arzirli madaniyat va san’at asarlari nafaqat jamiyatning gullab-yashnashi, balki kelgusi vazifalarning baroriga ham ijobiy ta’sir qiladi.

“Mamlakatimiz aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, shu yo‘nalishdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini yanada oshirishimiz zarurligi davr talabiga aylanib bormoqda[2].

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 20-yanvarda imzolangan “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni madaniy faoliyatni, madaniyat tashkilotlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishi, ijodkorni, ijodiy jamoani, ijodiy faoliyatni qo‘llab quvvatlashi uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir. Ijodiy faoliyat erkinligi, madaniy faoliyat sohasidagi ta’lim va tarbiyaning tizimliligi, ilmiyligi va uzluksizligi tamoyillariga asoslangan bu qonun asosan madaniy merosimiz, tarixiy milliy o‘zligimizni anglash, tarixiy merosimizni kelajakka bekamu kust yetkazish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni farzandlarimiz tafakkuriga singdirish, xalq ijodiyotini qo‘llab-quvvatlash, madaniyat sohasida xalqaro hamkorlikni taraqqiy toptirish, milliy madaniyatimizni jahon madaniyatining yakdil bir qismi sifatida e’zozlash kabi muhim masalalarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Baxshichilik xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy san’atlaridan sanaladi. Dostonlar, aytimlar, termalar vatanparvarlik, qahramonlik qo‘shiqlariga aylanib asrlararo yashab kelmoqda. Baxshilar, oqinlar, jirovlar qadimdan ezgulik elchilari sifatida e’zozlangan. YUNESKOning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasi (NMMMHQ) XVI sessiyasi doirasida “Baxshichilik san’ati” O‘zbekistonning nomoddiy madaniy merosi elementi sifatida Insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi. Ushbu element bo‘yicha nominatsion paket Prezidentimiz

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekistonning YUNESKO ishlari bo‘yicha Milliy komissiyasi tomonidan tayyorlanib, 2020-yilda NMMMHQga taqdim etilgan. Ikki yil davomida YUNESKO ishlari bo‘yicha Milliy komissiya va O‘zbekistonning Parijdagi doimiy delegatsiyasi Qo‘mitaga a’zo davlatlar, Baholash komissiyasi va YUNESKO Kotibiyati bilan hamkorlikda mazkur elementni targ‘ib qilish bo‘yicha faol ish olib bordi.

“Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston boshqa davlatlar bilan hammualliflikda “Shoshmaqom” (2008), “Navro‘z” (2016) va “Miniatyura san’ati” (2020) nominatsiyalarini ilgari surishda ishtirok etdi[3].

“O‘zbekiston Respublikasida Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident Qarori haqida so‘z ketsa avvalo ushbu tarixiy hujjatning qabul qilinishiga madaniyat va san’at sohasidagi qator muammolarga yechim topish, xalqning ko‘ngliga yetib borayotgan ijodiy namunalarning kamligi va bir qancha sabablar bo‘lganini eslab o‘tish joiz[4].

2018-yil 19-dekabrda qabul qilingan “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qaroriga asosan qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimining yanada takomillashtirilishi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarini tadqiq etish markazi va O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi barpo etilgani, o‘zbek nomoddiy madaniyatining qator elementlari – “Shashmaqom” va “Boysun tumanining madaniy makoni” (2008), “Katta ashula” (2009), “Askiya” (2014), “Osh madaniyati va ana’analari “, “Navro‘z” (2016) ham ushbu tashkilotning vakillik ro‘yxatiga kiritilgan- “O‘zbek palov madaniyati va an’analari” shuningdek, Usmon Qur’oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar to‘plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro‘yxatiga kiritilgani, orazm “Lazgi”sini “Xorazm raqsi-Lazgi” nomi ostida YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgani,Buxoro,Samarqand, Xiva, Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon madaniy merosiga kiritilgani madaniy merosni avlodlarga yetkazish borasidagi ma’rifiy ishlar qatoriga kiradi.

Atoqli san’atkorlarning O‘zbekistonda ishlash shart-sharoitlarini yaratish, respublika markazidan tortib eng olis hududlargacha madaniy-ma’rifiy faoliyatining samarali usullarini qo‘llab-quvvatlash, to‘plangan ilg‘or tajribalarni umumlashtirish,festival, gastrol va ko‘rgazmalar faoliyatini yanada kengroq rivojlantirish,soha hodimlari malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, xalq amaliy san’ati an’analarini saqlash va rivojlantirish,xalq hunarmandchiligini, badiiy havaskorlikni rivojlantirishga asoslangan madaniy-ma’rifiy sohada madaniyat markazlaridan tortib barcha madaniyat va san’at muassasalarining ishlarini qaytadan ko‘rib chiqilishi, aholining gavjum joylariga aylantirilishida ko‘rinadi. “Muzeylar Renovatsiya dasturining tasdiqlangani, mamlakatdagi barcha muzeylarda “ochiq eshiklar” – ya’ni muzeylarga tashrif buyuruvchilar uchun bepul va qulay sharoitlar yaratish borasidagi, muzeylar uchun ham iqtisodi baquvvat tashkilotlar bilan “do‘stlik

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

klublari" hamkorligini tashkil qilish esa muzeylar sohasidagi katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi[5].

2017-2027-yillarda davlat muzeylarini takomillashtirish va moddiy –texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgani va shu hujjatga asoslanib, davlat muzeylarining yangi konsepsiyalarini ishlab chiqish milliy istiqlol, erkin, farovon hayot, an'anaviy san'atimiz va qadriyatlarimizga nisbatan yuksak hurmat, ehtirom tuyg'ularini uyg'otadigan ko'rgazmalar tashkil qilish masalalari qo'yilgan. Teatr san'ati sohasidagi tasavvurlar buyuk fransuz adibi Sartr aytganidek "Nasr-reallik, she'riyat esa tasavvur bilan bog'liq ijod mahsuli. Dramaturgiya – har ikkisining uyg'unligidir. Nasrda ijod qilayotganlar personaj xarakteri suratini chizayotgan paytda, shoirlar inson tuyg'ulari haqida afsonalar yaratadi"degan hikmatlarga mengzaydi inson tasavvurini.

Hurmatli teatr arboblarimiz o'zlarining matbuot va televideniyedagi chiqishlarida ko'pincha ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Teatr- ibratxonadir" degan hikmatli so'zlarini keltirishni yaxshi ko'radilar. 2021-yildan boshlab har ikki yilda bir marotaba noyabr oyida Toshkent shahrida "Xalqaro sirk festivali"ni o'tkazilishi haqidagi xabar o'zbek milliy sirki istiqbollarida nurli sahifalar ochadi. Bu sirk san'ati rivojining asosiy omillaridan sanaladi. YUNESKO shafeligida 1997-yildan beri har ikki yilda Samarqandda o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari", iqtidorli yoshlar orasidagi "Nihol" tanlovi, Yunus Rajabiy nomidagi tanlovlarning har biri Konsepsiyamizning musiqa san'ati sohasidagi islohotlariga katta mazmun-mohiyat bag'ishlaydi, qator turli darajadagi tanlovlar va festivalларn o'tkazish;akademik yo'nalishdagi janrlarni (opera, balet, orkestr va h.k.) ansambl ijrochiligi (simfonik, xalq cholg'ulari, estrada, damli, kamer turlari), kompozitorlar ijodiyotini insoniyat intellektual xazinasi sifatida xalq orasida targ'ibot qilish va rivojlantirish,O'zbekiston filarmoniyasi, uning tarkibidagi jamoalar faoliyatining badiiy va tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan holda respublika aholisi, ayniqsa yoshlar orasida keng targ'ib qilish borasidagi say-harakatlar ko'lamini kengaytirish masalalari ham o'zbek musiqa san'atini jahon sahnalariga yo'llashga xizmat qilishi shubhasiz. 2020-yilning 4-fevralida Muhtaram yurtboshimiz tomonidan imzolangan "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorda ta'kidlangan Madaniyat vazirligi huzurida davlat muassasasi sifatida shakllangan Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansambli qayta tiklangani, 2020-yil 28-sentabrdagi "Lazgi" xalqaro raqs festivalini tashkil etish borasidagi Prezident qarori o'zbek xalqining boy raqs san'atining ming yillik an'analarini saqlash va rivojlantirish, raqs san'ati orqali xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarini kuchaytirish, xaqaro miqyosda ijodiy hamkorlik ko'lamini va madaniy aloqalarni yanada kengaytirish vazifasini o'taydi, Konsepsiyamizning milliy raqs san'ati sohasidagi maqsadlari mana shulardan iborat[6].

Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini keng qamrab olgan musiqa san'ati madaniyat va san'at muassasalari tadbirlarining, faoliyatining eng asosiy o'zaklaridan biri milliy estrada san'atini takomillashtirish, milliy musiqa, jonli so'z, ohangi baland kuylar orqali tomoshabin va muxlislar ko'ngliga kirib boradigan qo'shiqlarning yashovchanligini oshirishga xizmat qilishini yaxshi bilamiz.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

2021-yil 7-aprelda imzolangan “Kino san’ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni, “Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to‘g‘risida”gi Prezident Qarori o‘zbek kinoijodkorlari yaratayotgan kino mahsulotlarining mafkuraviy-badiiy darajasini yanada ko‘tarish uchun xizmat qiladi. Yurtimizda madaniyatning turli yo‘nalishlari bo‘yicha madaniy ziyoratgohlarni tayyorlash, mamlakatning butunlay yangi madaniy landshaftini shakllantirish, O‘zbekistonning to‘liq topografik imidji va tarixiy-madaniy landshafti hamda majmuasini va mamlakatning noyob madaniyatini namoyon etgan holda sayyohlarni ommaviy jalb etadigan jozibali ko‘rinishni yaratish madaniy turizm sohasini o‘zida aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining “Xalq cholg‘ulari ijrochilari”, 2019-yil iyun oylaridan boshlab, har ikki yilda bir marotaba o‘tkazilishi belgilangan Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” tanlovi bo‘lib o‘tdi, 2020-yil mart-aprel oylarida Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovlarini an’anaviy ravishda o‘tkazildi, har ikkila tanlov g‘oliblariga tegishli oliy o‘quv yurtlariga imtiyozli asosda qabul qilish imkoniyatlari berildi. Shuningdek, har yili 21-27-mart kunlari “Teatr tomoshalari haftaligi”ni va uning doirasida madaniy-ma’rifiy tadbirlar, jumladan, teatr rassomlarining ko‘rgazmalari, teatr liboslari va dekoratsiyalari namoyishlarini tashkil qilish, tomoshabinlar bilan ijodkorlar o‘rtasida muloqotlar o‘tkazish hamda aholining shu kunlari davlat teatrlariga bepul kirishi ayniqsa talabalar va o‘quvchilar uchun ayni muddao sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi va Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikdagi davlatlararo qo‘shma loyiha doirasida Buyuk ipak yo‘lining mamlakatimizdan o‘tgan qismini “Ipak yo‘li: Zarafshon daryosi vohasi” va “Ipak yo‘li: Farg‘ona – Sirdaryo havzasi” nomi ostida YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgani Konsepsiyaning maqsadi va vazifasini e’tirofi bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. O‘zbekiston, 2021. – B. 464. https://uzbektourism.uz/news/
2. O‘zbekistonda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident Qarori 2018-yil. 28-noyabr. Qarang: https://lex.uz/docs/-4084926
3. Vazirlar Mahkamasining “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-sonli qarori. 2017-yil. 11-dekabr. Qarang: https://lex.uz/docs/-3451889

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

4. Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chra-tadbirlari to'g'risidagi Prezident Qarori. 2020-yil. 4-fevral. Qarang: https://lex.uz/docs/-4724383
5. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE* 2.9 (2023): 19-23.
6. Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.9 (2023): 7-10.
7. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
8. QOLQANATOV, Asilbek. "MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN." *News of UzMU journal* 1.1.1. 1. (2024): 16-20.
9. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Kutlikov Valisher Nurmaxamat o'g'li,** O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 1-Talabalar turar joyi pedagogi, [**Кутликов Валишер Нурмахаматевич** Педагог 1-го общежития студентов Государственного института искусства и культуры Узбекистана], [**Kutlikov Valisher Nurmaxamatevich**, Pedagogue of the 1st Dormitory of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture.]; manzil: 190111, O'zbekiston, Toshkent, [адрес: 190111, Узбекистан, Ташкент,], [address: 190111, Uzbekistan, Tashkent,]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

O‘ZBEK MUSIQA SAN’ATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ZAMONAVIY MASALALAR

© H.O‘. Xusanov[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: asrlar davomida ulug‘ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan musiqa san’ati bugungi kunda ham kun sayin rivoj topmoqda. Maqolada musiqa san’atining ahamiyati, maqom ijrochiligi va qo‘shiqchilikning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tahliliy fikr yuritilgan.

MAQSAD: maqolaning maqsadi O‘zbek musiqa san’atining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish, uning boy madaniy merosini tushuntirish va zamonaviy dunyodagi muhim masalalarni o‘rganishdan iborat. Shuningdek, milliy musiqa bilan zamonaviy musiqa o‘rtasidagi sintez, texnologik o‘zgarishlar va yosh avlodning musiqaga munosabatini ko‘rib chiqish orqali O‘zbekiston musiqa san’atini kelajakda qanday rivojlantirish mumkinligi haqida muhokama yuritiladi. Bu maqsad O‘zbek musiqasining o‘ziga xosligini saqlab qolgan holda uni zamonaviy talablarga moslashtirishga yordam beradi.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada materiallar va metodlar bo‘limi asosan o‘zbek musiqa san’ati haqida ilmiy va amaliy tadqiqotlarni o‘rganish, musiqiy asarlar, cholg‘u asboblari, va zamonaviy musiqiy o‘zgarishlarni o‘rganish uchun ishlatilgan manbalar va usullarni tushuntirishga qaratiladi. Ushbu bo‘limda quyidagi jihatlar yoritilishi mumkin:

- musiqiy asarlar**:** o‘zbek maqomlari, xalq qo‘shiqlari, raqs musiqalari va an’anaviy musiqiy asarlar o‘rganildi. Shuningdek, taniqli o‘zbek bastakorlari va ijrochilarining asarlari tahlil qilindi.
- cholg‘u asboblari**:** milliy cholg‘u asboblari (dutor, tanbur, rubob, nay va boshqa) tahlil qilindi va ularning ijrochilik usullari, ovoz xususiyatlari, qo‘llanilish turlari o‘rganildi.

Metodlar:

- tarixiy metod**:** o‘zbek musiqa san’ati tarixini va an’analarini o‘rganish uchun tarixiy metod qo‘llanildi. Bu metod yordamida o‘zbek musiqa an’analarining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va ularning zamonaviy o‘zgarishlari tahlil qilindi.
- tahliliy metod**:** musiqiy asarlar, cholg‘u asboblari va ijrochilik usullarini tahlil qilishda tahliliy metoddan foydalanildi. Maqom, xalq musiqasi va zamonaviy musiqa janrlarining strukturaviy va melodik jihatlari tahlil qilindi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

MUHOKAMA VA NATIJALAR: bo‘limida o‘rganilgan materiallar va metodlar asosida O‘zbek musiqa san’ati va uning zamonaviy masalalari haqida asosiy xulosalar chiqariladi. Bu bo‘limda o‘zbek musiqasining o‘ziga xos jihatlari bilan bir qatorda, zamonaviy dunyo bilan uyg‘unlashish jarayonida duch kelinayotgan muammolar va imkoniyatlar haqida muhokama yuritiladi. An’anaviy musiqaning zamonaviy muhitda saqlanishi: O‘zbek musiqa san’ati tarixiy va madaniy jihatdan boy merosga ega bo‘lsa-da, zamonaviy raqamli texnologiyalar va global madaniyat bosimi ostida bu merosni saqlab qolish dolzarb masalaga aylangan. Xalq musiqasi va maqom ijrochiligi yoshlar orasida unutilib borishi xavfi mavjud. Shu sababli, musiqa ta’limida an’anaviy musiqa o‘rgatishning muhimligi yana bir bor tasdiqlandi. Biroq, zamonaviy musiqaning rivojlanishi va xalqaro sahnaga chiqish milliy musiqaga yangicha imkoniyatlar yaratmoqda.

Ijodkorlar va bastakorlar milliy musiqa elementlarini saqlashga e’tibor qaratishi kerak. Yangi musiqiy asarlar yaratishda milliy maqomlar, xalq kuy va cholg‘ularini innovatsion tarzda qo‘llash orqali milliy musiqani kelajak avlodlarga yetkazish mumkin.

XULOSA: o‘zbek musiqa san’ati boy va murakkab merosga ega bo‘lib, uni saqlab qolish va rivojlantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. An’anaviy musiqiy shakllarni zamonaviy texnologiyalar va janrlar bilan uyg‘unlashtirish, yosh avlodni musiqiy meros bilan tanishtirish, shuningdek, xalqaro maydondagi raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim. Musiqa san’ati milliy o‘zlikni aks ettiradigan, xalqning ruhi va madaniy qadriyatlarini ifoda etadigan kuchli qurol bo‘lib qoladi.

Kalit so'zlar: madaniyat va san’at, musiqa san’ati, milliy qo‘shiqchilik, maqom, kuy, xonandalik, tarbiya, renessans, ijod, xalqaro aloqalar.

Iqtibos uchun: Xusanov H.O‘. O‘zbek musiqa san’atining o‘ziga xos xususiyatlari va zamonaviy masalalar. // Inter education & global study. 2024. №8. B.413-422.

ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА И ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОСТИ

© Х.О. Хусанов[1]✉
Узбекского государственного института искусств и культуры, Тошкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: на протяжении веков музыкальное искусство, отшлифованное упорным трудом и самоотверженностью великих поэтов и учёных, искусных композиторов, хафизов и музыкантов, творческого мышления, продолжает развиваться день ото дня. В статье представлено аналитическое мнение о значении музыкального искусства, статусе исполнительства и специфических особенностях пения.

ЦЕЛЬ: цель статьи – выделить уникальные особенности узбекской музыки, объяснить ее богатое культурное наследие, изучить важные проблемы современного мира. Также будет обсуждено, как музыкальное искусство Узбекистана может развиваться в будущем, учитывая синтез национальной музыки

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

и современной музыки, технологические изменения и отношение молодого поколения к музыке. Эта цель помогает адаптировать узбекскую музыку к современным требованиям, сохраняя при этом ее самобытность.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье в разделе «Материалы и методы» в основном описаны источники и методы, используемые для изучения научно-практических исследований узбекского музыкального искусства, музыкальных произведений, музыкальных инструментов, а также современных музыкальных изменений, ориентированных на объяснение. Этот раздел может охватывать следующие аспекты:

• музыкальные произведения: изучались узбекские статусы, народные песни, танцевальная музыка и традиционные музыкальные произведения. Также были проанализированы произведения известных узбекских композиторов и исполнителей.

• музыкальные инструменты: проанализированы национальные музыкальные инструменты (дутор, танбур, рубоб, флейта и др.), изучены способы их исполнения, звуковые характеристики и виды использования.

Методы:

• исторический метод: исторический метод использовался для изучения истории и традиций узбекской музыки. С помощью этого метода проанализировано зарождение узбекских музыкальных традиций, этапы развития и их современные изменения.

• аналитический метод: аналитический метод использовался при анализе музыкальных произведений, музыкальных инструментов и методов исполнения. Проанализированы структурные и мелодические аспекты макама, народной музыки и современных музыкальных жанров.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: на основе материалов и методов, изученных в разделе «Обсуждение и результаты», сделаны основные выводы об узбекском музыкальном искусстве и его современных проблемах. В этом разделе, наряду с уникальными аспектами узбекской музыки, обсуждаются проблемы и возможности, возникающие в процессе гармонизации с современным миром. Сохранение традиционной музыки в современной среде: хотя узбекская музыка имеет богатое историческое и культурное наследие, сохранение этого наследия под давлением современных цифровых технологий и мировой культуры стало актуальной проблемой. Есть опасность, что народная музыка и статусные перформансы забудутся среди молодежи. Таким образом, важность преподавания традиционной музыки в музыкальном образовании еще раз подтверждена. Однако развитие современной музыки и ее выход на международную арену открывают новые возможности для национальной музыки.

Художникам и композиторам следует обратить внимание на сохранение элементов национальной музыки. Инновационно используя национальные статусы,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

народные напевы и инструменты в создании новых музыкальных произведений, можно передать национальную музыку будущим поколениям.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: узбекская музыка имеет богатое и сложное наследие, и его сохранение и развитие является одной из важных задач современности. Должны быть приняты необходимые меры по гармонизации традиционных музыкальных форм с современными технологиями и жанрами, приобщению молодого поколения к музыкальному наследию, а также повышению конкурентоспособности на международной арене. Музыкальное искусство остается мощным оружием, отражающим национальную самобытность, выражающим дух и культурные ценности народа.

Ключевые слова: культура и искусство, музыкальное искусство, национальное пение, статус, мелодия, пение, образование, ренессанс, творчество, международные отношения.

Для цитирования: Хусанов Х.О. Особенности узбекского музыкального искусства и проблемы современности. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 413-422.

FEATURES OF UZBEK MUSICAL ART AND PROBLEMS OF MODERNITY

© Husanov O Husniddin[1]✉
[1] Uzbekistan State Institute of Art and Culture, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: over the centuries, the art of music, honed by the hard work and dedication of great poets and scientists, skilled composers, hafiz and musicians, and creative thinkers, continues to develop day by day. The article presents an analytical opinion on the meaning of musical art, the status of performance and the specific features of singing.

AIM: the purpose of the article is to highlight the unique features of Uzbek music, explain its rich cultural heritage, and examine important issues in the modern world. It will also discuss how the musical art of Uzbekistan can develop in the future, taking into account the synthesis of national music and modern music, technological changes, and the attitude of the younger generation to music. This goal helps to adapt Uzbek music to modern requirements while maintaining its originality.

MATERIALS AND METHODS: the article mainly describes the sources and methods used to study the scientific and practical research of Uzbek musical art, musical works, musical instruments, and modern musical changes oriented to explanation in the section “Materials and Methods”. This section can cover the following aspects:

• Musical works: Uzbek statuses, folk songs, dance music, and traditional musical works were studied. The works of famous Uzbek composers and performers were also analyzed. • musical instruments: national musical instruments (dutora, tanbur, rubob,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

flute, etc.) were analyzed, their performance methods, sound characteristics and types of use were studied.

Methods:

• historical method: the historical method was used to study the history and traditions of Uzbek music. With the help of this method, the origin of Uzbek musical traditions, stages of development and their modern changes were analyzed.

• analytical method: the analytical method was used in the analysis of musical works, musical instruments and performance methods. Structural and melodic aspects of maqam, folk music and modern musical genres were analyzed.

DISCUSSION AND RESULTS: based on the materials and methods studied in the Discussion and Results section, the main conclusions about Uzbek musical art and its modern problems were made. In this section, along with the unique aspects of Uzbek music, the problems and opportunities arising in the process of harmonization with the modern world are discussed. Preservation of Traditional Music in the Modern Environment: Although Uzbek music has a rich historical and cultural heritage, preserving this heritage under the pressure of modern digital technologies and world culture has become an urgent problem. There is a danger that folk music and status performances will be forgotten among the youth. Thus, the importance of teaching traditional music in music education is once again confirmed. However, the development of modern music and its entry into the international arena opens up new opportunities for national music.

Artists and composers should pay attention to preserving elements of national music. Innovatively using national statuses, folk tunes and instruments in creating new musical works, it is possible to pass on national music to future generations.

CONCLUSION: uzbek music has a rich and complex heritage, and its preservation and development is one of the important tasks of our time. Necessary measures should be taken to harmonize traditional musical forms with modern technologies and genres, introduce the younger generation to the musical heritage, and increase competitiveness in the international arena. Musical art remains a powerful weapon reflecting national identity and expressing the spirit and cultural values of the people.

Key words: Culture and art, musical art, national singing, status, melody, singing, education, Renaissance, creativity, international relations.

For citation: Husanov O. Husniddin. (2024) ‘Features of uzbek musical art and problems of modernity’, Inter education & global study, (8), pp. 413-422. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega. Bu haqda asrlar davomida sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan xalq og'zaki ijodiyotidagi professional musiqa darak beradi. Tarixdan ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi butun O'rta Osiyoni bosib oldi. Shu davrdan boshlab O'rta Osiyo asta-sekin, Rossiya imperiyasining mustamlakasi sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy mintaqasining tarkibiy qismiga aylandi. O'lkaga rus madaniyati tezlikda kirib kela boshladi. Yurtimizga kirib kelgan dastlabki rus musiqasi puflama cholg'u oikestrida ijro etiladigan kuylardan iborat bo'lgan. Ushbu puflama orkestrlarning repertuarlari G'arbiy Yevropa kompozitorlarining asarlaridan iborat bo'lib, XIX asrning 70-yillari oxirlaridan boshlab bu orkestrlar o'zbek kuylarini ham ijro eta boshladilar, ushbu kuylar mahalliy kapelmeysterlar tomonidan qayta ishlangan edi. 1883-yili Toshkentda Musiqa Jamiyati tuzilib, 1884-yildan o'z faoliyatini boshladi. O'zbekiston hududiga Rossiyadan rus fuqarolari ko'plab ko'chirtirib keltirila boshladi. Buning natijasida Toshkent Musiqa Jamiyatining safi yanada kengaydi. 80-yillarning ikkinchi yarmida u musiqa havaskorlaridan tashkil topgan xor va orkestrga ega edi. Jamiyat qoshida ofitserlar havaskorlik orkestri ishlardi. Mazkur jamiyatda barcha xohlovchilar o'qishi mumkin bo'lgan musiqa sinflari oshichga harakat qilindi. Biroq o'qish haqining yuqoriligi bunday sinflar uchun kerakli miqdorda o'quvchilarni to'plashga salbiy ta'sir ko'rsatdi.[1]

O'zbekistonda milliy musiqa san'atining rivoji jadidchilik harakatiga ham bevosita aloqador bo'ldi. Jadidlar millat va xalqni diniy-dunyoviy ma'rifat, ilm-fan, madaniyat va yangiliklar bilan qurollantirib tarbiyalash, o'zligini anglatish, ijtimoiy-ma'naviy g'aflat uyqusidan uyg'otib, turmush tarzi, tafakkuri, ma'naviyati, madaniyati, adabiyot va maorifini o'zlashtirishga bel bog'ladilar. Ularga S.Ayniy, A.Avloniy, M.Behbudiy, A.Fitrat, Munavvar Qori, A.Shakuriy kabi qator taraqqiyparvar ma'rifatparvarlar boshchilik qildilar. Jadidchilik harakati paydo bo'lishi bilan chor Rossiya ma'muriyati va mahalliy mutassiblarning qattiq qarshiligiga duch keldi. Shunga qaramay jadidchilikning g'oya va oqimlari yildan-yilga avj ola boshladi va mahalliy xalqlar orasida ommalasha bordi. Sababi ular chorizm siyosatining xalqqa qarshi qaratilgan mohiyatini qoralab, unga muxolifatda turgan kuchlar bilan aloqa qilib, ularga yo'nalish ko'rsatdilar.[2]

Jadidlar rus ijtimoiy-siyosiy tajribasi va milliy ozodlik kurashi haqida matbuotda tashviqot-targ'ibot qilibgina qolmay, o'zlari ham mazkur harakatlarda faol ishtirok etdilar. 1911-yilda Toshkentda Munavvar Qori, Abdulla Avloniy va boshqalar "Turon" nomli ko'p tarmoqli jamiyatni tuzdilar. Ushbu jamiyat sobiq sovet hokimiyatining dastlabki

[1] Hamidov H. "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi". 105-bet.

[2] N.Raxmatova. O'zbek musiqa adabiyoti**:** O'quv qo'llanma / N.Yuldasheva, N.Raxmatova; O'zR. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. -T.: «Iqtisod- Moliya», 2016. – 144 b.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

yillarigacha samarali faoliyat yuritadi. Uning qoshida teatr truppasi, “Turon” nomli kutubxona va nashriyot ham tashkil qilinib, bular butun Turkiston bo‘ylab ma’rifat va ziyo, ilm-fan tarqalishi, kitob chop etish ishlari rivojiga katta hissa qo‘shdilar.

Inson tirik ekan kuy, qo‘shiqqa, ko‘ngilga kayfiyat baxsh etuvchi san’at durdonalariga ehtiyoj sezadi. Madaniyat va san’at- jamiyatning bebaho xazinasi, inson tafakkurining bemisil kashfiyotidir.[3]

Musiqa, kuy-ohangni insoniyatga ta’siri, shaxsning va jamiyatning ruhiy hayotidagi o‘rni beqiyos hisoblanadi. Shu o‘rinda Asafevning “…musiqa – bu ham san’at, ham fan, ham til, ham o‘yin”[4], degan so‘zlarini eslash maqsadga muvofiqdir. Demak, madaniyat va san’at oliy ta’lim dargohlarida tarbiyalanayotgan talabalarni musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san’atidan vosita sifatida foydalanish masalasi allaqachon fan sifatida keng miqyosda tadqiq etib bo‘lingan. Musiqa kishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatar ekan: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta’sir qilib, unda har xil hislarni uyg‘otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo‘shiqning matni, g‘oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongi va shuuriga ham ta’sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi.

Xalqimiz madaniy merosining ajralmas bo‘lagi hisoblanadigan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy va yuksak tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi hamda boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda alohida muhim o‘rin egallaydi. O‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizda maqom san’atini o‘rganish va rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o‘zbek “Shashmaqomi” nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo‘shiqlarining magnit lentalarga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea deya e’tirof etildi. Ushbu san’atni yanada rivojlantirish maqsadida alohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori[5] imzolandi. Ushbu qarorga muvofiq ko‘plab amaliy ishlar va ustuvor vazifalar belgilandi. Jumladan, o‘zbek milliy maqom san’ati markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Qarorga muvofiq esa quyidagilar milliy maqom san’ati markazining asosiy vazifalari etib belgilandi:

–O‘zbekistonda maqom san’atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablari va an’analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash;

–o‘zbek maqom san’ati mumtoz va zamonaviy ijro namunalarining “oltin fondi”ni yaratish;

–xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish;

–maqom san’ati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va targ‘ib qilish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

[3] To‘ychiyeva S. Madaniyat va san’atimiz rivojidagi zarsahifalar // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022.
[4] Asafev B.V. Zamonaviy rus musiqashunoslik va uning tarixiy vazifalari.- De Musica, 1-son. L., 1926, 17-bet.
[5] “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. 17.11.2017 yildagi PQ-3391-son. Lex.uz.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

–mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom san'atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlarini yurtimiz olimlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur o'rganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish;

–maqom san'atining ko'p asrlik ijro yo'llarini puxta o'zlashtirib, ularni yangicha usullar bilan boyitib, yosh avlod vakillariga o'rgatib kelayotgan maqomchilar, maqomshunos ilmiy-pedagog olimlar va mutaxassislar, Maqom markazi xodimlari faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

–Yurtimizda maqom san'ati bo'yicha xorijiy yetuk ijrochilarning o'zaro tajriba almashuvi, mahorat darslari hamda turli xalqaro maqom anjumanlari va tanlovlarini tashkil etish;

Belgilangan vazifalardan shuni anglanishimiz mumkinki, milliy markaz faoliyatining samaradorligi ushbu sohaning qay darajada rivojlanishi va takomillashishini belgilab beradi.

Mamlakatimizdagi jamiyat hayotida yuz berayotgan keng qamrovli ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarni tasniflash orqali milliy merosimizdagi xalq ijodiyoti va milliy qadriyatlarimizdan bo'lgan musiqiy merosimizni asrab- avaylash, yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirishning ijtimoiy- falsafiy omillarini tadqiq qilish orqali yoshlar tarbiyasida musiqaning o'rnini o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida mamlakatimizda milliy manfaatlarga ustuvor darajada ahamiyat berilishi musiqiy ilmga nisbatan munosabatlarni ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ldi. Zamonaviy jamiyatda musiqaning ijtimoiy – madaniy jihatlari falsafiy adabiyotlarda shaxs aqliy qobiliyatlarini ifodalovchi musiqiy madaniyat tushunchasi sifatida talqin qilinmoqda[6].

Yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari deganimizda bugungi kungacha musiqa madaniyat tushunchasini faqat san'atshunoslik fanlari tomonidan o'rganilgan bo'lsa, endi bu holatni ijtimoiy-falsafiy tushunish, uni bir butun fenomen sifatida o'rganishni taqazo qilmoqda. Musiqiy tafakkur xususiyatini tushunishdan oldin madaniyat - ijtimoiy falsafiy kategoriya sifatida keng qamrovli tushuncha ekaniga urg'u berishimiz lozim. Madaniyat insonning ruhiy va aqliy olamining majmui hisoblanib, barkamol insonni shakllantirishda, shaxsning ma'naviy-ma'rifiy darajasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga etkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga bo'lgan munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi. Shu o'rinda, musiqa hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ta'sir kuchiga ega desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz deya ta'rif beradilar yurtboshimiz.

[6] A.M.Nurmuhamedjanov."Yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari". FarDU ilmiy xabarlari jurnali. 2024. 2-son. 87-b.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, musiqa san'atini yanada takomillashtirish, jahon hamjamiyati bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, soha mutaxassislarini yanada qo'llab-quvvatlash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan joriy 2024-yilning 26-30-avgust kunlari YUNESKO shafeligida qadimiy shahrimiz Samarqandda "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivali bo'lib o'tdi. Xalqaro festival hisoblanuvchi "Sharq taronalari" Markaziy Osiyodagi eng katta festivallardan hisoblanadi. Festival o'tkazilishidan asosiy maqsad milliy musiqa san'atida erishilgan yutuqlarni keng ommaga tatbiq qilish, millatlarning madaniyat va an'analarini asrash va rivojlantirish, sozandalik va xonandalik yo'nalishidagi iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xalqaro ijodiy aloqalarni kengaytirish, tinchlik, do'stlik va o'zaro bag'rikenglik g'oyalarini targ'ib qilishdan iborat. Ma'lumot o'rnida aytishimiz mumkinki, 1997-yilda tashkil qilinib, birinchi marotaba o'tkazilgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida 31 ta davlatdan musiqiy guruhlar va ijrochilar tashrif buyurishgan bo'lsa 2019-yilda o'tkazilgan XII "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida ishtirok etgan davlatlar soni 75 taga yetgan[7].

2024-yilning 26-30-avgust kunlari o'tkazilishi rejalashtirilgan "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivalida dunyoning 80 ga yaqin mamlakatlaridan 300 nafarga yaqin vakillar qatnashishdi. 26–avgust kuni Samarqand shahrida "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivalining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda, 400 nafardan ziyod san'atkor, olimlar va vakillar qatnashishdi. Festivalning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so'zladi. Nutqi davomida "Sharq taronalari" festivali, mohiyat e'tiboriga ko'ra, bugungi kunda "jahon taronalari" anjumaniga aylanganini ta'kidladi. Shuningdek, Davlat rahbari xalqlar o'rtasida do'stlik va ahillikni mustahkamlash, musiqiy merosni o'rganish va kelgusi avlodlarga yetkazish masalalariga e'tibor qaratdi. Shu bois, "Sharq taronalari" festivali tarixi va musiqa madaniyatiga doir ma'lumotlarni o'zida mujassam etadigan alohida ensiklopediya va uning virtual shaklini ishlab chiqish, anjumanning xalqaro "Do'stlar klubi"ni tashkil qilish tashabbusi ilgari surildi. Festivalning g'olib va sovrindorlari ishtirokida dunyo mamlakatlarining nufuzli sahnalarida konsert dasturlarini o'tkazish taklifi bildirildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Hamidov H. "O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi". 105-bet.
2. N. Raxmatova. O'zbek musiqa adabiyoti**:** O'quv qo'llanma / N.Yuldasheva, N. Raxmatova; O'zR. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. -T.: «Iqtisod- Moliya», 2016. – 144 b.

7 "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivali haqida PRESS-RELIZ. https://gov.uz/oz/madaniyat/news/view/.2024/08/29.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

3. To‘ychiyeva S. Madaniyat va san’atimiz rivojidagi zarsahifalar // Yangi O‘zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022.
4. Asafev B.V. Zamonaviy rus musiqashunoslik va uning tarixiy vazifalari.- De Musica, 1-son. L., 1926, 17-bet.
5. “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. 17.11.2017 yildagi PQ-3391-son. Lex.uz.
6. A.M. Nurmuhamedjanov. “Yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari”. FarDU ilmiy xabarlari jurnali. 2024. 2-son. 87-b.
7. “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivali haqida PRESS-RELIZ. https://gov.uz/oz/madaniyat/news/view/.2024/08/29.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xusanov Husniddin O‘rinovich**, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrasi mudiri v.b., katta o‘qituvchi, [**Хусанов Хусниддин Оринович** Узбекский государственный институт искусства и культуры, заведующий кафедрой «Национальное пение» в.и, старший преподаватель], [**Husanov O. Husniddin**, Uzbek State Institute of Art and Culture, Head of the Department of National Singing, V.I., Senior Lecturer]; manzil: 190111, O‘zbekiston, Toshkent, [адрес: 190111, Узбекистан, Ташкент,], [address: 190111, Uzbekistan, Tashkent,]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

O‘ZBEK KINEMATOGRAFIYASIDA BOLALAR KINOSINING VUJUDGA KELISHI VA SHAKLLANISHI

© S.N. Bekmuradova[1]✉

[1] O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada o‘zbek kinematografiyasi shakllanishi va rivojlanishi davomida bolalar mavzusidagi filmlarning vujudga kelishi, bolalar kinosining shakllanish bosqichlari haqida so‘z boradi.

MAQSAD: o‘zbek kinematografiyasida bolalar kinosining vujudga kelishi va shakllanishini o‘rganishning asosiy maqsadi – yosh avlodni milliy qadriyatlar, madaniy meros va axloqiy tarbiyaga yo‘naltirilgan filmlar orqali tarbiyalashdir. Bu filmlar orqali nafaqat o‘zbek xalqining boy madaniyati va tarixi targ‘ib qilinadi, balki bolalarning ma'naviy dunyosini boyitishga va ularni yaxshi insoniy fazilatlar egasi bo‘lib ulg‘ayishlariga xizmat qiladi. Maqsad shuningdek, o‘zbek bolalar kinosining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: bo‘limi O‘zbek kinematografiyasida bolalar kinosining vujudga kelishi va shakllanishini o‘rganishda foydalaniladigan ilmiy va tadqiqot manbalarini aniqlash, shuningdek, tahlil qilish usullarini belgilash uchun muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy hujjatlar va arxivlar**:**

O‘zbekiston milliy arxivlarida saqlanayotgan sovet davridan boshlab hozirgi kungacha yaratilgan bolalar filmlari va kinosenariylari hujjatlari.

O‘zbekiston kinostudiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan bolalar filmlari, ularning texnik tafsilotlari va ijodiy jarayonlar haqidagi ma’lumotlar.

Tarixiy-tahliliy metod**:** Bolalar kinosining vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonini tarixiy nuqtai nazardan o‘rganish. O‘zbek kinematografiyasining rivojlanish bosqichlarini aniqlash va bu yo‘nalishdagi asosiy qadamlarni tahlil qilish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o‘zbek kinematografiyasida bolalar kinolari janri shakllanishi va rivojlanishi mamlakat madaniy hayotining muhim qismi hisoblanadi. Tarixiy jihatdan, bu janrning vujudga kelishi O‘zbekistonda ijtimoiy hayot, madaniy meros va yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan keng qamrovli davlat siyosati bilan uzviy bog‘liqdir. Bolalar kinolari dastlab sovet davrida shakllangan bo‘lib, bu filmlar yosh tomoshabinlarning estetik, axloqiy va madaniy tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatgan. O‘sha davrda bolalar kinolarida ko‘pincha sovet g‘oyalari targ‘ib qilingan, lekin ular orasida milliy urf-odatlar va qadriyatlarni ifodalovchi filmlar ham bor edi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, bolalar kinolarida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy merosni aks ettiruvchi motivlar kuchaya boshladi. Mustaqillik davrida ishlab chiqarilgan filmlarda bolalarga milliy tarbiya berish, ma’naviyatni shakllantirish, madaniy xotira va o‘zlikni anglash masalalariga katta e’tibor qaratildi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va yangi narativ usullarni qo‘llagan holda ishlab chiqarilgan bolalar filmlari yosh tomoshabinlarga yangicha tarzda yetkazilmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, bolalar kinomatografiyasining rivojlanishiga katta turtki berdi. Muhokama qilinishi lozim bo‘lgan muhim masalalardan biri — bolalar kinolari uchun mavzu va zamon qahormanini tanlashdagi yondashuvlar. Shu bilan birga, globalizatsiya va internet texnologiyalarining rivojlanishi o‘zbek bolalar kinomatografiyasiga yangi imkoniyatlar ochdi. Endi yosh tomoshabinlar dunyo bo‘ylab tarqalgan turli mavzularni o‘z ichiga olgan filmlarni tomosha qilish imkoniyatiga ega. O‘zbek kinorejissyorlari esa bu tendensiyadan foydalanib, xalqaro miqyosda bolalar uchun qiziqarli bo‘ladigan va shu bilan birga, milliy xususiyatlarni saqlaydigan yangi filmlar yaratishga urinmoqdalar.

XULOSA: o‘zbek bolalar kinomotografiyasi rivojlanishi o‘ziga xos tarixiy jarayon bo‘lib, u milliy qadriyatlar va tarbiya bilan uzviy bog‘liqdir. Mustaqillik davrida bolalar kinolari yanada milliy ruhda boyitilib, yosh avlodni tarbiyalashda katta rol o‘ynashda davom etmoqda. Zamonaviy texnologiyalar va xalqaro ta’sirlar natijasida bolalar filmlari ko‘proq interfaol va global bo‘lib bormoqda, bu esa bolalarga milliy madaniyatni ommaviylashtirish va xalqaro miqyosda o‘ziga xoslikni saqlash imkonini bermoqda. Mavzularni boyitish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish orqali bolalar kinomatografiyasining kelajagi yanada yorqin bo‘lishi mumkin.

Kalit so'zlar: bolalar kinosi, bolalar adabiyoti, kinematografiya, janr, sifat, uslub.

Iqtibos uchun: Bekmuradova S.N. O‘zbek kinematografiyasida bolalar kinosining vujudga kelishi va shakllanishi // Inter education & global study. 2024. №8. B.423-430.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И ФОРМИРОВАНИЕ ДЕТСКОГО КИНО В УЗБЕКСКОЙ КИНЕМАТОГРАФИИ

© С.Н. Бекмурадов[1]✉
[1] Узбекский государственный институт искусств и культуры, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье говорится о возникновении детского кино в период становления и развития узбекского кинематографа, этапах становления детского кино.

ЦЕЛЬ: основной целью изучения возникновения и становления детского кино в узбекском кинематографе является воспитание подрастающего поколения через фильмы, ориентированные на национальные ценности, культурное наследие и нравственное воспитание. Эти фильмы не только пропагандируют богатую культуру и историю узбекского народа, но и служат обогащению духовного мира

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

детей и воспитанию их как обладателей хороших человеческих качеств. Целью также является выявление проблем, препятствующих развитию узбекского детского кино, и поиск путей их преодоления.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: раздел имеет важное значение для определения научных и исследовательских источников, используемых при изучении возникновения и становления детского кино в Узбекской кинематографии, а также для определения методов анализа.

Исторические документы и архивы:

документы детских фильмов и киносценариев, созданные с советских времен и до наших дней, хранятся в Национальном архиве Узбекистана.

информация о детских фильмах, производимых киностудиями Узбекистана, их технические детали и творческие процессы.

Историко-аналитический метод: исследование процесса возникновения и развития детского кино с исторической точки зрения. Выявление этапов развития узбекского кинематографа и анализ основных шагов в этом направлении.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: становление и развитие жанра детского кино в узбекском кинематографе является важной частью культурной жизни страны. Исторически возникновение этого жанра неразрывно связано с комплексной государственной политикой, направленной на общественную жизнь, культурное наследие и воспитание молодого поколения в Узбекистане. Детские фильмы впервые были созданы в советское время и оказали большое влияние на эстетическое, нравственное и культурное воспитание юных зрителей. В то время детские фильмы часто пропагандировали советские идеи, но были и фильмы, выражающие национальные традиции и ценности.

После обретения Узбекистаном независимости в детских фильмах стали увеличиваться мотивы, отражающие национальные ценности, традиции и культурное наследие. В фильмах, снятых в период независимости, большое внимание уделялось вопросам национального воспитания, формирования духовности, культурной памяти и самосознания. Кроме того, по-новому доносятся до юной аудитории детские фильмы, созданные с использованием современных технологий и новых методов повествования. Эта ситуация, в свою очередь, дала большой толчок развитию детского кинематографа. Одним из важных вопросов, который следует обсудить, является подход к выбору сюжета и характера времени для детских фильмов. В то же время глобализация и развитие интернет-технологий открыли новые возможности для детского кинематографа Узбекистана. Теперь у юных зрителей есть возможность смотреть фильмы, охватывающие широкий спектр тем со всего мира. Узбекские кинематографисты используют эту тенденцию для создания новых фильмов, которые будут интересны детям на международном уровне и при этом сохранят национальные особенности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие детского кинематографа Узбекистана – уникальный исторический процесс, неразрывно связанный с национальными ценностями и

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

воспитанием. В период независимости детские фильмы обогатились национальным духом и продолжают играть важную роль в воспитании подрастающего поколения. В результате современных технологий и международного влияния детские фильмы становятся более интерактивными и глобальными, что позволяет детям популяризировать национальную культуру и сохранять свою идентичность в международном масштабе. Обогащая темы и развивая новые подходы, будущее детской кинематографии может стать еще ярче.

Ключевые слова: детского кино, детская литература, кинематограф, жанр, качество, стиль.

Для цитирования: Бекмурадов С.Н. Возникновение и формирование детского кино в узбекской кинематографии. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 423-430.

THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF CHILDREN'S CINEMA IN UZBEK CINEMATOGRAPHY

© Sevara N. Bekmuradova[1]✉
[1] Uzbek State Institute of Arts and Culture, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article talks about the emergence of children’s cinema during the formation and development of Uzbek cinema, the stages of he formation of children’s cinema.

AIM: the main purpose of studying the emergence and formation of children's cinema in Uzbek cinema is to educate the younger generation through films focused on national values, cultural heritage and moral education. These films not only promote the rich culture and history of the Uzbek people, but also serve to enrich the spiritual world of children and educate them as owners of good human qualities. The aim is also to identify the problems hindering the development of Uzbek children's cinema and to find ways to overcome them.

MATERIALS AND METHODS: this section is important for identifying scientific and research sources used in the study of the emergence and formation of children's cinema in Uzbek cinematography, as well as for determining methods of analysis.

Historical documents and archives:

Documents of children's films and screenplays created from Soviet times to the present day are kept in the National Archive of Uzbekistan.

nformation about children's films produced by Uzbek film studios, their technical details and creative processes.

Historical and analytical method: the study of the process of the emergence and development of children's cinema from a historical point of view. Identification of the stages of development of Uzbek cinema and analysis of the main steps in this direction.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

DISCUSSION AND RESULTS: the formation and development of the genre of children's films in Uzbek cinematography is an important part of the country's cultural life. Historically, the emergence of this genre is inextricably linked with the comprehensive state policy aimed at social life, cultural heritage and education of the young generation in Uzbekistan. Children's films were first created in the Soviet era, and these films had a great impact on the aesthetic, moral and cultural education of young viewers. At that time, children's films often promoted Soviet ideas, but there were also films expressing national traditions and values.

After the independence of Uzbekistan, motifs reflecting national values, traditions and cultural heritage began to increase in children's films. In the films produced during the period of independence, great attention was paid to the issues of national education, formation of spirituality, cultural memory and self-awareness. Also, children's films produced using modern technologies and new narrative methods are being delivered to young audiences in a new way. This situation, in turn, gave a great impetus to the development of children's cinematography. One of the important issues that should be discussed is the approach to choosing the subject and character of the time for children's films. At the same time, globalization and the development of Internet technologies have opened up new opportunities for Uzbek children's cinematography. Now, young viewers have the opportunity to watch films that cover a wide range of topics from around the world. Uzbek filmmakers are using this trend to create new films that will be interesting for children at the international level and at the same time preserve national characteristics.

CONCLUSION: the development of Uzbek children's cinematography is a unique historical process, which is inextricably linked with national values and education. In the period of independence, children's films were enriched with a national spirit and continue to play a major role in educating the young generation. As a result of modern technology and international influences, children's films are becoming more interactive and global, which allows children to popularize national culture and maintain their identity on an international scale. By enriching themes and developing new approaches, the future of children's cinematography can be even brighter.

Key words: children's cinema, children's literature, cinema, genre, quality, style.

For citation: Sevara N. Bekmuradova. (2024) 'The emergence and development of children's cinema in uzbek cinematography, Inter education & global study, (8), pp. 423-430. (In Uzbek).

Jamiyatning ma'lum bir auditoriyasiga ma'naviy-axloqiy, estetik g'oyaviy ta'sir ko'rsatish va vatanparvarlik tarbiyasini singdirishda muhim vositalardan biri bu – kino. Xususan, yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash jarayonida kino san'atining muhim o'rni, uning, shaxsga ta'sirining ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari bilan bog'liq. Ekran san'ati mahsulotlarini tomosha qilish va muhokama qilish - bu ma'naviy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

xordiq chiqarish bilan bir qatorda insonning o‘z-o‘zini tarbiyalash usuli hamdir. Yuqori sifatli va “aqlli” kino tomoshabinga eng yuksak umuminsoniy qadriyatlarni etkazishning ajoyib usulidir.

Har bir inson o‘z hayotining oltin davri – bolaligi haqida ko‘p xotiralarga ega bo‘ladi. Ushbu xotiralarning yoqimli taassurotlari o‘sha davrlarda ko‘rilgan yaxshi filmlar va o‘qilgan sehrli ertaklarga bo‘lgan muhabbat bilan bog‘liq. Bolalikdagi har bir film va ertaklar har birimiz uchun o‘rnak bo‘lgan. Qahramonlar o‘zlarining mehr-muxabbat, sadoqat, topqirlik, adolat kabi insoniy fazilatlari bilan ajralib turgan.

Bolalar filmlarida har doim o‘ziga hoslik, sehr, biroz soddalik, yorqinlik aks etadi, yaxshilik va adolat doimo g‘alaba qozonadi, do‘st hamisha yordam qo‘lini cho‘zadi. Bular sizni sezgir, mehnatsevar bo‘lishga, do‘stlaringizga va vataningizga sadoqatli bo‘lishga o‘rgatadi. Filmda qahramonlar ma’lum bir xatolarga yo‘l qo‘yadi, bunday hayotiy vaziyatlarda qaxramonlar o‘z aql va idroklari bilan vaziyatni o‘zgartirishadi, bu bilan yosh tomoshabinlarga kelajakda turli xil hayotiy vaziyatlarda qanday qilib to‘g‘ri harakat qilish kerakligi haqida yo‘l ko‘rsatadi. Bolalar filmlarida ularga chuqur o‘ylash uchun mavzu taklif qilinadi va jiddiy muammolar ko‘tariladi. Insonning illatlari oqlanmaydi, balki qoralanadi, bola tashqaridan u yoki bu salbiy sifat qanday ko‘rinishini ko‘ra olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bolalar kinosi janr bo‘yicha turli, masalan: badiiy, multiplikatsion, hujjatli, ilmiy publitsistik bo‘lishi mumkin. Bu yo‘nalishdagi ijod namunalari ko‘pchilikka yaxshi tanish. Bolalar kinosini yaratishda ko‘plab ijodkorlar bolalarning hayoti, ularning orzulari, intilishlari, qiziqishlari kabi mavzularga yondashgan holda ijod mahsulotlarini yaratishgan.

Dunyo kinematografiyasining shakllanish bosqichlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, hususan, AQSH va Yevropada aynan oilaviy tomosha qilish yoki aynan bolalar uchun maxsus filmlar yaratish g‘oyasi 1930-yillarda rivojlana boshlagan.

Dramaturg Baslgett va Staplesning ta’kidlashicha, “oilaviy film” atamasi, asosan, amerikaliklar tomonidan, “bolalar filmi” atamasi yesa Yevropada qo‘llanilgan. Bu filmlardagi bosh qahramonlarni tanlashda yondashuvning ham o‘ziga hos uslubi mavjud. Amerika filmlarida qahramon uchun tashqi ko‘rinishi maxsus talablarga javob beradigan bolalar tanlansa, yevropaliklar yesa filmlaridagi rollar uchun "oddiy" bolalarni tanlashni avzal ko‘rishadi. Amerika filmlarida kattalar obrazi uchun kengroq auditoriyani jalb qilish maqsadida taniqli aktyor va aktrisalar taklif yetiladi. Ushbu yondashuv aktyorlarni jalb qilish, syujet qurilishiga va film voqeligiga ta’sir qiladi.

O‘zbekistonda bolalar kinosining vujudga kelishi ham o‘tgan asrning 30-yillariga to‘g‘ri keladi. Birinchi o‘zbek bolalar filmi 1935-yilda rejissyor Yo‘ldosh Agzamov tomonidan suratga olingan “Qilich” filmi hisoblanadi. Filmda bosh qaxramon – kichkina Qilichning bog‘chadagilar bilan birga paxta dalasiga qilgan ekskursiyasi haqida hikoya qilinadi. Uzoq muddatli tanaffusdan so‘ng 1952-yilga kelibgina navbatdagi bolalar filmi – “Paxtaoy” rejissyor Komil Yormatov tomonidan suratga olinadi. Unda paxtaning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni, uning foydali jihatlari va paxta dalalaridagi yig‘im-terim haqida kichik yoshdagi tomoshabinlar uchun bolalar tilida ma’lumot beriladi. 1957-

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

yilda rejissyor Z.Sobitov tomonidan suratga olingan “Sahrodagi hodisa” filmida planerda uchish bo‘yicha musobaqada qatnashayotgan uch bolaning tasodifan sahroga tushib qolganlari va boshdan kechirganlari haqidagi hodisalar tasvirlangan.

60-yillar o‘zbek kinosi rivojidagi muhim yillar hisoblanadi. Ushbu yillarda o‘zbek kino ijodkorlari tomonidan turli hil mavzularda, hususan, bolalar mavzusida ham ko‘plab sifatli filmlar yaratildi. Sh.Abbosov, E.Eshmuhamedov, R.Batirov, D.Salimov singari rejissyorlar o‘zbek kinosida bolalar mavzusining rivojida katta o‘rin egallaydigan ijodkorlardir. Ushbu yillarda Sh.Abbosov o‘zining “Sen yetim emassan” (1962 yil) va “Toshkent - non shahri” (1967 yil) singari durdona asarlarini yaratdi. Shuningdek, D.Salimovning “Olmaz” (1966 yil), E.Eshmuhamedovning “Nafosat” (1966 yil) kabi filmlarining yaratilishi ham o‘smirlar va bolalar mavzusidagi filmlar safini kengaytirdi.

1970-yillar bolalar kinosi rivojida yangi davr bo‘ldi. Sahnaga yosh, yangicha fikrlaydigan kino ijodkorlarning kirib kelishiga qaramasdan, eski an’analar saqlab qolindi. D.Salimov, K.Kamalova, H.Fayziyev, X.Axmar, A.Akbarxo‘jayev, M.Og‘amirzayev kabi yosh kinoijodkorlar bolalar mavzusida bir qancha filmlar yaratishdi: “Qaldirg‘ochlar bahorda keladi” (1974-yil, X.Axmar), “Achchiq danak” (1975-yil, K.Kamalova), “Yettinchi jin” (1975-yil, M.Og‘amirzayev), “Poyga avtomobilidagi dovyurak bolalar” (1975-yil, D.Salimov), “Shum bola” (1977-yil, D.Salimov), “Ertaga chiqasanmi” (1980-yil, K.Kamalova), “Akmal, ajdar va malika” (1981-yil, Yu.Stepchuk), “Akmalning yangi srguzashtlari” (1983-yil, Yu.Stepchuk), “Kamila” (1981-yil, M.Og‘amirzayev), “Buvimni qaytaringlar” (1986-yil, M.Og‘amirzayev) va h.k.

Ushbu yillar davomida o‘zbek kinosida tarixiy va zamonaviy mavzudagi turli ijod mahsullarining yaratilishi natijasida milliy kinematografiyada umumiy ko‘lamda falsafiy izlanishlar, tahliliy tendensiyalar vujudga keldi va bu kinoni yuksalishga yetakladi. Bolalar kinosi ham bundan chetda qolmadi, albatta.

Mustaqillik yillariga kelib bolalar va o‘smirlar mavzusi yoritilgan filmlarning ko‘lami kengaymagan bo‘lsada, ammo sifat jihatidan ancha puxta ishlangan ijod mahsullari yaratildi. Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarida “Abdullajon” (1991-yil, Z.Musoqov), “Tangalik bolalar” (1992-yil, T.Yunusov), “Atrof oppoq qorga burkangan” (1996-yil Q.Kamalova), “Kichkina tabib” (1998-yil, Z.Musaqov) kabi filmlar nafaqat bolalar balki katta yoshli tomoshabinlar tomonidan xam birday ijobiy qabul qilingan.

Bugungi kunda, har qachongidan ham, umuminsoniy va milliy g‘oyalar singdirilgan bolalar filmlarini qayta tiklash mavzusi juda dolzarb. Bolalarga vatanparvarlik, mo‘jizalarga ishonish, do‘stlik qadri, odamlar bilan munosabatda o‘zaro hurmat va iliqlik kabi muhim tushunchalarni filmlar orqali eslatib turish kerak. Ushbu filmlar sodda va tushunarli bo‘lishi kerak. Bolalar film qahramonlar misolida, yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalanadilar. Bolalar o‘zlari tomosha qilgan filmlar haqidagi taassurotlari bilan o‘rtoqlashishni yaxshi ko‘radilar, lekin, ularning ko‘pchiligi o‘z hisiyotlari tufayli filmning asosiy mazmunini anglashga va uni atrofdagilarga yetkazib berishga qiynaladilar. Shu sababli, bolalar uchun, avvalo, to‘g‘ri film tanlash, o‘sha filmni ular bilan birga tomosha qilish va undan so‘ng film mazmuni haqida bolalar bilan suhbatlashish bu borada yaxshi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

natija beradi. Yaxshi film ko‘rish va u haqida suhbatlashish orqali bolalarda atrofda sodir bo‘layotgan voqealarga nisbatan shaxsiy munosabat yuzaga keladi, ular o‘z fikrlarini harakatlarida ifoda etishni o‘rganadilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ahmedov.B. Teatr... Kino... Televideniye. – Toshkent.: Lesson press. 2022.
2. Bazalgette Cary. In front of the children. Britanskiy institut kino 232 p.
3. Григорьева Н. Великий сказочник Александр Роу. Музей истории города Новокуйбышевска, 2021.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Bekmuradova Sevara Najmiddin qizi,** O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti doktoranti, [**Бекмурадова Севара Нажмиддиновна**, докторант Государственного института искусства и культуры Узбекистана], [**Sevara N. Bekmuradova**, PhD student State Institute of Art and Culture of Uzbekistan]; manzil: 190111, O‘zbekiston, Toshkent, [адрес: 190111, Узбекистан, Ташкент,], [address: 190111, Uzbekistan, Tashkent,] ms.sevara93@gmail.com +99891 222 20 33

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

JAHON VA O‘ZBEK KOMPOZITORLARI IJODIDA MYUZIKL JANRI

© D.A. Rasulov[1]✉

[1]Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’at instituti, Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada jahon va O‘zbekiston kompozitorlarining Myuzikl janrida ijod etishidagi o‘ziga xos xususiyatlar, tarixi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Myuzikl janri — teatr san’atining muhim qismi bo‘lib, musiqaning, raqsning va dramatik elementlarning birlashuvi orqali hikoya qilish imkoniyatini beradi. Jahon mýuzikllarining muvaffaqiyatli misollaridan kelib chiqib, O‘zbekiston mýuzikl san’atining shakllanishi, rivojlanishi va milliy madaniyat bilan bog‘liq jihatlari ko‘rib chiqiladi. Maqola shuningdek, O‘zbekiston kompozitorlarining Myuzikl janrida o‘ziga xos uslublari, mavzulari va ijodiy yondashuvlari haqida fikr yuritadi. O‘zbekistonning boy madaniy merosi va an’anaviy musiqasi bilan janrning uyg‘unlashuvi, zamonaviy ijtimoiy va madaniy muhitdagi o‘rni haqida ham xulosalar beriladi.

MAQSAD: ushbu maqolaning asosiy maqsadi jahon va O‘zbekiston kompozitorlarining myuzikl janridagi ijodi va uning rivojlanishi bo‘yicha ijodiy, estetik va madaniy hususiyatlarni tahlil qilishdir. Myuzikl janrining o‘zini o‘zi anglash, musiqaning, raqsning va dramatik elementlarning sintezi orqali amalga oshiriladigan ijodiy jarayon sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatish hamda O‘zbekistondagi myuzikl ijodining o‘sishi va rivojlanishini, milliy an’analar bilan bog‘liqliklarini aniqlash. Shundan kelib chiqib, maqolada O‘zbekiston myuzikl san’atidagi innovatsion yondoshuvlar, zamonaviy tendensiyalar va global san’at muhitidagi o‘rni ham tadqiq qilinadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqotdagi metodologiya, asosan, quyidagi usullarni o‘z ichiga oladi: Tahlil usuli, Solishtirish usuli, Keys-stadi usuli, Intervyu usuli, Kvantitativ va kachestveniy tadqiqot usullari. Ushbu metodlar tadqiqotning to‘g‘ri va samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ushbu maqolada jahon va O‘zbekiston myuzikl janrining rivojlanishi, xususiyatlari va ijodiy faoliyati to‘g‘risida olingan ma’lumotlar ko‘rib chiqildi. Myuzikl, o‘zining jonli ritmlari, raqs, musiqa va drama elementlari bilan jahon teatr san’atida muhim o‘ringa ega. Bundan tashqari, myuzikl janrining jahon miqyosidagi rivoji, yangi tendensiyalar, innovativ yo‘nalishlar va u bilan bog‘liq ijodiy tajribalar, asosan, amerika va yevropa myuzikllari orqali kuzatilishi mumkin.

XULOSA: xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, myuzikl janr jihatdan juda murakkab va ko‘ptarkiblidir, u turli oqimlar va uslubiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan holda, xar bir

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

mamlakatda o‘ziga hos tarzda shakllanib, rivojlanib bormoqda. Myuzikl jahon va o‘zbek musiqa san’atida o‘z o‘rnini topdi.

Kalit so‘zlar: myuzikl, kompozitorlar, jahon san'ati, musiqa, teatr, madaniyat, raqs, ijod, uslub.

Iqtibos uchun: D.A. Rasulov. Jahon va o‘zbek kompozitorlari ijodida myuzikl janri. // Inter education & global study. 2024. №8. B.431-438.

МУЗЫКАЛЬНЫЙ ЖАНР МИРОВЫХ И УЗБЕКСКИХ КОМПОЗИТОРОВ

© Д.А. Расулов[1]✉
[1]Узбекский нацональный институт музыки и искусства имени Юнуса Раджаби, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются уникальные особенности, история и развитие мировых и узбекских композиторов в музыкальном жанре. Музыкальный жанр — важная часть театрального искусства, позволяющая передать повествование посредством сочетания музыкальных, танцевальных и драматических элементов. На основе успешных примеров мировых мюзиклов рассматриваются аспекты, связанные со становлением, развитием и natsіональной культурой музыкального искусства Узбекистана. В статье также размышляются об уникальных стилях, темах и творческих подходах узбекских композиторов в музыкальном жанре. Сделаны выводы о сочетании жанра с богатым культурным наследием и традиционной музыкой Узбекистана, его месте в современной социокультурной среде.

ЦЕЛЬ: основной целью данной статьи является анализ творческих, эстетических и культурных особенностей мировых и узбекских композиторов в музыкальном жанре и его развитии. Показать значение музыкального жанра как творческого процесса, реализующегося через самореализацию, синтез музыкальных, танцевальных и драматических элементов, а также определить рост и развитие музыкального творчества в Узбекистане, его связи с национальными традициями. На основе этого в статье исследуются инновационные подходы в музыкальном искусстве Узбекистана, современные тенденции и его место в мировой художественной среде.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: методика данного исследования в основном включает в себя следующие методы: аналитический метод, сравнительный метод, метод тематического исследования, метод интервью, количественные и качественные методы исследования. Эти методы служат правильному и эффективному проведению исследования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в данной статье были рассмотрены полученные сведения о развитии, особенностях и творческой деятельности музыкального жанра мира и Узбекистана. Мюзикл с его живыми ритмами,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

элементами танца, музыки и драмы занимает важное место в мировом театральном искусстве. Кроме того, глобальное развитие музыкального жанра, новые тенденции, инновационные направления и связанный с ними творческий опыт можно наблюдать преимущественно через американские и европейские мюзиклы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: подводя итог, можно сказать, что музыкальный жанр очень сложен и многогранен, в каждой стране он формируется и развивается по-своему, включая различные течения и стилистические направления. Мюзикл нашел свое место в мировой и узбекской музыке.

Ключевые слова: мюзиклы, композиторы, мировое искусство, музыка, театр, культура, танец, творчество, стиль.

Для цитирования: Расулов Д.А. Музыкальный жанр мировых и узбекских композиторов. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 431-438.

MUSICAL GENRE BY WORLD AND UZBEK COMPOSERS

© Doston A. Rasulov[1]✉
[1]Uzbek National Music and Art Institute named after Yunus Rajabi, Tas'hkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the unique features, history and development of the world and Uzbek composers in the musical genre. The musical genre is an important part of theater art, which allows for storytelling through the combination of music, dance and dramatic elements. Based on the successful examples of world musicals, aspects related to the formation, development and national culture of the musical art of Uzbekistan are considered. The article also reflects on the unique styles, themes and creative approaches of Uzbek composers in the musical genre. Conclusions are given about the combination of the genre with the rich cultural heritage and traditional music of Uzbekistan, and its place in the modern social and cultural environment.

AIM: the main goal of this article is to analyze the creative, aesthetic and cultural features of the world and Uzbek composers in the musical genre and its development. To show the importance of the musical genre as a creative process realized through self-realization, synthesis of music, dance and dramatic elements, and to determine the growth and development of musical creativity in Uzbekistan, its connections with national traditions. Based on this, the article explores innovative approaches in the musical art of Uzbekistan, modern trends and its place in the global art environment.

MATERIALS AND METHODS: the methodology in this study mainly includes the following methods: Analytical method, Comparative method, Case-study method, Interview method, Quantitative and qualitative research methods. These methods serve the correct and effective implementation of the research.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

DISCUSSION AND RESULTS: in this article, the information received about the development, characteristics and creative activity of the musical genre of the world and Uzbekistan was considered. The musical, with its lively rhythms, elements of dance, music and drama, has an important place in world theater art. In addition, the global development of the musical genre, new trends, innovative directions and related creative experiences can be observed mainly through American and European musicals.

CONCLUSION: to sum up, the musical genre is very complex and multifaceted, it is formed and developed in a unique way in each country, including various currents and stylistic directions. The musical has found its place in world and Uzbek music.

Key words: musicals, composers, world art, music, theater, culture, dance, creativity, style.

For citation: Doston A. Rasulov. (2024) 'Musical genre by world and uzbek composers', Inter education & global study, (8), pp. 431-438. (In Uzbek).

Zamon va musiqaning bir - biriga uzviy bog'liqligi "Zamonaviy musiqa" degan tushunchani yuzaga keltiradi. Bu tushuncha, har bir davrda yaratiladigan musiqiy asarning o'ziga hos jihatlari, hususiyatlari muayyan zamon talablariga javob beradigan ko'rinishda bo'lishini ko'rsatadi. Yana shuni aytish joizki, musiqa san'ati zamon an'analarini o'zida mujassam etgan holda rivojlanadi va natijada, yangi janr, shakl, uslublar yuzaga keladi. Ushbu kurs ishi loyihasida, XX asrda yuzaga kelgan, zamonaviy musiqa san'atida eng ommabop musiqiy – sahnaviy asar sanalmish Myuzikl janri haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Myuzikl (angl. Musical) – gohida musiqiy komediya ham deb yuritiladi. Unda dialoglar, qo'shiqlar, xoreografik raqslar va musiqaning birligi musiqiy – sahnaviy myuzikl asarini hosil qiladi. Myuzikl janrining ko'p qirraliligi uning murakkab asarligini ko'rsatadi. Myuzikl syujeti ko'pincha jahon adabiyotining yorqin dramaturgik asarlari asosida bo'ladi. Uning kelib chiqishida: operetta, komik opera (buffa), vodevil janrlarining ta'siri juda katta. Myuzikl uzoq vaqt alohida sahnaviy asar sifatida tan olinmagan. Keyinchalik, musiqashunoslarning janrni o'rganishlari, izlanishlari natijasida, unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Myuzikl - o'z ichida bir nechta janrlarni mujassamlashtirgan, murakkab asardir".

Bundan tashqari, myuziklga aloqador quyidagi fikrlarni bildiradilar:

M. Grinberg va M. Tarakanovlar: "Myuzikl termini kelib chiqishi – 1943 - yil kompozitor R. Rodjers va O. Xammerstayn asari asosidagi "Oklaxoma!" spektaklining qo'yilishi bilan bog'liq" [1].

S. Bushuyeva: "XX asrda yuzaga kelgan ushbu janrning aniq shaklini va tuzilishini aniqlamoqchi bo'lganlar ko'p ammo, uning zamon ta'siridagi tinimsiz o'zgarishi bunga to'sqinlik qiladi" [2].

E. Kampus: "Endigina yuzaga kelgan va shakllanayotgan janrning formulasini aniqlash juda murakkab masaladir" [3].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

V. Savrannskiy “Myuzikl janri ko‘ptarkibli bo‘lganligi sababli, myuzikl termini aniqlashtirilgan holatda ishlatilishi lozim, yani «vodevil kabi myuzikl», «operetta kabi myuzikl». v.k.h.” [4].

Tinimsiz rivojlanayotgan myuzikl janri, boshqa musiqiy-sahnaviy janrlarning hususiyatlarini o‘ziga singdirib boradi, lekin shu bilan birga o‘zining asosini saqlab qoladi.

Myuzikl ko‘pincha shakl jihatdan 2 aktdan iborat bo‘lgan spektakl sifatida namoyon bo‘ladi va unda xoreografiya katta o‘rin egallaydi.

Birinchi myuzikl Black Crook deb nomlanib, 1866 yil prodyusser D.Edvards boshchiligida, Nyu York sahnasida ilk bor ijro etiladi.

Myuziklda romantik balet, melodrama va boshqa janrlar majmuini ko‘rishimiz mumkin.Aynan ushbu myuzikl, yangi janrning yuzaga kelishidagi ilk qadam xisoblanadi. Musiqiy komediya maishiy harakterda bo‘lib, unda syujet ikkinchi darajali o‘rinni egallaydi. Birinchi darajaga esa xalqning mashhur qo‘shiqchilari tomonidan ijro etiladigan vokal asarlar chiqadi. Ushbu kuy, qo‘shiqlar xalqning mumtoz musiqasiga aylanadi desak xam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Myuzikl janrining Amerika davlatidagi rivoji:

Birinchi jahon urish yillari Xerbert, Friml, Romberg kabi mahoratli kompozitorlar myuzikl janrini Amerikada rivojlanishiga o‘z xissalarini qo‘shdilar. 20 – 30 yillarda esa Djeroma Kern, Djordj Gershvin, Kola Porter va boshqa kompozitorlarning yaratgan betakror asarlari natijasida, myuzikl asl Amerika musiqasiga hos bo‘lgan bo‘yoqlarini oladi. YA’ni, libretto murakkablashadi, djaz, regtaymning ritmga ta’siri kuchayadi, qo‘shiqlarda esa amerikan ohanglari yuzaga keladi. Myuziklning ko‘plab qo‘shiqlari klassik musiqaga aylanadi. Qo‘shiqchilarning esa aktyorlik mahorati ortib boradi. 1932 yil kompozitor Gershvin “ YA poyu o tebe” myuzikli uchun premiya bilan taqdirlanadi.

Rodjers va Xamerstaynlarning hamkorlikdagi ijodlari bir qator yorqin myuzikllarning vujudga kelishi sabab bo‘ladi.

Bular: ”Oklahoma!” (1943), “Karusel” (1945), ”Yug tixogo okeana” (1949) ushbu asarlar yetuk dramaturgiyasi bilan ajralib turadi. Bu o‘sha davrda katta muvaffaqiyatga erishgan asarlar va myuzikl janrining rivojlanishidagi ilk qadam sanaladi.

Ikkinchi jahon urishidan so‘ng myuzikl harakter jihatdan hajviy emas balki, qat’iy ko‘rinishda bo‘ladi va raqslarning ortishi, xoreografiyaning ahamiyatini kuchayishiga olib keladi. Bunga Shekspirning “ Romeo va Djulyetta” tragediyasi asosida yozilgan “Vestsaydskaya istoriya” (1957) myuziklning misol qilishimiz mumkin.

60 – yillarning oxirida XX asrning turli uslublarini myuziklga ta’siri natijasida, u yangicha tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. “Volosi” spektaklida ushbu davrdagi zamonaviy xippilar aks ettirilgan bo‘lib, bu “birinchi amerikan lirik rok myuzikl” nomini oldi.

70 – yillarda spektakllar soni kamayib boradi, ammo sahna ko‘rinishlar va kostyumlarga e’tibor kuchayib, ular yanada ko‘rkam va shohona ko‘rinishga ega bo‘ladi, myuzikl ma’no va mazmun jihatidan chuqqurlashadi.

Myuzikl janrining rivojlanishiga va jahon musiqa san’atida yuqori o‘rin egallashiga o‘zining katta hissasini qo‘shgan kompozitor Endryu Lloyd Uebber hisoblanadi. U o‘zining

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

betakror asarlari orqali myuzikl janrini mazmun, uslub jihatdan boyitib, uni yuksak darajaga ko‘taradi.

Librettist Tim Rays va kompozitor E. Uebber hamkorligida yaratilgan “Iisus Xristos superzvezda” (1971y), qatiy mazmundagi “Evita”(1978y) asarlari, myuzikl janrining rivojlanish jarayonida bosib o‘tgan katta yo‘lini yaqqol namoyon qiladi. Bulardan tashqari, E. Uebber qalamiga mansub bo‘lgan “Koshki” T.S.Elliota she’riy to‘plami asosida, myuziklda yorqin obrazlarni, musiqada mushuklarni intonatsiyasini, raqslarni mahoratli ijrosini ko‘rishimiz mumkin. Kompozitorning yana bir mashhur asari “Prizrak operi” deb nomlanadi, myuziklda detektiv va triller elementlarini uchratishimiz mumkin. Shuni aytib o‘tish joizki, myuzikl janrini jahon miqyosida tanitgan brodvey myuzikli hisoblanadi.

Fransiyada myuzikl janrining shakllanishi Amerikanikidan biroz farqlanadi. Ularning myuzikllarida dekoratsiyaga va sahna ko‘rinishlariga e’tibor sust bo‘lib, ko‘proq estrada qo‘shiqchilarining konsertiga o‘xshab ketardi. Bunga R. Kochchante va L. Plamodona qalamiga mansub “Notre Dam de Paris” myuzikli yorqin misoldir. Lekin yillar o‘tib zamon talablari o‘zgardi, kostyum va dekoratsiyalarga katta ahamiyat berila boshlandi. Fransuz kompozitorlari myuzikl janrida samarali ijod qilib, bir qator mashhur asarlarni yaratishga muvaffaq bo‘ldilar. Myuzikllar mazmun jihatdan boy bo‘lib, ularni asosan 2 guruhga ajratish mumkin:

Buyuk shahslar hayoti yoki ijodini ko‘rsatuvchi myuzikllar:

“Jorj Sand va romantika”(1991)

“Emili Joli”(2002)

“Kleopatra, Misrning so‘ngi qirolichasi”(2009)

“Motsart - rok – opera”(2009) v.x.k.

Mashxur asarlar asosidagi romantik myuzikllar:

“Romeo va Djulyetta”(2000) libretto va musiqa muallifi J.Presgurvik.

“Ali – Boboning ming bir xayoti”(2001) musiqa muallifi Ch.Aboulker

“Don Juan”(2003) musiqa muallifi F. Grey.

Myuzikl janri rus musiqa san’atini ham chetlab o‘tmadi. Rus musiqasida myuzikl janrining ilk namunasi «Orfey va Evridika» myuzikli hisoblanadi. U hozirga qadar Sankt – Peterburg «Rok – opera» teatrida ijro etilib kelmoqda. Myuzikl janri rus musiqa san’atida yetakchi o‘rin egallaydi. Bu janrda murojat qilgan va myuzikl janrida samarali ijod qilgan kompozitorlar A. Ribnikov, A. Pantikin, G.Gladkov va boshqalardir. Rossiya myuzikllari xalqchil mavzusi va musiqasi bilan ajralib turadi. Janr turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Masalan: “Yunona i Avos”(1981) – rok opera; “Posledneye ispqtaniye”,“Maugli”(2005), – rus fentezi –myuzikl; “Deti Solnsa” – etno – myuzikl; “Nord – Ost”(2001) – jahon miqyosida rus myuzikli sifatida tan olingan, “12 Stulyev”(2003) I.Ilf va YE.Petrov romanlari asosida, “Monte – Kristo”(2008),”Bremenskiye muzikanti» “Master i Margarita”(2009), “Myortviye dushi»– rus myuzikllari.

Dunyoning turli mamlakatlarida janrining tinimsiz shakllanib, rivojlanish natijasida myuzikl muayyan xududning an’analarini o‘ziga singdirib, yangi ko‘rinish va shaklda namoyon bo‘ladi. Bu janrning O‘zbekistonda shakllanish ildizlari, o‘zbek xalqining og‘zaki

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ijodiyoti, qiziqchilik va masxarabozlik san'atlariga, komik opera va musiqali – komediya borib taqaladi. Myuzikl janrini o'zbek musiqa san'atida rivojlantib, bu janrga murojat qilgan kompozitorlar quyidagilar: Ermak Salixov, Vladimir Milov, Avaz Mansurov, G'ani Xalikov, Anvar Ergashev, Alisher Ikromov. O'zlarining yaratgan asarlarini "myuzikl" deb atar ekanlar, janrning o'ziga hos jihatlarini inobatga oladilar. O'zbek myuziklining syujetining mazmun doirasi juda keng. Ammo uning ko'p qismini bolalar va yoshlar uchun mo'ljallangan myuzikllar tashkil qiladi, bu bolalarning estetik , psixologik to'g'ri tarbiyalashiga yordam beradi va o'zbek xalqining yosh avlodga bo'lgan kuchli e'tiborini ko'rsatadi. Bizga malumki, nafaqat O'zbekiston balki butun jahon yoshlari, yengil va sho'x pop, estrada, djaz musiqasiga judayam qiziqadilar [5]. Yoshlarning bu ehtiyojlarini hisobga olgan holda kompozitorlar zamon talabiga moslashtirib, musiqani ommabop, sodda tuzilmada yaratishga va unda xalqchillik, mantiqiy jixatlarini umumlashtirishga intiladilar. Hozirga kelib, O'zbekistonda quyidagi myuzikllar yaratilgan:

Ermak Salixov – " Oygul uchun sovg'alar", libretto Y.Sherbachenko xalq ertaklari asosida (1976), "Ajoyib doira" o'zbek xalq ertaklari asosida (1980).

Vladimir Milov - " Drakon va svirel"(1985), "Tilning tug'ilishi va o'lishi"(1987), "Bo'g'irsoq"(1990).

G'ani Xakimov – "Kashmir qo'shig'i" Sh.Rashidov asari asosida.

Anvar Ergashev – " Tegirmon ustidagi quyosh"(1991), "Ilonlar qirolichasi"(1995), "12 oy" (1995) S. Marshak ertaklari asosida, " Qor malikasi" (1996), "Ayoz bobo"(1998).

Avaz Mansurov – "Kachal Polvon va Garmel" (1988), "Ur to'qmoq"(1989).

Alisher Ikromov - "Afsonaviy zinapoya"(1986),"Shum bola"(1993), "Xolajon uylanmoqchiman" (2004), "Ming bir kecha".

Bulardan tashqari myuzikl janrida yosh kompozitorlar ham murojat qilishni boshladilar.

Masalan: Irina Berlin "Bir kuni Nyu – Yorkda"(2004) judayam qiziqarli spektakl, kuy va ritm asosida djaz, esrada jilolari mavjud. Bu myuzikl g'arb myuzikllariga juda yaqin [6].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, myuzikl janr jihatdan juda murakkab va ko'ptarkiblidir, u turli oqimlar va uslubiy yo'nalishlarni o'z ichiga olgan holda, xar bir mamlakatda o'ziga hos tarzda shakllanib, rivojlanib bormoqda. Myuzikl jahon va o'zbek musiqa san'atida o'z o'rnini topdi. Kompozitorlarning tinimsiz izlanishlari, o'z uslublarini topish uchun qilinayotgan harakatlari myuzikl janrining turli hududlarda turlicha namoyon bo'layotganligini ko'rsatadi. Myuzikl janri hozirga qadar tinimsiz o'zgarib kelmoqda, uning bu taraqqiyoti hali ko'p davrlar davom etadi degan fikrni oldinga sursak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, kompozitorlarning bu janrga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda, ularning yaratayotgan asarlari orqali bu janrni yangicha tarzda targ'ib etishga urinayotganliklarini ko'rishimiz mumkin. Yosh ijodkorlarning yangilikka intiluvchanligi myuzikl janrining yanada boytishiga ishonamiz.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Т.М. Гринберг М., “Современный мюзикл” Советский музыкальный театр. Проблемы жанров, 1982.
2. С. Бушуева, “Мюзикл,” Искусство и массы в современном буржуазной обществе, 1989.
3. Э. Кампус, О мюзикле, 1983.
4. В. Савранский, “Что такое мюзикл?,” Вечерний Ташкент, 1972.
5. Н. Махаров, “Становление узбекской natsиональной композиторской школы,” Проблемы современной науки и образования., 2017.
6. Д. Расулов, "Замонавий Естрада ва Композиторлик санъатининг хозирги кундаги ютуқ ва камчиликлари," Ссиенсе анд Инновацион., вол. 1, но. 6, 2022.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rasulov Doston Alisher o‘g‘li**, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’at instituti, o‘qituvchisi [**Rasulov Doston Alisher o‘g‘li**, Uzbekskiy natsionalniy institut muziki i iskusstva imeni Yunusa Radjabi, prepodavatel], [**Doston A. Rasulov**, Uzbek National Music and Art Institute named after Yunus Rajabi, teacher]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent, mustaqillik ko‘chasi, 31-uy [adrec: Uzbekistan, Toshkent, ul. mustaqillik, 31], [address: Uzbekistan, 31, mustakillik st., Tashkent city] YE-mail: Dastin.composer@mail.ru

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

CHIZMACHILIK FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING IDROK VA QOBILIYATLARINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

© N.Dj.Yadgarov[1]✉

[1]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada o‘smir-talabalarda chizmachilik fanini kompyuter grafikasi yordamida o‘rgatish, uning vositasida fazoviy tasavvurlarini rasmlantirish va rivojlantirishda pedagogik shart – sharoitlarini yaratuvchi psixologik omillar tahlil qilindi.

MAQSAD: O‘smir-talabalarda chizmachilik fani asoslarini o‘rgatishda fazoviy tasavvurlarini kompyuter grafikasidan foydalanib rivojlantirish holatini aniqlab, uni takomillashtirish yo‘llarini belgilash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqotni olib borish jarayonida, tajriba-sinov ishlarini olib borgan OTMlarda “Talabalar fazoviy tasavvur faoliyatining tavsifini” ifodalovchi jadvalni ishlab chiqildi va bu jadval talabalar fazoviy tasavvurining xususiyatlarini bilish darajalarini aniqlash imkonini berdi.

XULOSA: o‘smir-o‘qvchilarining yosh va psixologik omillarini o‘quv tarbiya jarayonida ayniqsa VIII-IX sinf talabalarida chizmachilik o‘quv fanini o‘qitishda kompyuter grafikasi vositasida fazoviy tasavvurni rivojlantirish jarayonida hisobga olish, mazkur psixologik xususiyatlarga tayangan xolda pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yib, amalga oshirish, tadqiqotimizning natijalari ta’kidlashiga, birinchidan, talaba – o‘smirlarning faolligi, mustaqilligi, ijodiy o‘smirlarning faolligi, mustaqilligi, ijodiy tafakkuri, bilish faolligini oshirsa, ikkinchidan, shu asosda ularda chizmachilik fanini o‘rganish jarayonida fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishni tezlashtiradi

Kalit so'zlar: pedagogika, psixologiya, chizmachilik, motiv, analiz, sintez, qiyoshlash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, Gnoseologiya, his etish, kompyuter grafikasi, fazoviy tasavvur.

Iqtibos uchun: Yadgarov N.Dj. Chizmachilik fanini o‘qitishda talabalarning idrok va qobiliyatlarini oshirishning psixologik omillarii. // Inter education & global study. 2024. №8. B.439-447.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ВОСПРИЯТИЯ И СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ В ОБУЧЕНИИ ЧЕРЧЕНИЮ

© Н.Дж.Ядгаров[1]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются психологические факторы, способствующие созданию педагогических условий для изучения студентами подросткового возраста черчения с помощью компьютерной графики, а также для формирования и развития их пространственного восприятия.

ЦЕЛЬ: определить состояние развития пространственных представлений у студентов подросткового возраста при изучении основ черчения с использованием компьютерной графики и наметить пути их совершенствования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования использовались такие методы, как беседа, социально-психологический опрос, наблюдение, а уровень статистической достоверности полученных результатов был подтверждён факторным анализом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в ходе исследования был разработан график «Описание пространственной познавательной активности студентов», который позволил определить уровень осведомлённости студентов о характеристиках их пространственного восприятия.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в учебно-воспитательном процессе подростков, особенно студентов VIII-IX классов, необходимо учитывать возрастные и психологические факторы в развитии их пространственного восприятия при обучении черчению с помощью компьютерной графики. Основываясь на этих психологических особенностях, педагогическая деятельность может быть эффективно реализована, что, согласно результатам исследования, с одной стороны, повышает активность, самостоятельность и творческое мышление подростков, а с другой – ускоряет развитие их пространственного восприятия в процессе изучения черчения.

Ключевые слова: педагогика, психология, черчение, мотив, анализ, синтез, сопоставление, обобщение, абстрагирование, гносеология, восприятие, компьютерная графика, пространственное восприятие.

Для цитирования: Ядгаров Н.Дж. Психологические факторы повышения восприятия и способностей студентов в обучении черчению . // Inter education & global study. 2024. №8. С. 439-447.

PSYCHOLOGICAL FACTORS FOR ENHANCING STUDENTS' PERCEPTION AND ABILITIES IN TEACHING DRAFTING

© Nodir Dj. Yadgarov[1]✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the psychological factors that create pedagogical conditions for adolescent students to study drafting using computer graphics, focusing on the development and representation of their spatial perceptions

AIM: to determine the state of spatial perception development in adolescent students while learning the basics of drafting using computer graphics and to outline ways to improve it.

MATERIALS AND METHODS: the research employed methods such as interviews, socio-psychological surveys, and observation, with the statistical reliability of the results confirmed through factor analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: during the research, a table titled "Description of Students' Spatial Perception Activity" was developed, which allowed determining students' awareness of the characteristics of their spatial perception.

CONCLUSION: in the educational process for adolescents, particularly students in grades VIII-IX, it is essential to consider age and psychological factors in developing spatial perception while teaching drafting using computer graphics. Based on these psychological characteristics, pedagogical activities can be effectively implemented. According to the research results, this approach increases student activity, independence, and creative thinking, while also accelerating the development of spatial perception during the drafting study process.

Key words: pedagogy, psychology, drafting, motive, analysis, synthesis, comparison, generalization, abstraction, gnoseology, perception, computer graphics, spatial perception.

For citation: Nodir Dj. Yadgarov (2024) ‘Psychological factors for enhancing students' perception and abilities in teaching drafting’, Inter education & global study, (8), pp. 439-447. (In Uzbek).

Rus pedagogi V.A.Krutetskiyning yozishicha aqliy faoliyat usullari tizimida idrok muhim ahamiyat kasb etadi. U narsa va hodisalarni murakkabroq biroq analitik-sintetik tarzda idrok qilish bilan tavsiflanadi. Bunda idrokning ko‘lami ortib borib ischil har tomonlama idrokka aylanadi. Bu o‘qishga ongli munosabatni rasmlantiradi. O‘z navbatida o‘smirning o‘qishga ongli munosabati bilimini oshirish, intellektini o‘stirish, o‘zgalarga o‘zining mustaqil bilim olishiga qiziqishlarini namoyon qilishiga qaratilgan bo‘ladi. Qiziqish kishining nimagadir e’tibor berishi, nimanidir bilishi, narsa va hodisalarni mohiyatidan anglashga intilishidir. Shu ma’noda fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishni zaruriyati yoxud mayli bo‘lib hisoblanadi. Psixolog T.B.Drachunovaning ta’kidlashicha, katta yoshdagi o‘smirlarda kichik OTM yoshidagi talabalar va 5-7 sinfdagi o‘smirlarga nisbatan ancha keng, turli –tuman, chuqur va mazmundor bo‘ladi. O‘smir o‘zi kichik narsalarni yetarli darajada yaxshi bilishga intiladi. Uning qiziqishlari shu tarzda o‘sib, haqiqiy ehtiroslarga aylanadi va asta-sekinlik bilan uning butun vujudini qamrab oladi. Agar o‘smir o‘qishga qiziqsa, tuni bilan uxlamay kitob o‘qishi mumkin. O‘smir o‘g‘il bolalar ko‘pincha sportga,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

shaxmat o‘ynashga, uyali telefon, kompyuter bilan qiziqadi. Shunga binoan, o‘qituvchi o‘qitish usullarini aniq tanlab darsda va mustaqil ta’lim jarayonida samarali foydalanishi lozim. Chunki maqsad bilan yakuniy natija o‘rtasidagi bog‘lab turuvchi vositadir. O‘qitish usullarini har birining o‘ziga xos didaktik vazifalari mavjud bo‘lib, o‘qituvchi shu vazifalardan kelib chiqqan holda darsni tashkil qilsa, samarali natijaga erishishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy o‘qitish texnologiyasini amalga oshirishda, joriy o‘qitish texnologiyaisining o‘quv jarayonini tashkil etuvchi an’anadagi o‘qitish usullariga noananaviy o‘qitish usullarin uyg‘unlashtirgan holda zamonaviy ta’lim texnologiyasini amalga oshirish vazifasi qo‘yiladi. Shunday qilib qiziqishning o‘ziga xos psixologik xususiyati shunchaki, hamma vaqt ma’lum narsaga yo‘nalgan bo‘ladi. Qiziqish bu motiv bo‘lib anglangan mohiyatli va jiddiy o‘ziga jalb qiluvchi tarzda amal qiladi. Motivlarning yo‘nalganligi bevosita va bilvosita o‘smirlar motivlarning o‘zaro aloqadorlik darajasining natijasi bilan belgilanadi. O‘smirlar jamoasi qanchalik jipslashgan bo‘lsa, motiv natijasi shuncha samarali bo‘ladi. Motiv maqsadga yo‘naltirilganligi bilan farqlanadi. Shunga binoan “Chizmachilik” fanini o‘qitish jarayonida o‘smirlarda mavzular mazmunidagi fazoviy tasavvurlar to‘g‘ridagi ma’lumotlarni aniqlash motivatsiyasini rasmlantirmoq lozim. Buning uchun fazoviy tasavvurni rivojlantirishda detal rasmini fikran oddiy geometrik rasmlarga bo‘lib tahlil qilish; detal tasviridan foydalanib, sirtlarning vaziyatini aniqlash; qirra va yoqlarda joylashgan nuqtalarning proyekslarini aniqlash; ikki proyeksiyadan foydalanib, uchinchi proyeksiyani topish; chizma bo‘yicha aksonometrik proyeksiyani bajarish va shunga o‘xshashlarni kiritish mumkin.

O‘qish motivlarining o‘zgarishi aqliy faoliyatning yuksak va uyushgan bo‘lishini ta’minlaydi. O‘smirni o‘quv ma’lumotlari, voqelikdagi narsa va hodisalarning murakkabroq tahliliy sintetik tarzda idrok qilishga olib keladi. Bu jarayonda tahliliy sintetik faoliyat, shuningdek qiyoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va aniqlashtirish kabi fikriy operatsiyalar muhim rol o‘ynaydi.

Analiz – bilish predmetini qismlarga fikran bilishdir.

Sintez – alohida elementlar yoki qismlarni bir butunga fikran birlashtirishdir.

Ta’lim bosqichlarining murakkablashib borishi bilan talabalarda tahliliy-sintetik darajaning oshishi kuzatiladi. Tahlil sekin-asta ko‘rgazmali – amaliylikdan (obyektlarni fikran bilish mazkur obyektlar bilan amaliy harakatlar jarayonida amalga oshirilayotganda) ko‘rgazmali (bilish obrazlar yordamida amalga oshirilayotganda) va so‘zli – mantiqiyga (bilish mavhum tushuncha va mulohazalar rasmida amalga oshirilganda) tomon rivojlanadi. Sintez shuningdek, ancha to‘liq va ko‘p tomonlama bo‘ladi.

Qiyoslash bu – o‘xshashliklar (umumiy xususiyatlarni ajratish) va tafovutlarni (har bir qiyoslanayotgan obyektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratish) topish maqsadida bilish obyektlarini taqqoslashidir.

Bu amallar boshqa barcha asosiy fikriy operatsiyalar asosida yotadi.

Umumlashtirish – o‘rganilayotgan obyektdan umumiy, xususiy, mavhum nomuhimni ajratishdir.

Yetakchi psixologlar tomonidan umumlashtirishga oid quyidagi qoida ishlab chiqilgan: talabalarda to‘g‘ri umumlashmalarni rasmlantirishning zaruriy qoidasi –

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

muhimning doimiyligida, tushuncha, xususiyat va dalillarning nomuhim belgilarini o‘zgartirishdir. Bu qoida tasavvur va tushunchalarni rasmlantirishda o‘ta muhim ahamiyatga ega. Umumlashtirish oddiy rasmlardan to ilmiy umumlashtirmalarga qadar rivojlanadi. Umumlashmalarning to‘g‘liligi uni talabalar egallashining mezoni. Bu o‘zlashtirilgan operatsiyalarni ko‘chirib o‘tkazish, ya’ni ulardan yangi sharoitlarda foydalanishga xizmat qiladi.

Ta’limning dastlabki bosqichlaridayoq talabalarning mavhumlashtirish qobiliyati namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi rahbarligidagi ta’lim chog‘ida bu qobiliyat rivojlanadi, mavhumlashtirish rasmi ham murakkablashadi – hissiy ko‘rgazmalilikdan fikriylikka o‘tiladi, u ikkinchi signal sistemasi yordamida tushunchaga aylanadi.

Mavhumlashtirishga yaqin fikriy operatsiya aniqlashtirish nomini olgan. Aniqlashtirish: umumiydan xususiyga fikriy o‘tish sifatida; mavhumiydan umumiyga, aniq-xususiyga uning turli xususiyat va belgilarini topish orqali yetishish, mavhum-umumiyni aniq mazmun bilan to‘ldirish, boyitish sifatida namoyon bo‘ladi.

Dialektik bilishda mavhumiylik va aniqlashtirish birligi o‘rnatiladi. Bu birlik o‘zaro aloqadagi fiziologik asosi- ikki signal tizimiga ega. Aniqlashtirish yordamida ilmiy mavhumiylik mazmuni ochiladi, aniq predmetlarning alohida tomonlarini boshqalardan mavhumlashtirib aks ettiradi. Mavhumlashtirishda predmetlapr o‘z butunligini yo‘qotadi; bilish esa real voqeylikdani predmet va hodisalar tomonlarini bir butunlikda ochib bergandagina haqqoniy bo‘ladi. Bilimni chinakam egallashga mavhum tushunchalar, dalililar orqali aniqlashtirilgandagina erishadi.

Psixologlarning ta’kidlashlaricha aqliy faoliyatining ko‘rib, tahlil qilib o‘tilgan xususiyatlari o‘smirlarda bilim faoliyatining rasmlanishini ta’minlaydi.

“Bilim faoliyati–bu insonni xozirgacha noma’lum bo‘lganlarni bilish o‘rganishga undovchi iroda va xarakterni mustahkamlashga ko‘maklashuvchi, tashabbuskorlik va mustaqillikda namoyon bo‘luvchi shaxs faoloyati”.

Gnoseologiya bilishni inson ongida obyektiv dunyoni faol aks ettirish jarayoni sifatida ko‘rib chiqadi. Bilishda obyektiv mavjud bo‘lgan hodisalar, jarayonlar, sabab va qonuniyat aloqalari olami o‘z aksini topadi. Bilish inson obyektiv va subektiv ongining namoyon bo‘lishidir. Gnoseologik nuqtai nazardan bilish his etish, idrok qilishdan boshlanadi. Uning asosida tasavvur va tushunchalar rasmlanadi.

His etish – bu oddiy va ayni paytda bilish uchun muhim psixologik jarayondir. Uning mohiyati atrof- muhitdagi predmet va hodisalar ayrim xususiyatlarni hissiyot organlariga ta’siri natijasida kishi miyasida aks etishidan iboratdir.

Bizning hissiyot a’zolarimizga ta’sir etuvchi predmet va hodisalarning turli xususiyatlari yig‘indisini aks ettiruvchi hissiyotlarining qo‘shilishi idrok etish deb ataladi. Hissiy aks ettirishning hissiyotiga qaraganda ancha murakkab rasmidir. Qabul qilish jarayonida predmetlar bir butun obrazlar rasmida aks etadi.

His etish va qabul qilish asosida ongli tasavvur hosil bo‘ladi. Hissiy tasavvurlar deb o‘tmishda qabul qilingan va hozirga lahzada qabul qilinayotgan predmet va hodisalar

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

obrazlariga aytiladi. Ular predmet va hodisalarning nsonga ta'siri va xotiraning bir muncha vaqt bunday ta'sirlar izini saqlab qolishgva qolishga qolirligi natijasija yuzaga keladi.

Talabalarning bilish faoliyati degandi biz o'smirlar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashni tushunamiz. Bilish faoliyatining (bilimlarni egallash, ko'nikma va malakalar) bosqichlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Talabalar oldida maqsad va masalalar qo'yish, o'qishga zarur sharoit va rag'bat yaratish, bilish topshiriqlarini qo'yish, talabalarning o'quv materialli ma'nosini tushunish uchun sharoit yaratish; agar talabalar materialini o'rganish maqsadi va vazifalarini anglamasa, u bilan tanishishga kirisha olmaydi.

Pedagogik-psixologiyada, anglagan maqsadga inson faolroq tezroq erishishi isbotlangan. Shunisi diqqatga sazovorki, maqsadlar aniq va amallar maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, inson kam kuch va vaqt sarflabkatta yutuqlarga erishadi. Aksincha, aniq anglanmagan maqsad, masalalarning noaniqligi kishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, odamni charchatadi.

2. Talabalaring yangi materialni qabul qilishi va uni idrok etishi. Yangi bilimlar olish, o'quv materialini tushunish uchun eng avvalo uni qabul qilish lozim. Qabul qilish – maqsadga yo'naltirilganligi va tanlash xususiyati bilan xarakterlanadigan faol jarayondir. Talabalarning tayyorgarlik darajasi, ular bilimi va xayot tajribasiga bog'liq holda, qabul qilish bevosita, talabalar ongida hissiyot organlari yordamida predmet va hodisalarni aks ettiradi.

Bevosita qabul qilishni tashkil etuvchi o'qituvchi atrof voqelikdagi predmetlarni o'ylab tanlaydi, talabalarni maqsadga yo'naltirilgan kuzatishlarga o'rgatadi, o'rganilayotgan obyektning muhim tomonlari va xususiyatlariga e'tiborini yo'naltiradi. Talabalarda fazoviy tasavvur qilish chizmachilik fani o'qitila boshlagunga qadar matematika, fizika kabi fanlarni o'qitish jarayonida rasmlangan bo'ladi. Bu rasmlanish kamida shu darajada bo'lishi kerakki, oddiy geometrik rasmlarning proyeksiyalarini qanday bo'lishini, ularning o'zlaridan yoki yaqqol ta'siridan foydalanib, tushuntirgandan so'ng bu oddiy geometrik rasmlarning proyeksiyalari berilganda ularni bexato tasavvur qila olishlari kerak. Tajribadan ma'lumki, ba'zan alohida detallar o'rganilayotgan obyektning yaxlit obrazining yorqinligi ahamiyatli belgilarni qismlarga bo'lishva uning alohida tomonlarini ko'rib chiqish, ular o'rtasida muayyan aloqalar va munosabatlarni belgilashni qiyinlashtiradi.

O'qituvchining vazifasi – atrof –muhitdagi predmet va hodisalarni talabalar tomonidan qabul qilish, kuzatish va farqlashga o'rgatib bularni rag'batlantirib borishi kerak. Buning uchun ularning oldiga aniq topshiriqlarni qo'yish va mustaqil bajarishni yo'lga qo'yishi kerak. Ular predmetni qabul qilishda ko'rishlari, tasavvur qilishlari va tahlil qilishlari lozim. Talabalaring ham amaliy, ham aqliy harakatlarini qabul qilayotganpredmet bilan bog'lay olishlariga o'rganishlari ayniqsa muhimdir.

3. Talabalar egallagan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarni rasmlantirish.

O'rganilgan materialni mustahkamlash, qabul qilish va idrok etish jarayonida ro'y beradi. Chunonchi, chizmachilik fanida kishi ko'rish sezgilari orqali oldin idrok etmagan

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

narsaning chizmasidan foydalanib, uning tuzilishini tafakkur qilish jarayonida fazoviy tasavvur qiladi. Shunga ko‘ra berilgan detalning chizmasiga qarab uning tuzilishini aniqlay olish uchun chizmachilik qoidalarini bilish bilan birga fazoviy tasavvur qila bilishi lozim bo‘ladi. Bunda detalning proyeksiyalari ko‘rish analizatorlari orqali idrok etilib, ongning ichki faoliyati asosida fazoviy tasavvur etiladi, ya’ni detalning tuzilishini tasavvur qilishda uning chizmasi asos bo‘lib xizmat qiladi. Kishi shu asosda fikr yuritib murakkab psixik faoliyati natijasida tafakkur qilib, detalning tuzilishini fazoviy tasavvur etadi. Shu orqali kishi detalning tuzilishi, rasmi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi. Biroq bunda o‘zlashtirilgan bilimlar bundan keyingi takomillashtirishni talab etadi. Mustahkamlashning mohiyati yangi aloqalarni mustahkamlashdadir. Yangi bilimlarni mustahkamlash jarayonida o‘quv, ko‘nikma va malakalar rasmlanadi, ular mustaqil ishlar orqali tekshiriladi. Ularni o‘zlashtirish vositasida aniqlangan kamchiliklar oqibati tugatiladi. O‘zlashtirilgan materialni mustahkamlash asosan ijodiy xarakterdagi tpshiriqlar yordamida amalga oshiriladi. Bu o‘smirlik davrining o‘ziga xos psixologik xususiyatidir.

Bu davrning o‘ziga xos yana bir psixologik xususiyati o‘quv materialini mustahkamlash jarayonida uni eslab qolish amalga oshadi. O‘quv jarayonida eslab qolish ixtiyoriy va beixtiyor bo‘ladi. Bilimlarni beixtiyor eslab qolish bevosita qabul qilish chog‘ida va, xususan, o‘quv materialini idrok qilish jarayonida amalga oshiriladi, biroq, bu faoliyat hali eslab qolishga maxsus yo‘naltirilmagan, balki tushinish, idrok etish va o‘quv materialini anglashga kabi bilish maqsadlariga erishishni ko‘zda tutadi.

Beixtiyor eslab qolishning mahsuldorligi talaba yangi materialni ko‘rib chiqishi jarayonida muayyan aqliy faoliyat va mustaqillikni namoyon etib predmetlar, rasmli kartochkalarni jamlab, predmet modellarini yaratib, o‘rganilayotgan materialni qiyoslab, guruhlab, xulosalar chiqargandagina beixtiyor eslab qolishning mahsuldorligi yuqoridir. Masalan, talabalar ko‘pyoqli bilan tanishuvda o‘qituvchi rahbarligida eng avvalo ko‘pyoq (prizma, piramida va boshqalar) modelini yoyilmasini asosan yaratadi. Talabalar hosil qilingan ko‘pyoqli modelidan foydalanib geometrik rasmlarga ajratadi, ularni qiyoslaydi va tasniflaydi.

Taniqli psixolog A.A.Smirnovning tadqiqotida, ixtiyoriy esda saqlashning maxsuldorligi talabalarning aqliy faoliyati darajasi va mustaqilligiga ham bog‘liqligi isbotlangan. Bu daraja qanchalik yuqori, yodlash usullari qanchavlik oqilona bo‘lsa, ixtiyoriy esda saqlash darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llash.

O‘smirlik davrida (VIII-IX sinflar) bilimlarni takomillashtirishning eng samarali yo‘llaridan biri – ularni qo‘llashdir. Fikrimizcha, bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘laqonli o‘zlashtirishga ularni o‘zgarayotgan sharoitda faol mustaqil qo‘llash sharoitlaridagina erishish mumkin. Bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llash jarayoni talabalarning mustaqillik rolini sekin – asta va izchil oshirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda o‘qituvchi yutuq va kamchiliklarini nazorat qilish va tahlil etish uchun eng qulay sharoitlarni yaratadi. Bilish faoliyatining yuqorida ko‘rilgan bosqichlari dialektik murakkab aloqada bo‘lib, amaliy jihatdan ajralmasdir. Aloxida bosqichlar va ularning o‘zaro aloqasini o‘rganish, bilish

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

faoliyatining ichki moxiyatini to‘g‘ri tushunishga, talabalarda fazoviy tasavvur faoliyatining xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Ko‘rib chiqilayotgan yoshning muxim psixologik xususiyati va o‘smirlarda fazoviy tasavvurni rivojlantirishning omillaridan biri faol, mustaqil, ijodiy tafakkurning rasmlanish jarayonining boshlanishidir. Psixologiya nazariyasida qayd etilishicha, o‘smirlik yoshining ikkinchi (14-15 yosh) bosqichi ana shunday tafakkurning taraqqiy etishi uchun senzitiv (qulay) yoshdir (V.A. Krulskiy). Davrning qulayligi shundaki bilish faoliyati ta’sirida aqliy qobiliyat, intelektual imkoniyat mustaqil ijodiy tafakkurning tarkib topishi uchun zamin yaratadi. Shuning uchun talabalarning OTM va OTMdan tashqari o‘quv-tarbiya faoliyatini kengaytirish, yechilishi lozim bo‘lgan muammolarni ko‘paytirish lozim. Bu hol bu vaziyat aktiv, mustaqil fikrlashni, bu esa ijodiy tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi. O‘smirlarda ta’sirchan, barqaror qiziqishlar yuzaga keladi, voqelikka onli, faol munosabat, mustaqil ijodiy tafakkur taraqqiy etadi. Natijada, adabiy-ijodiy, badiiy –tasviriy qobiliyat yaqqol namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta ta’lim vazirligi rasmiy sayti https://edu.uz/uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF5847-son Farmoni ilovasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953-sonli Farmoni.
6. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi 824-sonli qarori.
7. D.Mamatov.Samostoyatelnaya rabota studentov i yeyo znacheniye v formirovanii spesialista. Vestnik integrativnoy psixologii. 16 (16), 169-172 str.
8. D.K. Mamatov, D.I. Mamurova. Pedagogicheskiye Konflikti: Sposobi Ix UregulirovaniY. NovaInfo. Ru 4 (57), 408-417.
9. D.K. Mamatov. Kompyuternaya grafika. Uchebnoye posobiye. Tashkent. Izdatelstvo «Navruz».
10. A.R. Shukurov, N.D. Yadgarov, D.K. Mamatov, A.SH. Aminov. Metodika ispolzovaniya kompyuternix programm na urokax risovaniya v sredney shkole. European science, 47-50.
11. M. Dilshod. Mustaqil ta’lim – amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat. Pedagogik mahorat 80 (2-3), 86-89.
12. https://www.gazeta.uz/uz/2021/10/13/higher-education/

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

13. https://cyberleninka.ru/article/n/razrabotka-innovatsionnoy-rabochey-programmy-popredmetu-inzhenernaya-grafika-dlya-tehnicheskih-vuzov
14. https://admissions.ktu.edu/programme/b-food-science-and-technology/#T230B219

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Yodgorov Nodir Jalolovich,** pedagogika fanlari doktori (Dsc), professor [**Ядгаров Нодир Джалолович,** доктор педагогических наук, профессор], [**Nodir Dj. Yadgarov,** Doctor of Pedagogical Sciences, Professor]; manzil: O'zbekiston, Buxoro, Piridasgir ko'chasi, 20 [адрес: Узбекистан, город Бухара, улица Пиридасгир, 20.], [address: Uzbekistan, Bukhara, Piridasgir Street, 20.]; ORCID: https://orcid.org/0000-0002-6931-5938; nodirbekyadgarov@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

AFFILIATSIYA MOTIVI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KATEGORIYA SIFATIDA

© S.G'. Samatova[1]✉

[1]Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada jahon amaliyotiga ko'ra, keyingi yillarda shaxsdagi yakkalanish, yolg'izlanish motivining oshib borishi jamiyatda salbiy jarayon sifatida marginalizm xodisalarini tezlashtirmoqda. Shuningdek maqolada affiliatsiya motivining "birlashmoq", "birlashtirmoq" xarakteri ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashning eng asosiy shartlarida biri ekanligi ilmiy asoslanadi.

MAQSAD: aholini turli qatlam vakillarida affiliatsiya motivini shakllantirish orqali ijtimoiy munosbatlarni barqarorlashtirish, odamlar orasidagi marginalizm (ijtimoiy begonalashuv, ijtimoiy yakkalanish) omilini kamaytirishdan iboratdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot doriasida o'rganilgan affiliatsiya motivi ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, u ijtimoiy munosbatlarni barqrorligi uchun eng muhim ijtimoiy-psixologik xodisalardan biri ekanligi nazariy jihatdan ilmiy aososlanadi. Shuningdek affiliatsiya motivi odamlarni bir-birlari bilan, oila a'zolarining bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarida namayon bo'lib, mazkur motivni shakllanishi ular orasida "hamjihatlikka intilish", "hamkorlikka intilish", "ahillikka intilish", "bir-birini tushunishga intilish", "empatiya" kabi tayanch mezonlarni shakllantirish mumkinligin ko'rsatmoqda.

XULOSA: aholining turli qatlam vakillarida affiliatsiya motivatsiyasining namoyon bo'lishi ijtimoiy- munosbatlarni barqarorligiga ta'sir ko'rsatar ekan, demak u bilan bog'liq bracha ijtimoiy-psixologik determinantlar empirik jihatdan puxta o'rganilishi va mazkur ijtimoiy xulqni boshqarish mezonlarini ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud. Shuningdek o'z xulq-atvorida yuqori affiliatsiyani namoyon etgan axolining turli qatlam vakillari ijtimoiy munosabatlarni oson o'zlashtirib, odamlarga nisbatan sezgir va muloqotga moyilliklari aniqlangan

Kalit so'zlar: xulq-atvor, motiv, affiliatsiya motivi, ijtimoiy munosbat, muloqot, marginalizm.

Iqtibos uchun: Samatova S.G'. Affiliatsiya motivi ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatida. // Inter education & global study. 2024. №8. B.448-454.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

МОТИВ АФФИЛИАЦИЯ КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ

© С.Г. Саматова [1]✉
[1]Университет точных и социальных наук, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: согласно статье, согласно мировой практике, в последующие годы усиление мотива изоляции и одиночества у личности ускоряет явление маргинализации как негативного процесса в обществе. Также в статье научно обосновано, что природа мотива принадлежности «объединиться», «объединиться» является одним из самых основных условий совершенствования общественных отношений.

ЦЕЛЬ: стабилизация социальных отношений путем формирования мотива принадлежности у представителей разных слоев населения, заключается в снижении фактора маргинализма (социального отчуждения, социальной изоляции) среди людей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в процессе исследования использовались такие методы, как интервью, социально-психологическое анкетирование, наблюдение, а уровень статистической достоверности полученных результатов подтверждался факторным анализом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: мотив аффилиации, изучаемый в исследовательской работе, имеет социальный характер и теоретически научно обосновано, что он является одним из важнейших социально-психологических явлений для устойчивости общественных отношений. Также мотив принадлежности проявляется во взаимодействии людей друг с другом, членов семьи друг с другом, причем формирование этого мотива происходит среди них «стремление к гармонии», «стремление к сотрудничеству», «стремление к гармонии», «искать друг друга» показывает, что можно сформировать базовые критерии, такие как «стремление понять», «сопереживание».

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: поскольку проявление мотивации принадлежности у представителей разных слоев населения влияет на устойчивость социальных отношений, это означает, что возникает необходимость эмпирического изучения различных связанных с ней социально-психологических детерминант и разработки критериев управления этим социальным поведением. Также установлено, что представители разных слоев населения, показавшие в своем поведении высокий уровень аффилиированности, легко осваивали социальные отношения, были чувствительны к людям и имели склонность к общению.

Ключевые слова: поведение, мотив, мотив принадлежности, социальные отношения, общение, маргинализм.

Для цитирования: Саматова С.Г. Мотив аффилиация как социально-психологическая категория. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 448-454.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

AFFILIATION MOTIVE AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CATEGORY

© Sevara G. Samatova[1]✉
[1]University of Exact and Social Sciences, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: according to the article, according to world practice, in the following years, the increase in the motive of isolation and loneliness in the individual accelerates the phenomenon of marginalization as a negative process in society. Also, in the article, it is scientifically based that the nature of the motive of affiliation "to unite", "to unite" is one of the most basic conditions for improving social relations.

AIM: stabilization of social relations by forming a motive of affiliation in representatives of different strata of the population, is to reduce the factor of marginalism (social alienation, social isolation) among people.

MATERIALS AND METHODS: during the research, methods such as interviews, socio-psychological questionnaires, and observation were used, and the level of statistical reliability of the results obtained was confirmed by factor analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: the motive of affiliation studied in the research paper has a social character, and it is theoretically scientifically justified that it is one of the most important socio-psychological phenomena for the stability of social relations. Also, the motive of affiliation is manifested in the interaction of people with each other, family members with each other, and the formation of this motive is among them "desire for harmony", "desire for cooperation", "desire for harmony", "seek each other" it shows that it is possible to form basic criteria such as "seeking to understand", "empathy".

CONCLUSION: since the manifestation of affiliation motivation among representatives of different strata of the population affects the stability of social relations, it means that there is a need to empirically study the various social-psychological determinants related to it and develop criteria for managing this social behavior. Also, it was found that the representatives of different strata of the population, who showed a high level of affiliation in their behavior, easily mastered social relations, were sensitive to people and had a tendency to communicate.

Key words: behavior, motive, affiliation motive, social relationship, communication, marginalism.

For citation: Sevara G. Samatova. (2024) 'Affiliation motive as a social-psychological category', Inter education & global study, (8), pp. 448-454. (In Uzbek).

Biz tez suratlar bilan rivojlanib borayotgan davlat sifatida ma'rifatli va demokratik hamda kuchli huquqiy fuqorolik jamiyati qurar ekanmiz, birinchi navbatda jamiyatda jamoatchilik nazorati va aholining turli qatlam vakillarida daxldorlik fazilati shakllanishi kerak.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Uning uchun ijtimoiy psixologiyadagi affelatsiya motivini shakllantish maqvsadga muvofiq.

Demak mazkur motivga kengroq to‘xtalamiz va uning ijtimoiy psixologik kategriya ekangiligini mahalliy va xorijiy tadqiqotlarga asoslanib nazariy asoslab o‘tamiz.

Hozirgi kunga kelib fanda motivatsiya muammosi, uning tabiatiga oid ko‘plab nazariyalar shakllangan bo‘lib, xorijning o‘zida aynan shu muammolarga bag‘ishlangan 100 ga yaqin nazariyalar mavjudligini ta’kidlash mumkin.

Mazkur masala bo‘yicha rus ijtimoiy psixologiyasini rivojlanishiga salmoqli hissasini qo‘shgan olima G.M. Andreeva [1] ta’kidlaganidek, agar sotsiologlar uchun ijtimoiy munosabatlar muhim hisoblansa, psixologlar uchun o‘zaro shaxslararo munosabatlar alohida tadqiqot ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida odamlar o‘rtasida shakllanadigan shaxsiy o‘zaro munosabatlar doirasi juda keng va bularning barchasi psixologlar tomonidan alohida e’tiborni talab etadi. An’anaviy tarzda ijtimoiy psixologiyada tadqiqot ob’ekti sifatida affiliatsiya tushunchasi bilan belgilanuvchi o‘zaro munosabatlar doirasi oldinga chiqadi. Aytib o‘tish joizki, muvaffaqiyatga erishish, mag‘lubiyatdan qochish yoki xokimiyatga intilish motivlariga nisbatan affiliativ motivlar kam o‘rganilgan ijtimoiy-psixologik fenomenlar sarasiga kiradi.

Affiliatsiya motivining etimologik xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak affiliatsiya motivi (ing. to affiliate – birlashmoq, birlashtirmoq) - insonni boshqa odamlar davrasida bo‘lishga intilishi tushuniladi. Keltirilgan ta’rifga ko‘ra, sub’ektning potensial havfli stress holatga tushishi bilan affiliatsiya motiviga bo‘lgan tendensiya ham oshib borar ekan. Bunda odamlar jamoasi murakkab va havfli sharoitdagi reaksiyalar xarakteri va tanlangan xulq-atvor uslubini to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliginitanlash imkoniga ega bo‘ladilar. Ma’lum chegaradagi odamlar o‘rtasidagi yaqinlik havotirlanish darajasini pasayishiga olib keladi va shuning bilan birga ham fiziologik, ham psixologik stressning oldini oladi, oqibatini yumshatadi. Affiliatsiya motivning susayishi esa yolg‘izlik, begonalashuv hislarini tug‘diradi va frustratsiyaga olib keladi [2; 43-s.].

Shuningdek, “Boshqa insoniy mavjudodlarga nisbatan yaqin bog‘liqlikni his etish”ni Mayers yer markazida joylashuvchi o‘qqa o‘xshatib, uning atrofida inson individumining go‘daklikdan to o‘limigacha bo‘lgan butun hayoti aylanadi va ushbu yaqin bog‘likliklardan insoniyat kuch va har kunlik hayotiy quvonch topadi” – deb ta’kidlaydi va shu ta’rifi orqali affiliatsiya motivini tabiatini tushuntirib berishga harakat qiladi [3; 247-s.] .

Ijtimoiy psixologiyada masala bo‘yicha turli olimlar affiliatsiya motivatsiyasiga ta’rif berganda, affiliatsiya motivatsiyasi - muloqotga intilish, bilishga intilish, o‘z-o‘zini ta’kidlash, manfaatli hamkorlikka intilish kabi maqsadlar, ehtiyojlar, motivlar majmuidan iboratligini ta’kidlashadi[4].

Ushbu motiv yaqqol namoyon bo‘luvchi ijtimoiy xarakterga egadir, chunki ushbu motiv boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabat doirasidagina amalga oshadi. Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj umuminsoniy ehtiyoj hisoblanib, u insonni jamoatchilik va hamkorlikka intilish kabi fundamental baza asosidagina quriladi[5].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Tadqiqotchi X.Xekxauzen [6] affiliatsiya motivni muloqotga ehtiyoj doirasida o‘rganib, affiliatsiya har kunlik, lekin shuning bilan birgalikda fundamental xarakterga egadir. U o‘zidan psixik hodisa, motiv, mayl, hoxish, boshqa odamlarga intilishni namoyon etadi. Uning asosida muloqotni amalga oshiruvchi insonni emotsional va ishonchli aloqalarga bo‘lgan ichki ehtiyoji yotadi. Odatda u yaqin munosabatlar o‘rnatishga intilish, har ikkala tomonga qoniqish olib kelish maqsadidagi muloqot jarayoni, birgalikdagi harakatlar majmui ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ushbu ehtiyojning maqsadi turlicha bo‘lishi mumkin va hatto bir-birini rad etuvchi (yaqin munosabatlarga erishish yoki suhbatdoshdan o‘z maqsadi yo‘lidafoydalanish) ko‘rinishda ham kelishi mumkin (X.Xekxauzen).

Adabiyotlarni o‘rganishimiz “Affiliatsiyaga ehtiyoj” tushunchasi turli tadqiqot ishlarida turlicha tahlil qilingan. Affiliatsiya motivini birinchilardan bo‘lib o‘rgangan Xenri A. Myurrey tahliliga ko‘ra, ushbu motivni namoyon bo‘lishini ikki qirrasini ajratibo‘tadi: birinchisi - shaxsiy muloqot, birlashish ehtiyoji hisoblansa, ikkinchisi esa - ma’lum guruhga mansublikni o‘zi bilan ifoda etadi.

Birinchisida munosabatlarni ishonchliligi, emotsional aloqalarga ehtiyoj (Yan Mazurkevich, K.Obuxovskiy) alohida ta’kidlab o‘tiladi. Ikkinchisida, insonni ijtimoiy aloqalarga bo‘lgan ehtiyoji (Brem P.Bruunk), aniq bir guruhga aloqadorligi (D.Makklelannd, Ye.V.Trifonov) shuning bilan birgalikda referent guruhga qanday hissiyotlar sezishidan qat’iy nazar boshqa insonlar jamoasini qidirishga intilish (Brem P.Bruunk) nazarda tutiladi.

Aslida affiliativ ta’sir doirasining bunday ko‘pqirraliligi bir-biriga zid qo‘yish kerak emas, chunki ular turli vaqt va vaziyatlarda faollashadi. Bolalikda bu ona bilan bo‘lgan yaqin aloqa bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan ushbu ehtiyojni namoyon bo‘lish doirasi oshib boraveradi. Endi nafaqat yaqin insonlar bilan yakin emotsional aloqa o‘rnatish, balki “biror bir narsaning asosiy elementi” ga (Bleyer) aylantirishga harakat qilinadi.

O‘rganishlarimiz affiliatsiya motivatsiyasi ko‘pqirrali mazmunga ega bo‘lib, o‘z ichiga odamlar bilan muloqotga kirish ehtiyoji, guruh a’zosiga aylanish, atrofdagilar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, boshqalarga yordam ko‘rsatish, hamda ulardan ham yordam qabul qilish kabi kompleks motivlardan iborat bo‘lgani uchun ham, birinchi bo‘lib ijtimoiy psixologlar uchun maxsus tadqiqotlar predmetiga aylangan. Ushbu hodisa, jarayonga turlicha ta’riflar berilgan, lekin ko‘pincha, affiliatsiya motivatsiyasi deganda, insonni odamlar davrasida bo‘lishga intilishi, ular bilan birga muloqotda bo‘lishga, ular tomonidan tan olinishga, ular bilan ijobiy shaxsiy o‘zaro munosabatlar o‘rnatish va saqlab qolish tushuniladi.

Tadqiqotimiz doirasida va mahalliy olima N.Norqulovaning tadqiqotlariga asoslanib, affiliatsiya (aloqa, muloqot) deganda, insonlar bilan muloqot o‘rnatish(tanish, notanish va kam tanish insonlar) natijasida har ikkala tomonda birday qoniqish hosil qilishga, muloqot jarayonini mazmun bilan boyitishga va unga kirishib ketishga undovchi ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning ma’lum bir sinfi tushuniladi degan xukmlarni chiqarishimiz mumkin[7].

Affiliatsiya motivining o‘ziga xos bir qancha funksiyalari mavjud va ularni quyidagi taqiqotchilar tizimlashtirgan G.M. Andreeva, A.A. Bodalyov, B.F. Lomov, A.A. Leontev va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o‘rganilib chiqilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Tadqiqotchi Xenri A. Myurrey esa odamlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ehtiyojining to‘rt turini ajratadi [X. Xekxauzen]:

1. Affiliativ ehtiyoj (birlashish ehtiyoji).
2. Rad etilish ehtiyoji (ob’ektlarni inkor etish, chetda qolish).
3. Rahnamolik ehtiyoji (himoyalash).
4. Qo‘llab-quvvatlash ehtiyoji (yordam, himoya qidirish).

Affiliatsiya motivining tarkibiy qismga bo‘lish tajribasi A.Megrabyan tomonidan qator o‘tkazilgan tajriba ishlari natijalari asosidakiritilgan bo‘lib, muallif ushbu motivni ikkita motivatorlarga: affiliatsiyaga yo‘nalganlik va rad etilishdan qo‘rqish motivatorlariga ajratadi. Ularning asosida esa shaxslararo o‘zaro ta’sirlarning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi yotadi[8].

Tadqiqotchi A. Maslou esa boladagi birinchi darajali sotsiogen ehtiyoj sifatida affiliatsiyaga bo‘lgan ehtiyoj konsepsiyasini oldinga suradi. Maslou fikricha, inson tug‘ilganda faqatgina fiziologik ehtiyojlarga ega bo‘ladi. Ma’lum muddatdan so‘ng esa bola ijtimoiy bog‘liqlikning birinchi belgilarini va atrofdagilarga nisbatan tanlovchan sevgini namoyon etadi. Yana ma’lum muddatdan so‘ng, bola ota-ona muhabbati va g‘amho‘rligini his etgandan, qondirilgandan so‘ng, unda avtonomlikka, mustaqillikka, qandaydir maqsad, maqtovga nisbatan muvaffaqiyatga erishishga intilish aniqlanadi (A. Maslou, 1999).

Demak, bolaning ilk ontogenez davrida ushbu ehtiyojlarning qondirilmasligi insonni tashqi muhitga keyingi ijtimoiy adaptatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, hatto to‘g‘rilab bo‘lmas asoratlarga ham olib kelishi mumkin degan xulosa kelib chiqadi[9].

Buni ko‘pgina tadqiqotchilar ta’kidlab, ularning fikricha, bola shaxsiy xususiyatlarining asosini unga g‘amho‘rlik qiluvchi kattalar bilan o‘zaro aloqasi davridayoq boshlanadi va ular o‘rtasidagi affektiv aloqa asosiy o‘rinni egallaydi. Emotsional bog‘lanishga, sevgiga ehtiyoj nafaqat xulqni, balki butun inson hayotini belgilab beruvchi bosh ehtiyojlardan biridir. Z.Freyd psixoanalizida va ko‘pgina psixolog hamda psixoterapevtlar konsepsiyalarida nevroz asosida yoshligida mehr ko‘rmagan, muhabbatga to‘ymaganlik natijasida kelib chiquvchi nerv-psixik buzilishlar yotadi, deb ta’kidlashlari bejiz emas.

Affiliatsiya motivi ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, u ijtimoiy-psixologik katergori ekanligi ilmiy aoslandi.

Affiliatsiya motivi aholining turli qatlam vakillarida bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarida namayon bo‘lib, mazkur motivni shakllanishi ular orasida ahillik, birlashish, ko‘maklashish, bir-birin to‘laqonli anglash, bir-biriga yoram berish, bir-birin ob’ektiv anglashda kabi tayanch mezonlarni shakllantirar ekan.

Masalaga daxldor rus, xorij va mahalliy tadqiqotlar mazkur motiv hamda motivatsiya muammosi psixologik kategoriya tariqasida talqin qilinib, ushbu muammolarga ijtimoiy psixologik nuqtai nazaridan yondashilgan. Bu yondashuvlar bizga affiliatsiya motivatsiyasining ijtimoiy psixologik kategoriya ekanligi va guruhiy jarayonlar va faoliyat doirasida aynan ijtimoiy psixologik xodisa ekanligini tasdiqlaydi.

Masala bo‘yicha nazariy o‘rganishlarimiz affiliatsiya motivatsiyasi muammosi ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy xulq, muomala kategoriyalari bilan uzviy tarzda talqin qilingan bo‘lib u

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligiga ijobiy ta'sir qiluvchi tayanch motiv ekanligi bo'yicha ma'lum ijtimoiy psixologik qonuniyat borligini ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Алёшина Ю.Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование.- Изд.2-е.-М.: Независимая фирма «Класс», 1999.-208с.
2. Хайдаров Ф.И. Формирование мотивов учения у учащихся сельских школ: Автореф.дис. ... канд. пед. наук.- Ташкент: ТГПУ, 1996. – 18 с.
3. Чориев А.И. Социальный облик современной молодёжи. -Т.:Ўзбекистон, 1996. – 150 б.
4. Творогова Н.Д. Клиническая психология. Словарь / Под ред. Творогова Н.Д. – М.: ПЕР СЭ, 2007. - 374 с.
5. Чхартишвили Ш.Н. Природа и виды социогенной потребности// проблема формирование социогенных потребностей. – Тбилиси, 1974. - С. 115-119.
6. Зейгарник Б.В.Теория личности в зарубежной психологии- М.:МГУ,1981.– 128с.
7. Jabborov X.X. "O'smirda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5.423.
8. Жабборов Хазрат Хусенович. The influence of psychological protective mechanisms in the formation of the ideological immunity in adolescents. European journal of psychological research vol. 4 No.1, 2017 ISSN 2057-4794.
9. Jabborov Kh.Kh. The study of the problem of national education by eastern thinkers. International Journal of Pedagogics (ISSN – 2771-2281) VOLUME 03 ISSUE 02 Pages: 14-20 SJIF IMPACT FACTOR (2021: 5. 705) (2022: 5. 705) (2023: 6. 676) OCLC – 1121105677
10. Online Link:- http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/765

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Samatova Sevara G'ayratova**, Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti o'qituvchisi, [**Саматова Севара Гайратовна,** Преподаватель Университета точных и социальных наук], [**Samatova Sevara Gayratovna**, Teacher of the University of Exact and Social Sciences]; manzil: O'zbekiston, Toshkent tumani, Toshkent xalqa yo'li ko'chasi, [адрес: Узбекистан, Ташкентский район, улица Ташкентское кольцевое шоссе], [address: Uzbekistan, Tashkent District, Tashkent Ring Road st]. sevara.samatova87@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

ВОЗМОЖНОСТИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ В РАЗВИТИИ ЖИЗНЕННЫХ ЦЕЛЕЙ У ПОДРОСТКОВ

© М.В. Рейимбаевна[1]✉

[1]Каракалпакский государственный университет, Нукус, Узбекистан

ВВЕДЕНИЕ: сегодня влияние сложной социальной ситуации на представления о смысле и цели жизни подростков, социально-психологическая подготовка как одно из практических средств формирования у подростков высоких нравственных жизненных целей, имеющих социальное и личностное значение, является актуальным. рассказал, что студенты будут учиться посредством социально-психологических тренингов, направленных на достижение их будущей профессиональной деятельности и жизненных целей.

ЦЕЛЬ: наша цель – взглянуть на сложную социальную ситуацию в сфере образования, используя современные образовательные реформы, как содержание жизни подростков, и выдвинуть влияние идей по объяснению цели образования в современном программном ключе. социально-психологическая подготовка о Актуальна как одно из практических средств формирования высоких нравственных жизненных целей, имеющих социальное и личностное значение. сообщил, что студенты будут учиться посредством социально-психологической подготовки, направленной на достижение их будущей профессиональной деятельности и жизненных целей. Наша главная цель – реализовать такие идеи.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в этих условиях задача психологической помощи в развитии способности самому видеть перспективу будущей жизни, в освоении практически полезных навыков планирования своих жизненных целей, становится очень важной. Одним из практических средств в развитии у подростков социально и личностно значимых высоконравственных жизненных целей являются социально-психологические тренинги. Исследования психологов, проведенные в последнее время говорят о том, что молодые люди хотели бы чувствовать себя хозяевами собственной судьбы, хотели бы быть успешными в своей будущей профессиональной деятельности, в достижении жизненных целей. Именно всему этому, еще обучаясь в школе, подростки могли бы обучиться в процессе целенаправленно организованного социально-психологического тренинга.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: итак, работах по данной программе, практический психолог. несомненно, поможет подростку сознательно подходить в выборе смысла и целей в своей жизни. Мы пришли к выводу, что социально-психологические тренинги

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

способствуют у подростков формированию необходимых жизненных стратегий, а также определению близких и далёких целей в жизни.

Ключевые слова: подросток, свобода воображения, ограничения, социально-психологическая подготовка, практический психолог, выбор профессии.

Для цитирования: Рейимбаевна М.В. Возможности социально-психологических тренингов в развитии жизненных целей у подростков. // Inter education & global study. 2024. №8. В.455-461.

O‘SMIRLARDA HAYOTIY MAQSADLARNI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK IMKONIYATLARI.

© M.V. Reimbaevna[1]✉
[1]Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus, O‘zbekiston

KIRISH: bugungi kunda murakkab ijtimoiy vaziyatning o'smirlar hayotining mazmuni va maqsadi haqidagi g'oyalarga ta'siri, ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik o'smirlarda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan yuksak axloqiy hayotiy maqsadlarni shakllantirishning amaliy vositalaridan biri sifatida dolzarbdir. talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati va hayotiy maqsadlariga erishishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik treninglar orqali bilim olishlarini aytdi.

MAQSAD: maqsadimiz hozirgi vaqtga kelib zamonaviy ta’lim reformalaridan foydalangan holda ta'lim sohasida murakkab ijtimoiy vaziyatning o'smirlar hayotining mazmuni sifatida nazar solib va ta’limning zamonaviy dasturiy jihatdan maqsadini tushuntirish haqidagi g'oyalarga ta'sirini ilgari suramiz, ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik o'smirlarda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan yuksak axloqiy hayotiy maqsadlarni shakllantirishning amaliy vositalaridan biri sifatida dolzarbdir. talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati va hayotiy maqsadlariga erishishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik treninglar orqali bilim olishlarini aytdi. Bizning asosiy maqsadimiz shu kabi g’oyalarni amalga oshirish hisoblanadi.

MUHOKAZA VA NATIJALAR: bunday sharoitda o'zini kelajakdagi hayot istiqbollarini ko'rish qobiliyatini rivojlantirishda, o'z hayotiy maqsadlarini rejalashtirishda amaliy foydali ko'nikmalarni o'zlashtirishda psixologik yordam vazifasi juda muhimdir. O'smirlarda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega, yuksak axloqiy hayotiy maqsadlarni shakllantirishning amaliy vositalaridan biri bu ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikdir. Psixologlarning so'nggi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, yoshlar o'zlarini o'z taqdirining ustasi sifatida his qilishni, kelajakdagi kasbiy faoliyatida, hayotiy maqsadlariga erishishda muvaffaqiyat qozonishni xohlashadi. Bularning barchasi o'smirlar maktabda o'qiyotganlarida, maqsadli tashkil etilgan ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik jarayonida o'rganishlari mumkin edi.

XULOSA: shunday qilib, ushbu dastur ustida ishlash asosida amaliy psixolog o'smirning hayotidagi ma'no va maqsadlarni tanlashga ongli ravishda yondashishiga yordam berishi shubhasiz. Ijtimoiy-psixologik treninglar o'smirlarga zarur hayotiy

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

strategiyalarni shakllantirishga, shuningdek, hayotdagi yaqin va uzoq maqsadlarni belgilashga yordam beradi degan xulosaga keldik.

Kalit so'zlar: o'smir, tasavvur erkinligi, cheklovlar, ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik, amaliy psixolog, kasb tanlash.

Iqtibos uchun: Reimbaevna M.V. O'smirlarda hayotiy maqsadlarni rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik imkoniyatlari. // Inter education & global study. 2024. №8. C. 455-461.

POSSIBILITIES OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL PREPARATION IN THE DEVELOPMENT OF LIFE GOALS IN ADOLESCENTS

© Mambetiyarova R Venera [1]✉
[1]Karakalpak State University, Nukus, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: today, the influence of a complex social situation on the ideas about the meaning and purpose of life of teenagers, social and psychological training as one of the practical means of forming high moral life goals in teenagers that have social and personal significance, is relevant. said that students will learn through social and psychological trainings aimed at achieving their future professional activities and life goals.

AIM: our goal is to look at the complex social situation in the field of education, using modern educational reforms, as the content of the life of teenagers, and put forward the impact of the ideas on explaining the purpose of education in a modern programmatic way, socio-psychological preparation o It is relevant as one of the practical means of forming high moral life goals of social and personal importance. said that students will learn through socio-psychological training aimed at achieving their future professional activities and life goals. Our main goal is to implement such ideas.

DISCUSSION AND RESULTS: in such conditions, the task of psychological support is very important in developing the ability to see future life prospects, in mastering useful practical skills in planning one's life goals. Social and psychological training is one of the practical means of forming socially and personally important, high moral life goals in teenagers. The latest research of psychologists shows that young people want to feel themselves as masters of their own destiny, to be successful in their future careers and to achieve their life goals. All this could be learned by teenagers in the process of purposefully organized socio-psychological training while studying at school.

CONCLUSION: thus, on the basis of work on this program, there is no doubt that a practical psychologist will help a teenager to consciously approach the choice of meaning and goals in his life. We have come to the conclusion that social-psychological training helps teenagers to form necessary life strategies, as well as to set short and long-term goals in life.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Keywords. teenager, freedom of imagination, restrictions, social and psychological training, practical psychologist, choice of profession.

For citation: Mambetiyarova R Venera. (2024) 'Possibilities of socio-psychological preparation in the development of life goals in adolescents', Inter education & global study, (8), pp. 455-461. (In Russ).

На представления о смысле и цели жизни у подростков сегодня влияет непростая социальная ситуация, в которой они формируются.

Высокая степень неопределенности жизни. неясность перспектив социального развития, материальные трудности ведут к тому, что многие учащиеся подросткового возраста, стоящие перед выбором профессии, когда они оканчивают девятый класс, не могут решить, чего они хотят в жизни.

Итак, задача первого этапа работы- показать личности чрезвычайную значимость определения собственных жизненных целей, убедить их в том, что предстоящий тренинг даст им в руки такие психологические «инструменты», которые позволят им стать в жизни не неудачниками, а победителями, научат пользоваться всеми своими лучшими, сильными сторонами для того, что бы достигать, этих целей.

Так, в частности, работая по программе, представленной Московским психологом И.В.Дубровиной, учащимся подросткового возраста были предложены следующие 12 шагов.

1. Возьмите карандаш и бумагу. Устройтесь поудобнее, там, где вы чувствуйте себя максимально комфортно. А теперь постарайтесь, не ставя себе ни каких ограничений, нарисовать свою будущую жизнь так, как вы хотели бы, чтобы она сложилась, с теми дорогами, по которым вы хотели бы пройти, с теми вершинами, на который вы бы хотели бы взойти

Начните со списка того, о чем вы мечтаете, кем хотите стать, каким хотите стать, где жить, чем заниматься, что иметь. Сосредоточьтесь и в течении 10-15 минут заставьте свой карандаш беспрерывно работать. Где только можно, сокращайте слова и переходите к следующему желанию. Чувствуйте себя королем, дайте волю своему воображению, отбрасывайте ограничения. Если какие-то сомнения, ограничения все же будут приходить к вам в голову, представьте себе мысленно, что вы их выводите с поля.

Записывая не чего вызова бы в результате достичь следуйте сакам правилам. формулируйте свои мечты в позитивных терминах, не пишите, чего ом вы не хотели, но только го, в чему вы стремитесь:

постарайтесь составить вено представление о результате что именно будет, когда вы достигните своей цели, что вы будите тогда чувствовать, что и кто будет вас окружать как это будет выглядеть, как вообще узнать, что вы достигли того, к чему стремились важно формулировать такие цели, достижения которых в принципе зависит от вас

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Эти правила надо помнить и учитывать и при дальнейшей работе

2. Определите временную сетку, подумайте о дальней перспективе, или ближайших целях, планах, шагах. Хотите ли вы все то, о чем написали, иметь уже завтра, или, напротив, ваши цели относятся к весьма отдаленному будущему соответственно в первом случае надо подумать о дальней перспективе, а во втором о ближайших целях, планах, шагах. Важно иметь ясное представление о первом шаге и о последнем

3. Теперь из всего того, о чем вы написали, выберите четыре самых важных на этот год целей. Выпишите эти 4 цели.

4. Теперь, когда составлен список из четырех главных, ключевых целей, необходимо вновь просмотреть их через призму сформулированных выше правил.

5. Теперь составьте список тех необходимых для достижения цели ресурсов, которыми вы уже обладаете

Опишите, что у вас уже есть это могут быть какие-то черты характера, друзья, которые вас поддержат и вам помогут, финансовые ресурсы, уровень вашего образования, ваша энергия, наконец, время, которым вы располагаете и т.п.

6. Когда вы это сделали, попробуйте припомнить те случая из своей жизни, когда вы чувствовали, что достигли успеха. Припомните 3 5 таких случая Запишите их, зафиксируйте на бумаге, что вы тогда делали, какие свои качества, возможности, ресурсы вы испольная.

7. После этого напишите, каким человеком вы должны было бы быть, чтобы достигнуть своих целей «дисциплинированным собранным, раскованным, и т.д.

8. А теперь в нескольких тезисах сформулируйте препятствует иметь все то, о чем вы мечтаете, з чему стремитесь прямо сейчас

9. На этом этапе для каждой из четырех выбранных целей составить чернових пошагового плана для се достижения. Начните с конечного результата, а потом шаг за шагом спланируйте весь путь вплоть до того, что вы можете сделать по этому плану прямо сегодня.

10. Представьте себе такого человека, который добился необыкновенных успехов (знакомые люди, известные) Запишите имена 35 человек, которые уже добились того, к чему вы стремитесь. В нескольких словах опишите их личностные качества и поведение, которые привели их к успеху.

11. Нарисуйте мысленно свой идеальный день.

Хорошо иметь много разных целей, но в определенном смысле лучше иметь целостное представление о том, что они все вместе, будут для вас означать. Нарисуйте для этого ваш идеальный день. Возьмите карандаш и бумагу и опишите все это.

12. А теперь опишите ваше идеальное окружение.

Акцентируйте значение места, не ставя себе ни каких ограничений: где вы в лесу, на берегу озера, в офисе или в своей квартире? Что под рукой компьютер, рояль,

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

чашка кофе? Какие люди вас окружают? Помните при этом, что мозгу необходим четкий, ясный, сфокусированный сигнал автоматического наведения на цель.

В подростковом возрасте есть все необходимые предпосылки для продуктивного использования тренинга для подростков: ярко выраженная потребность в самопознании, достаточно зрелая рефлексия, значимость обратной связи, высокая потребность в общении. Поэтому проводимые авторами данной статьи исследования эффективности использования СПТ (социально-психологический тренинг) для коррекции самооценки подростков имеют практическое значение.

Полученные в ходе исследования результаты подтвердили выдвинутую в начале исследования гипотезу. Таким образом, можно сказать, что предлагаемая программа СПТ является эффективной для формирования ассертивного поведения подростков, и может быть рекомендована для практического использования.

Предложенная программа СПТ необходима для проведения в подростковых группах, поскольку в этом возрасте у детей очень часто возникают сложности в общении.

Ассертивное поведение подростков формируется под влиянием результатов собственной деятельности, а в качестве ведущей деятельности в данный период выделяется именно общение.

В дальнейшем программа предлагаемого СПТ может быть модифицирована, например, для проведения в группах подростков с отклоняющимся поведением или жертв тоталитарных сект, чья самооценка характеризуется неадекватностью, и которые, как правило, имеют проблемы в общении.

Проблема, рассмотренная в данной работе, является продуктивной для дальнейшего исследования, а также имеет практическое значение.

Таким образом, работа с подростками по определению своих жизненных стратегий определялась пошагово

Как показали наши исследования, Данная программа действительно помогла подросткам определить свои жизненные планы, прояснить временную перспективу будущего и в итоге на этом пути продвинуться в плане своего личного развития, самоопределения, в обретении собственной идентичности.

Повторное анкетирование по специально составленному нами опроснику-интервью, позволяющий определить у учащихся понятия о смысле жизни, близкие и далёкие цели, ориентация в планировании показало, что у учащихся произошли значительные изменения в лучшую сторону.

Так на вопрос о том, кем она хотят стать в будущем, большинство опрошенных нами учащиеся 8. 9-х классов в будущем хотят иметь профессии достаточно престижные в нашем обществе: это такие профессии как банкир, бизнесмен, врач, дипломат, юрист, дизайнер, экономист, переводчик, милиционер и даже некоторые хотят работать в служба безопасности, или стать артистом, учителем.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Адизова Т.М. Психокоррекция- Ташкент,2006.-58 с.
2. Кипнис М. 128 лучших игр и упражнений для любого тренинга.-СПб,2009.-287 с.
3. Клычева З.П. Социально-психологический тренинг «Общение» для подростков. - Нукус,2023.-54 с.
4. Реан А.А., Коломинский Я.Л. Социальная педагогическая психология. – СП.: Питер, 1999. – 480 с.
5. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога в образовании. –М.: Владос, 1996. – 529 с. 6. Самоукина Н.В.Игры, в которые играют…Психологический практикум.-Дубна: Феникс. 2002,- 128 с.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mambetiyarova Venera Reimbaevna**, assistant o’qituvchi [**Мамбетиярова Венера Рейимбаевна,** преподаватель] [**Mambetiyarova R Venera,** teacher); manzil: Qoraqalpog’iston Respublikasi, Nukus shahri, Rawan 12. [адрес: Рауан 12, г. Нукус, Республика Каракалпакстан), [address: Rawan 12, Nukus city, Karakalpakstan region) E-mail: veneramambetiyarova@gmail.com.uz

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Original paper

OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MAHALLA INSTITUTI O`RTASIDAGI HAMKORLIGINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

© X.A. Raxmatova[1]✉

[1]Namangan davlat universiteti, Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mohiyatiga ko`ra turi va shaklida qat'iy nazariy har qanday hamkorlik o`zida ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni namoyon qiladi. Hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirishda mavjud ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni inobatga olish kutilgan natijalarni qo`lga kiritishga yordam beradi. Shu sababli hamkorlik faoliyatini yo`lga qo`yishda uning mazmunini shakllantirish, kutilayotgan natijalarni kafolatlovchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga e'tiborni qaratish talab qilinadi. Oliy ta'lim muassasalari (OTM)ning mahalla instituti bilan hamkorligi ham barcha turdagi kollaborativ faoliyat kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega. Maqolada OTMning mahalla instituti bilan hamkorligi mazmunida aks etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar to`g`risida so`z yuritiladi.

MAQSAD: oliy ta'lim muassasalari va mahalla instituti o`rtasidagi hamkorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot jarayonida suhbat, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma, kuzatish kabi metodlaridan foydalanildi va olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi faktorli tahlil orqali tasdiqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: OTMning mahalla instituti bilan hamkorligining yana bir muhim ijtimoiy-psixologik jihati hamkor sub'ektlarning birgalikda amalga oshiriladigan ish jarayonida o`z zimmasiga olgan vazifalarni bajarishga nisbatan mas'uliyatli yondashuvida aks etadi.

XULOSA: yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, OTMning mahalla instituti bilan hamkorligi mazmunida ijtimoiy-psixologik jihatlar ham aks etadi. Maqsad, motiv, hayotiy pozisiya, ijtimoiy faollik va mas'uliyat kabilar OTMning mahalla instituti bilan hamkorligining ijtimoiy-psixologik xarakterini tavsiflaydi. SHu bois hamkor sub'ektlar – OTM hamda mahalla instituti o`zaro ijtimoiy hamkorlikka erishishda maqsad, motiv, hayotiy pozisiya, ijtimoiy faollik va mas'uliyat nuqtai nazarida kollaborasiya doirasidagi faoliyat dinamikasi va samaradorligini avvaldan taxmin qilgan holda ko`zda tutilayotgan jarayonni tashkil qilishga e'tiborni qaratishlari zarur.

Kalit so'zlar: OTM, mahalla instituti, hamkorlik, ijtimoiy hamkorlik, hamkor sub'ektlar, ijtimoiy xarakterdagi shartnoma, o`zaro ishonch, faol faoliyat, hamkorlikning

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ijobiy xarakterga egaligi, o`zaro yordam, bir-birini qo`llab-quvvatlash, maqsad, motivlar, resurslar, hamkorlik talablari, hamkorlikning hissiy afzalliklari, ijtimoiy rollar.

Iqtibos uchun: Raxmatova X.A. Oliy ta'lim muassasalari va mahalla instituti o`rtasidagi hamkorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. // Inter education & global study. 2024. №8. B. 462-474.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ И ИНСТИТУТА МАХАЛЛИ

© Х.А. Рахматова[1]✉
[1]Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: по существу, тип и форма строго теоретические любое сотрудничество проявляет в себе социально-психологические особенности. Учет имеющихся социально-психологических особенностей при организации и осуществлении сотрудничества способствует достижению ожидаемых результатов. Поэтому при налаживании кооперативной деятельности требуется формирование ее содержания, ориентация на социально-психологические особенности, гарантирующие ожидаемые результаты. Сотрудничество высших учебных заведений (вузов)с Институтом махалли также имеет социально-психологический характер, как и все виды совместной деятельности. В статье рассматриваются социально-психологические особенности, отраженные в содержании сотрудничества вуза с Институтом махалли.

ЦЕЛЬ: выявление социально-психологических особенностей взаимодействия высших учебных заведений и Института махалли и разработка рекомендаций.

Материалы и методы: в процессе исследования использовались такие методы, как беседа, социально-психологический опрос, наблюдение, а степень статистической достоверности полученных результатов подтверждалась факторным анализом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: еще один важный социально-психологический аспект сотрудничества вуза с Институтом махалли находит отражение в ответственном подходе субъектов-партнеров к выполнению задач, которые они берут на себя в процессе совместной работы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: опираясь на вышеизложенное, можно сказать, что в содержании сотрудничества вуза с Институтом махалли отражаются и социально-психологические аспекты. Такие как цель, мотив, жизненная позиция, социальная активность и ответственность характеризуют социально-психологический характер сотрудничества вуза с Институтом махалли. Поэтому субъектам – партнерам-вузу и институту махалли-необходимо сосредоточиться на организации рассматриваемого процесса с предварительным прогнозированием динамики и эффективности деятельности в рамках коллаборации с точки зрения целей, мотивов, жизненной

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

позиции, социальной активности и ответственности в достижении взаимного социального сотрудничества.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: вуз, институт махалли, сотрудничество, социальное сотрудничество, партнерские субъекты, договор социального характера, взаимное доверие, активная деятельность, позитивный характер сотрудничества, взаимопомощь, поддержка друг друга, цель, мотивы, ресурсы, требования сотрудничества, эмоциональные преимущества сотрудничества, социальные роли.

Для цитирования: Х.А. Рахматова Социально-психологические особенности взаимодействия высших учебных заведений и института махалли. // Inter education & global study. 2024. №8. С. 462-474.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF INTERACTION BETWEEN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND THE MAHALLA INSTITUTE

© Xayrixon A. Raxmatova[1]✉
[1]Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in essence, the type and form are strictly theoretical. Any cooperation manifests socio-psychological features. Taking into account the existing socio-psychological characteristics in the organization and implementation of cooperation contributes to achieving the expected results. Therefore, when establishing cooperative activities, it is necessary to form its content, focus on socio-psychological characteristics that guarantee the expected results. Cooperation of higher education institutions (universities)With the Mahalla Institute, it also has a socio-psychological character, as well as all types of joint activities. The article examines the socio-psychological features reflected in the content of the university's cooperation with the Mahalla Institute.

AIM: to identify the socio-psychological features of the interaction between higher educational institutions and the Mahalla Institute and to develop recommendations.

MATERIALS AND METHODS: in the course of the study, such methods as conversation, socio-psychological survey, observation were used, and the degree of statistical reliability of the results obtained was confirmed by factor analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: Another important socio-psychological aspect of the university's cooperation with the Mahalla Institute is reflected in the responsible approach of partner entities to the tasks they undertake in the process of working together.

Conclusion: based on the above, we can say that the content of the university's cooperation with the Mahalla Institute also reflects socio-psychological aspects. Such as purpose, motive, life position, social activity and responsibility characterize the socio-psychological nature of the university's cooperation with the Mahalla Institute. Therefore, partner entities –the university and the mahalla Institute - need to focus on organizing the process under consideration with a preliminary prediction of the dynamics and

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

effectiveness of activities within the framework of collaboration in terms of goals, motives, life position, social activity and responsibility in achieving mutual social cooperation.

Key words: university, mahalla institute, cooperation, social cooperation, partner entities, social contract, mutual trust, active activity, positive nature of cooperation, mutual assistance, support for each other, purpose, motives, resources, requirements of cooperation, emotional benefits of cooperation, social roles.

For citation: Xayrixon A. Raxmatova. (2024) 'Socio-psychological features of interaction between higher educational institutions and the mahalla institute', Inter education & global study, (8), pp. 462-474. (In Uzbek).

Ijtimoiy faoliyat turi va jarayon sifatida OTM va mahalla instituti o`rtasidagi hamkorlik qayd etilgan ikkita ijtimoiy sub'ektning tashkiliy-metodik, tarbiyaviy imkoniyatlarini yagona maqsad – hududiy birliklarda tinchlik, barqarorlik, sog`lom muhitni qaror toptirishga yo`naltirilishini anglatadi. Mazmunan mazkur hamkorlik negizida muayyan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar namoyon bo`ldi. Ushbu xususiyatlar, aytish mumkinki, OTM va mahalla instituti o`rtasidagi hamkorlikning ijtimoiy-psixologik tavsifini yoritishga xizmat qiladi. Tegishli hamkorlikning eng muhim ijtimoiy-psixologik tavsiflari nimalarda aks etadi? Ayni o`rinda shu xususida so`z yuritiladi.

Dastlab OTM va mahalla institutining ijtimoiy maqomini anglab olish maqsadga muvofiqdir.

OTM – oliy ta'lim fanlari bo`yicha o`quv rejalari va dasturlarini amaliyotga tatbiq etuvchi yuridik shaxs bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tashkil qilinadi va o`zining ustavi hamda "Oliy ta'lim to`g`risida"gi (2003 yil 4 mart) Nizom asosida faoliyat ko`rsatadi [38]; turli yo`nalishlar bo`yicha oliy malakali mutaxassislarni tayyorlovchi va ilmiy faoliyatni tashkil etuvchi yuridik shaxs bo`lgan o`quv yurti [32, – 22-b.]; oliy professional ta'limni beruvchi o`quv yurti [5].

Mahalla instituti " (arabcha "محلة; "mahallun"; "mahallatun" – "joy", "hudud") – asrlar davoida ma'lum bir hududda yashovchi, nafaqat qo`shnichilik munosabatlari, balki ichki xulq-atvor qoidalari, ma'naviy-axloqiy me'yorlar, urf-odatlar va an'analar bilan ham bog`langan kichik jamoa [3, – 142-143-b.]; o`ziga xos ijtimoiy-hududiy birlashma [26, – s. 538]; SHarq tamadduni, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzi, tafakkuri va qadriyatlariga xos bo`lgan jamiyat hayotini tashkil etadigan an'anaviy ijtimoiy institut; o`zbek xalqining turmush tarzi, ruhiy-ma'naviy ehtiyoji, mafkurasi, tafakkuri, insonlarning o`zaro qo`shnichilik aloqalari, oilaviy munosabatlarni shakllantiruvchi ma'naviy-ma'rifiy maskan, kengash, maslahat, xashar kabi milliy udumlar, xalq sayillari, bayramlar uyushtiriladigan, qo`ni-qo`shnichilik, quda-andachilik kabi masalalar hal etiladigan serqirra ijtimoiy tuzilma [35]; musulmonlarning odatda machitlar atrofida shakllangan an'anaviy jamoaviy birlashmasi; shaharlarning aholisi tomonidan o`z-o`zini boshqarish yo`lga qo`yilgan dahalarga teng qismi [16]; oiladan keyingi tarixan shakllangan kishilar

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

birligi [23]; o`zbek jamiyati ijtimoiy hayotining yuqori shakli bo`lib, u asrlar davomida mahalliy birlashmalar, mahalliy o`z-o`zini boshqarish organlari faoliyatini tashkil qilishning o`ziga xos shakli bo`lib kelmoqda [21, – p. 515].

Mazmunan OTM va mahalla instituti o`rtasidagi hamkorlik quyidagi ikki holatni ifodalaydi. “bir tomondan, sub’ektlarning birgalikdagi ishida umumiy maqsad (hamkorlik maqsadi)ga erishish yo`lida bir qator vazifalar hal qilinadi. Ikkinchi tomondan, hamkorlik ishtirokchilarning birgalikdagi ishni amalga oshirish vaqtidagi kommunikasiyasini anglatadi” [24].

OTM va mahalla instituti o`rtasidagi hamkorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamkorlik sub’ektlarning maqsadlar birligiga erishishlari, ob’ekt va uning faoliyatiga hissiy-kognitiv ta’sir ko`rsatish malakalariga egaliklari, tegishli faoliyatni yo`lga qo`yishdagi motivlari, mavjud resurslarni yagona nuqtaga jamlay olishlari, ijtimoiy muloqotni samarali tashkil qilishdagi kompetensiyaviy yondashuvlari hamda tegishli kollaborasiya doirasida ijtimoiy rollarning oqilona bajarilishi kabi holatlarda namoyon bo`ladi.

Ushbu hamkorlikning muvaffaqiyati OTM tegishli kafedralarining mahalla muammolaridan yetarlicha xabardor bo`lishi, hamkorlik doirasida tashkil qilinadigan tadbirlarga jalb qilinadigan pedagoglarning yetarli darajada tegigli mahallaning hayoti, ijtimoiy yutuqlari va muammolari to`g`risida yetarlicha tasavvurga ega bo`lishlari, OTM kafedralari hamda mahallaning mavjud resurslarini o`zaro muvofiqlashtira olishlari, mahalla fuqarolari bilan samarali muloqot qila olish uchun yetarlicha kommunikativ kompetensiyalarga egaliklari, ijtimoiy kollaborasiyaga erishish tajribasini o`zlashtira olganliklari, kafedraning vakili sifatida tegishli vakolatdan ko`zlangan ijtimoiy-ma’rifiy, ma’naviy-axloqiy natijalarni qo`lga kiritish yo`lida oqilona foydalanish, hamkor sub’ektlarga do`stona, samimiy munosabatda bo`lish, ularga nisbatan ishonch bildira olish, muammolarni hal qilishga profesional yondashish malakalariga tayanishlari muhim ahamiyatga ega.

Mazmunan hamkor sub’ektlar o`rtasidagi “ijobiy xarakterga ega interaksiya”[2]da “umumiy maqsadga asoslangan ishning bo`lmasligi, kelishuvning bo`lmasligi, o`zaro bir-birini tushunishning bo`lmasligi, o`zaro yordamning bo`lmasligi, hamkorlik masalalari bo`yicha har tomonlama fikrlashib olishga tayyor bo`lmaslik, hamkorlarning bir-birlariga nisbatan ishonchga ega bo`lmasligi” [24] birgalikda amalga oshiriladigan faoliyat jarayoniga salbiy ta’sir ko`rsatadi va oqibatda kutilgan natijalar qo`lga kiritilmaydi.

Har qanday faoliyat yoki jarayon muayyan omillar ta’sirida kechadi. SHu nuqtai nazaridan OTM va mahalla instituti o`rtasidagi hamkorlikni samarali, kutilganidek muayyan natijalarni kafolatlagan holda tashkil qilishga muayyan omillar o`z ta’sirini ko`rsatadi. Muammoni nazariy va amaliy jihatdan o`rganish so`z yuritilayotgan jarayonda quyidagi omillarning ta’siri sezilarli bo`lishini tasdiqladi: hamkorlikning asosiy ishtirokchilari –

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

birgalikdagi faoliyatdan ko`zlangan maqsad birligiga erishish, hamkor sub'ektlarning ijtimoiy faolligi va mas'uliyatni his qilishi, kollaborasiya borasidagi tajribasi, hamkor sub'ektlar ega bo`lgan resurslarning muvofiqlashtirilish darajasi, hamkorlik talablarining mavjudligi va unga rivoya qilinish darajasi.

Faoliyatning muvaffaqiyatli natijasini ta'minlash uchun maqsadni aniq belgilab olish talab qilinadi. Muyyan jarayon yakunida kutilgan natijaning qo`lga kiritilmasligi ko`p holatlarda maqsadning noaniqligi bilan bog`liq. SHu sababli OTMning va mahalla instituti bilan hamkorligiga erishishda maqsadni aniq belgilash talab qilinadi. Zero, maqsad "faoliyatni tashkil qilishda muhim bo`lgan talablarini belgilovchi manbai, shuningdek, jarayon hamda faoliyat yakuni yuzasidan qarorlarni qabul qilishning boshlang`ich negizi" [11]; sub'ekt qo`lga kiritishga harakat qilayotgan "istiqbolning kutilayotgan holati" [8, – s. 91] bo`lib xizmat qiladi. Subekt faoliyatida maqsad uning avvaldan "kelgusida erishiladigan natijani ko`ra olish" [1] imkoniyatiga egaligini anglatadi.

Sub'ektning maqsadga nisbatan munosabati uning maqsadni qo`ya olish kompetensiyasiga egaligi bilan belgilanadi. Binobarin, maqsadni qo`yish faoliyatda muvaffaqiyatga erishish sari qo`yilgan dastlabki qadamdir. "Maqsadni qo`yish – maqsadni belgilash va unga erishish strategiyalarini ishlab chiqish jarayoni" [37] bo`lib, yo`nalishni to`g`ri olish, imkoniyatlar va resurslarni chamlash, ularni to`g`ri taqsimlashga yordam beradi.

Maqsadning aniqligi faoliyat yo`nalishlarini belgilab olish, mavjud resurslarni to`g`ri taqsimlash, faoliyatni bosqichma-bosqich muayyan izchillikda amalga oshirish, ishtirokchi sub'ektlar o`rtasida rollar, vazifalarni to`g`ri aqsimlash, kutilayotgan natijalar to`g`risidagi tasavvurni oydinlashtirish, favqulotda yuzaga keladigan muammo yoki to`siqlarni bartaraf qilish, qarorning to`g`ri bo`lishiga erishish, jarayon mexanizmining samarali ishlash imkoniyatini yaratadi. SHundagina qisqa muddatda kam kuch sarflagan holda ayrim yuzaga kelish ehtimoli bo`lgan to`siqlar, muammolarning oldi olinadi yoki mavjud muammolar bartaraf qilinadi.

Maqsadning to`g`ri belgilanishi bevosita natijaning samarasiga o`z ta'sirini ko`rsatadi. Qolaversa, ishtirokchi sub'ektlarning "mas'uliyatini oshiradi va ularning faoliyati natijasini baholash mezoni ham bo`lib xizmat qiladi" [11]. Bordi-yu, maqsad noaniq bo`lsa, u holda "ishni to`g`ri tashkil qilishni talab etish amaliy jihatdan befoyda, chunki, bu holatda maqsadga erishishga imkon beruvchi vositalarni oqilona tanlashning imkoni bo`lmaydi; maqsadga erishganlikni baholovchi mezonlarga ega bo`linmaydi; tuzilmaviy bo`linmalar faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan joriy ishning samaradorligini o`lchash imkonsiz; amaliy jihatdan boshqaruv apparati ishini aniq tashkillashtirish va uning samaradorligini baholashga erishish mumkin emas; boshqaruv apparati xodimlari o`rtasida vazifalarni samarali, to`g`ri taqsimlash har bir xodimning faoliyatini xolis baholanmaydi [18, – s. 79].

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

SHu nuqtai nazardan ilmiy menejment maktabining asoschisi bo`lgan F.U.Teylor maqsadni qo`ya olish va uni to`laqonli realizasiyasini ta'minlashni "nimani bajarish va qanday bajarishning eng samarali va iqtisodiy jihatdan arzon vositalaridan xabardor bo`lish" [31, – s. 10] san'at deya e'tirof etgan edi.

Maqsad OTM va mahalla instituti o`rtasida hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirishning muhim omil va asosiy elementlaridan biri bo`lib, uning to`g`ri qo`yilishi, hamkorlar tomonidan uning birligiga erishish kutilgan natijani kafolatlaydi.

OTM va mahalla instituti o`rtasida hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirishda umumiy va juz'iy maqsadlar ko`zlanadi.

Umumiy maqsadni belgilashda O`zbekiston Respublikasining mahalla instituti faoliyatini kuchaytirish, oila institutini mustahkamlash, aholining ijtimoiy faolligini oshirish, davlat organlarining mahalla instituti faoliyatini tashkil qilish jarayoniga jalb qilishga oid qonun va qonun osti hujjatlarining g`oyalariga tayanib ish ko`riladi.

OTM va mahalla instituti o`rtasida hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirishda hamkor sub'ektlarning ijtimoiy-g`oyaviy, psixologik, tarbiyaviy hamda rekreativ (mahalla osoyishtaligini ta'minlash, bolalar va o`smirlar uchun mahalla hududida sport-sog`lomlashtirish, aholi uchun ma'rifiy, ko`ngilochar tadbirlarni uyushtirish borasidagi) imkoniyatlarini o`zaro muvofiqlashtirish, kadrlar, moddiy-texnik resurslarni ijtimoiy masalalarni ijobiy hal qilishga yo`naltirishdan iborat umumiy maqsad ko`zlanadi.

Tabiiyki, hamkorlik doirasida asosiy sub'ekt bo`lgan ishtirokchilar tomonidan juz'iy maqsadlar ham ilgari suriladi. Ilmiy izlanishni olib borish chog`ida hamkor sub'ektlar – OTM va mahalla institutining ijtimoiy hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirishdagi juz'iy maqsadlari ham o`rganildi.

O`rganish natijasiga tayangan holda aytish mumkinki, OTM va mahalla instituti o`zaro ijtimoiy hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirishda quyidagi juz'iy maqsadlarni ilgari suradi:

OTMning maqsadi – ijtimoiy-g`oyaviy, psixologik, tarbiyaviy hamda rekreativ (mahalla osoyishtaligini ta'minlash, bolalar va o`smirlar uchun mahalla hududida sport-sog`lomlashtirish, aholi uchun ma'rifiy, ko`ngilochar tadbirlarni uyushtirish borasidagi) imkoniyatlarini, shuningdek, kadrlar va moddiy-texnik resurslarini mahalla instituti faoliyatini qo`llab-quvvatlashga yo`naltirish, mahalla hayotiga oid muammolarni ijobiy hal qilishda professional pedagogik, psixologik va ijtimoiy xarakterdagi amaliy yordamni ko`rsatish.

Mahalla institutining maqsadi – mahallada osoyishtalikni ta'minlash, milliy qadriyatlarni saqlash, aholi, xususan, yoshlarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik hamda tibbiy-reproduktiv madaniyatini oshirish, ularda oilaviy hayotni tashkil qilish va farzandlar tarbiyasiga nisbatan mas'uliyatni kuchaytirish, vatanparvarlik tuyg`usini tarbiyalash borasida malakali professional yordam olish.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

OTM va mahalla instituti o`rtasida hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirishda hamkor sub'ektlar ega bo`lgan motivlar ham ahamiyatli bo`lib, ular hamkor sub'ektlar ega bo`lgan maqsad negizida shakllanadi.

Mazmuniga ko`ra "motiv" (lot. "moveo" – harakatga keltirmoq) [20] tushunchasi dastlab nemis faylasufi Artur SHopengauer tomonidan "Etarli sababning to`rtta tamoyili" ("The Four Principles of Sufficient Reason") nomli ilmiy ishi [12, – s. 65]da qo`llanilgan. E.A.Utkin motivlar birligini ifodalovchi motivasiya sub'ektning "faollik darajasi hamda muayyan vaziyatlardagi harakatlari yo`nalishini belgilovchi holat" [33, – s. 145] sanaladi.

Tadqiqotni olib borish jarayonida OTMning pedagoglari hamda mahalla instituti faollari bilan tashkil qilingan suhbatlarda ma'lum bo`ladiki, ushbu ikki sub'ekt o`rtasida hamkorlikka erishishda ijtimoiy sub'ektning jamiyatning tarkibiy elementlardan biri ekani, sub'ektlar faoliyatining jamiyat hayotiga oid voqeliklarda o`ziga xos ahamiyat kasb etishi, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, xalq farovonligiga erishishdan iborat maqsadlar birligi, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va huquqiy masalalarni ijobiy hal qilishga ko`maklashish imkoniyatiga egalik, hamkorlik doirasida muloqot doirasining kengayishi, ijtimoiy faol bo`lish orqali shaxsda o`z-o`zini hurmat qilish hissining yuzaga kelishi kabi motivlar o`ziga xos ahamiyat kasb etgan.

Hamkor sub'ektlarning hayotiy pozisiyasi ham birgalikda tashkil qilinadigan faoliyatning samarali kechishi, kutilgan natijalarni qo`lga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hayotiy pozisiyaga egalik, ayniqsa, global axborotlashuv, g`oyalar to`qnashuvi hamda shaxs ongini egallashga intilishga bo`lgan kurashning keskinlashuvi, milliy qadriyatlarga, milliy axloq tamoyillariga nisbatan xurujning kuchayishi sharoitida davrning muhim talablaridan biri sanaladi. SHu sababli ijtimoiy hamkorlik doirasida OTMning pedagoglari va mahalla instituti faollarining faol hayotiy pozisiyasi o`zaro bir-biriga mos kelishi tadbirlarni tashkil qilish va o`tkazishda yutuqlarga erishishni izchil kafolatlaydi.

OTMning mahalla instituti bilan hamkorligining yana bir muhim ijtimoiy-psixologik jihati hamkor sub'ektlar tomonidan namoyon qilinadigan faollik (yoki ijtimoiy faollik)dir. Binobarin, sub'ektning ijtimoiy faolligi uning "ijtimoiy borliqni anglash va qayta shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida jamiyat bilan ajralmas holda bog`langanlik" [37, – s. 94-95]ni anglatib, "qabul qilingan yoki mustaqil ravishda qo`yilgan maqsadlarga erishish uchun yo`naltirilgan motivasiya hamda harakatlarning o`ziga xos qorishmasini namoyon qiladi" [27, – s. 165].

Har qanday davlatning vazifalaridan biri ijtimoiy faollik bo`yicha umummilliy siyosatni amalga oshirish doirasida "aholining barcha ijtimoiy guruhlarini jalb qilgan holda zarur resurslar bilan ta'minlash orqali ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda ishtirok etish imkoniyatini yaratish" [37, – s. 95]dan iborat.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

OTMning ijtimoiy faollik ko`rsatish asosida jamiyat, uning tarkibiy bo`g`ini bo`lgan mahallaga doir muammolarni ijobiy hal qilish orqali mavjud tuzum rivojini ta'minlash, jahonning innovasion o`sish tendensiyalariga moslashish yo`lidagi harakati uning bu boradagi "ehtiyojini qondirish bilan bog`liq faoliyatiga ta'sir ko`rsatuvchi" [13], "tanlangan harakat asosida yotadigan sababning mohiyatini tavsiflovchi" [14], "umumiy jarayon ishtirokchilarini harakatga undovchi" [19] entuziazm, motiv sanaladi.

Birgalikda umumjamiyat yoki umumjamoaviy muammolarni hal qilishga intilish o`zaro hamkor sub'ektlar – OTM hamda mahalla institutining milliy rivojlanish va taraqqiyotga nisbatan befarq emasligini, aksincha, asriy qadriyatlarni saqlab qolishga bo`lgan munosabatini, bu yo`ldagi faolligini ifodalaydi. SHu sababli hamkorlarning motivasion muhitida "motiv, ehtiyoj, qiziqish, intilish, maqsad, ahd, manfaat, intilish, qadriyat" [29, – s. 37], "hissiyot, amaliy dastur, o`lchov" [25, – s. 7], "ishtiyoq, ideal, tadlid, ijtimoiy me'yor va rollar" [4] kabilar muhim o`rin tutadi.

Ilmiy izlanishni olib borish jarayonida gohida ijtimoiy hamkorlikka jalb qilingan pedagoglar orasida OTMning mahalla instituti bilan hamkorligi majburiy xarakterga ega, degan fikr ham ilgari surildi. To`g`ri, bu fikrni yoqlovchilar soni ko`pchilikni tashkil qilmaydi. Biroq, kam sonli bo`lsa ham bunday fikrga ega pedagoglarni umum manfaatini ko`zlovchi faoliyatga jalb qilinmagani ma'qul. Zero, ularning faoliyatida salbiy motivlar ustuvor bo`lgani sababli belgilangan vazifalarni ishtiyoq bilan bajarish, jarayonning o`zidan, natijalaridan zavqlanish hissi yuzaga kelmaydi. Oqibatda tashqaridan qaralganda barchasi kutilganidek o`tgan bo`lsa ham tadbirlarni tashkil qilishda past samaradorlikka erishiladi. Bu esa OTM ham mahalla institutlari ham dastlabki bosqichda o`zlarining hamkorlikka oid motivlar borasidagi yondashuvlarini tahlil qilishlari, bordi-yu, salbiy motivlar mavjud bo`lsa, ularni bartaraf etishlari zarur.

Birgalikda faoliyat ko`rsatishdagi faollik hamkor sub'ektlar – OTM yoki mahalla institutining jamoaviy ishlarni tashkil qilish borasidagi mavjud tajribalari negizida yuzaga keladi. Qolaversa, hamkor sub'ektlarning ijtimoiy faolligi o`z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarishga bo`lgan munosabatlari, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalana olish kompetensiyasiga egaliklari, bir-birlarini yetarli darajada qo`llab-quvvatlay olishlari, yuzaga kelgan psixologik to`siq yoki muammolarni tezkor hal qilish metodlaridan qanchalik xabardor va ularni qo`llay olish malakalariga ham bog`liq. SHu bilan birga OTM hamda mahalla instituti faoliyatida ustuvor o`rin tutadigan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ular tomonidan ijtimoiy faollik ko`rsatilishiga o`z ta'sirini o`tkazadi. Bu jarayonnda qadriyatlar nafaqat "madaniy, shu bilan birga ijtimoiy munosabatlar tizimini ham qamrab oladi" [15].

Manbalarda "mas'uliyat" hamda "ijtimoiy mas'uliyat" tushunchasi turlicha yoritilgan. Dastlab "mas'uliyat" tushunchasining talqini xususida to`xtalib o`tiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

“O`zbek tilining izohli lug`ati” (2-jild)da “mas’uliyat” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo`lgan javobgarlik” [39, – 555-b.]. Darhaqiqat, mas’uliyat – shaxsning u tomonidan tashkil qilinayotgan muayyan faoliyati, xatti-harakati yoki tashkil qilingan jarayon uchun javobgarligi sanaladi. Boshqa bir luhat xarakteridagi manbada bo`lsa, mas’uliyat bevosita faoliyati yoki xatti-harakatini tashkil qilish chog`ida, sodir bo`layotgan jarayon vaqtida shaxsning axloqiy tamoyillarga amal qilishi ekani ko`rsatilib, tegishli atama ma’naviy-axloqiy kategoriya sifatida talqin qilinadi. CHunonchi, “ijtimoiy ahamiyatli burch va vazifalarning bajarilishiga, oqibatiga, xatti-harakati negizida yotgan axloqiy tamoyillarga amal qilinishiga muayyan kimsa yoki sosial guruhning javobgarligini bildiradi” [33, – 243-b.].

Mualliflar E.YOziev, M.K. Xolmuratova hamda “mas’uliyat tushunchasi ma’naviy-axloqiy kategoriyadir” degan fikrga qo`yiladi: “boshqalar oldidagi burchni anglash va uni xulq omiliga aylantirish, shaxsning o`z faoliyatini boshqalarga ko`proq yaxshilik qilishga ongli va ixtiyoriy ravishda yo`naltirishi” [10, – 175-b.]. K.U. Najmidinova esa mas’uliyatning qobiliyat ekani, shu sababli ham barcha shaxs birdek mas’uliyatli bo`la olmaydi, degan fikrni ilgari suradi: “shaxsning har bir amali, faoliyati mahsulini to`liq tasavvur qilgan holda uning o`zi va oilasi uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyati” [22, – 50-b.].

“Mas’uliyat” tushunchasi, yana shuningdek, quyidagicha ta’riflangan: shaxsning o`z xatti-harakati va faoliyati natijasi uchun javobgarlikni his etishidir [6, – 231-b.]; shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat, kasbiy yoki ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda, shuningdek, ma’lum guruh yoki shu guruh a’zolari oldidagi burchni to`la anglagan holda javobgarlikni his etish [30, – 21-b.].

Ijtimoiy mas’uliyat individual xarakterdagi mas’uliyatga nisbatan keng ma’noga ega bo`lib, u o`z mohiyatiga ko`ra shaxsning jamiyat oldida burchli ekanini, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishdagi javobgarligini ifodalaydi. Masalan, shaxs tomonidan o`z zimmasiga ijtimoiy majburiyatlarni olganligi va ularni sifatli bajarishga bo`lgan javobgarligi [17, – s. 106]; shaxsning anglangan xohishi hamda jamiyat farovonligi to`g`risida qayg`urgan holda uning hayotida ishtirok ishtirok etish qobiliyati [9]. Mazmuniga ko`ra, “ijtimoiy mas’uliyati negizida shaxs xulq-atvorining ijtimoiy tabiati yotadi va u shaxsning jamiyat, davlat, jamoa va boshqa ijtimoiy guruhlar – atrofdagi barcha sub’ektlar bilan o`zaro munosabatlarining xarakterini yoritadi” [28].

O.V.Doneva tomonidan qayd qilinishiga ko`ra, ijtimoiy mas’uliyat ijtimoiy burchni bajarish chog`ida nafaqat tegishli qarorni qabul qilgan shaxs yoki tashkilotmanfaatlarini, balki ijtimoiy guruhlarning keng auditoriyasi hamda umuman olganda jamiyatning manfaatlari, qadriyatlari va maqsadlarini ham inobatga olishi zarur [7, – s. 580-581]. Haqiqatdan ham ijtimoiylik, shu jumladan, shaxs yoki muayyan guruhning ijtimoiy mas’uliyati ular ega bo`lgan qarashlarning jamiyat tomonidan e’tirof qilingan umumiy manfaatlarga muvofiqlikni ifodalaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Абдукаримова К. Целеполагание: как правильно определить направление своей жизни // https://trends.rbc.ru/trends/ education/61b6fa889a 794724aa1ae3b2?from=copy.
2. Баранов В.М., Трофимов В.В. Социальное сотрудничество и социальный конфликт как объективная основа содержания и структуры права // https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnoe-sotrudnichestvo-i-sotsialnyy-konflikt-kak-obektivnaya-osnova-soderzhaniya-i-struktury-prava.
3. Ваҳобов А. Давлат ҳокимиятининг маҳаллий бошқарув ва ўзини ўзи бошқариш органлари // Ўзбекистон Республикаси мустақил давлат. – Т.: “Адолат”, 1995. – 142-143-б.
4. Виды мотивов в психологии: понятия, характеристика // https://www.napishem.ru/spravochnik/psihologiya/prochie-stati-po-psihologii/ vidy-motivov-v-psihologii.html.
5. Высшие учебные заведения Узбекистана // https://www.uzinform. com/ru/vuz_uz.html.
6. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. – Т.: “Voris-nashriyot” нашриёти, 2006. – 231-б.
7. Донева О.В. Критерии сформированности социальной ответственности студентов ВУЗа // Ж. Фундаментальные исследования. – М.: 2014. - № 3. Ч. 3. – С. 580-581.
8. Егорова Ю.А. Роль целеполагания в системе управления // Ж. Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – М.: 2010. - № 9. – С. 91.
9. Ельцина Е.Н. Что такое социальная ответственность, и как её развить // https://school.synergy. ru/materials/chto-takoe-socialnaya-otvetstvennost-i-kak-ee-razvit.
10. Ёзиев Э., Холмуратова М.К. Раҳбар шахсида ижобий характер хислатларини шакллантириш // Қарши ДУ хабарлари ж. – Қарши: 2020. - № 3 (45). – 175-б.
11. Значение целей, принципы и правила их постановки // https://www.homework.ru/spravochnik/ znachenie-celej-principi-i-pravila-ih-postanovki.
12. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы — СПб.: Питер, 2011. – С. 65.
13. Ключевые мотивы человека. Мотивация // https://dedovkgu.narod.ru/ porm/porm11.htm.
14. Коврова А. Понятие мотива и мотивации // https://zaochnik.com /spravochnik/psihologija/ psihologija-i-pedagogika/motivy-i-motivatsija.
15. Коморникова О.М. Социальная активность и ценностные ориентации // https://elar.urfu.ru/ bitstream/10995/32456/1/klo_2015_30.pdf.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

16. Махалля // https:// ru.wikipedia.org/wiki/Махалля.
17. Мацефук Е.А., Разбегаев П.В. Ответственность как ценность: теоретический аспект // Ж. Вестник Волгоградской академии МВД России. – Волгоград: 2014. - № 4. – С. 106.
18. Менеджмент / Учебник для вузов. Под ред. М.М.Максимцова, М.А.Комарова. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, Единство, 2002. – С. 79.
19. Мотивация, ее природа // https://www.e-xecutive.ru/wiki/index.php/Мотивация,_её_ природа.
20. Мотивация персонала // https://games4business.ru/articles/motivaciya-personala-2.
21. Muzaffarov U.I., Kandov B.M. The Role of Education and the Mahalla Institute in Forming the Personality of the Person // J. Central asian journal of theoretical and applied sciences. – Las Palmas de Gran Canaria (Spain): Vol. 3. Issue 6. 2022. – p. 515.
22. Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. – Т.: “Адолат”, 2016. – 50-б.
23. Norbekov A.Sh. Mahalla is a hotbed of education for the younger generation // https://cyberleninka.ru/article/n/mahalla-is-a-hotbed-of-education-for-the-younger-generation.
24. Прагматика сотрудничества. Как достигать целей вместе? // https://psy.su/feed/2648
25. Пряжников Н.С. Мотивация трудовой деятельности / Учеб.пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Академия, 2008. – С. 7.
26. Рахматова Х.А. Институт махалли как учреждение социального воспитания молодёжи // Ж. Научный аспект. – 2021. Т. 5. - № 2. – С. 538.
27. Ситаров В.А., Маралов В.Г. Социальная активность личности (уровни, критерии, типы и пути ее развития) // Ж. Знание. Понимание. Умение. – М.: 2015. - № 4. – С. 165.
28. Суровицкая Ю.Ю., Мадимухаметов М.Н. Понятие о мотивации в психологии // Ж. Наука и реальность/Science & Reality. 2023. - № 1 (13). – С. 37.
29. Узоқов И.А. Бошланғич синф ўқувчиларида масъулият ҳиссини шакллантиришнинг педагогик асослари: пед.фанл.номз. ... дис. – Т.: 2009. – 21-б.
30. Управление организацией / Учебник. Под ред. А.Г. Поршнева, З.П. Румянцевой, Н.А. Саломатина. – М.: ИНФРА-М, 2005. – С. 10.
31. Усмонбоева М.Ҳ. Олий мактаб педагогикаси / Ўқув қўлл. – Т.: “Молия-иқтисод”, 2013. – 22-б.
32. Уткин Э.А. Мотивационный менеджмент / Учебник. – М.: ЭКМОС, 2007. – С. 145.
33. Фалсафа. Қомусий луғат /Масъул муҳаррир Қ.Назаров. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлар миллий жамияти нашриёти. 2004. – 243-б.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

34. Холиқова М. Маҳалла институтининг ижтимоий потенциалини ривожлантиришнинг бугунги муаммолари // https:// api.moiti.uz/media/book/Ижтимоий_маҳалла._Статья._МК.pdf.
35. Челышева В.С., Воротников А. Социальная активность как неотъемлемая часть поддержания общественного благополучия // Журнал социологических исследований. –М.: 2021. Т. 6. - № 2. – С. 94-95.
36. Целеполагание: что это такое, виды, примеры // https://gb.ru/blog/ czelepolaganie.
37. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг “Олий таълим тўғрисида”ги Низомни тасдиқлаш тўғрисидаги 1222-сон (2003 йил 4 март) Буйруғи // https://lex.uz/docs/838630.
38. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Е – М / 5 жилдли. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳр.остида. Таҳрир ҳайъати: Э. Бегматов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 555-б.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Raxmatova Xayrixon Ashiralievna**, Namangan davlat inversiteti professori, [**Рахматова Хайрихон Аширалиевна,** Наманган давлат инверситети профессори, [**Xayrixon A. Raxmatova**, Professor at Namangan State University]; manzil: O‘zbekiston, Namangan sh., Uychi ko'chasi, 316-uy [адрес: Узбекистан, ул. Уйчи, 316, г. Наманган], [address: Uzbekistan, 316, Uychi st., Namangan city]

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Muassis: Buxoro davlat pedagogika instituti

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 08 avgust №-111889-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2024 yil 31 yanvardagi 350-son qaroriga asosan pedagogika, san’atshunoslik, psixologiya, fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati” ga kiritilgan https://oak.uz/pages/4802

Jurnal 2023 yilda tashkil etilgan bo‘lib bir yilda 8 marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi. Pedagogika, psixolgiya, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy jamoatchilikni ilm-fan natijalari bilan tanishtirish; ilm-fan rivojlantirishning dolzarb masalalariga tadqiqotlarining ustuvor yo‘nalishlari doirasida olib borilgan ilmiy ishlarning asosiy natijalari to‘g‘risida ma’lumot berish; yangi istiqbolli loyihalar va texnologiyalarni joriy etish; ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq nazariy va amaliy ishlar; fan va ta’limning innovatsion rivojlanishi; fundamental va amaliy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun qulay axborot muhitini yaratishning asosiy ilmiy natijalarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, zamonaviy ta’limning muammo va paradigmalarini o‘rganish, rivojlantirish va amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha nazariy tavsiyalar berishdan iborat. Nashr qilingan materiallardan O‘zbekiston Respublikasi hamda xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchi izlanuvchilar foydalanishi ko‘zda tutilgan.

Jurnalning kalit so‘zlari:
Oliy pedagogik ta’lim nazariyasi va amaliyoti; umumiy va maxsus pedagogika, psixologiya va san’atshunoslik; pedagogika va innovatsiya, integratsiya; O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimi; ta’lim jarayoni; ko‘p madaniyatli va mintaqaviy ta’lim; III Renessans, XXI asrdagi ta’lim; ta’lim va tarbiya sohasidagi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar; ta’lim sifatini monitoring qilish; ta’lim dasturlari; oliy, umumiy o‘rta va professional ta’limining davlat ta’lim standartlari; o‘qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta’lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami №-111889
Mas’ul kotib: Mamurova D.I.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Учредитель: Бухарский государственный педагогический институт

Журнал зарегистрирован Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством №111889 от 08 августа 2023 года.

Журнал включен в список национальных изданий, рекомендованных для публикации основных научных результатов диссертаций кандидатов на соискание ученой степени доктора философии (PhD), доктора наук (DSc). Согласно решению Президиума ВАК РУз от 31 января 2024 г. №350. По направлении педагогики, искусствоведение и психологии https://oak.uz/pages/4802

Журнал был основан в 2023 году и выпускается в год 8 раз на узбекском, русском и английском языках. Он предназначен для ознакомления научного сообщества с результатами научных исследований соискателей ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в областях педагогики, психологии и искусствоведения. Журнал информирует о ключевых научных достижениях, проводимых в рамках приоритетных направлений исследований, касающихся актуальных вопросов развития науки. Также в нем рассматриваются новые перспективные проекты, технологии и идеи, связанные с образованием, воспитанием, инновациями, а также созданием благоприятной информационной среды для поддержки фундаментальных и прикладных исследований. Журнал также предлагает теоретические рекомендации по изучению, разработке и внедрению современных подходов к образованию. Материалы, опубликованные в журнале, предназначены для ведущих ученых и исследователей из Республики Узбекистан и других стран, и направлены на стимулирование дальнейших исследований, развитие науки и образования.

Ключевые слова журнала:

Теория и практика высшего педагогического образования; общая и специальная педагогика, психология и искусствоведение; педагогика и инновации, интеграция; система образования Узбекистана и зарубежных стран; образовательный процесс; мультикультурное и региональное образование; образование эпохи Возрождения, XXI веке; национальные и общечеловеческие ценности и ценности в сфере образования и воспитания; мониторинг качества образования; образовательные программы; государственные образовательные стандарты высшего, среднего и профессионального образования; образовательные технологии в системе подготовки педагогических кадров.

Идентификационный номер №-111889
Ответственный редактор: Мамурова Д.И.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №8

Founder: Bukhara State Pedagogical Institute

The journal is registered by the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 111889 dated August 8, 2023.

The journal is included in the list of national publications recommended for publishing the main scientific results of dissertations of candidates for the degree of Doctor of Philosophy (PhD), Doctor of Science (DSc). According to the decision of the Presidium of the Supreme (Higher) Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan dated January 31, 2024 No. 350. In the direction of pedagogy, art science and psychology https://oak.uz/pages/4802

The journal was founded in 2023 and is published 8 times a yeain Uzbek, Russian and English. It is intended to familiarize the scientific community with the results of scientific research of applicants for the degrees of Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Sciences (DSc) in the fields of pedagogy, psychology and art history. The journal informs about key scientific achievements carried out within the framework of priority research areas related to topical issues of science development. It also examines new promising projects, technologies and ideas related to education, upbringing, innovation, as well as the creation of a favorable information environment to support fundamental and applied research. The journal also offers theoretical recommendations on the study, development and implementation of modern approaches to education. The materials published in the journal are intended for leading scientists and researchers from the Republic of Uzbekistan and other countries, and are aimed at stimulating further research, the development of science and education.

Key words of the journal:

Theory and practice of higher pedagogical education; general and special pedagogy, psychology and art criticism; pedagogy and innovation, integration; education system of Uzbekistan and foreign countries; educational process; multicultural and regional education; Renaissance education, XXI century; national and universal values and values in the field of education and upbringing; monitoring the quality of education; educational programs; state educational standards of higher, secondary and vocational education; educational technologies in the system of teacher training.

Identification numberNo-111889
Managing editor: Mamurova D.I.



2992-9024

BY NC ND